

O‘ZBEKISTON RESPULIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI



Sh.Shayakubov

O‘ZBEKISTON TARIXI

(MA‘RUZALAR MATNI)

TOSHKENT – 2018

1-mavzu. “O‘zbekiston tarixi” fanining predmeti, uni o‘rganishning nazariy- metodologik asoslari, manbalari va ahamiyati

REJA:

1. O‘zbekiston tarixi predmeti.
2. O‘zbekiston tarixini o‘rganishning metodologik asoslari va manbalari.
3. Barkamol avlodni shakllantirishda Vatan tarixining ahamiyati.

Tayanch so‘z va iboralar: *Tarix fani predmeti. Metodologik tamo- yillar. Dialektik metod. Ilmiylik. Xolislik. Tarixiylik. Ijtimoiy yonda- shuv. Vorisiylik. Milliy Istiqlol g‘oyasi. Vatan tarixini davrlashtirish. Moddiy manbalar. Yozma manbalar. Tarixiy xotira. Vatan tarixini o‘rganishning ahamiyati.*

O‘zbekiston tarixi predmeti

Har qaysi mamlakat, har bir xalq qzining uzoq va betakror tarixiga ega bqlganidek, O‘zbekistonning, qzbek xalqining tarixi ham boy va sermazmundir. Qadim zamonlardayoq Turon, Turkiston deb e’tirof etilgan ona vatanimiz turli tarixiy yozma va arxeologik manbalarga kqra Xitoy, Hindiston, Eron, Misr, Rim kabi qadimiy va buyuk mamlakatlar qatori dunyoda mashhurdir. Vatanimiz jahon tarixining turli xalqlar, tsivilizatsiyalar tutashgan eng qaynoq, shiddatli chorrahalaridan biri bqlib, bu zaminda mahalliy aholining fors, hind, xitoy, yunon, arab, rus xalqlari bilan ma’lum darajada aralashchuvi sodir bqlgan, ularning madaniyati, fani, san’ati va umuman turmush tarzi bir-biridan bahra olgan, mushtaraklashgan.

Tariximiz ildizlari necha-necha ming yillarga borib taqaladi. O‘zbekiston xalqining boy va qadimiy davlatchilik tajribasi bor. Hozirgi O‘zbekiston hududida dastlabki mustaqil davlat tuzilmalari miloddan avvalgi birinchi ming yillik boshlaridayoq paydo bqlib, qariyb 3000 yil davomida takomillashib borgani va dunyo davlatchiligi rivojida eng yuksak darajaga kqtarilgani jahonga ma’lum.

Vatanimiz tarixi qzbek xalqining jahon tarixi va madaniyati xazinasiga ulkan hissa qqshganligidan guvohlik beradi. Buyuk bobolarimiz - Al-Xorazmiy, Farobiy, Al-Farg‘oniy, Ibn Sino, Beruniy, Al-Buxoriy, At-Termiziy, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, AmirTemur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa yuzlab allomalarimiz bilan nafaqat qzbeklar, butun turk dunyosi, qolaversa, butun er yuzi xalqlari faxrlanmoqdalar.

Ajdodlarimiz barpo etgan Samarqand, Buxoro, Xiva kabi kqhna shaharlar bugungi kunda jahon miqyosidagi ziyoratgohiga aylangan. O‘zbekistonga tashrif buyurayotgan xorijiy davlat va jamoat arboblari, ziyoratchilar bu shaharlarni, ulardagi ajoyib tarixiy, milliy me’morchilik majmualari va yodgorliklarni kqrib, ularda mujassamlashgan xalq ustalarining iste’dodi va yuksak badiiy mahoratiga qoyil

qolib, ularga tahsinlar qqimoqdalar, tazim qilmoqdalar. Muqaddas erimiz orqali qtgan Buyuk ipak yqli Osiyo va Evropadagi xalqlar va mamlakatlarni bir-biriga bog‘lab turgan, xalqaro hamkorlikka xizmat qilgan.

Ana shunday qadimiy va buyuk mamlakat tarixini, tabarruk zaminimizda necha-necha ming yillar davomida yashab, kurashib, ijod qilib kelayotgan xalqimiz qtmishini «O‘zbekiston tarixi» fani qrgatadi.

Tarix - arabcha sqz bqlib, «tadqiq etish», «tekshirish», «voqealar haqida aniq hikoya qilish» ma’nolarini anglatadi. Tarix insonlar haqidagi, ularning uzoq qtmishdan bizgacha etib kelgan hayotiy tajribasi haqidagi fandır.

«O‘zbekiston tarixi» fanining predmeti xalqimizning eng qadimgi zamonlardan to hozirgi kunlargacha bosib qtgan uzoq va murakkab tarixiy yqlini, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy hayotini holisona qrganishdan, tushuntirishdan iboratdir.

O‘zbekiston tarixi ajdodlarimizning yashash uchun kurash, uzluksiz mehnat tufayli takomillashib borish va hozirgi odamlar darajasiga kqtarilish jarayonini, dini, yozuvi, ilm-fani, adabiyot va san’atini yoritadi. Vatanimiz tarixi qzbeklarning xalq, millat bqlib shakllanish jarayonini, ajdodlarimiz qoldirgan boy ma’naviy merosni, davlatlarning tashkil topishi va ularning ichki va tashqi siyosatini qrgatadi. Vatanimiz tarixi xalqimizning ma’lum bir davrlarda boshqa davlatlarga qaram bqlib qolganligini, qaramlik azobining naqadar ayanchli, mashaqqatli bqlganligini, ajdodlarimizning ajnabiy bosqinchilarga qarshi mustaqillik va ozodlik uchun kurashini va bunda mardlik, jasorat kqrsatgan xalq qahramonlari va davlat arboblari faoyatlarini keng rejada qrgatadi.

«O‘zbekiston tarixi» fani xalqimizning mustaqil taraqqiyot yqliga kirishi, mustaqillik yillarida milliy, huquqiy davlatchilik qurilishi, demokratik, fuqarolik jamiyat qurish, erkin bozor iqtisodiyotini yaratish jabhalaridagi faoliyatini qrgatadi.

«O‘zbekiston tarixi» fani xalqimiz tarixini haqqoniy tasvirlovchi, aks ettiruvchi kqzgu, ijtimoiy, siyosiy, tarbiyaviy, ma’naviy saboqlar majmuasidir.

Tarixni o‘rganishning metodologik asoslari va manbalari

Tarixiy voqealarni qrganishda tqg‘ri ilmiy-nazariy, metodologik asoslarga tayanishning ahamiyati juda katta. Sovetlar hukmronligi davrida tarixiy tadqiqotlar, uni qqitish va qrganish ishlari markscha-lenincha metodologiyaga bqysundirildi. Har qanday voqeani yoritishga sinfiylik, partiyaviylik naqtai nazarlaridan yondoshildi. Mamlakat, butun bir xalq tarixi ikkiga-ekspluatator va ekspluatatsiya qilinuvchilar, quldorlar va qullar, feodallar va qaram dehqonlar, burjuaziya va yollanma ishchilar, boylar va kambag‘allar, mulkdorlar va yqqsillar tarixiga bqlindi. Boylar va mulkdorlar, ular orasidan chiqqan beklar, amirlar, xonlar, davlat arboblari qoralandi,

nomlari badnom qilindi. Tarixiy voqea va hodisalar kambag'allarni va yqqsillarni himoya qilgan tarzda, ularning manfaatiga bqsundirilgan holda yoritildi.

Din, diniy qadriyatlar qoralandi, insonlarning e'tiqodlari oyoq osti qilindi, ruhoniylar quvg'in qilindi. Buyuk olimlar, allomalar, ma'rifatparvar shoiru-ulamolar, yozuvchilar ikkiga - materialistlar va idealistlarga bqlindi. Dinga e'tiqod qilganlar idealistlar deb ataldi, ularning ijodiy faoliyatini qrganish chegaralandi, asarlari xalqdan yashirildi, yqqotib yuborildi. Oqibatda kqpgina tarixiy voqealar soxtalashtirildi, ma'naviy merosimiz, milliy qadriyatlarimiz kamsitildi. g'sh avlodga ularni xurofat, eskilik sarqitlari deb qrgatildi. Tarix faqat jangu jadal urushlardan iboratdek qilib kqrsatildi.

Xalqimiz tarixining bu qadar soxtalashtirilishiga faqat marksistik metodologiyaning yaroqsizligi aybdor deyish kifoya qilmaydi, albatta. Bu borada mamlakatda hukmron bqlgan totalitar tuzumning salbiy roli katta bqlidi. Tarix fani totalitar tuzum xizmatkoriga, tashviqotchisiga, himoyachisiga, kommunistik mafkura dumiga aylantirilgan edi.

Insoniyat tarixini, tarixiy voqea, hodisalarni tqg'ri yoritish va qrganish uchun bir qator muhim nazariy-metodologik printsiplarga tayanmoq zarur.

Dialektik metod ana shunday printsiplardan biridir. Insoniyat hayoti, jamiyat taraqqiyoti dialektik jarayondir. Dialektika olam yagona va yaxlit, unda sodir bqladigan hodisalar, voqealar umumiy va qzaro bog'lanishda, uzluksiz harakatda, ziddiyatli taraqqiyotda bqladi deb ta'lim beradi. Dialektika juda uzoq tarixga ega, uning bilish nazariyasi sifatida shakllanishi va rivojlanishida Geraklit, Aristotel, Xorazmiy, Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Spinoza, Gegel, Gertsen va boshqa olim va ma'rifatparvarlarning xizmati kattadir. Ular moddiy va ma'naviy dunyoni uzviy bog'liq jarayon shaklida, ya'ni ularni uzluksiz harakat qilib, qzgarib, taraqqiy qilib turadigan holda, taraqqiyotni ichki bog'lanishda olib qrganish qoidalarini yaratdilar.

Dialektik metodologiya har qanday mamlakat tarixini, shu jumladan, O'zbekiston tarixini, qzbek xalqi tarixini jahon xalqlari tarixi bilan bog'liq holda qrganishni taqazo etadi. Negaki, har bir xalq tarixida milliylik, qziga xos betakror xususiyatlari bilan birga jahon tarixi, butun insoniyat taraqqiyoti bilan umumiy bog'lanishdadir.

Darhaqiqat, O'zbekiston tarixi avvalo Markaziy Osiyo mamlakatlari tarixi bilan, qolaversa, butun jahon xalqlari tarixi bilan chambarchas bog'langan. Qadim zamonlardan buyon Vatanimiz Markaziy Osiyo mintaqasidagi kqpgina davlatlar bilan yagona iqtisodiy va madaniy makonda bqlib kelgan. Bu katta hududda yashovchi urug', qabila, qavm, elatlar etnik jihatdan doimo qzaro ta'sirda va aloqada bqlganlar, qqshilish jarayonini boshidan kechirganlar, ularni ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayoti bir-birlari bilan uzviy bog'liq qtgan. Shu sababdan O'zbekiston tarixini qqshni mamlakatlar tarixi bilan bog'liq holda, bir xalqni ikkinchi

bir xalqqa qarama-qarshi qqymagan holda qrganish taqazo etiladi. Qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, turkman, tojik, fors, afg‘on, hind, arab va boshqa xalqlar, mamlakatlar tarixini qanchalik yaxshi bilsak, O‘zbekiston xalqlari tarixini shunchalik chuqur, har tomonlama qrganishga imkon yaratadi, kqmaklashadi.

Tarixiy voqea, hodisalarni qrganish, tahlil qilish va yoritishda ularga xolisona, haqqoniy, ilmiy yondashuv muhim metodologik printsiplardir.

Xolislik qoidasi tarixiy voqea, hodisalarni qrganayotganda ular bilan bog‘liq bqlgan barcha faktlarning hech bir istisnosiz butun majmuini birga olib tekshirishni, aniq, haqqoniy dalillarga asoslanishni talab qiladi. Tarixiy hodisalarni bir butun holda, qzaro aloqada va munosabatda deb qrganish darkor.

Mustaqillik tarixni xolisona yoritish imkoniyatini yaratdi. «Qzbek olimlarining kuch g‘ayratlari bilan, - deb yozadi I.A.Karimov, - tariximizning kqpdan kqp g‘oyat muhim sahifalari, eng avvalo, Temuriylar davri, 19-asr oxiri, 20-asr boshlari tarixi yangidan kashf etildi. Shuni esda tutish muhimki, qtmishimizni «oqlash» vazifasi umuman olganda bajarib bqlindi, hozir esa asosiy vazifa, tarixiy tahlilni ilmiy jihatdan holisona va halol amalga oshirishdan iboratdir»¹.

Tarixni qrganishda tarixiylik printsipti muhim ahamiyatga ega. Tarixiylik qoidasi voqea, hodisalarni qz davrining aniq tarixiy sharoitidan, qsha davr muhitidan, tarixiy rivojlanish jarayonidan kelib chiqqan holda qrganishni taqazo etadi. Har bir voqea, hodisani boshqa voqealar, hodisalar bilan bog‘lab qrgangandagina mazkur voqea hodisaning umumiy tarixiy jarayondagi qrnini tqg‘ri aniqlash, belgilash mumkin bqladi. Har bir voqea, hodisaga umumiy tarixiy jarayonning bir qismi, bqlagi deb qaramoq zarur.

Har bir hodisa, jarayon qanday tarixiy muhitda, nima uchun aynan shu paytda, shu shaklda sodir bqlganligini, bu hodisa qz taraqqiyotida qanday asosiy bosqichlarni bosib qtganligini, keyinchalik u qanday bqlib qolganligini bilish tarixiylik qoidasining talabidir. Masalan, bironta davlat faoliyatiga tarixiylik nuqtai nazaridan turib baho bermoqchi bqlsak, u, birinchidan, qachon, qanday tarixiy sharoitda paydo bqldi, ikkinchidan, u qz taraqqiyotida qanday bosqichlarni bosib qtdi, uchinchidan, uning tarixiy qrni, mavqei qanday, degan savollarga aniq javob berish zarur bqladi.

Tarixiylik printsipti xalqning qtmishini yagona tabiiy- tarixiy jarayon deb, qtmish hozirgi zamonnii tayyorlaydi, hozirgi zamon kelajakni yaratadi deb qaraydi. Insoniyat ana shunday umumiy yqldan borayotgan ekan, istiqbolda porloq hayot, farovon turmush qurmoqchi bqlgan avlod tarix fani orqali qtmishni yaxshi bilmog‘i lozim. Qtmishni, ajdodlarimiz tarixini qanchalik yaxshi bilsak, anglab etsak, hozirgi zamonnii shunchalik mukammal tushunamiz, kelajakni tqg‘ri tasavvur etamiz.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. Т.: Ўзбекистон, 1997, 141-бет.

Insoniyat taraqqiyotining ma'lum bosqichida xususiy mulkchilik kelib chiqadi va urug'chilik tuzumi emirilib, urug' jamoalari turli ijtimoiy tabaqalarga bqlinadi, shu davrdan e'tiboran tarixiy voqea va hodisalar ana shu tabaqalarning manfaati bilan bog'liq holda kechadigan, har bir ijtimoiy tabaqa qz manfaati nuqtai nazaridan harakat qiladigan, ayrim hollarda ularning siyosiy, iqtisodiy manfaati bir-biri bilan tqqnashadigan, g'alayonlar, qqzg'olonlar kqtariladigan bqlib qoldi. Bunday vaziyatda sodir bqlgan voqealarni, tarixiy jarayonni qrganishda ijtimoiy yondashuv printsipiga rioya etish zarur bqladi. Ijtimoiy yondashuv printsipi tarixiy jarayonlarni aholi barcha tabaqalarining manfaatlarini hisobga olgan holda qrganishni taqazo etadi. Voqealarni alohida bir ijtimoiy tabaqa - kambag'allar, yqqsillar yoki mulkdor boylar manfaati nuqtai nazaridan turib tahlil etish, yoritish bir tomonlama yondoshuv bqlib, bu tarixni soxtalashtiradi, tqg'ri xulosalarga olib kelmaydi.

Shoxlar, amirlar, beklar faoliyatini yoritishga tsivilizatsion nuqtai nazaridan yondashmoq kerak. Ularni boy tabaqalardan chiqqan, mulkdor bqlgani uchungina qoralash, badnom qilish adolatdan bqlmaydi. Mamlakat yurtboshisiz, boshliqsiz, davlat idora organlarisiz, boshqaruvchilarsiz, amaldorlarsiz bqlmasligini isbot etishning hojati bqlmasa kerak. Shunday ekan, barcha davlat arboblarni yoppasiga qoralash ham tqg'ri emas. Jonajon Vatanimiz kqhna tarixi ham ular orasida xalqparvar, ma'rifatparvar, adolat bilan siyosat yuritgan mashhur yurtboshilar, arboblarni bqlganligidan guvohlik berib turibdi.

Ijtimoiy yondashuv printsipi davlat arboblarning, siyosiy kuchlar, partiyalar, turli uyushmalar, ular yqlboshchilarining tarixiy taraqqiyot darajasiga kqrsatgan ijobiy yoki salbiy ta'sirini, jamiyatning u yoki bu yqldan rivojlanishidagi rolini bilib olishda muhim ahamiyatga egadir.

Jahon xalqlari tarixi, jumladan, mamlakatimiz tarixi guvohlik beradiki, davlatlar qrtasida, hukmdorlar qrtasida siyosiy, iqtisodiy manfaatlar, strategik maqsadlar yqlida tez-tez qirg'inbarot urushlar bqlib turgan, biri ikkinchisini bosib olgan, mag'lub mamlakatni talon-taroj qilgan, iqtisodiy imkoniyatlarini zqrovonlik bilan qzlashtirgan. Bunday jarayonlarni siyosiy mezonlar nuqtai nazaridan turib ham baholash zarur bqladi.

Mamlakatimiz tarixini qrganishda Vatan manfaati, milliy qadriyatlar, xalq an'analari va urf-odatlarini, din, islom dini tarixi, odamlarning diniy e'tiqodlari, diniy ta'limotlar va ularning asoschilari faoliyatini tahlil qilishga, yoritishga tsivilizatsion munosabatda bqlib, ularni hurmatlash, e'zozlash nuqtai nazaridan yondashmoq kerak. Hayot xalqning necha ming yillar davomida yaratgan milliy madaniyatini, axloq mezonlarini ikkiga - ekspluatatorlar madaniyati va axloqi hamda ekspluatatsiya qilinuvchilar madaniyati va axloqiga bqlish, birinchisini qoralashdan iborat lenincha yqriqnomaning naqadar zararli ekanligini kqrsatdi. Milliy madaniyatga, ma'naviy merosga bunday yondashuv ma'naviy qashshoqlanishga, milliy qadriyatlarning, urf-

odatlarining oyoq osti qilinishiga, kqpgina olimlar, ma'rifatparvarlar, ruhoniylarning badnom qilinishiga olib kelganligini hech qachon unutmaslik kerak.

Tarixni qrganishda yuqorida qayd etilgan metodologik printsiplar bilan bir qatorda faktlarni taqqoslash, mantiqiy-qiyosiy xulosalar chiqarish, falsafiy tafakkur, davrlashtirish, sotsiologik tadqiqotlarni qtkazish, statistik, matematik va boshqa usullardan ham foydalanish zarur.

Vatanimiz tarixini tadqiq etish, qrganishda uni tqg'ri davrlashtirishning ahamiyati kattadir. Sovetlar xukmronligi davrida sobiq SSSR tarkibidagi yuzdan ortiq xalqlar tarixi, jumladan, bizning Vatanimiz tarixi sinfiy kurash, inqilobiy harakatlarga asoslangan marksistik formatsion g'oyaga bqysundirilgan holda davrlashtirildi. Barcha xalqlar tarixi besh davrga: ibtidoiy jamoa tuzimi, quldorlik tuzimi, feodalizm, kapitalizm, sotsializmga va kommunistik tuzimga bqlindi. Bunday davrlashtirishning maqsadi jamiyat taraqqiyoti insoniyatni albatta kommunistik tuzimga olib boradi, degan «g'oyani» ilgari surish va oqlashdan iborat edi. Bu g'oyaning qanchalik tqg'riligini XX asrda kqpgina xalqlar taqdirida sinab kqrildi, pirovard natijada fojiali oqibatlariga olib keldi. Hammani tenglashtirish g'oyasi amalda mulkdorlar, badavlat tabaqalarni kambag'allar, yqqsillar darajasiga tushirdi, jamiyatda ommaviy loqaydlik, dangasalik, boqimandalik kayfiyatini keltirib chiqardi. Shu bois insoniyat XX asr oxirlariga kelib bu g'oyani qz elkasidan uloqtirib tashladi, butun dunyoda «sinfiy qadriyatlar»dan milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustunligi e'tirof etildi.

O'zbekistonning, qzbek xalqining boy, betakror tarixi bqlib, uning qziga xos tarixiy taraqqiyot davrlari bor. Uni quyidagi yirik davrlarga bqlish mumkin:

1. Ibtidoiy jamiyat. Qadimgi davr.
2. Qrta asrlar davri.
3. Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davri.
4. Sovetlar istibdodi davri.
5. Milliy istiqloq davri.

Bu davrlarning har biri yana o`ziga xos, kichik davrlarga bo`linadiki, uni mazkur qo`llanmaning mazmuni va mundarijasidan yaqqol ko`rish mumkin.

Haqqoniy, xolis tarixiy bilimga ega bo`lish oson emas. Negaki, biz o`rganayotgan tarixiy voqealarni, jarayonlarni bevosita kuzata olmaymiz, ular bizdan ancha ilgari bo`lib o`tgan, ularni qaytarib bo`lmaydi. Bundan ilgari bo`lib o`tgan tarixiy voqealarni bilib bo`lmaydi, degan xulosa chiqmaydi, albatta.

Tarixiy voqealar, xalqlar hayoti nom-nishonsiz yo`q bqlib ketmaydi, ulardan tarixiy manbalar guvoh bo`lib qoladi. Tarixiy manbalar ikkiga - moddiy va yozma manbalarga bo`linadi.

Qadimgi odamlardan bizgacha etib kelgan mehnat qurollari, idish-tovoqlar, tanga pullar, harbiy qurol-yaroqlar, uy-joylar, qal'alar, shaharlar, qabrlar, rasmlar va boshqa narsalar moddiy tarixiy manbalar deb ataladi. Vatanimiz hududida olib borilgan

arxeologik izlanishlar natijasida topilgan moddiy topilmalar, ularning tahliliy xulosalari¹ odamlar hayotini bilishga imkoniyat yaratadi.

Qadimgi davrlardayoq odamlar qz fikrlarini yozma bayon etish uchun yozuv belgilari ixtiro qilganlar. Savodxon kishilar qzlari yashab turgan yoki borib kqrgan mamlakatlari haqida, kqrgan-kechirganlarini daraxtlarning pqstlog‘iga, toshga, teriga, keyinchalik qog‘ozga yozib qoldirganlar. Xalqlarning hayoti, yuz bergan voqea va hodisalar haqida yozilgan kitoblar mavjud. Er va qimmatbaho narsalarni in‘om qilish, meros qoldirish, sotib olish hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Podshoh va hokimlarning yozma shakldagi qonunlari va farmonlari saqlanib qolgan. Bular yozma manbaalar deyiladi.

Ajdodlarimizning miloddan avvalgi VIII-VII asrlardagi hayotini qrganishda «Avesto» kitobi qimmatli yozma manba hisoblanadi. Mazkur nodir kitobda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, dastlabki davlat tuzilmalarining shakllanish jarayonlari qz ifodasini topgan. Vatanimiz tarixiga doir ma‘lumotlar yunon va rim manbalarida, chunonchi Gerodotning «Istoriya» (M.1972), Ksenofontning «Grecheskaya istoriya» (M.1935), Polibiyning «Vseobshchaya istoriya» (M.1980-1989), Arrianning «Poxod Aleksandra» (M.L. 1962), Strabonning «Geografiya v 17 knigax» (M. 1964); Kurtsiy Rufning «Istoriya Aleksandra Makedonskogo» (M.1963) va boshqalarning asarlarida ham uchraydi. Antik mualliflar tomonidan yozib qoldirilgan ma‘lumotlarni tqplovchi I.V.Pyankovning «Srednyaya Aziya v izvestiyax antichnogo istorika Ktesiya» (Dushanbe, 1975), N.G.Gorbunovaning «Fergana po svedeniyam antichnix avtorov. Istoriya i kultura narodov Sredney Azii» (L.1976) kabi kitoblar ham Vatanimiz tarixini qrganishda yordam beradi.

Xitoy yozma manbalaridan «Tarixiy guvohliklar» (mil.av.I asr), «Ulug‘ Xan xonadoni tarixi» (milodiy I asr), «Kichik Xan xonadoni tarixi» (milodiy V asr), «Vey xonadoni tarixi» (milodiy VI asr), «Shimoliy podshoxliklar (Beyshi) tarixi» (milodiy VII asr) va boshqalarda Turkiston tarixi haqida ma‘lumotlar bor. Shuningdek, arman, Vizantiyalik mualliflarning asarlarida ham Vatanimiz tarixi haqida ma‘lumotlar uchraydi.

Vatanimiz tarixini qrganishda turkiy, fors, araf manbalarining ahamiyati katta. Qadimgi turk yozuvi tqg‘risida S.E.Malovning «Pamyatniki drevne-tyurskiy pismennosti» (M.1951) va «Eniseyskaya pismennost tyurkov. Tekst i perevodi» (M-L.1951), A.Sadullaevning «Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalarda» (T.1996) asarlarida, Nasimxon Rahmonning «Turk hoqonligi» (T.1993) kitobida qimmatli ma‘lumotlar bor. Turkiy xalqlar, jumladan qzbek xalqining etnik tarixini qrganishda Abulg‘oziyning «Shajarayi turk» (T.1992), L.N.Gumilevning «Drevnie tyurki»

¹ Ғуломов Я. Хоразмнинг суғориш тарихи. Т., 1957; Толстов С.Р. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. Т., 1964; Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма. М., 1977; Массон В.М. К вопросу об общественном строе Средней Азии//История, археология и этнография Средней Азии. М., 1968; Ртвеладзе Э.В. Новые древнебактрийские памятники на юге Узбекистана. Л. 1976 ва бошқалар.

(M.1960), A.Yu.Yakubovskiyning «K voprosu ob etnogenezi uzbekskogo naroda» (T. 1941), I.Jabborovning «Qzbek xalqi etnografiyasi» (T. 1994) asarlaridan foydalanish mumkin.

Qzbek xalqining qrtta asrlardagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy hayotini qrganishda Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri» (T.1993), Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» (T.1968), Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» (T.1960), M.Qashg'ariyning «Devonu lug'otit-turk. Uch jildlik» (T.1960-1963), Abu Tohirxojaning «Samariya» (T.1991), Narshaxiyning «Buxoro tarixi» (T.1991), Nizomulmulkning «Siyosatnoma yoki siyar ul-muluk» (T.1997), Amir Temurning «Temur tuzuklari» (T.1991), Mirzo Ulug'bekning «Tqrt ulus tarixi» (T.1994) va boshqa nodir kitoblar muhim tarixiy manba bqlib xizmat qiladi.

Vatanimiz tarixini qrganishda qz davrida hokimiyat tepasida turgan sulolar tarixini yoritishga bag'ishlangan bir qator kitoblar - Shaxobiddin an-Nasaviyning «Jizneopisanie Sultana Djelal ad-Dina Mankburni» (Baku, 1973), Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma» (T.1996), Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» (T.1994), Ibn Arabshohning «Amir Temur tarixi. Ikki jildlik» (T.1992), Hofiz Tanish al-Buxoriyning «Abdullanoma» (T.1999), Mulla Muhammad Solihning «Shayboniyнома» (T.1989), Bayoniyning «Shajarayi Xorazmshohiy» (T.1991) va boshqalar qimmatli manba sifatida diqqatga sazovordir.

Bizgacha etib kelgan bunday moddiy va yozma manbalar O'zbekiston tarixini qrganishda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik instituti, Sharq qqlyozmalar fondi dunyodagi eng yirik qqlyozmalar xazinalaridan biri hisoblanadi. Bu erda 40 mingdan ziyod qqlyozma nusxalari, 30 mingdan ortiq toshbosma kitoblar va 10 mingdan ortiq Sharq tillarida yozilgan hujjatlar mavjud. Shuningdek, Vatanimiz tarixiga oid muhim qqlyozma hujjatlar, nodir kitoblar, qimmatli ma'lumotlar horijiy mamlakatlardagi ilm maskanlari, kutubxonalarda saqlanmoqda. Ana shu qqlyozma hujjatlar va kitoblarning hozirgi qzbek tiliga tarjima qilinishi va nashr etilishi Vatanimiz tarixini yanada tqlaroq, xolisona yoritilishiga, tariximiz sahifalaridagi «oq» va «qora» dog'larning barham topishiga kqmaklashadi.

O'zbekiston tarixiga doir tarixiy manbalar haqida ma'lumotlar B.Ahmedovning «O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari» (T.1991), T.Saidqulovning «Qrta Osiyo xalqlari tarixining tarixshunosligidan lavhalar» (T.1993) nomli kitoblarda tqlaroq berilgan, qquv jarayonida ulardan foydalanish zarur.

O'zbekiston tarixini qrganishda etakchi zamonaviy tarixchi olimlarimiz tomonidan yaratilgan tarixiy asarlar, darslik va qquv qqlanmalar muhim qringa ega. Ulardan eng muhimlarining nomlari, mualliflari haqidagi ma'lumotlar mazkur qquv

qqlanmasining oxirida, foydalanilgan adabiyotlar royxati bo'limida berilgan bo'lib, ularni o'qish, o'rganish talabalarga tavsiya etiladi.

Vatanimiz tarixini o'rganishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning asarlari, ma'ruza va nutqlari, farmon va farmoyishlari, mustaqillik davrida qabul qilingan qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar muhim nazariy metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ajdodlarimiz hayotini, turmush tarzini o'rganishda arxeologiya (qadimshunoslik), etnografiya (xalqlarni tasvirlash), antropologiya (odamning kelib chiqishi va evolyutsiyasi) va boshqa fanlar kengaytiriladi.

Tariximiz ta'rifida to'la tasavvur hosil qilish uchun O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Qal'ani o'rganish va boshqa muzeylar, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Qarshi, Urganch, Toshkent va boshqa shaharlar, ulardagi tarixiy yodgorliklar bilan yaqindan tanishish zarur.

Ajdodlarimiz qoldirgan moddiy va ma'naviy yodgorliklar bilan tanishar ekanmiz, ularda xalqning mehnati, fikr-qaylari, orzu-umidlari, his-tuyg'ulari mujassamlashganini qalban his etamiz, anglab etamiz. Ana shunda bu tarixiy yodgorliklarning chiroyli ko'rinishidan huzurlanibgina qolmasdan, ajdodlarimizga, xalqimizga, millatimizga nisbatan mehr-muhabbatimiz ortadi, Vatanimiz bilan faxrlanamiz.

Barkamol avlodni shakllantirishda Vatan tarixining ahamiyati

O'zbekiston tarixi yoshlarga xalqimizning qatnashishi, tarixi haqida bilim berish bilan bilan chegaralanib qolmaydi, u yoshlarni vatanparvar, ma'naviy jihatdan komil fuqaro etib shakllantiradi. Prezident Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, yurtimiz tarixi «Har bir fuqaroni, jumladan, yoshlarimizni boy madaniy merosimizni qadrlashga, uni ko'z qorachig'iday avaylab-asrashga, yurak-yurakdan iftixor qilishga qaratadi. Qizimizning boy qatnash merosimizdan madad va ibrat olishga imkon beradi. Odamlar qalbida ezgulik tuyg'ularini uyg'otib, bugungi avlod kimlarning avlodi, kimlarning zoti va vorislari ekanini anglashga undaydi».¹

Davlat mustaqilligini qo'z qo'lga olgan ozod, hur O'zbekistonda Vatan, istiqlol taqdiri bugungi baxtli avlodlar qo'lida. Mustaqillikni asrab-avaylash, mustahkamlash, mamlakatimizni keyingi avlodlarga yanada qudratli, obod, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlangan holda etkazish zamonamizning dolzarb vazifasiga, talabiga aylandi. Bu mas'uliyatli, ayni paytda sharaflil vazifaning qay darajada ado etilishi bugungi avlodlarga, xususan yoshlarga, ularning ma'naviy barkamolligiga bog'liq. «Biron bir jamiyat, - deb ta'kidlaydi yurtboshimiz Islom Karimov, - ma'naviy imkoniyatlarini,

¹ Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yilida. T.6. T.: O'zbekiston, 1998, 371-bet

odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib qz istiqbolini tasavvur eta olmaydi».¹

Har qanday jamiyat taraqqiyotining asosiy kuchi ma'naviyat va ma'rifatdadir. Ma'naviy barkamollikni tarbiyalashda Vatan tarixi muhim omildir. «Ma'naviyat, - deb yozadi Islom Karimov, - qz xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib etishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi»², «...tug'ilib qsgan yurtida qzini boshqalardan kam sezmay, boshini baland kqtarib yurishi uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak... Tarixiy xotirasi bor inson - irodali inson»³.

Insonda tarixiy xotira o'z Vatani tarixini, o'z xalqi, ajdodlari tarixini bilish orqali shakllanadi. Yaqin o'tmishda mustamlakachilar, totalitar tuzum mutasaddilari ko'pgina xalqlarni, jumladan, o'zbek xalqini o'z tarixidan judo qilish, ularni qz qtmishiga loqaydlik bilan qaraydigan, nasl-nasabini eslolmaydigan manqurtlarga aylantirish siyosatini yuritdi, amaliyotda esa xalqimiz tashqi dunyodan butunlay uzib qyildi, uning bir necha ming yillik boy tarixi soxtalashtirildi, uni yoshlarga qqitish va qrgatishga izn berilmadi.

Mustaqillik sharofati bilan Vatanimiz tarixi qz qrnini topdi, barcha qquv maskanlarida talaba-qquvchilarga Vatan tarixini qqitish davlat siyosati darajasiga kqtarildi, Vatan tarixini qqitish yqlga qyildi. Vatanimiz tarixi millatning, yoshlarning haqiqiy tarbiyachisiga aylanmoqda. Bu borada Prezident Islom Karimovning «Tarixiy xotirasiz barkamol kishi bqlmaganidek, qz tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bqlmaydi», «Tarix - xalq ma'naviyatining asosidir», «Tarixiy xotirasiz kelajak yqq», «Qzlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi», «Inson uchun tarixdan judo bqlish - hayotdan judo bqlish demakdir»⁴ degan ifodali sqzlari va kqrsatmalari dasturilamal bqlib xizmat qilmoqda. Tarix talaba-qquvchilarda olam yagona va yaxlit, O'zbekiston uning ajralmas bir qismi, olamda sodir bqladigan voqea, hodisalar umumiy va qzaro bog'lanishda, uzluksiz harakatda ekanligi tqg'risida tqg'ri tasavvur, tushunchalarni shakllantiradi.

Qz qtmishini, ajdodlari tarixini yaxshi bilgan insonning irodasi kuchli bo'ladi, uni har xil aqidalar girdobiga tushishdan saqlaydi. Qtmishni bilgan, tarix saboqlarini anglab etgan inson hozirgi zamoni yaxshi tushunadi, kelajakni tqg'ri tasavvur etadi. Muxtasar aytganda, Vatan tarixi talaba-qquvchilarda xalqning qtmishi, hozirgi zamoni va kelajagi yagona tarixiy jarayon degan tushunchani shakllantiradi. Bu qz navbatida yoshlarni tarixiy jarayonlarning oddiy kuzatuvchisi bqlib qolishdan saqlaydi, ularni olg'a intilishga, taraqqiyotga kqmaklashishga undaydi.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.: Ўзбекистон, 1997, 137-бет.

² Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли. Т.: Ўзбекистон, 1992, 71-бет.

³ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т., Шарқ, 1998, 8-9-бетлар.

⁴ Қаранг: Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли. Т., Ўзбекистон, 1992, 71-бет; Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т., Шарқ, 1998, 10,21-бетлар.

O‘zbekiston tarixi talaba-qquvchilarga bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshiralayotgan demokratik islohotlarning mohiyati va natijalarini, milliy, huquqiy davlatchilikni barpo etish, demokratik, fuqarolik jamiyat qurish, ijtimoiy yqnaltilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonlarini qrgatadi. Bu qz navbatida yoshlarda ilmiy dunyoqarashni, siyosiy madaniyatni tarbiyalaydi, jamiyatda qz qrnini tqg‘ri belgilashga kqmaklashadi.

Xalqimizning buyukligi, kuchi, uning boy ma‘naviy merosga ega ekanligi bilan belgilanadi. Xalqimizning ma‘naviy poydevori juda qadimiy va mustahkam. Ajdodlarimiz etishtirib bergan qnlab, yuzlab jahonga mashhur olimu-ulamolar, me‘moru-binokorlar, naqqoshlar, zargarlar, hunarmandlar, davlat arboblari, xalq qahramonlari hayoti, dunyoda birinchilar qatorida bunyod etilgan ilm va ta‘lim maskanlari faoliyati talaba-qquvchilar uchun katta ibrat maktabi, tarix sabog‘idir. Kelajak uchun intilayotgan yoshlar uchun bu boy ma‘naviy meros mustahkam tayanchdir. Uning zaminida tinimsiz va mashaqqatli mehnat, har qanday tqsiqlarni engish, ilmga va ziyoga intilish kabi xislatlar yotadi. Bunday xislatlar Vatan tarixini qqitish orqali yoshlarga singdiriladi.

Vatan tarixi xalqimizning asrlar davomida kqpgina xalq, elatlar bilan ahl, hamjihat bqlib yashaganligidan, yurtimizda turli diniy e‘tiqodlar erkinligi va inoqligi bqlganligidan guvohlik beradi. Bu mustaqil O‘zbekistonda yashovchi turli dinlarga e‘tiqod qiluvchi 120 dan ortiq millat va elatlar qrtasida tinchlik, milliy totuvlik, birodarlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiluvchi tarixiy saboqdir.

Kelajagi buyuk davlat qurayotgan bugungi avlodlar uchun qzbek davlatchiligi tarixi, ming yillar davomida shakllanib, takomillashib kelgan siyosiy-huquqiy institutlar, qonun-qoidalar tajribasi O‘zbekistonning mustaqilligini yanada mustahkamlash, huquqiy davlat, demokratik jamiyat qurishda mustahkam tayanch va madadkordir. Tarixiy xotira, ajdodlarimiz qoldirgan boy ma‘naviy merosni egallash talaba-qquvchilarda halollik, odillik, rostgqylik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, ilmga intilish kabi insoniy fazilatlarni shakllantirishga kqmaklashadi.

Vatan tarixi yoshlarda jamiyatda ertaroq mustaqil faoliyat yuritish, qz qobiliyatini tqqlaroq ochish va hayotga tatbiq etish sifatlarini shakllantiradi, Vatan, xalq taqdiri uchun mas‘uliyatni qz zimmasiga olish kabi yuksak ma‘naviy burchni tarbiyalaydi, milliy g‘oya bilan qurollantiradi.

Shu boisdan Vatan tarixini har tomonlama, chuqur qrganish muhim ahamiyatga molik vazifadir. Mamlakatimizda mustaqillik sharofati tufayli bog‘chalardan tortib Oliy qquv yurtlarigacha bqlgan ta‘lim-tarbiya tizimlarida O‘zbekiston tarixi fanini qqitishga davlat darajasiga kqtarilgan vazifa sifatida katta e‘tibor berilmoqda, g‘amxqrlik qilinmoqda. «Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda.

Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda. Axloqiy tarbiya va ibrat manbaiga aylanmoqda»¹.

Nazorat savollari

1. Tarix soʻzi qanday maʼnoni bildiradi?
2. Oʻzbekiston tarixi fani nimani oʻrgatadi?
3. Tarixni oʻrganishda qanday metodologik tamoyillarga taya- nish lozim?
4. Tarixiylik tamoyilini qanday tushunasiz?
5. Tarixni oʻrganishda xolislik, ilmiylik tamoyillarining talablari nimalardan iborat?
6. Oʻzbekiston tarixini qanday yirik davrlarga boʻlish mumkin?
7. Tarixni oʻrganishda moddiy manbalar qanday ahamiyatga ega?
8. Vatanimiz tarixiga doir qadimgi yozma manbalardan qaysilari- ni bilasiz?
9. Milliy gʻoya va mafkurani odamlarga singdirishda Vatan tarixining oʻrni va ahamiyati qanday?
10. Prezident Islom Karimovning qaysi asarlarida Vatan tarixini xolisona yoritishning ahamiyati yoritilgan?

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка тахдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. Т.: Ўзбекистон, 1997, 140-бет.

2-mavzu. Markaziy Osiyo - jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi

REJA:

- 1.Sivilizatsiya tushunchasi, uning asosiy belgilari.
- 2.Ibtidoiy jamiyat, uning davrlari va Oʻrta Osiyodagi manzilgohlari. Dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikning paydo boʻlishi. Metallning kashf etilishi.
- 3.Dastlabki tsivilizatsiyaning maʼnaviy asoslari. Zardushtiylik. Madaniyat, sanʼat, yozuv.

Tayanch soʻz va iboralar: *Sivilizatsiya. Ibtidoiy toʻda. Urugʻchilik jamiyati. Oʻzlashtiruvchi xojalik. Paleolit davri manzilgohlari. Mezolit davri manzilgohlari. Neolit davri manzilgohlari. Eneolit davri manzilgohlari. Bronza davri manzilgohlari. Mehnat qurollaridagi oʻzgarish- lar. Matriarxat. Patriarxat. Dehqonchilik. Chorvachilik. Hunarmand- chilik. Ishlab chiqarish xojaligi.*

Oʻzbekiston hududi eng qadimgi davrlardan boshlab jahon tsivilizatsiyasining oʻchoqlaridan biri boʻlib kelgan. Markaziy Osiyo, shu jumladan Oʻzbekiston hududlarida olib borilayotgan tadqiqot ishlarining koʻlami va natijalari bunga yaqqol dalil boʻla oladi.

Qadimda Turon, oʻrta asrlarda Movarounnahr, keyinchalik Turkiston, Oʻrta Osiyo, Markaziy Osiyo deb atalgan hudud insoniyat tsivilizatsiyasi ilk oʻchoqlaridan biri boʻlgan. Arxeologlar va boshqa olimlar oʻlkamiz oʻtmishini taqiq etib, bu makon jahon tsivilizatsiyasining oʻchoqlaridan biri ekanligini taʼkidlamoqdalar. Oʻzbekiston Prezidenti I.Karimov “Tarixiy xotirasiz kelajak yoʻq” asarida “Hozir Oʻzbekiston deb ataluvchi hudud, yaʼni bizning Vatanimiz nafaqat SHarq, balki umumjahon tsivilizatsiyasi beshiklaridan biri boʻlganganligini jahon tan olmoqda”,– deydi. “Tsivilizatsiya” soʻzi lotinchadan olingan boʻlib, u hozirgi zamonda insoniyatning komillikka, yetuklikka intilish mazmunida talqin etiladi, shuningdek u inson hayoti uchun qulayliklar yaratish jarayonini ifodalovchi tushuncha hamdir. Adabiyotda bu soʻz “tamaddun” deb ham ataladi va madaniy hayotga, taraqqiyotga erishuv jarayoni maʼnosida ishlatiladi. qomusiy kitoblarda tsivilizatsiya–jamiyat taraqqiyoti jarayonida yaratilgan moddiy va maʼnaviy boyliklar, shuningdek ularni yanada koʻpaytirib va takomillashtirib borish usullarining majmui, deyiladi. Demak, tsivilizatsiya insoniyat taraqqiyotining mahsuli va ayni paytda zaminidir.

Tsivilizatsiya qadimda yer kurrasining turli hududlarida mustaqil ravishda paydo boʻlgan va shu sababdan uning oʻziga xos koʻrinishlari mavjud. Zamonlar oʻtib bu mahalliy tsivilizatsiyalarning bir qator xususiyatlari boshqa hududlardagi taraqqiyot belgilari bilan qorishib, umuminsoniy tsivilizatsiya vujudga kelgan. Asrlar osha bu madaniyat darajasi oshib borgan, takomillashgan, yangi choʻqqilarga erishgan.

Olimlarimiz xulosalari, ko‘plab ashyoviy dalillardan bilamizki, geografik joylashuvi, iqlimi va boshqa qulayliklari tufayli O‘zbekiston insoniyatning qadimgi makonlaridan biri bo‘lgan.

Er yuzida insoniyat paydo bo‘lishi haqida turlicha qarashlar, fikrlar, taxminlar mavjud. Masalan, bir guruh olimlar (Ch.Darvin, F.Engels) odam maymundan tarqalgan va bunda asosiy rolni mehnat o‘ynagan deyishsa, boshqa bir guruh olimlar, shuningdek, din odamni xudo yaratgan deb ta’lim beradi. Xatto insoniyat yerga bir vaqtlar o‘zga sayyoradan kelgan degan g‘oyalar ham yo‘q emas. Shu bilan birga haligacha odamning paydo bo‘lishi to‘g‘risida aniq ilmiy asoslangan dalil isbot yo‘q. SHunday ekan, biz bugungi mavzuimizda tarixiy voqea va xodisalarni yoritishda tarixiylik, haqqoniylik va ilmiylik tamoyillariga amal qilib, mavzuni tushuntirishga harakat qilamiz.

Uzoq asrlar davomida qadimgi ajdodlarimiz asta–sekin atrof dunyo haqida tasavvur hosil qilganlar, tabiiy muhitga moslasha borganlar. Hayot uchun ko‘rash jarayonida qadimgi odamlar turli mehnat qurollarini yaratganlar, ularni takomillashtirganlar, tabiat ne‘matlaridan to‘larok foydalanishga intilganlar. Tosh asridan tortib to bugunga qadar bo‘lgan o‘ta noyob va ahamiyatli ashyolar mamlakatimiz hududlarida madaniy–ma’naviy va ijtimoiy–iqtisodiy taraqqiyot qadimda paydo bo‘lganligi va uning rivojlanishi uzluksiz davom etganligini tasdiqlaydi..

Insoniyatning paydo bo‘lishi va rivojlanishi (antropogenez) uzoq davom etgan tarixiy jarayondir. Uning bosib o‘tgan davrlari, ya’ni shakllanishi, irq-larga ajralishi, ma’naviyati, madaniyati, san’ati, turmush tarzi, umuman tarixiy taraqqiyotda erishgan yutuqlari beqiyosdir. Shu ma’noda insoniyatning eng qadimgi davrlardan to hozirgi kunlarga bosib o‘tgan tarixiy taraqqiyot yo‘li, qisqa qilib aytganda “tsivilizatsiya” deyiladi.

Insoniyat tsivilizatsiyasi uzoq davom etgan jarayon bulib, ayrim tadqiqotlarda u bundan 3-3,5 mln yil boshlangan (ingliz ota-bola Liki) deyilsa, boshqalarda 1 mln. yil 700-600 ming yil (E.Dyubua), D.Blekda 600-500 ming yil deyiladi. Bunday odamlar fanda “Zinjantrop”-ishbilarmon odamlar va Avstralopitek (Janub odami), “pitekantrop” (maymun odam), “sinantrop” (Xitoy odami) kabi nomlar bilan tadqiq qilingan, o‘rganilgan.

Hozirgi paytda Markaziy Osiyo hududida ibtidoiy jamiyatning rivojlanish bosqichlari quyidagi davrlarga bo‘linadi:

1. Paleolit (“palayos”-qadimgi, “litos”-tosh) davri; bundan taxminan 1 million yil ilgari boshlanib, 15-12 ming yil ilgari tugaydi; o‘z navbatida bu davr uchga bo‘linadi;
 - a) ilk paleolit-(Ashel’) davri, 1 million - 100 - ming yillikni o‘z ichiga oladi;
 - b) o‘rta paleolit-(Must’ye) davri, mil. avv. 100-40 - ming yilliklar;

- v) so‘nggi paleolit-mil. avv. 40-12 - ming yilliklar;
- 2. Mezolit (“mezos”-o‘rta, “litos”-tosh) miloddan avvalgi 12-7 - ming yilliklar.
- 3. Neolit (“neos”-yangi, “litos” tosh) miloddan avvalgi 6-4 - ming yilliklar.
- 4. Eneolit (mis-tosh davri)-miloddan avvalgi 4 - ming yillikning oxiri 3 - ming yillikning boshi.
- 5. Bronza davri-miloddan avvalgi 3-2 - ming yilliklar.
- 6. Temir davri-miloddan avvalgi 1-ming yillikning boshlaridan.

O‘zbekiston hududlaridagi eng qadimgi odamlarning manzilgohlari Farg‘ona vodiysidagi Selung‘ur, Toshkent viloyatidagi Ko‘lbuloq, Buxorodagi Uchtut makonlaridan topilgan. Bu davr odamlari toshlardan qo‘pol qurollar (chopperlar) yasab, termachilik va jamoa bo‘lib ov qilish bilan shug‘ullangan. Ilk paleolit davri odamlari jismoniy jihatdan ham, aqliy jihatdan ham hozirgi odamlardan tubdan farq qilgan. Ular tabiat oldida ojiz bo‘lib, faqat tayyor mahsulotlarni o‘zlashtirganlar. Ular na diniy tushunchani, na dehqonchilikni va na chorvachilikni bilganlar.

Yaqin yillargacha O‘zbekiston hududida odamlar bundan 100 ming yillar ilgari yashay boshlagan deb hisoblanardi. Biroq o‘tgan asrning 80-yillarida arxeolog olim U. Islomov boshchiligidagi tadqiqotchilar Farg‘ona vodiysidagi Selengur (So‘x tumani) g‘oridan paleolit davriga oid ajdodlarimiz yashagan joyni topgach, fikrlar o‘zgardi.

Ilk paleolit davriga oid Selungurda 13 ta madaniy qatlam aniqlandi. Bu yerdagi topilmalarning yoshi 1 mln. yildan ziyodroq. Bu yerdan topilgan odam jag‘ va yelka suyaklari, tishlari xududimizda “fergantrop” deb nomlangan odamlar yashaganligi va O‘zbekiston haqiqatdan ham insoniyat tsivilizatsiyasi o‘choqlaridan biri ekanligini isbotladi. Toshkent viloyatidagi Obirahmat, Samarqand viloyatidagi qo‘turbuloq makonlari ham paleolit davriga oid bo‘lib, ularning birinchisidan 21 ta, ikkinchisidan 5 ta madaniy qatlam topib o‘rganilgan. Bu joylarda ko‘plab tosh qurollardan tashqari fil, bug‘u, yovvoyi ot, quyon, echki, to‘ng‘iz, jayron, arxar kabi xayvon suyaklari, gulxan, kul, ko‘mir qoldiqlari ham topilgan. Bu inson uzoq vaqtlar davomida mazkur makonlarda yashaganligidan dalolat beradi.

O‘rta paleolit davri makonlari Toshkent vohasidagi Obirahmat, Xo‘jakent, Samarqanddagi Omonqo‘ton, Boysun tog‘laridagi Teshiktosh kabi bir qator makonlarda aniqlangan bo‘lib, ulardan shu davrga oid ko‘pgina turli toshlardan yasalgan mehnat qurollari topilgan. SHuningdek bu davrga oid manzilgohlar Farg‘ona, Buxoro, Navoiy viloyatlarining 50 ga yaqin joylarida topilgan. Obirahmat makoni yoysimon shaklda bo‘lib, bu yerda 10 m qalinlikdagi 21 ta madaniy qatlam aniqlangan. Topilmalar orasida nukleuslar, parrakchalar, o‘tkir uchli sixchalar, qIrg‘ichlar uchraydi, shuningdek, turli hayvonlarning suyaklari ham ko‘pchilikni tashkil etadi.

Oʻrta paleolit (mustʼe) davriga oid eng katta yodgorlik 1938 yilda A.Okladnikov tomonidan ochilgan Surxandaryoning Boysun togʻidagi Teshiktosh gʻoridir. Bu gʻor – makonning kengligi 20 metr, balandligi 9 metr, chuqurligi 21 metr boʻlib 5 ta madaniy qatlamdan iborat. Bu yerda 3 mingga yaqin tosh qurollar turli xayvonlar suyaklari topildi. Eng muhimi bu gʻordan 9-11 yoshli bolaning skeleti topilganligi boʻldi. U neandertalʼ tipidagi odam vakili edi.

Oʻrta paleolit davriga kelib ibtidoiy jamiyat odamlarining mehnat qurollari takomillashib, turmushida yangi unsurlar paydo boʻla boshlaydi. Eng muhimi, ibtidoiy toʻdadan Urugʻchilik jamoasiga oʻtish boshlanadi. SHimoldan ulkan muzlik siljib kelishi va hamma yoqda sovuq kuchayishi sababli olov kashf etiladi. Odamlar oʻchoqlar atroflarida toʻplanib, ibtidoiy turar-joylarga asos soldilar. Jamoa boʻlib ov qilish paydo boʻladi. SHunday qilib, oʻrta paleolit davriga kelib qadimgi odamlar Oʻrta Osiyoning keng hududlariga tarqala bordi. Bunga mintaqa tabiiy iqlimining oʻziga xosligi ham taʼsir koʻrsatgan

Soʻnggi paleolit qadimgi tosh davrining soʻnggi bosqichidir. Bu davrga oid makonlar Ohangarondagi qoʻlbuloq, Toshkentning gʻarbidagi Boʻzsuv 1 hamda Samarqand atroflaridan topilgan. Ulardan topilgan topilmalar orasida qirgʻichlar, kesgichlar, sixchalar, pichoqlar, boltalar kabi qurollar bor. Bu davrga kelib odamlar faqat togʻli hududlarda emas, tekisliklarda ham yashay boshlaydilar. Bu davrning eng katta yutugʻi urugʻchilik tuzumi (matriarxat)ga oʻtilishidir.

Shunday qilib, paleolit davrida ibtidoiy odamlar xoʻjalik yuritishning eng oddiy yoʻllaridan (termachilikdan) murakkabroq koʻrinishlariga (ovchilik, baliqchilik) ga oʻtdilar. Olov kashf etildi. Ibtidoiy turar-joylar oʻzlashtirildi. Insoniyat ibtidoiy toʻda davridan urugʻchilik tuzumiga oʻtdi. Mehnat qurollari takomillashib, turlari koʻpaya bordi, dastlabki diniy qarashlar paydo boʻldi. Demak, inson tarixining eng uzoq davom etgan bosqichi boʻlmish qadimgi tosh davrida odamning shakllanish jarayoni asosan yakun topadi. Keyingi tosh davrlarida turli irqlar shakllanligi maʼlum. Olimlar, xususan uch irq–evropid, negroid va mongoloid irqlari shakllanligini taʼkidlaydilar

Oʻzbekiston hududida mezolit davriga oid Machay (Surxondaryo), Obishir (Fargʻona vodiysi), Boʻzsuv, qoʻshilish (Toshkent) kabi manzilgohlar topib oʻrganildi. Bu davrda qurollar turi koʻpaydi. Suyak va yogʻochdan dastachalar paydo boʻldi. Masalan: Machay gʻoridan bigiz, igna pichoq, keskich, ushatgich, nayza, oʻq uchlari, shuningdek, 20 turdan ziyod hayvon suyaklari topildi.. Bu davrga kelib muzlik yana shimolga qaytadi. Hayvonot va oʻsimlik dunyosida katta oʻzgarishlar sodir boʻladi. Insoniyat oʻz tarixidagi dastlabki murakkab moslamani - oʻq-yoyni kashf etdi. Bu davrning oxirlarida ibtidoiy toʻda oʻrnida ibtidoiy jamoa–urugʻchilik tuzumi vujudga kela boshlaydi. Dastlab urugʻchilik jamoalaridagi qarindoshlik ona tomonidan boʻlgan. Shuning uchun insoniyat taraqqiyotning bu bosqichini olimlar

matriarxat deb atadi. Ona urug‘i keyingi tosh davrlarida ham hukmronlik qilgan. Farg‘onaning Obishir soyidan, Toshkentning Bo‘zsuv yoqasidan, Surxondaryoning Machay qishlog‘idan va boshqa joylardan mezolit davriga oid manzilgohlar topilgan. Bu davrda bir qancha jonivorlar (it, sigir, qo‘y, echki) xonakilashtiriladi, diniy e‘tiqodlar vujudga keladi, tasviriy san‘at paydo bo‘la boshlaydi. Xususan, Surxondaryoning Zaraut soyida bundan taxminan 14–15 ming yil avval yaratilgan qoyatosh suratlar buning isbotidir.

Mezolit davri qurollari paleolitga nisbatan ixchamligi va sifatliiligi bilan farq qiladi. Mezolit davri qabilalari asosan ovchilik va termachilik bilan band bo‘lgan.

Neolit davrida qadimgi qabilalar hayotida katta-katta o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Bu davr odamlari aksariyat hollarda daryo va daryo irmoqlari yoqasida, ko‘llar bo‘ylarida yashab, tabiiy imkoniyatlarga qarab, baliqchilik va ovchilik yoki dehqonchilik hamda qisman hunarmandchilik bilan shug‘ullanganlar. Neolit davrida qadimgi ajdodlarimiz loydan idishlar yasab ularni olovda pishirishni, ya‘ni kulolchilikni, shuningdek ip yigiruv asosida to‘qimachilikni kashf etdilar. Xatto yog‘och yoki qamishdan qayiq yasab suvda suzishni o‘zlashtirdilar. Demak, bu davr paleolit, mezolit davrlariga nisbatan yuksak taraqqiyot davri edi.

Neolit davri qabilalari orasida qay tariqa xo‘jalik yuritilishiga qarab quyidagi madaniyatlar tarkib topgan: Joytun madaniyati, Kaltaminor madaniyati, Hisor madaniyati.

Joytun madaniyati. Janubiy Turkmaniston hududidagi mil.avv. VI-V ming yilliklarga oid madaniyat. Bu yerdan Markaziy Osiyodagi birinchi paxsa uylar qoldiqlari, sopol idishlar namunalari aniqlangan. Aholisi asosan dehqonchilik, chorvachilik va qisman ovchilik bilan shug‘ullangan.

Kaltaminor madaniyati. Bu madaniyat yodgorliklari qadimgi Xorazm hududidan topilgan bo‘lib, mil.avv. V-IV ming yilliklarga oiddir. Topilmalar Kaltaminor, qabilalarining baliqchilik, ovchilik va qisman hunarmandchilik bilan shug‘ullanganidan dalolat beradi.

Hisor madaniyati. Asosan, Hisor-Pomir tog‘laridan topilgan. Miloddan avvalgi V-IV ming yilliklarga oid. Hisorliklar sopol idishlar yasab, asosan chorvachilik, ovchilik, qisman termachilik bilan shug‘ullanganlar.

Navoiy viloyati hududida qariyb 7 ming yil muqaddam ajdodlarimiz qo‘li bilan loydan yasalgan xumcha topildi. Neolit davrida odamzod tarixida tsivilizatsiyaning eng muhim ko‘rinishi yuz bergan edi. Bu davr odamlari o‘zlarining betinim mehnati natijasida kuzatuvchanlik qobiliyatlarini oshirdilar. Ular ibtidoiy bilimlarga ega bo‘lib, bu tushunchalarni hayotga tadbiq qildilar. Bu taraqqiyot inson hayotida termachilikdan ishlab chiqarish yo‘siniga o‘tishda namoyon bo‘ldi. Ya‘ni ovchilikdan, termachilikdan, baliq ovlashdan chorvachilikka, dehqonchilikka,

ziroatchilikka, metallardan foydalanishga, sopol ishlatishga o'tdilar. Xullas, bu davr insoniyat taraqqiyotining dastlabki eng yirik odimlaridan biri bo'lgan.

Eneolit (mis-tosh) davrida Markaziy Osiyoda quyidagi tarixiy-madaniy jarayonlar yuz beradi:

- xo'jalik yuritishda haydama dehqonchilik ustunlik qiladi;
- misdan ishlangan qurollar paydo bo'ldi;
- paxsadan va xom o'sishtan katta-katta uylar qurildi;
- kulolchilikda muhim texnika yutug'i-xumdonlardan foydalanila boshlandi;
- odamlar o'troq hayotga o'ta boshladilar, turli hayvonlarning loydan yasalgan va ona Urug'i (matriarxat) ga xos haykalchalar paydo bo'ldi;
- rangdor, turli tasvirlar bilan bezatilgan sopol buyumlar paydo bo'ldi;

Eneolit-(mis-tosh) davrida odamlar dastlabki metall bilan tanishadilar. Bu davrga kelib mis qurollar ancha takomillashgan bo'lsa-da, undan og'ir mehnat qurollari yasashning imkoni yo'q edi. Misdan asosan uy-ro'zg'or buyumlari, taqinchoqlar va harbiy qurollar yasalgan. Eneolit davri yodgorliklari Buxoro viloyatining Lavlakon, Beshbuloq, Uchtut (mis koni) mavzalaridan, Panjakent atroflaridan (Sarazm madaniyati) topib urganilgan. Bu davrga kelib, dehqonchilik Markaziy Osiyoning shimoli-sharqiy hududlariga ham yoyiladi.

Mil. avv. III - ming yillikka kelib, O'rta Osiyo hududlarida bronza qurollar keng tarqaladi. O'zbekiston hududlarida bronza davri yodgorliklari ko'plab uchraydi. Bu davrga mansub madaniyat izlari dastlab Xorazm, keyinroq esa Zarafshon va qashqadaryo hamda Farg'ona vodiylaridan topilgan.

Ulardan eng yiriklari Sopollitepa, Jarqo'ton, Tozabog'yob, Zamonbobo, Chust, Amirobod yodgorliklaridir. Bu yodgorliklarda olib borilgan tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, bronza davrida kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotida katta-katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Aholi xo'jalik yuritishning muayyan ko'rinishlariga, ya'ni vohalarda, ko'llar, daryolar va soylar bo'ylarida dehqonchilikka, dasht va tog'oldi hududlarida chorvachilikka (mehnatning dastlabki yirik taqsimoti) o'tib oldi.

Bu davrga kelib, O'rta Osiyoning ijtimoiy tuzumida ham o'zgarish jarayonlari bo'lib o'tdi. Urug'chilik tuzumi bronza davrida ham davom etgan bo'lsa-da, ona urug'ining mavqei yo'qolib bordi. Metall eritish va xo'jalikning rivojlanishi natijasida jamiyatda erkaklar mehnati va mavqei birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lib bordi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, bronza davri jamiyat taraqqiyotida, dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va hunarmandchilikning rivojlanishida erkaklar yetakchilik qilganlar. Ayollar erkaklar ishlab chiqargan narsalarni iste'mol qilishda ishtirok etsalar ham, unga egalik qilishdan mahrum bo'ladilar. Ishlab chiqarishda hukmronlik qilish shu tariqa erkaklar ko'liga o'tadi va ona urug'i tuzumi o'rnini ota urug'i (patriarxat) tuzumi egallaydi.

Bronza davriga kelib, ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi, mehnat unumdorligining oshishi natijasida kishilik jamiyati tarixiy-madaniy taraqqiyotida katta-katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu jarayonlarda bronzaning ahamiyati katta bo'ldi. Bronzadan (jezdan), nayza va kamon o'qlari uchi, pichoqlar, teshkichlar, parmalar, qirg'ichlar, o'roq va boshqa qurollar, zebu ziynat buyumlari, idishlar paydo bo'ldi.

Bu davrda jamiyat hayotidagi sodir bo'lgan turli taraqqiyot jarayonlari-kishilik tarixida muhim bosqich bo'lgan davlatchilikning paydo bo'lishi va rivojlanishi uchun ulkan ahamiyat kasb etdi.

Insoniyat tsivilizatsiyasida, xususan O'rta Osiyo xalqlari taraqqiyotida miloddan oldingi I ming yillikda metall-Temurning kashf etilishi katta bir inqilobiy hodisa bo'ldi. Temurdan yasalgan mehnat qurollari dehqonchilik va hunarmandchilikda texnika taraqqiyotini boshlab berdi. Xususan, dehqonchilikda yerni ishlash uchun keng imkoniyatlar ochildi. Zero, Temur mustahkam, kattiq va o'tkir edi.

Temurning paydo bo'lishi bilan odamlar tabiatga ta'sir o'tkaza boshladi. Sun'iy sug'orish tarmoqlari, kanallar qurildi. Dehqonchilikda Temurdan yasalgan ketmon, kurak, o'roq, omoch kabi mehnat qurollaridan foydalanish, yerni ishlashda tortuvchi kuch sifatida ot, xo'kizlarni qo'llash katta-katta maydonlarda qo'shimcha oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish, ularning zahirasini yaratish imkoniyatini vujudga keltirdi.

Natijada o'troq dehqonlar va ko'chmanchi chorvadorlar o'z mulklarini himoya qilish uchun harbiy ittifoqlar tashkil qila boshladilar. Ular o'rtasida tez-tez to'qnashuvlar bo'lib turdi. SHuningdek, tabiiyki, tinch davrlarda o'zaro tovar ayriboshlashlar ham keng rivojlandi. Bu hol hududimizda dastlabki sinfiy-quldorlik jamiyati paydo bo'lishi uchun shart-sharoit yaratdi.

Dastlabki tsivilizatsiyaning ilk madaniy va ma'naviy asoslari Misr, Falastin, Xitoy, Eron, Turon kabi hududlarda paydo bo'lgan. Tabiiyki, bu davlatlar va xalqlarning tili, dini, madaniyati bir-biriga ta'sir ko'rsatgan. Masalan, O'rta Osiyo xalqlari tomonidan yaratilgan Zardo'shtiylik ta'limoti va uning muqaddas kitobi "Avesto" Eron, Ozarbayjon va Shimoliy Hindistonda keng yoyildi.

Dastlabki tsivilizatsiyaning ma'naviy asoschilaridan biri bo'lgan Zardusht kim? Zardushtiylik nima? "Avesto"chi? qadimda o'lkamizda yashagan aholining ma'naviy va madaniy qiyofasi mashhur "Avesto" mazmunida o'z ifodasini topgan. Ma'lumki, bu muqaddas kitob Markaziy Osiyo xalqlari to'g'risidagi dastlabki noyob manbadir. "Avesto" avval xalq og'zaki ijodi shaklida tarqalgangan va bir necha asrlar davomida og'izdan og'izga o'tib, qadimgi Turon, Xuroson, Eron, Ozarbayjon elatlarining ijtimoiy iqtisodiy hayotini, olam haqidagi tasavvurlarini va diniy qarashlarini o'zida aks etdirgan. Bu asar ko'p yillar davomida zardushtiylik,

otashparastlik dinining kohinlari tomonidan to'ldirilib, takomillashtirilgan. Abu Rayhon Beruniyning "O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar" kitobida ta'kidlanishicha, "Avesto" ilk bor mil. av. I asr boshlarida to'liq holda 12 ming qoramol (hukiz) terisiga zarhal harflar bilan bitilgan. Iskandar Zulqarnayn (Aleksandr Makedonskiy) sharqni zabt etganda "Avesto" ning nodir nusxasidan o'ziga ma'qul bo'lgan joylarini tarjima qildirib olib qolgan, boshqa qismini esa yoqtirib yuborgan. SHu sabab, bu qomusiy asarning 5 dan 3 qismi kuydirib yuborilgan. Keyinchalik milodiy I- IV asrlarda "Avesto"ning qolgan qismlari jamlanib, ayrim joylari qayta tiklanib, yangidan kitob holiga keltirilgan. Bizga qadar "Avesto"ning ayrim qismlarigina yetib kelgan. Bular: "Yasna" ibodat paytida ijro etiladigan matnlar; "Yasht" otashparastlarning tangrini ta'riflash madhiyalari; "Videvdat" zulm timsoli devlarga qarshi qonunlar va afsonalar; "Visparat" ibodat yo'sinlari va mazmuni haqida ma'lumotlardir. "Avesto" katta hajmda bo'lganligi sababli, dindorlarning kundalik faoliyatida foydalanish uchun kichik "Avesto" ham yaratilgan. Unga katta "Avesto"dan tanlab olingan duolar kiritilgan. Demak, "Avesto"da zardushtiylik dinining qonun qoidalari, ibodat vaqtida ijro etiladigan qo'shiqlari bitilgan. "Avesto" ta'limotining asoschisi tarixda payg'ambar nomi bilan tanilgan Zardusht (Zardust) ismli shaxs bo'lgan. Zardusht oltin tuyali yoki oltin tuya yetaklovchisi degangan ma'noda ishlatilgan. Zardusht otashparastlik g'oyalarini o'z ham fikrlari bilan birgalikda Katta Xorazm, Baqtriya, Sug'd iyona, Eron, Ozarbayjon qisman Hindiston aholisi o'rtasida targ'ib etgan. Beruniy keltirgan rivoyatga ko'ra, Baqtriya podshosi Vishtasp va malika Xutaosa birinchilardan bo'lib zardushtiylik e'tiqodini qabul etganlar, so'ng bu din keng yoyilgan. "Avesto"da dunyo ezgulik va yovuzlikning doimiy kurashidan iborat, ezgulik xudosi Axuramazda (Xurmuzd) yovuzlik tangrisi Axriman ustidan g'alaba qozonishi bayon etilgan. Zardushtiylik dinida olov muqaddaslashtirilib, u insonning baxtu saodati ramzi sifatida ulug'langan.

Zardushtiylik jamiyatda barcha odamlar tanasining rangidan, tili, urf odatlari va yashagan joylaridan qat'i nazar, osoyishtalik bilan yorqin hayot kechirishga xaqlidir, deb hisoblaydi. Bu din odamlarni jur'atli, dovyurak, yetuk insonlar bo'lishga da'vat etadi. Otashparastlikda zamin (er), suv, quyosh va havo ilohiyat darajasiga ko'tariladi va ularni ifloslash og'ir gunoh hisoblanadi. Kitobda aytilishicha, Zardusht odamlarga murojaat qilib, yerga, tuproqqa sifatli urug'lar sepinglar, pirovard natijada o'z'laringiz har xil illatlardan va balolardan xoli bo'lasizlar. Bilib qo'yinglar, ishlov berilmagan tashlandiq yerlarda turli kasalliklar, iflos narsalar va balo qazolar paydo bo'ladi. Demak, sizlar yerga ishlov berib, unga yaxshi urug' sepib, tuproqni e'zozlasangiz har xil balolardan qutulasiz, hayotga, insonga ishonchingiz kuchayadi, yashagan joyingizga, vataningizga mehringiz oshadi, degandi.

Ko'rib turibmizki, zardushtiylikda tabiatga ehtirom asosiy yo'nalish bo'lgan. Zardushtiylik diniga oid turli buyumlar, rasmlar, urf-odat asoratlari qadimgi Xorazm,

Sug‘d va boshqa o‘lkalarda ko‘plab topilgan. Ko‘pchilik taqiqotchilarning fikricha, “Avesto”ning vatani Amudaryo sohili, aniqrog‘i qadimgi Xorazmdir. Bu asarda tilga olingan 16 yirik hududiy geografik nomlarning ko‘pchiligi O‘rta Osiyoga taalluqlidir. Bular Xorazm, Sug‘d, Baqtriya yurtlari, Hisor, Pomir, Tyanshan og‘lari, Kaspiy, Orol, Issiqko‘l suv havzalari, Amudaryo va Sirdaryolardir. Demak , bu muqaddas asarda geografiyaga oid mulohazalar ham bisyor. “Avesto” jahon olimlari tan olgan boqiy yodgorlik, noyob tarixiy manba. U dunyoning ko‘p tillariga tarjima qilingan. Kitob frantsuz, ingliz, rus, nemis, fors va boshqa tillarda chop etilgan. Asarning jahon madaniyati va dinlar tarixida tutgan o‘rni beqiyosdir. SHuning uchun ham 1999 yil noyabrda YUNESKO bosh konferentsiyasi “Avesto” yaratilganligining 2700 yilligini dunyo miqyosida keng nishonlashga qaror qildi. 2001 yil oktyabrda Xorazm zaminida “Avesto” va uning insoniyat taraqqiyotidagi o‘rni mavzusida xalqaro ilmiy konferentsiya o‘tkazildi.

Ma‘lumki qadimgi zamon moddiy va ma‘naviy taraqqiyoti fanda antik, ya‘ni qadimgi tsivilizatsiya deb atalgan. Jahonning turli mintaqalarida vujudga kelgan bunday taraqqiyot bora bora umuminsoniy qadriyatlarga, madaniyatga, tsivilizatsiyaga aylangan. O‘zbekiston esa insoniyat tsivilizatsiyasining qadimgi o‘choqlaridan biri bo‘lgan. Demak , o‘lkamizda yashab o‘tgan qadimgi ajdodlar jahon ravnaqiga, uning bugungi rivojiga o‘zining munosib hissalarini qo‘shganlar. SHu bois bugungi mustaqil O‘zbekiston xalqlarida milliy g‘urur bilan birga taraqqiyotga, tsivilizatsiyaga intilish hissi kattadir.

Zardushtiylikning qachon, qaerda paydo bo‘lganligi to‘g‘risida olimlar o‘rtasida turli fikrlar bor. Masalan, E.Berzin uning vatani Eron desa, V.V.Struve, S.P.Tolstov, N.Proxorov va boshqalar zardushtiylikning vatani O‘rta Osiyo deb hisoblaydilar. Bu dinning muqaddas kitobi “Avesto”da yagona xudo Axuramazda yaratgan 16 mamlakatning 9 tasi O‘rta Osiyoga tegishli – So‘g‘diyona (Gava), Marg‘iyona (Marv), Balx (Baxdi), Nisoya (Ashxobod atrofi), Hirot, qobul, Tus (Xuroson), Gurgan (Urganch), Varana (Turkmaniston va Eron chegarasida) ekanligi ham buni isbotlaydi.

Zardushtiylikning vatani O‘rta Osiyo, aniqrog‘i Xorazm deyishga yana bir asos shuki, zardushtiylik tamoyiliga ko‘ra oldingi odat-murdalarni olovda kuydirib kulini dafn etish o‘rniga marhum suyaklarini maxsus idish (ostadonlar)ga solib ko‘mish joriy etilgan. Bunday ostadonlar tadqiqotchi Yu.A.Rapponortning ta‘kidlashicha asosan O‘rta Osiyo hududlaridan topilmoqda.

Manbalarning guvohlik berishicha Zardusht mil.avv. VI asrda yashab ijod etgan. 40 yoshida ko‘p xudolikka qarshi chiqib yakkaxudolikni targ‘ib qilgan. O‘z ta‘limoti bilan zardushtiylik dini payg‘ambari sifatida tanilgan.

Zardusht yaratgan ilohiy kitob bo‘yiga 1 m 20 sm. eniga 70 sm. bo‘lib bizgacha to‘liq yetib kelmagan.U maxsus ishlov berilgan 12 ming mol terisiga oltin suvi yugurtirilib yozilgan. Avesto mil.avv. III asrda kitob xoliga keltirilgan. Bu kitob

haqiqiy ma'naviy asos edi. Zero, unda yaxshilik va yomonlik, poklik va nopoklik, syorug'lik va qorong'ulik o'rtasidagi doimiy kurash oxir- oqibatda yaxshilik g'alabasi sifatida tasviflanadi.

Kitobda poklanish, gunohdan forig' bo'lish, kechirim so'rash kabi duolar mavjud bo'lib, shaxsning axloqiy xislatlari haqgo'ylik, adolatlilik ulug'lanadi. Avestoda yer, suv, havoni bo'lg'ash, iflos qilish eng og'ir gunoh deyiladi. Jumladan, Axuramazda "erga yaxshi sog'lom urug'lar sepishdan ortiq savob ish yo'q" deydi.

Zardushtiylik ta'limotida ona zaminga, dehqonchilik, xunarmandchilik, chorvachilik, Vatan va xalqqa ulug' muhabbat ruhi markaziy o'rinni egallaydi. Umuman, "Avesto"da dunyoning yaratilishi, insonning xalq bo'lib kamol topishi, ezgulik uchun yovuz kuchlar bilan kurashish, erkinlik, ijodkorlik, bunyodkorlik yo'lidagi orzulari o'z ifodasini topgan.

"Avesto", uning xalqimiz va davlatchiligimiz tarixidagi ahamiyati haqida to'xtalib Prezidentimiz I.A.Karimov shunday degan edi: "Eng mo'tabar qo'lyozmamiz "Avesto"ning yaratilganligiga 3000 yil bo'layapti. Bu nodir kitob bundan XXX asr muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma'naviy tarixiy merosidir. "Avesto" ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy xujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi."

Mustaqillik tufayli biz "Avesto"ni o'z ona tilimizda o'qishga muvffaq bo'ldik. U nainki o'zbek tiliga, balki boshqa barcha tillarga ham to'liq tarjima qilinishi zarur bo'lgan ma'naviy qadriyatdir.

YUNESKO homiyligida 2001 yilda yurtimizda va jahonda "Avesto"ning 2700 yillik yubileyini keng nishonlanishi, Urganchda maxsus "Avesto" bog'ining barpo etilishi bu yo'ldagi dastlabki harakatlardir.

Vatanimiz hududida zardushtiylik bilan bir qatorda milodiy III asrdan moniylik dini ham tarqala boshlagan. Uning asoschisi Moniy ibn Fatak (216-277) bo'lib zardushtiylik, buddiylilik, braxmanlik, xristianlik dinlarini yaxshi o'rgangan va shular asosida o'z ta'limotini yaratgan kishi edi.

Moniylik ta'limotida borliqning ikki asosi - yorug'lik, yaxshilik, ruh bilan zulmat, yovuzlik o'rtasida o'zaro kurash e'tirof etilib, birinchi olamda xudo, ikkinchi olamda shayton, iblis hukm suradi. Moniy ta'limotiga ko'ra bu dunyo yovuzlik dunyosidir. U hayotda zohirona yashashni tarqib etib "Kimki boy bo'lsa, keyin qashshoq bo'lib sadaqa so'raydi va abadiy azob chekadi" deydi.

Ammo bu ta'limot o'z davrida ko'pgina xalqlar va davlatlarda qiziqish uyg'otsada, zardushtiylik va boshqa dinlar ta'sirida uzoq vaqt yashay olmadi, o'zga ta'limotlar (mazdakiylik, pavlikianchilik)ga asos bo'lib ular bilan qo'shib ketdi.

Qadimgi ajdodlarimiz madaniyat, san'at, yozuv va xalq og'zaki ijodi namunalarini rivojlantirishda ham o'ziga xos iz qoldirganlar. Xususan g'orlarning devorlariga tushirilgan tasvirlar, qoyatoshlarga ishlangan rasmlar. Hududimizda ibtidoiy san'atning bunday turi ikki xil usulda uchraydi. Birinchisi bo'yoq bilan, ikkinchisi urib-o'yib, ishqalash, chizish usuli. Zarautsoy, Sarmishsoy, Bironsoy, Ko'ksaroy, Takasoy kabi yuzdan ziyod joylardagi qoyatoshlarda buqalar, sherlar, yo'lbars, qoplon, tulki, bo'ri, bug'u, jayron, shuningdek, qopqon, o'q-yoy kabi rasmlar ham ko'p uchraydi.

O'lkamiz hududlaridagi eng qadimgi rasmlar Zarautsoy (Surxandaryo. Mil.avv. VIII-IV ming yillik), Tozabog'yob, Amirobod, Zamonbobo, Sopolli, Gujayli (bronza davri) madaniyatlariga oid. Ularda sopol idishlar, tosh, mis, bronzadan yasalgan qurollar, zeb-ziynatlar, yarim yerto'la shaklidagi uy-joylar va boshqalar topilgan. Bular orasida Zamonbobo ko'li yoqasida topilgan qabriston diqqatga sazovordir. Bu yerdagi erkaklar qabridan o'q-yoy paykonlari, pichoqlar, pichoqsimon tosh qurollar va turli shakldagi sopol idishlar, bronza ko'zgu, upadon, surmadon kabi pardoziy buyumlari, yarim qimmatbaho toshlardan ishlangan munchoq va marjonlar topilgan.

Bularning barchasi ajdodlarimiz madaniyati va san'ati yuksak bo'lganligidan dalolat beribgina qolmay, ular o'troq hayot kechirib dehqonchilik, chorvachilik va xunarmandchilik bilan shug'ullanganligidan ham dalolat beradi.

Insoniyat tsivilizatsiyasida yana bir muhim ahamiyatga molik narsa bu yozuvdir. Yozuv davlatchilikning muhim belgisi bo'lib, xalqlarning o'ziga xos rivojlanishi va taraqqiyotini bildiradi.

Manbalarning guvohlik berishicha, qadimgi ajdodlarimiz – Xorazmiylar, baqtriyaliklar, so'g'diyalar, parfiyonlar, dovonliklar, qang'lilar, kushonlar va boshqalar bundan 2300-2500 yil burun o'z yozuvlarini yaratganlar.

Mil.avv. birinchi ming yillik o'rtalarida hududimizda oromiy yozuvi keng tarqalgan. Uning zaminida So'g'd, Boxtar, Xorazm yozuvlari paydo bo'lgan. Bu yozuvlar qadimiy tangalar, muxrlar, hujjatlar, san'at asarlari, uy-ro'zg'or buyumlarida aks etgan bo'lib, ularning namunalari S.P.Tolstov tomonidan qo'yqirilgan qal'a qazishmalari vaqtida ko'plab topilgan va isbotlangan.

Shunday qilib O'rta Osiyo, xususan O'zbekiston insoniyat tarixiy taraqqiyotida o'ziga xos xudud bo'lib, bu yerda yashagan xalqlar o'z madaniyati, ma'naviyati, san'ati va dini bilan yer yuzidagi boshqa xalqlar tsivilizatsiyasiga munosib ulush qo'shgan. O'z navbatida fors, yunon, xitoy kabi xalqlar madaniyatidan bahramand bo'lib xalqlar va davlatlararo savdo- iqtisodiy va madaniy- ma'naviy aloqalarda ijobiy rol o'ynagan.

Nazorat savollari

1. Vatanimiz hududida ibtidoiy odamlar manzilgohlarini topib o'rgangan olimlardan kimlarni bilasiz?
2. Ibtidoiy odamlar hayotiga oid qanday asarlarni bilasiz?
3. Ibtidoiy jamiyat qanday davrlarga bo'linadi va nima uchun?
4. Paleolit davriga doir odamlar manzilgohlari qayerlarda va kimlar tomonidan topib o'rganilgan?
5. Paleolit davrida odamlar nimalarni kashf etishgan?
6. Urug'chilik jamoasi qaysi davrda shakllandi, uning bosqichlarini bilasizmi?
7. O'q-yoy qachon kashf etildi, uning inson hayotidagi ahamiyati nimada?
8. Mezolit davriga oid odamlar manzilgohlari qayerlarda, kimlar tomonidan topib o'rganilgan?
9. Neolit davri manzilgohlarini sanang, ularni topib o'rgangan olimlar kimlar?
10. Neolit davrida odamlar nimalarni kashf etishgan?
11. Ishlab chiqarish xo'jaligi nima, u qachon shakllandi?
12. Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik qachon vujudga keldi?
13. Bronza davrida odamlar hayotida qanday yangiliklar sodir bo'ldi?
14. O'troq dehqonchilik, sug'orma dehqonchilikning shakllanishi haqida nimalarni bilasiz?
15. Bronza davriga oid manzilgohlarni, ularni topib o'rgangan olimlarni bilasizmi?

3-mavzu. O‘zbek davlatchiligining shakllanishi va dastlabki taraqqiyot bosqichlari

REJA:

1. Davlatchilik tushunchasi. O‘lkamiz hududlarida dastlabki shaharsozlik madaniyati.
2. Vatanimiz hududidagi eng qadimgi davlatlar. (Katta Xorazm, Baqtriya podsholigi, So‘g‘diyona).
3. Yunon-Baqtriya, Parfiya, qang‘ va Davon davlatlari. Ulardagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.
4. Kushonlar saltanati va uning vatanimiz xalqlari tarixidagi tutgan o‘rni.

Tayanch so‘z va iboralar: *O‘zbek davlatchiligi: shakllanishi, rivojlanishi. Qadimgi Xorazm. Baqtriya. Sug‘diyona. «Avesto». To‘maris. Shiroq. Spitamen. Ellinizm. Yunon-Baqtriya. Qang‘a. Davan. Kushonlar. Xioniylar. Buyuk Ipak yo‘li.*

Nafaqat O‘zbekiston, balki dunyo tarixida ilk davlatchilikning paydo bo‘lishi masalalari hozirgi kunda tadqiqotchilar orasida eng dolzarb bo‘lib turgan muammolardan biri hisoblanadi. Davlatchilikning ildizlari va paydo bo‘lish shart-sharoitlarini aniq bilish kata ahamiyatga ega.

Davlat bu siyosiy tashkilot, muayyan hududda joylashgan va yagona hokimiyatga uyushgan xalq hokimiyatidir. Davlat insoniyat taraqqiyotining ma‘lum bir bosqichida ishlab chiqarish qurollari va vositalariga egaligi, xususiy mulkchilikning paydo bo‘lishi va jamiyat tabaqalasha boshlashi bilan ro‘y bergan mehnat taqsimoti natijasida vujudga kelgan tashkilot.

Davlat, uning mohiyati, mazmuni har bir tarixiy davrda jamiyat mafaatlari va ehtiyojlari bilan bog‘liq xolda o‘zgarib boradi.

Davlatning kelib chiqishi xaqida turli nazariyalar - teologik nazariya, patiriarxal nazariya, shartnomaviy nazariya, zo‘rovonlik nazariyasi, psixologik nazariya, marksistik nazariya, irrigatsiya nazariyasi mavjud. Davlatning belgilari: yozuv, xududiy birlik va rasmiy davlat (boshqaruv) hokimiyati. Davlatning mohiyati uning funktsiyalarida, ya‘ni davlat faoliyatining asosiy yo‘nalishida, uning ichki va tashqi siyosatining mazmuni va xarakteri bilan belgilanadi: masalan, quldorlik davlati, feodal davlat va hokazo.

Yangi tosh davriga (neolit) kelib O‘rta Osiyo hududlarida dehqonchilikning paydo bo‘lishi jamiyat hayotida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini yanada tezlashtirdi. Bronza davriga kelib dehqonchilikdan chorvachilikning ajralib chiqishi, ixtisoslashgan hunarmandchilik, ho‘jaliklarining rivojlanishi natijasida ishlab chiqarish hajmi ko‘payib, mehnat qurollari yanada takomillashib bordi. Mehnat qurollarining metaldan ishlanishi esa mehnat unimdorligining yanada oshishiga keng imkoniyatlar yaratdi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik O'rta Osiyo xo'jaligining asosi hisoblanib, bu jarayon janubiy Turkmaniston, Tojikiston va O'zbekistonning janubida bronza (mil.avv. III-II yilliklar) davrida, Toshkent vohasi va uning atroflarida esa ilk Temur (VIII-IV asralar) davrida shakllanib rivojlandi. O'rta Osiyoda ilk davlat uyushmalari sun'iy sug'orish birmuncha qulay bo'lgan Amudaryo (yuqori, quyi, o'rta) oqimlari bo'ylarida, Murg'ob vohasida, Zarafshon va qashqadaryo vohalarida shakllangan va rivojlangan. Bunday holatni dunyo tarixidagi dastlabki davlatlar-Misr (Nil daryosi) va Mesopotamiya (Dajla va Frot) misolida ham kuzatish mumkin.

Arxeologik tadqiqotlarga, "Avesto" va boshqa yozma manbalarga tayanib aytish mumkinki, mil.av. I ming yillikning birinchi yarmida, aniqrog'i bundan taxminan 2700 yil ilgari Markaziy Osiyoda Katta Xorazm, Baqtriya, so'ng Sug'diyona, Marg'iyona deb atalgan davlat tuzilmalari paydo bo'ladi. Davlatchilikning vujudga kelishini qanday shart sharoitlar taqozo etgan? Mintaqamizda yerni qayta ishlash, yangi mehnat qurollarini yaratish inson faoliyatining kengayishi va jadallashuviga olib keldi. Sug'orma dehqonchilik kengayib bordi, hunarmandchilik sohalari ko'paydi, kishilarning o'troqlashuvi shaharlarning paydo bo'lishiga turtki bo'ldi. Urug'chilik munosabatida o'zgarishlar yuz berdi, juft oilalar vujudga keldi, oila jamoasi ishlab chiqarish jamaolariga aylandi, ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilib bordi. Jamiyatdagi ijtimoiy tenglik barham topdi. Mulkka egalik esa turli ziddiyatlarni vujudga keltirdi. Jamiyatda mulkdorlar, xo'jayinlar va tobelar, kambag'allar qatlami paydo bo'la boshladi. Ijtimoiy tabaqalanish jarayoni kuchaydi. Jamoalar o'rtasida turli to'hnashuvlar, janjallar ko'payib bordi. Bunday sharoitda jamiyatda ijtimoiy, siyosiy barqarorlikka ehtiyoj kuchayadi. SHu alfoz ijtimoiy iqtisodiy hayotda tartib tizimi-davlatchilik alomatlari vujudga kela boshlaydi. Dastlabki bunday uyushmalar avval kichik mintaqalarda paydo bo'ldi. So'ng ular hududi kengayib bordi. Bunday ma'muriy-hududiy jamoa boshliqlarining faoliyati asosan aholi hamjihatligini ta'minlash, muammolarni yechish, nizolarni bartaraf etish doirasida kechar edi

"Avesto" kitobidagi va boshqa ma'lumotlarga ko'ra, qadimda, taxminan bundan 3-3,5 ming yil muqaddam O'rta Osiyo jamiyati alohida yirik oilalardan tashkil topgan ekan. Urug' jamoasi (vis) yerga egalik qilgan, bir nechta bir-biriga yaqin bo'lgan urug'lar qabilaga birlashgan. Nisbatan yirik qabilalar esa muayyan hududda birgalashib yashaganlar. Bu birlashma daxyo degan nom olgan. Viloyat boshlig'i daxyopati deb atalgan. Ana shu uyushma dastavval harbiy-siyosiy birlashma sifatida paydo bo'lgan. Ular o'zi yashagan hududni mudofaa qilgan, sug'orish ishlarini uyushtirgan va boshqarib borgan. qabila boshliqlari vaqti vaqtida to'planib, kengashib turishgan. Bular dastlabki davlatchilikning alomatlari edi. Iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot jarayonida jamiyatning siyosiy tuzilmasi davlat va uni boshqaruv tizimi muttasil takomillashib borgan. Xususan, davlatlar paydo

bo'lishining osiyocha ishlab chiqarish usuliga asoslangan "SHarq yo'li" bo'lib, unda iqtisodiyotning asosini sug'orma dehqonchilik tashkil etgan. Binobarin, yer va irrigatsiya inshootlari davlatning mulki bo'lgan. SHuningdek, dehqonchilik jamoasi jamiyatning birlamchi yacheykasi, ya'ni hujayrasi hisoblanadi. Aholining katta qismini safarbar etish zarurati esa, qat'iyatli boshqaruvchilar tabaqasining shakllanishiga olib kelgan. O'rta Osiyodagi ikki daryo oralig'i—alohida tarixiy geografik va tarixiy—madaniy hududdir. Uning tsivilizatsiyasi Amudaryo va Sirdaryo tufayli ko'p ming yilliklar mobaynida vujudga keldi. Bu mintaqada yuzaga kelgan davlatlar qadimgi davrlarda ham, o'rta asrlarda ham umumiy belgilar bo'lishiga qaramay, Markaziy Osiyoning boshqa qismlaridagi davlatlardan o'ziga xos belgilariga ko'ra ajralib turgan. O'rta Osiyodagi ikki daryo oralig'i hududi doirasining o'zida ham shimoliy viloyatlar (Xorazm) va janubiy viloyatlar (Baqtriya) ayniqsa qadimgi davrlarda etnik va madaniy, til va yozuv, davlat qurilishi tizimi jihatidan bir biridan farq qilgan. Bu har bir viloyatga xos bo'lgan madaniy—genetik tiplar, darajasi har bir viloyatda turlicha bo'lgan o'troq va ko'chmanchi xalqlarning raqobatlashuvi bilan belgilangan. qadimgi davrda O'rta Osiyo ikki daryo oralig'ida davlat birlashmalarining har xil shakllari mavjud bo'lgan:

O'rta Osiyodagi qadimgi davlatchilik evalyutsiyasini (taraqqiyotini) bir necha davrlarga ajratib ko'rsatish mumkin:

1-davr miloddan avvalgi II ming yillikning II yarmi O'zbekiston janubida davlatchilik tuzilmalarining ilk belgilari paydo bo'ldi. Davlatning bunday namunasi Jarqo'tonda topilgan.

2-davr miloddan avvalgi I ming yillikning boshi Xorazm Baqtriya, Sug'd tarixiy madaniy viloyatlarining shakllanishi.

3-davr Ahamoniylar bosqini va O'rta Osiyoning Ahamoniylar davlati tarkibiga kirishi natijasida mahalliy davlatchilik rivojlanishidagi tanaffus.

4- davr miloddan avvalgi IV-II asrning ikkinchi yarmi. A. Makedonskiy bosib olgandan boshlab Yunon Baqtriya podshohligining qulashigacha.

5-davr miloddan avvalgi II asrning ikkinchi yarmi va milodiy I asr boshi. Mahalliy davlatlar: qang', Xorazm podshohligi; Sug'd, Dovon davlatlarining mustahkamlanishi va yanada rivojlanishi.

6-davr milodiy I asr boshidan III asr o'rtalarigacha. Mahalliy davlatchilikning ravnaq topishi.

Insoniyat tsivilizatsiyasining dastlabki o'choqlaridan biri hisoblanadigan O'rta Osiyo, xususan O'zbekiston o'zining qadimiy shahar madaniyati bilan ham jahonga mashhurdir.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, ilk shaharlarning paydo bo'lishi dastlabki davlatchilik shakllanishida eng muhim va asosiy omil bo'lib, bu ikkala jarayon uzviy bog'liq holda kechgan.

Ma'lumki, mil.avv. II ming yillikka kelib qadimgi O'zbekistonning dehqonchilik vohalarida o'troq qabilalar rivojlanib, aholining alohida joylashuv manzilgohlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar-o'troq dehqonchiligining rivojlanishi, aholi zichligining yuqori darajasi, hunarmandchiligining taraqqiy etishi, ijtimoiy tabaqalanish va boshqaruv tizmining murakkablashib borish, o'zaro almashinuv, savdo-sotiq va madaniy aloqalarning kuchayishi hamda harbiy-siyosiy vaziyat O'zbekiston hududlarida dastlabki shaharlarning paydo bo'lishida asosiy omillari hisoblanadi.

Jamiyat hyotida sodir bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar mil.avv. III ming yillikning oxiri-II ming yillikning boshlariga kelib, O'rta Osiyo hududlarida dastlabki shaharlarning paydo bo'lishiga olib keladi. SHahar madaniyatining shakllanishi ham huddi jamiyat taraqqiyotida bo'lgani kabi taraqqiyot yo'li bilan rivojlangan. Bu qonuniyatga ko'ra shaharsozlik madaniyat-ining shakllanishi, uzoq, bosqichma-bosqich davrlarni bosib o'tgan. Mil.avv. II ming yillikka oid O'rta Osiyodagi Jarqog' on Sopolli, Dashli, Gonur, Namozgoh, Oltitepa, Ulug'tepa kabilar ilk shaharsozlik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi uchun quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega bo'ldi:

- aholining o'troq dehqonchilikka o'tish va keng vohalar bo'ylab yoyilishi;
- hunarmandchilik rivojlanishi va ayrim sohalarga ixtisosilashishi;
- qadimgi savdo yo'larining rivojlanishi natijasida iqtisodiy va madaniy aloqalar hamda savdo-sotiqning taraqqiy etishi;
- Tabbiy-geografik hamda hrbiy-strategik shart-sharoitla.

Shahar madaniyati dastvval O'zbekistonning janubida, Surxondaryo hududida shakllandi, so'ngra esa shimolga So'g'd (qashqadaryo, Samarqand, Buxoro), Xorazm, Shosh va Farg'ona hududlariga tarqaldi. Bu-aynan yurtlar va xalqlar taraqqiyotidagi notekislik kabi tarixiy qonuniyatga zid emas.

Ko'p sonli arxeologik topilmalarning dalolat berishicha, O'zbekistondagi ayrim ko'xna shaharlarning yoshi 2700-3000 yildan kam emas. Ularga Afrosiyob (Samarqand), qiziltepa (Surxondaryo), Uzunqir, Yerqo'rg'on (qashqadaryo) kabilar kiradi. qadimgi shaharlar-tarixiy rivojlanishidagi urbanistik jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lgan jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy asosi hisoblanadi. Fikrimizcha, shaharlar tarixini o'rganish jarayonida dastavval, eng qadimgi shaharlar shakllanishi va rivojlanishi; aniq hududlar va viloyatlardagi tarixiy-madaniy shart-sharoitning ta'siri; ekologik-geogarfik, ijtimoiy, iqtisodiy va demografik muhitlarning darajasi va ta'sir doirasi; shaharlarning vazifasi; qadimgi shahar markazlarning tarixiy-madaniy jarayonlardagi o'rni va ahamiyati masalalariga keng e'tibor qaratish lozim.

Amudaryoning quyi oqimida yashaydigan o'troq dehqon elatlari xorazmliklar bo'lgan. Ularning yurti Xvarizam ("Avesto"da), Xvarazmish (Behistun yozuvlarida), Xorasmiya (Arrian, Strabon asarlarida) deyilgan. Sug'diylarning eng yaqin qo'shnilari baqtriyaliklar bo'lib, ularning yurti Surxon vodiysi, Afg'onistonning shimoli, Tojikistonning janubiy hududlarida joylashgan. Yozma manbalarda u Baxdi ("Avesto"da), Baktrish (Bexistun yozuvlarida) deb nomlangan. Yunon-rim mualliflari uni Baktriana yoki Baktriya deb ataganlar. Amudaryo buylarida ko'chmanchi massaget qabilalari yashaganlar. Markaziy Osiyoning tog'lik, cho'l va sahro yerlarida asosiy mashg'uloti chorvachilik bo'lgan saklar istiqomat qilishgan. Miloddan avvalgi I asrda ular o'z yerlarini boshqa qabilalar hujumidan himoya qilish uchun harbiy-qabila ittifoqini tuzadilar. qadimgi rim va yunon tarixchilarining yozishlaricha, saklar uch ijtimoiy guruhga bo'lingan. Ularning ko'pchilik qismi saka-tigraxauda, ya'ni o'tkir uchli kigiz qalpoq kiyib yuruvchi saklar deb atalgan. Ular hozirgi Toshkent viloyati va Janubiy qozog'iston yerlarida yashaganlar. Ikkinchi guruh saka-tiay - taradarayya, ya'ni daryoning narigi tomonida yashovchi saklar deb atalgan. Ular Orol dengizi buylarida, Sirdaryoning quyi oqimida yashaganlar. Pomirning tog'li tumanlarida va Farg'onada saka - xaumovarka deb ataluvchi saklar yashaganlar. Miloddan avvalgi II-I asrlarda yuqorida ko'rsatilgan o'lkalarda yashovchi aholi ilk davlat uyushmalarini tashkil etganlar. Bu davlat uyushmalari o'zining ma'lum hududi, chegaralariga ega bo'lib, iqtisodiy-geografik makon-katta bir viloyat sifatida shakllanib borgan. Bu davrlarda Xorazm, Baqtriya, Marg'iyona, Sug'diyona, Farg'ona kabi viloyatlar mavjud edi. Ahmoniylar bosqiniga qadar o'lkaning asosiy qismini birlashtirib turuvchi siyosiy markaz shimolda Xorazm, janubda Baqtriya hisoblangan.

"Katta Xorazm" davlat uyushmasi ittifoqi hududi hozirgi Xorazm yerlari bilan chegaralanib qolmay, balki uning atroflari-hozirgi qoraqalpog'iston, Marv hamda Amudaryoning quyi oqimigacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga olgan. "Katta Xorazm" davlati to'g'risida xorazmshunos olim S.P.Tol'ystov, yevropalik olim V.Xenn, I.Gershkovich, birinchi o'zbek arxelog olimi Ya./ulomov ham qimmatli ma'lumotlar beradilar. Ular "Avesto" dagi ma'lumotlarga asoslanib, Markaziy Osiyoning katta qismi "Katta Xorazm" xududiga qarashli ekanligini isbotlashdi ("Avesto" da tilga olingan 16 viloyatning 9 tasi Katta Xorazm hududida joylashgan

Yunon tarixchisi Gerodot ma'lumotiga ko'ra qadimda Oks (Amudaryo) bo'ylab 360 dan ziyod sun'iy kanallar, suv inshootlari mavjud bo'lgan. Dehqonchilikda dukkakli ekinlar, meva-sabzavot yetishtirishga e'tibor ko'p bo'lgan. Paxtachilik rivoj topa boshlagan. qal'aliqir, Ko'zaliqir, Janbosqal'a kabi shaharlar barpo etilgan. Davlatni mustahkamlash maqsadida poytaxt va boshqa shaharlar qalin va mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Gerodotning asosli ma'lumotlariga qaraganda, miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda Oks-Tajan vohasi. Ya'ni hozirgi

Turkmaniston xududlari "Katta Xorazm" yerlari bo'lgan. Biroq ilk davlatchilik masalasida juda ko'plab ilmiy munozaralar, baxslar bo'lib o'tganiga qaramay, bu masala hanuz o'z yechimini topgan deb hisoblanmaydi. Xususan, "Katta Xorazm" davlatining hududiy joylashuvi va paydo bo'lgan davri masalalari ham ancha munozarali mavzu. Rivoyat va afsonalarga qaraganda Xorazmning eng qadimiy siyosiy sulolalari sifatida, Siyovushiylar tilga olinadi. "Avesto" bo'yicha Siyovarshon Kavousning o'g'li bo'lgan. Siyovarshon o'limidan so'ng uning nabirasi Kova Xisrav bobosi qotilidan o'ch olib Xorazmda birinchi sulolaga asos soladi. Abu Rayxon Beruniyning "Osorul boqiya" (qadimgi ajdodlardan qolgan yodgorliklar) kitobida Xorazmga aholi miloddan avvalgi 1292 yilda kela boshlagan deb ko'rsatiladi. Afsonaviy Siyovushning Turon zaminiga kirib kelgan sanasini esa miloddan avvalgi 1200 yilda deb belgilaydi.

Ammo Katta Xorazm davlatining yaxlit tarixi, uning qachon inqirozga uchraganligi haqida yozma ma'lumotlar uchramaydi. Biroq shu narsa ma'lumki, miloddan avvalgi IV asrda Farasman degan podshoh, qadimgi Xorazm davlatida hukmdorlik qilgan. Uning davlatining hududi Amudaryoning quyi havzasida edi. U Iskandar Zulqarnayn yurtimizga bostirib kirganda uning huzuriga o'z qo'shinlari bilan keladi va shimolga yurishda o'z qo'shinlari bilan yordam berishni taklif qiladi. Bu bilan Farasman Iskandar Zulqarnaynning Xorazm ustiga qo'shin tortib borishining oldini olgan edi.

Ichki va tashqi savdo-sotiq yuksak darajada rivojlangan "Avesto"da ta'kidlanishicha, Xorazmning qadimiy sulolasi Siyovushiylar bo'lgan. Xorazm davlati miloddan avvalgi I asrgacha o'z mustaqilligini saqlab qola olgan.

Markaziy Osiyodagi yana bir qadimgi davlat uyushmasi– Baqtriya edi. Bu davlatning hozirgi Surxondaryo, qisman qashkadaryo viloyatlari, janubiy Tojikiston va shimoliy Afg'oniston hududlarida joylashganligi ma'lum. Bu davlat haqidagi dastlabki ma'lumotlar yunonistonlik tabib Ktesiy asarlarida uchraydi. Boshqa yunon salnomachisi Diodot esa Ktesiy ma'lumotlariga asoslangan holda Ossuriya podshosi Ninning Baqtriyaga qilgan harbiy yurishlari haqida xabar beradi. Nin baqtriyaliklarga qarshi 170 ming piyoda 210 ming otliq askar to'plab hujum boshlagan. Poytaxt Baqtra (hozirgi Balx) mustaxkam mudofa inshootlariga ega bo'lgan. Baqtriya hukmdori Oksiart esa vatan himoyasiga 400 ming kishilik qo'shin to'playdi. Dastlab Baqtriya qo'shinlari Ossuriyaliklarga katta talafot keltiradi, lekin keyinchalik chekinishga majbur bo'ladi va qo'shinlarni bo'lib shaharlar mudofasiga yuboradi.

Bunda ustalik bilan foydalangan Nin shaxarlarni birin-ketin bosib oladi, ularning boyligi talanadi. Ma'lum vaqt o'tgach Midiya bilan Ossuriya o'rtasida urush kelib chiqadi. Midiya aslzodalari baktriya qo'shinlarini o'z tomonlariga og'dirib olib, Ossuriya qo'shinlariga katta talofat keltirganlar. Ktesiy Ahmoniylar podshosi Kir II ning Sharqqa yurishi munosabati bilan yana Baqtriya haqida ma'lumotlar beradi

Keyingi yillarda qadimgi Baqtriya xududida olib borilgan arxelogik tadqiqot ishlari natijalari Janubiy Baqtriyada Oltin-1 va Oltin-10, hamda Baqtra shahri vayronalari, Shimoliy Baqtriyada esa Kuchuktepa, qiziltepa, Talashkantepa, Bandixon-2 kabi yodgorliklar qadimgi Baqtriya podshohligi haqida qadimgi mualliflarning bergan ma'lumotlari to'g'ri ekanligini tasdiqlaydi. Topilmalar bu davlatda yashagan aholi mustahkam mudofa devorlari bilan o'rab olingan shahar tipidagi makonlarda yashab dehqonchilik, chorvachilik va xunarmandchilik, binokorlik va savdo-sotiq bilan shug'ullanishganligini tasdiqlaydi. Baqtriya Buyuk Ipak yo'lining markazida joylashganligi sababli qadimgi shahar madaniyati aynan shu hududda shakllangan. Gerodot Baqtriyani Misr va Bobil kabi yirik davlatlar qatorida tilga oladi. qadimgi Baqtriya tabiiy boyliklari tufayli Xitoy, Hindiston, Misr, Bobil qatorida mashhur bo'lgan. Masalan, Badaxshon lojuvardi (lazuriti) boshqa yurtlarda ham qadrlangan. "Avesto"da Baqtriya eng go'zal o'lkalardan biri sifatida ta'riflanadi. Unga qarashli Vaxsh vodiysi unumdor bo'lib, dehqonchilik madaniyati taraqqiy topgan. Hunarmandchilikda ayniqsa zargarlik keng rivojlangan edi. Eronda saroy tabibi bo'lib ishlagan yunon tarixchisi Ktesiyning yozishicha, Baqtriya miloddan avvalgi III–II asrlarda qudratli davlat bo'lgan. Bu davlat bir qancha mahalliy hokimliklarni birlashtirgan harbiy demokratiya tipidagi davlat edi. Baqtriya hukmdorlari oltin va kumush tangalar zarb etganlar. "Baqtriya" nomi Esxilning eramizgacha bo'lgan 472 yili sahnaga qo'yilgan "Forslar" tragediyasida ham uchraydi. Ko'plab mualliflar baqtriyaliklarga "ko'p sonli", "jangovar" va "botir" xalq sifatida tavsif beradilar.

"Avesto" hamda yunon mualliflarining guvohlik berishicha, Zarafshon va qashkadaryo vodiysida dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi ko'plab aholi istiqomat qilgan. Yozma manbalarda bu hudud Sug'da ("Avesto"da), Suguda (Behistun yozuvlarida), Arrian, Strabon, Kurtsiy Ruf asarlarida esa Sug'diyona deb nomlangan.

Sug'diyona hududlari hozirgi O'zbekistonning Samarqand, Navoiy, Buxoro va qashkadaryo viloyatlari, Tojikistonning Panjikent, O'ratepa va Xo'jand yerlarini o'z ichiga olgan. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida qadimgi davlatlar ro'yxatiga Sug'diyona davlatini ham kiritish imkoniyati tug'ildi. Miloddan avvalgi IX-VII asrlarga oid tarixiy-madaniy yodgorliklar Sug'diyona hududlarida davlatchilik tarixi aynan mana shu davrdan boshlanganligidan dalolat beradi. Turli manbalarda Sug'da, Sug'uda, Sug'diyona nomlari bilan mashhur bo'lgan qadimgi tarixiy madaniy o'lka hozirgi Zarafshon va qashqadaryo vohalarini o'z ichiga oladi. Ilk davlatchilikning eng asosiy belgilaridan bo'lgan ko'hna shahar xarobalari So'g'diyonaning to'rta joyida (Erqo'rg'on, Afrosiyob, Uzinqir, Ko'ktepa) topib o'rganilgan bo'lib, ular hozircha O'zbekistondagi eng qadimgi rivojlangan shahar madaniyatini o'zida aks ettiradi.

Sug‘diyona yashagan aholi yuksak dehqonchilik va chorvachilik madaniyatiga ega bo‘lganlar. Bu yerda hunarmandchilik ham yaxshi rivojlangan. Yaqin-yaqinlarga qadar sug‘d kulolchiligi miloddan avvalgi VI-IV asrlardagi Eron axamoniylari kulolchilik sa‘nati bilan bog‘lanar va uni ”axamoniylar sopoli” deb atardilar. Keyingi 25-30 yil davomida o‘tkazilgan arxeologik qazishmalar Sug‘diyona kulolchiligi”- miloddan avvalgi IX-VII asrlardayoq, rivojlanganligini isbotladi. Davlatning markazi Marokanda (Samarqand) bo‘lgan. Eng qadimgi shahar–Afrosiyob taxminan 2700–2800 yil muqaddam tashkil topgan. Sug‘d tili o‘sha paytlardayoq jahon savdo tili darajasiga ko‘tarilgan. Bu davlat qo‘shni mamlakatlar bilan savdo–sotiq, tijorat ishlarini yo‘lga qo‘ygan.

Gerodotning O‘rta Osiyo to‘g‘risidagi asosiy fikrlari forslarning sak-massagetlarga qarshi yurishlari, Kir II va Tumaris o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar, ahamoniylar qo‘shinlari tarkibida yurtimiz xalqlari jangchilarning ishtroki, ularning qurol-aslahalari, yo‘lboshchilari, ularning jasratlari, sak-massagetlarning turmush tarzi va diniy e‘tiqodi va boshqa ma‘lumotlardan iborat:

O‘zbek xalqining ilk davlatchilik tarixi geografik, hududiy ma‘noda hozirgi O‘zbekiston hududiga to‘g‘ri kelmaydi. Ilk davlatlar orasida aniq ma‘muriy chegaralar bo‘lmagan. qadimgi Baqtriya, Xorazm, Sug‘d chegaralari tabiiy bo‘lib yaqin hududlardagi joylarning geografik bo‘luvchisi sifatida dashtlar, cho‘llar va tog‘lardan foydalanilgan.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalqi va uning ajdodlari ilk davlatchiligi taraqqiyoti o‘troq dehqonchilik xo‘jaligi va qadimgi shaharlar tarixi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Ilk davlatlar tashkil bo‘lishida, jamiyat rivojlanishining ichki qonuniyatlaridan tashqari ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlarning yuqori darajasi-hunarmandchilik, almashinuv va savdoning kuchayib borishi, siyosiy qarama – qarshiliklar va harbiy to‘qnashuvlar ham ta’sir qilgan.

Vatanimiz hududidagi eng qadimgi davlatlar miloddan avvalgi VI –IV asrlarda Eron ahamoniylariga tobe bo‘lib yashadilar. Mil. avv. 329 yildan boshlab bu hududga Iskandar Zulqarnayn boshchiligida yunon–makedon qo‘shinlari bostirib kirdi. qadimgi Baqtriya va Sug‘diyona zo‘rlik bilan Iskandar Zulqarnayn davlati tasarrufiga kiritildi. Mil. avv. 323 yilda Iskandar Zulqarnaynning Bobilda vafot etishi siyosiy vaziyatni o‘zgartirib yubordi. Yunon hukmdorlari o‘rtasida hokimiyat uchun shafqatsiz kurash boshlandi. Mil. avv. 312 yilda Iskandarning eng ishonchli sarkardalaridan biri Salavka kurashda g‘olib kelib Bobil, Midiya, Old Osiyo, Eron va O‘rta Osiyoda o‘z hukmronligini o‘rnatdi. Biroq Baqtriya, Parfiya va Sug‘d yerlarini bo‘ysundirish uchun ko‘r urushlar qildi va mil. avv. 306 – 301 yillardagina ularni bo‘ysundirdi.

Salavka Iskandar davrida Spitamenni qiziga uylangan edi. qarindoshchilikni hisobga olibmi yoki boshqa maqsadni nazarda tutibmi, Salavka mil. avv. 293 yilda

o'g'li Antiox I ni SHarqiy viloyatlarga, jumladan, O'rta Osiyo yerlariga hokim etib tayinlaydi. Biroq salavkiy hukmdorlari hokimiyatni qo'lda saqlab qolish uchun tinimsiz urushlar olib borishdi. Ular davlatni satraplarga (viloyatlarga) bo'lib boshqarishdi. Har qaysi satraplikni shoh tomonidan tayinlab qo'yilgan satrap yoki strateg deb nomlanuvchi shaxs boshqargan. Ular asosan yunonlardan, ayrim hollarda ellinlashgan mahalliy aholidan tayinlangan.

Mil. avv. 360 - 350 yillarga kelib Kichik Osiyo va Bolqon yarim orolida Salavkiy hukmdorlari o'rtasida hokimiyat uchun kurashlar avj oldi. Natijada salavkiylar davlatining sharqiy satraplari siyosiy hayotida o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Miloddan avvalgi 250 yilga kelib dastlab Parfiya, keyin esa Yunon-Baqtriya davlatlari salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chiqdi. (Miloddan avvalgi VII asrga oid Ossuriya hujjatlarida Parfiya haqidagi dastlabki ma'lumotlar uchraydi).

Miloddan avvalgi 247 yilda Parfiyada arshak boshchiligidagi parmlar qabilasi Niso shahriga hujum qilib uni egallaydilar. SHu yili parmlar Arshakni o'zlariga podsho qilib saylaydilar. Tarixiy manbalarga qaraganda Arshak o'zining tashkilotchiligi, jasurligi va mohir diplomatligi sababli qisqa muddat ichida mustaqil davlat tuzishga erishdi. Miloddan avvalgi 235 yildan boshlab Parfiya podsholari o'z davlatlari xududini kengaytirib bordilar. Miloddan avvalgi 155 yilda Midiya podsholigini, 141 yilda Bobilni bosib oldilar va Rim imperiyasining kuchli raqibiga aylanadilar. Ikki kuchli saltanatning o'zaro munosabatlari SHarq va /arbdagi siyosiy jarayonlarni belgilab bera boshlaydi.

Miloddan avvalgi 1 asrga kelib ba'zi davlatlar Parfiya davlati tarkibidan chiqib keta boshlaydi. Parfiya davlatiga Arshakiylar miloddan avvlgii III asr o'rtalaridan milodning III asriga qadar hukmronlik qilgan. Bu davrda fors yerlarida yangi kuchli davlat Sosoniylar davlati vujudga kelmoqda edi. Keyinchalik Parfiya saltanatini ana shu Sosoniylar davlati ag'darib tashladi. Yunon-Baqtriya davlatining salavkiylardan ajralib chiqishga yunon zodagonlarining qo'zg'oloni sabab bo'ldi. Bu qo'zg'olonga diodot rahbarlik qildi va uni mahalliy aholi qo'llab quvvatladi. Diodot o'zining ming shaharlik Baqtriya davlatining shohi deb e'lon qildi. Diodotdan keyin Yunon-Baqtriya Yevtidem hukmronlik qildi. Miloddan avvalgi 199-167 yillarda hukmronlik qilgan Yevtidemning o'g'li Demetriy davrida Yunon-Baqtriya davlati o'z taraqqiyotining yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. Bu davlatga Hindistonning ham bir qismi qo'shib olindi. Parfiyada hokimiyat Mitridat I qo'liga o'tishi bilan Baqtriya harbiy tazyiqni kuchaytirdi. Shundan keyin Mitridat I Margiyonani bosib oldi. Bir oz vaqt o'tgach Sug'diyona Baqtriya dan ajralib chiqdi. Yevtidem, Demetriy, Yevkradit, Geliokl hukmronlik qilgan davrlarda tinimsiz urushlar olib borildi va Hindistonning shimoliy-g'arbiy qismidan Amudaryo va Sirdaryo o'rtasidagi katta yerlar qo'shib olindi.

Miloddan avvalgi II asrning o'rtalariga kelib ko'chmanchi yuejchi qabilalari zarbasi ostida Yunon-Baqtriya davlati inqirozga uchradi.

Yunon-Baqtriya davlati 120 yil yashadi. SHu davr mobaynida uning iqtisodi va madaniyati yuksaldi. Hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlandi, ko'plab shaharlar qurildi. Arxeologik tadqiqotlar Yunon-Baqtriya podsholigida dehqonchilik, xunarmandchilik, ayniqsa Temurchilik, kulolchilik va zargarlikning yuqori darajada rivojlanganidan guvohlik beradi. Yunon-Baqtriya davlatida tangalar hukmdor tasviri bilan zarb etilgan. Dajla daryosi bo'yidan to Baqtriyagacha bo'lgan karvon yo'lining qurib bitkazilishi bilan xalqaro savdo va madaniy aloqalar jonlangan. Baqtriya orqali Xitoydan Hindistongacha boradigan karvon yo'li o'tgan va Buyuk ipak yo'li tarmoqlarga bo'lingan.

Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida O'rta Osiyoning janubiy xududlaridan ellinizm madaniyati bilan bog'liq bo'lgan turar joylar, madaniy-ma'naviy madaniyat buyumlari, tanga pullar topildi. Ellinizm madaniyati bu xududlardagi mahaliy shaharsozlik, haykaltaroshlik, badiy-amaliy san'at, alifbo va boshqalarga ta'sir etganidan dalolat beradi. SHu bilan birga bu topilmalar mahaliy madaniyatdagi rivojlanish antik davr SHarq va g'arb madaniyatining o'zaro uyg'unlashuvi natijasida o'ziga xos madaniyat darajasiga ko'tarilishining ham guvohidir.

Lekin Yunon madaniyati an'analari yoyilgan bo'lishiga qaramay, Markaziy Osiyo xalqlari o'zlarining qadimiy madaniyatlari an'alariga sodiq qoldilar. Ular Ellin madaniyatining eng afzal tomonlarini qabul qilib, yangi asoslarini rivojlantirdilar. Miloddan. avvalgi III asr oxiri va II asrda Farg'ona (Dovon)da, Sug'dda alohida shahar davlatlar shakllanadi. Ayni shu davrda qang' davlati qaror topishi yuz bergan. Bu davlatlarning har biri o'z tangalarini zarb etgan. Bu esa mustaqil mulk mavjud bo'lganligidan dalolat beradi.

Miloddan avvalgi III asrning boshlarida qang' davlati paydo bo'ldi. Keyinchalik Yunon-Baqtriya davlati hamda ko'chmanchi qabilalar bilan kurash natijasida qang' davlati yanada mustahkamlandi va O'rta Osiyoda eng yirik davlatlardan biriga aylandi. Bu davlatning asosiy negizini Sirdaryoning quyi oqimida yashovchi qang'lar tashkil etganlar. Miloddan avvalgi II asrning boshlariga kelib qang' davlatining xududi Farg'ona vodiysi shimoliy-sharqda yuechji qabilalari bilan, shimoli-g'arbda Sarisu daryosi, g'arbda Cirdaryogacha borgan.

Miloddan avvalgi II-I asrlarda qang'liklar Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi yerlarni va Xorazmni o'zlariga bo'ysundirdilar. Manbalarda qang' podsholarining ikkita: yozlik va qishlik qarorgohlari eslatiladi. Ular yozni O'trorda (hozirgi qozog'istondagi Aris va Turkiston oralig'ida), qishni esa qang'a-qang'dez (hozirgi toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumanida) o'tkazganlar.

Qang' davlatining shimolida, shimoli-qarbida va shimoli-sharqida bir qancha qabilalar mavjud bo'lib, ular asosan chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Toshkent vohasida yashovchilar asosan dehqonchilik va bog'dorchilik bilan shug'ullanganlar. Ular arpa, bug'doy, tarig', no'xot, sholi va boshqa donli ekinlar yetishtirganlar. Mevali daraxtlar va uzumzorlari ko'p bo'lgan. Sirdaryoning o'rta oqimida yashovchi qang'arlar asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganlar. qurama va CHotqol tog'larida Temurchilik, misgarlikning rivojlanishi uchun kerakli ma'danlar bo'lgan. Bu joylarda juda ko'plab mis, Temur, kumush va boshqa metallar olingan.

Qang' shaharlari qalin va baland devorlar bilan o'rab olingan. Devorlarning tashqarisida qal'a atrofi gir aylantirilib chuqur va keng qilib handaq qazilgan. SHaharlar ichida ark shahristonlarning ham baland devorlari bo'lgan. Yirik shaharlardan, tashqari Toshkent vohasida yuzga yaqin aholi yashaydigan katta va kichik qo'rg'onlar ham mavjud bo'lgan.

Davlat iqtisodiyotining gullab yashnashiga uning xududidan Buyuk Ipak yo'lining shimoliy tarmog'i o'tganligi katta imkon yaratdi. Lekin ayni shu hol Xitoy bilan urushlarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Bu urushlarda qang'arlar ko'pincha g'olib chiqqanlar. Ma'lumotlarga qaraganda qang' davlatiga yurishlardan birida jo'natilgan 60000 nafar xitoylik jangchidan 10000 ga yaqini Xitoyga qaytib borgan.

Qang' podsholari davlatning ichki va tashqi siyosati va boshqa muhim masalalarni o'z oqsoqollari bilan maslahatlashib hal qilganlar. Davlat kengashida qabila boshliqlari, harbiy sarkardalar faol ishtirok etganlar. Milodiy III asrda qang' davlati parchalanib, keyinchalik, yaъni V asrga kelib uning hududi Eftalitlar davlati tarkibiga qo'shib olindi.

Davon davlati tahminan miloddan avvalgi III asrning oxirida miloddning II asrigacha mavjud bo'lgan. Davon davlati tarixi haqidagi batafsil ma'lumot Xitoy yilnomalarida uchraydi. Masalan, Davonda bo'lgan xitoy sayyoxi CHjan TSyan bunday deb yozadi: "Davon diyorida 70 tacha katta-kichik shahar bor; aholisining soni bir necha yuz mingga yetadi. O'q-yoy va nayzalar bilan qurollanishgan. Xalqi ot choptirib o'q otishga mohir". Boshqa bir Xitoy solnomasida: "An'si (Eron) shaharlari Davondagiga o'xshashdir"-deb yozilgan.

Farg'ona vodiysi, hozirgi qirg'iziston respublikasi hududida joylashgan Davon (Parkana, Farg'ona) davlatining poytaxtlari-bosh shahar Ershi (hozirgi Andijon viloyati Marxamat tumani), ikkinchi shahar Yuchen (hozirgi qirg'izistonning O'zgan vohasi)da bo'lgan.

Miloddan avvalgi II asrdan boshlab qashqardan Davonga shimoliy yo'ldan karvon yo'li harakati boshlandi. Bu yo'ldan ipak va boshqa mahsulotlarning halqaro tranzit savdosi amalga osha boshlaydi. Bu paytga kelib Davon aholisi ko'paya boshlaydi va ko'plab mustahkamlangan aholi manzilgohlari paydo bo'ladi. Savdo yo'lida Davon muhim ahamiyatga ega bo'la boshlaydi. CHjan TSyan shunday yozadi

“o‘troq aholi yer haydaydi, g‘alla va sholi ekadi. Ularda musallas navli uzum, juda ko‘plab yaxshi otlar bor”. Xitoyliklarni ayniqsa, o‘zlari uchun notanish bo‘lgan beda va uzum xayratga solgan. CHjan TSyan ma‘lumotida shunday gap bor: ”Xitoy elchisi urug‘ keltirdi, shunda osmon farzandi (Xitoy imperatori) unimdor yerga beda va uzum ekdi”. Xitoy xukmdorlarini ko‘proq Farg‘onaning nasldor otlari qiziqtirgan. Otlar naslining biriga xatto “Samoviy” deb nom berganlar. Davonning mashhur ”Samoviy otlari” tasvirlari tushirilgan qoyatosh suratlari Aravon qoyasida, Navqat vohasi va Obishisoyda topilgan va hozirgacha saqlanib qolgan. Bu tasvirlar Davon o‘zining samoviy otlari bilan qadimdan mashhur bo‘lganligini tasdiqlabgina qolmasdan, Farg‘onaliklarning yuksak tasviriy sa‘nat sohiblari bo‘lganligidan ham dalolat beradi. qo‘shni davlatlar, ayniqsa, xitoy imperatorlari Davon otlarini nihoyatda qadrlaganlar. Otlar va Davonning serunum yerlari uchun miloddan avvalgi II asrning oxirlarida Xitoy va Davon o‘rtasida harbiy to‘qnashuvlar ham bo‘lib o‘tgan. Bu to‘qnashuvlarda davonliklar o‘z mustaqilliklarini saqlab qolishga muvaffaq bo‘lganlar, chunki Davon davlatida yaxshi qurollangan va mashq ko‘rgan qurolli kuchlar mavjud bo‘lgan.

Miloddan avvalgi III asrda bu davlat “Dovon” keyinroq esa “Boxon” va “Polona” nomlari bilan tilga olinadi. “Polona” bu “Farg‘ona”ning xitoycha talaffuz etilishidir. Xitoy manbalariga ko‘ra mil.av. II asrda Farg‘onada 300 mingga yaqin aholi yashagan

Miloddning II asrida Farg‘ona davlati barham topdi va uning yerlari Kushon podsholigiga qo‘shib olindi.

Kushon podsholigi, Kushonlar davri O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Pokiston va Hindiston xalqlari tarixidagina emas, balki butun dunyo madaniyatining taraqqiyotida alohida o‘rin egallaydi. Chunki bu davrda tili, dini va etnik madaniyati bir xil bo‘lgan halqlarning siyosiy jihatdan birlashish jarayoni kechdiki, bu hol insoniyat tsivilizatsiyasi taraqqiyotida turtki vazifasini bajardi.

Spitamen qo‘zgoloni mag‘lubiyatga uchragandan so‘ng mil.av. I asr oxirlarida asli O‘rta Osiyoda yashagan massaget tohar qabilalarining katta bir qismi Sharqiy Turkistondan to Mug‘uliston chegaralarigacha bo‘lgan hududlarga ko‘chib o‘tganlar. Ana shu qabilalar tarixi bilan bog‘lik mil.av. IV asr oxirlari va milodning V asriga oid ma‘lumotlar Xitoy manbalaridan olinligi sababli qabila, urug‘, shaxslar, joy va shahar nomlari xitoycha nomlar bilan berilgan. O‘rta Osiyodan Sharqqa tomon ko‘chib o‘tgan massaget - toharlarni Xitoy manbalarida yue-chjelar nomi bilan ataganlar. Xitoyning shimolidagi katta hududlarda xunn qabilalari yashagan. Xunlar bilan yue - chjelar o‘rtasida ziddiyatlar kuchayib, xunlar mil. avv. 176 - yili yue-chjelarni g‘arbga siqib chiqaradi. Farg‘ona (Dovon) podsholigi hududlariga chekingan yue-chje qabilalari bu yerda shahar va qishloqlar barpo qiladilar. Hozirgi Namangan

viloyati Kushon qishlog‘i va Kosonsoy tumani shular jumlasidandir. Ular mil. av. 140-130 yillarda Yunon - Baqtriyani ham o‘zlariga tobe qiladilar va “Katta Yue-chje” davlat uyushmasiga asos soladilar. Bu davlat uyushmasiga beshta hokimlik: Guyshuan, Xyumi, SHaunmi, Xise va Dumilar bo‘ysunar edi. Bulardan biri Guyshuan (Kushon) hokimligi ancha kuchayib, boshqa hokimliklarni birlashtiradi va Guyshuan hokimi Kudjula Kadfiz o‘zini yagona hokim deb e‘lon qiladi. Natijada yangi Kushon davlati paydo bo‘ladi va hozirgi Surxondaryo viloyatining SHo‘rchi tumanidagi Dalvarzintepada joylashgan manzilgoh bu davlatning poytaxti bo‘lib qoladi. Kudjula Kadfiz davlat chegaralarini kengaytirib, qudratini oshiradi. Parfiya, hozirgi Afg‘oniston hududi va Kashmirni egallaydi. Kudjula vafotidan keyin uning o‘g‘li Vima taxtga chiqadi va Hindistonning markaziy viloyatlarini o‘z davlati tarkibiga qo‘shib oladi.

Vima Kadfiz 30 yil hukmronlik qilgan. Undan so‘ng Kanishka mamlakatni boshqaradi va u Hindistonning janubiy hududlarini zabt etadi. Natijada Kushon davlati katta saltanatga aylanib, Xitoydagi Xan sulolasi hamda Rim imperiyasi bilan raqobatlashish darajasiga ko‘tarildi. Kushonda davlatida viloyatlar va shaharlar davlat tepasida turuvchi oliy hukmdor noiblari tomonidan boshqarilgan. Ular oliy hukmdorga so‘zsiz itoat etib, doimiy ravishda davlat xazinasiga o‘lponlar to‘lab turganlar.

Kushonlar davlatida zarb etilgan kumush, oltin tangalarning bir tomonida Budda xudolari, zardushtiyalar xudolari Anaxita, Mitra rasmlari uchrasa, ikkinchi tomonida esa “shoh”, “shohlar shohi” atamasini ko‘ramiz. Buyuk ipak yo‘li tarmoqlarida joylashgan Kushon podsholigi gullab yashnadi. Ko‘pdan ko‘p yangi shaharlar bunyod etildi. Bu davrda ko‘plab sug‘orish inshootlari qurilib, yangi yerlar o‘zlashtirildi. Shaharlar qurilishida aniq binokorlik qoidalari amalga oshirilgan. Shaharlar tug‘ri burchakli bo‘lib, qalin deganvorlar bilan o‘ralgan. Shahar tuzilishiga ko‘ra, u bir necha qismlarga bo‘lingan: hokim saroyi (qal‘a), hunarmandchilik ustaxonalari, guzarlar, alohida ibodatxonalar joylashgan qismi, savdo maydoni va boshqalar tartibli ravishda joylashgan edi. Kushon podsholigi iqtisodiyotining asosini sug‘orma dehqonchilik, savdo va hunarmandchilik tashkil qilib, yuqori darajada rivojlangan. Xitoy va Rim saltanati bilan savdo va elchilik munosabatlari o‘rnatilgan. Savdo munosabatlarining rivojlanishida Buyuk ipak yo‘lining ahamiyati katta bo‘lgan. Termizdan Rim tangalari xazinasini, O‘rta yer dengizi atrofi hududlarida esa kushon tangalari topilgan. Kanishka davrida Hindistondan tarqalgan Budda dini davlat diniga aylandi. Oromiy va yunon yozuvlari bilan birga kushon yozuvi ham mavjud bo‘lgan. Kushon saltanati davrida me‘morchilik va tasviriy san‘at yuksak darajada rivojlangan edi. Buni o‘lkamizning Ayritom, Ko‘hna Termiz,

qoratepa budda ibodatxonalarini Fayoztepa, Xolchayon, Dalvarzintepa va boshqa joylardan qazib olingan arxeologik topilmalardan ko'rishimiz mumkin. Kushon davri shaharlari xarobalarini va qabrlarini o'rganish o'lka xalqlarining urf odatlari, diniy qarashlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beradi. Xususan, Dalvarzintepa ashyolari kushonlarning diniy e'tiqodlari buddizm bilan zardushtiylilik bo'lganini ko'rsatadi. Ayniqsa, yapon olimlari bilan Darvarzintepada, frantsuz arxeologlari bilan Afrosiyobda olib borilgan taqiqotlar muhim ma'lumotlar beradi. Kushon saltanati inqirozi Xuvishka podsholigi davridan boshlanadi. Bu jarayon Erondagi Sosoniylar davlatining tarix sahnasiga chiquviga asosiy omil bo'ldi. Xususan, sosoniy hukmdorlardan Shopur I ning (milodiy 242-243 yillar) va Shopur II ning (mil. 309-379 yillar) Kushonlarga bergan zarbalari hal qiluvchi o'rin tutdi. IV asrga kelib Kushon podsholigi asosiy hududlaridan mahrum bo'ldi. Kushonlarning ayrim mulklari faqat SHimoliy Hindistonda ma'lum vaqtgacha saqlanib qoldi.

Kushon saltanati olti asr davomida insoniyat jamiyati taraqqiyotida o'chmas iz qoldirdi. Bu davrda yaratilgan noyob san'at asarlari, madaniyat yodgorliklari uning o'tmish qudratining namunasidir. Bu madaniyat uzoq Sharq, Yaponiya, Hindiston va Indoneziya xalqlari madaniyatiga g'oyat katta ta'sir ko'rsatdi va bizning davrimizgacha yetib keldi. Bu davrda Eronda tarkib topgan kuchli uyushma—Eron Sosoniylarining hujumi natijasida Kushon saltanati inqirozga yuz tutdi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz joizki, o'zbek xalqi asrlar davomida o'z davlatchiligini yaratib keldi. Ammo XX asrgacha bo'lgan davlatlarimiz deyarli butun Markaziy Osiyoni, xatto unga qo'shni hududlarni ham o'z ichiga olar, ya'ni ular milliy emas edi.

Nazorat savollari

1. O'rta Osiyo sharoitida ilk davlat tuzilmalarining yuzaga kelish jarayoni qanday tarixiy sharoitlarda kechdi?
2. Qadimgi Xorazmning ilk davlatchilik maqomi to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Qadimgi Baqtriya davlati, uning o'ziga xos hayoti xususida gapirib bering.
4. «Avesto» qachon va qanday tarixiy sharoitda yaratilgan?
5. «Avesto»da qanday g'oyalar ilgari surilgan?
6. Axamoniylarning yurtimizga bosqini qachon va qanaday maqsadlarni ko'zlab amalga oshirilgan?
7. «To'maris» va «Shiroq» jasoratlari haqida so'lab bering.
8. Frada qo'zg'oloni haqida nimalarni bilasiz?
9. Makedoniyalik Iskandarning O'rta Osiyoga istilochilik yurishlarini uyushtirishdan ko'zlagan maqsadlari nima edi?
10. Spitamen boshchiligidagi xalq qo'zg'oloni to'g'risida tushuncha bering.
11. Ellinizm madaniyati nima va siz uni qanday talqin etasiz?

12. Yunon-Baqtriya davlati qachon vujudga kelgan?
13. Yunon-Baqtriya davlatini halokatga olib kelgan sabablarni gapirib bering.
14. Parfiya davlati haqida nimalarni bilasiz?
15. Qang‘ davlatida boshqaruv tizimi qanday bo‘lgan?
16. Davan (Farg‘ona) davlati haqida tushuncha bering.

4-mavzu. Ilk o‘ra asrlarda o‘zbek davlatchiligi: ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayot

REJA:

1. Eftaliylar sulolasi. Eftaliylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.
2. Turk hoqonligi. Hoqonlik davrida O‘rta Osiyo xalqlarining iqtisodiy va madaniy hayoti.
3. O‘rta Osiyo halqlari arablar istilosi va hukmronligi davrida.

Tayanch so‘z va iboralar: *Kidariylar. Eftaliylar. Yerga egalik qilish munosabatlari. Dehqon. Kadivarlar. Kashovarlar. Mazdakchilik. Turk xoqonligi. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. Madaniy hayot. Arab xalifaligi. Arablar istilosi. Soliq siyosati. Xalq qo‘zg‘olonlari. Muqanna.*

Eftaliylar sulolasi. Eftaliylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot

Eftaliylar, ularning etnik tarkibi, davlat tashkil etishlari xususida tarixiy manbalarda turli xil qarashlar mavjud. Rim va Vizantiya tarixchilari Martselin (IV asr), Prokopiy Kesariyskiy, Feofan Vizantiyskiy (VI asr), arman tarixchilari Lazar Parbskiy (V asr), Favst Buzand (IV asr), xitoy solnomalaridan Bey-shi (VI asr) bergan ma‘lumotlar shular jumlasidandir. Masalan, eftaliylar Xitoy manbalarida «i-da», «e-da», armanlarda idal, xeptal, arablarda haytal, Suriya va lotin manbalarida eptal, abdal deb nomlanadi. Bunday turlicha atamalar har bir til va yozuvning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan. Rus va Vizantiya tarixchilarining aksariyati eftaliylarni turkiy qabila-massagetlarning so‘nggi bo‘g‘inidan kelib chiqqan deb fikr bildiradilar. Muqaddas «Avesto»da esa ular tatlar nomi bilan tilga olinadi. F.Vizantiyskiy esa eftallar nomini V asrning ikkinchi yarmida podshohlik qilgan Vaxshunvor Eftalon nomi bilan bog‘laydi. Biroq nima bo‘lganda ham shu narsa faktki, eftaliylar Turkiston mintaqasida yashab kelgan turkiy qavmlardandir.

Eftaliylar hukmdori Vaxshunvor Eftalon 457 yilda Chag‘aniyon (hozirgi Surxon erlari) va Badaxshonni o‘ziga bo‘ysundiradi. So‘ngra Eftaliylar Sug‘dda ham mustahkamlanib oladi. Ular ko‘p o‘tmay o‘z hududiy erlarini kengaytirishda davom etib, Qobul va Panjob vodiysini, Kuchu, Qashqar va Xo‘tonni (Sharqiy Turkiston) zabt etadilar. Xullas, ular avvalda Kushonlar saltanati egallagan hududlarni birin-ketin qo‘lga kiritib, O‘rta Osiyoda yirik davlatni barpo etadilar. Eftaliylar bir necha bor o‘zlarining g‘arbiy-janubdagi qo‘shnisi va eng kuchli raqibi Eron sosoniylari bilan ham urushlar olib boradilar. Xususan Eron shohi Peroz bilan bo‘lgan urushlarda ularning qo‘li baland kelib, Eron hukmdori ikki bor asirlikka tushadi. Katta to‘lov va majburiyatlar evaziga arang qutilgan Peroz o‘g‘li Kovadni uzoq muddat eftaliylarga garovga berishga majbur bo‘ladi. Perozdan so‘ng hokimiyatga kelgan Kovad (488-

551) davrida ham Eron eftaliylarga xiroj to'lashga majbur bo'lgan. V asr boshlariga kelib Eftaliylar davlati shu qadar kuchayib ketdiki, ular 502-yilda Vizantiyaga ham yurish qilib unga katta talofat etkazadilar. 506 yilda ikki o'rtada tuzilgan sulx shartnomasi bo'yicha eftaliylar Vizantiyadan katta miqdorda o'lja olib qaytganlar. Kovadning o'g'li Xusrav I Anushirvon ham 554 yilga qadar eftaliylarga har yili xiroj to'lab turgan. Keyinroq Turk xoqonligining eftaliylarga bergan kuchli zarbasi natijasidagina Eron eftaliylar ta'siridan qutilishga muvaffaq bo'lgan.

Eftaliylar davrida davlat yakka hukmdor tomonidan boshqarilgan, biroq taxt otadan bolaga qolmay, sulolaning eng loyiq deb topilgan kishisiga berilgan. Mamlakatni markaziy hokimiyat noiblar orqali idora etgan. Davlatni boshqarish qonun-qoidalari bo'lgan. Mamlakat lashkarini asosan otliq askarlar tashkil etgan.

Eftaliylar davlatida asta-sekin erga egalik qilish tartibida yangicha munosabatlar shakllanib bordi. Bu davrga kelib sinfiy tabaqalanishning keskin kuchayishi orqasida ayrim mulkdorlarning mavqei ko'tarilib, ular jamoaning oddiy a'zolarini o'z qo'l ostigi kiritib, mulklarini ular hisobiga kengaytirib borganlar. Bu xil mulkdorlar dehqonlar deyilgan. O'zining chek eridan ajralib, dehqonlar ta'siriga tushib, ularning erlarida ishlashga majbur bo'lgan kishilar esa kadivarlar, ya'ni ijaradorlar deb atalgan. Shuningdek erkin jamoa asosida dehqonchilik qiluvchi aholi - kashovarlar ham mavjud edi. Shu tariqa, kadivarlar boy dehqonlar foydasiga ma'lum to'lov va majburiyatlar asosida ishlab berganlar. Shu bilan birlikda bu davlatda hali patriarxal-qulchilik munosabatlarning qoldiqlari ham mavjud edi. Chunonchi, boy dehqonlar mulklarida juda ko'plab qullar bo'lganligi, ulardan turli yumushlarda foydalanilganligi tarixiy manbalarda tilga olinadi.

Bu davrda yangi tipdagi ko'rkam va gavjum shahar-qal'alar vujudga keladi. Xorazmdagi Berkutqal'a, Bozorqal'a, Toshkentdagi Oqtepa shular jumlasidandir. Bir necha oilalardan tashkil topgan mazkur manzilgohlar qalin paxsa devorlar bilan o'ralgan. Ularda hukmron tabaqa kishilariga xos hashamatli, bezakli ark-qasrlar, ko'p xonali binolar bilan birlikda oddiy fuqarolarga mos qilib qurilgan odmiroq turar joylar ham o'rin olgan. Eftaliylar poytaxti Poykand o'z davrining eng ko'rkam, obod shaharlaridan sanalgan. Bu erda hunarmandchilik, savdo-sotiq, qurilish ishlari ancha rivojlangan. Shahar Buyuk ipak yo'lida joylashganligidan, unda turli mamlakatlarning savdo karvonlari xilma-xil mollari bilan kelib savdo qilganlar. Buning uchun shaharda ko'plab bozoru rastalar, karvonsaroylar mavjud bo'lgan. Mamlakatning savdo-sotiq ishlarida Eronning tanga pullari bilan bir qatorda buxorxudotlar tangasi, Sug'diy va Xorazm tangalari ham keng muomalada yurgan. Eftaliylar Eron, Hindiston, Xitoy va uzoq Vizantiya davlatlari bilan ham qizg'in savdo aloqalarida bo'lganlarki, bu esa ularga foyda, manfaat keltiribgina qolmay, ayni chog'da o'zaro yaqinlashuvlarida ham muhim rol o'ynagan.

Eftaliylar davri madaniyati xususida gap borganda shuni qayd etish lozimki, bu paytlarda o'lkada juda ko'plab moddiy va ma'naviy yodgorliklar bunyod etiladi. Varaxsha shahri obidalari, Termiz yaqinidagi Bolaliktepadan topilgan saroy, uning devorlariga ishlangan betakror tasvirlar, o'ymakorlik va ganjkorlik namunalari - bular ajdodlarimiz badiiy mahoratidan yorqin dalolatdir.

Bu davrning moddiy madaniyatiga oid yodgorlik sifatida Xorazmdagi Tuproqal'a to'g'risida ma'lumot keltirib o'tish joizdir. Uning tuzilishi to'g'ri burchakli bo'lib (500x 360 m), gumbazsimon yo'lakli va burjli mudofaa devori bilan o'ralgan. Devorning janubiy qismidagi darvozadan ibodatxonaga tomon asosiy ko'cha o'tgan. Ko'ndalang tushgan ko'chalar shaharni 10 ta mavzega bo'lgan. Tuproqqal'aning shimoliy-g'arbiy qismida maxsus ko'tarma supa ustiga xom g'ishtdan saroy qurilgan. Unga yonma-yon ark binosi joylashgan. Bundan tashqari 100 ga yaqin turar-joy, xo'jalik binolari va 8 ta saroy zali mavjud bo'lgan. Qal'aning janubiy-sharqiy burchagidagi 4ta xonada teri va yog'ochga yozilgan qadimgi Xorazm yozuvidagi 80 dan ortiq hujjatlar topiladi.

Bu davrda o'lkamizda yozuv madaniyati ham rivoj topgan. Aholi o'rtasida keng tarqalgan sug'd yozuvi bilan birlikda undan bir qadar farq qiluvchi xorazm va eftaliy yozuvlari ham qo'llanilgan. Bu yozuvlarda ajdodlarimizning tarixi, taqdiriga oid ko'plab qimmatli bitiklar, ma'lumotlar bayon qilingan. Shuningdek eftaliylar davri qo'shiqlari va eposlari Firdavsiyning mashhur «Shohnoma»sida ham o'z ifodasini topgan. Eftaliylarda kishilar turli dinlarga e'tiqod qilganlar. Eng keng tarqalgan din-zardushtiylik bilan bir qatorda budda dini ham ancha rasm bo'lgan. Bundan tashqari bu erdagi mahalliy aholi avvaldan e'tiqod qilib kelgan Vaxsh, Mitra, Anaxita (Quyosh) xudolariga ham sig'inganlar. Sharqda qadimdan nishonlanib kelingan «Navro'z» va unga xos marosimlar Buxoro, Samarqand va boshqa shaharlarda va aholi turar joylarida keng bayram qilingan. Eftaliylarning urf-odatlarida patriarxal-urug'chilik tuzumining qoldiqlari saqlanib qolgan. Chunonchi, Xitoy manbalarida aytilishicha, ularda bir necha aka-ukada bitta umumiy xotin bo'lgan. Shuningdek hukmron tabaqa vakillarida esa buning aksi o'laroq ko'p xotinlilik hukm surgan. Agar boy-badavlat oila vakili vafot etgan bo'lsa, uni barcha rasm-rusumlar bilan, tantanali suratda tosh daxmaga, oddiy kishilar murdasi esa tuproqdan yasalgan qabrga qo'yilgan. Eftaliylar shaharlarida mangu olov uylari bo'lib, ular zardushtiylik dinning muqaddas maskanlari sifatida aholi tomonidan ziyorat etib borilgan. Xullas, Eftaliylar davrida o'lkamiz odamlari o'ziga xos boy madaniy va ma'naviy turmush tarzini yaratib, undan bahramand bo'lishga harakat etganlar. Ayni chog'da ular o'zlaridan keyingi avlodlar uchun ham munosib iz qoldirganlarki, bunga ularning davriga oid turli hududlardan topilgan ko'plab noyob topilmalar, asori atiqalar guvohdir.

2. Turk hoqonligi. Hoqonlik davrida O'rta Osiyo xalqlarining iqtisodiy va madaniy hayoti.

Turkiy elatlarning keng sharqiy hududlarda qadim-qadim davrlardan buyon yashab, o'zlaridan munosib madaniy iz qoldirib kelganligini juda ko'plab tarixiy manbalar tasdiq etadi. Mo'`tabar Xitoy manbalari, mashhur «O'g'iznoma», Urxon-enasoy yozuvlari, Kultegin bitiklari bunga ishonchli guvohdir. Oltoy, Tuva hamda ularga tutash hududlarda turli turkiy qabilalar, chunonchi, Ashin, Arg'u, O'g'iz, To'qqiz o'g'iz, O'ttuz tatar, Karluq, Kitan, Tolis, Turk, Uyg'ur, To'qri (toharlar), Quriqan, Duba (tuba-tuva) va boshqalar yashardilar.

VI asr boshlarida Oltoyda siyosiy jarayonlar faollashadi. O'sha paytda hozirgi Mo'g'uliston va qisman Xitoyning shimoliy hududlari ustidan Jujan xonligi hukmronlik qilardi. Sharqiy Turkiston, Farg'ona, Sug'diyona, Xorazm, Baqtriya, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Eron hududlarida esa eftaliylar hukmronlik qilardi. Manbalarda ta'kidlanishicha Xitoyning shimoliy qismida hukmronlik qiluvchi Vey sulolasi (386-558) xonadonlarining kelib chiqishi ham turkiy tilli xalqlarga borib taqalardi. Shunday qilib, VI asr boshlarida Uzoq Sharqdan Kaspiy dengizgacha bo'lgan hududlarda hokimiyat tepasida turkiy sulolalar turardi.

VI asr boshlarida Oltoydagi turkiy qavmlar orasida Ashin urug'ining mavqei ko'tariladi. Ashin urug'idan Asan va Tuu 460-545 yillarda boshqa urug'larni o'zlariga bo'ysundiradilar va Oltoyda turkiy qabilalar ittifoqiga asos soladilar. Tuu o'g'li Bumin Tele qabilasini ham bo'ysundiradi. Bumin Jujan xonligiga tobelik-dan chiqish uchun kurashadi va 551 yilda Jujan xoni qo'shinlarini engib, ularni o'ziga bo'ysundiradi. Bumin 551 yilda yangi davlat - Turk hoqonligiga asos soladi. Uning poytaxti Oltoydagi O'tukan shahri edi. Xoqonlik tez orada kuchayib, uning dovrug'i ortib borgan. U ko'p bor Xitoyga yurishlar qilib, uning bir qancha hududlarini bosib olgan. Xitoy podsholigi Turk xoqonligiga har yili o'lpon tariqasida yuz bo'lakdan ipak mato berib turishga majbur bo'lgan. 552 yilda Buminxon vafot etgach, hokimiyatga uning katta o'g'li Mug'anxon (553-572) o'tiradi. Mug'anxon 558 yilda jo'janlarga so'nggi bor qaqshatqich zarba berib, o'z davlati hukmronligini Tinch okeanigacha bo'lgan hududlarda mustahkamlaydi. Uning amakisi Istami (unga «Yabg'u» - bahodir unvoni berilgan edi) bo'lsa, bu davrda xoqonlik hududini g'arbga tomon kengaytirib, Ettisuv, Qashqar, Ural, Volga bo'ylari va boshqa hududlarni egallaydi.

563-567 yillar davomida Istami yabg'u qo'shinlari eftaliylar davlatiga ketma-ket zarbalar berib uning hududlarini, ya'ni hozirgi O'rta Osiyo va Kaspiy dengizigacha bo'lgan erlarni egallashga muvaffaq bo'ladi. Buning oqibatida Eftaliylar davlati qulaydi. Turk xoqonligi O'rta Osiyo erlarini ishg'ol etgach, uning hududlari bevosita Eron chegarasiga tutashadi. Dastlab xoqonlik Eron bilan yaxshi qo'shnichilik, savdo-sotiq aloqalarini o'rnatishga intiladi. Eron shohi Xusrav 1

Anushirvonga turk malikasi uzatiladi, Eronga elchilar yuboriladi. Biroq Turk xoqonining Eronga ikki bor yuborgan elchilari faoliyati muvaffiyatsiz chiqqach, Eronning turklar bilan murosaga bormasligi, uning qat'iy dushmanligi ro'yirost ma'lum bo'ladi. Buning boisi Eron shohining O'rta Osiyo hududlariga da'vogarligida edi. Bu esa, shubhasiz, bir necha bor xoqonlikning Eron bilan urushlar olib borishiga sabab bo'ladi. Istami qo'shiqlari Eron shohi Xisrav I ni engadi, Eron shohlari Turk xoqonligiga 400 ming Vizantiya tillasi hajmida tovon to'lash majburiyatini olishga majbur bo'ladi. Mug'anxon va uning avlodlari g'arbda Qora dengizgacha bo'lgan hududlarni zabt etib o'zlariga bo'ysundiradilar. Turk xoqonligi 568-569 yillarda o'sha davrning qudratli davlati-Vizantiya bilan iqtisodiy va savdo-sotiq aloqalarini o'rnatishga intilib, so'g'd savdogari Maniakh boshchiligidagi elchilarni u erga yuboradi. Elchilar imperator Yustinian II qabulida bo'ladi. Shundan so'ng Vizantiyaning Zemarx boshliq elchilari xoqonlik davlatiga keladi. Bu esa shu davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch va savdo-tijorat munosabatlarini o'rnatishda muhim ahamiyat kasb etgan deyishga asos beradi.

Turk hoqonligida boshqaruv tartiblari haqida gap borganda shuni ta'kidlash kerakki, Turk hoqonlari O'rta Osiyo hududlariga hukmronlik qilsa-da, biroq o'zlari bu hududga ko'chib kelmadilar. Ular Ettisuv va boshqa hududlardagi markaziy qarorgohlarida qolib, bo'ysungan hududlarni mahalliy hukmdorlar orqali boshqarib, ulardan olinadigan soliq-o'lponlar va to'lovlar bilan kifoyalanganlar. Bundan ko'rinadiki, Turk xoqonligi davrida bu hududdagi mavjud mahalliy davlat tuzilmalari, ularning boshqaruv tizimlari saqlanib, ichki siyosat bobidagi mustaqil faoliyatlari davom etgan. Xoqonlik istisno hollardagina o'lkaning ijtimoiy-siyosiy hayotiga aralashardi. Bu narsa ko'proq tashqi siyosat, xalqaro savdo-sotiq masalalariga daxl etardi. Xitoy manbalarida ta'kidlanganidek, Zarafshon, Amudaryo va Qashqadaryo vohalarida bu davrda 9 ta mustaqil hokimlik-davlatlar mavjud bo'lgan: Samarqand, Ishtixon, Maymurg', Kesh, Nahshab, Kushon, Buxoro, Amul va Andxoy shular jumlasidandir. Ayniqsa Samarqand, Buxoro, Xorazm va Choch (Toshkent) hokimliklari o'zlariga ancha mustqil bo'lganlar. Buxorxudotlar zarb etgan tanga pullar keng muomalada bo'lgan. Shu bilan birlikda bu davlat hokimliklari o'rtasida o'zaro adovat, kurash, ichki ziddiyatlar to'xtovsiz bo'lib turgan. Bu esa mahalliy aholi hayoti, turmushini nochor ahvolga duchor etgan. 585-586 yillarda Buxoroda zodagon dehqon va boy savdogarlarga qarshi qo'zg'olon ko'tariladi. Unga Obro'y boshchilik qiladi. Hoqon Qora-cho'rin qo'shinlari qo'zg'olonni bostirib, qo'zg'olonchilarni qattiq jazolaydi.

VII asr ikkinchi yarmida ancha kuchayib ketgan Xitoy O'rta Osiyo hududlarini ham o'z qo'l ostiga kiritish payiga tushadi. Biroq 670 yilda tibetliklar bosh ko'tarib, sharqiy Turk xoqonligini yangidan tiklaganlaridan so'ng va bu davlat Xitoy uchun kutilmagan xavf-xatarni keltirib chiqargach, endilikda Xitoy O'rta

Osiyoga bo'lgan o'z da'vosidan voz kechib, butun diqqatini Tibetga qaratadi. Bu davrda O'rta Osiyo hududlarida Turk xoqonligi ta'siri tobora zaiflashib boradi. Bunga mahaliy hokimliklar o'rtasidagi ichki ziddiyatlar, er-mulk uchun o'zaro kurashlar ham sabab bo'ladi. Bu esa pirovard oqibatda bu hududlarning arab istilochilari tomonidan bosib olinishiga sabab bo'ldi.

Endi xoqonlik davrida Turonzaminda kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotga nazar tashlar ekanmiz, shu narsa ayon bo'ladiki, Turk xoqonligining sharqiy erlaridan farqli o'laroq bu hududda aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarzi, madaniy darajasi nisbatan yuqori bo'lgan. Gap shundaki, sharqiy hududlarda yashagan ko'pchilik ko'chmanchi turklarda urug'-qabilachilik munosbatlari hamon kuchli saqlangan. Aholining quyi tabaqasi budun yoki qora budunlar deb atalgan. Urug'-qabilaning nomdor vakillari «beklar» deb yuritilgan. Jamoani xoqon va zodaganlar kengashi - «Qurultoy» boshqargan. Katta patriarxal oilalar-xo'jaliklarning boshliqlari «Kadxudolar» deb atalgan. O'rta Osiyo erlarida esa bu davrda dehqonchilik, bog'dorchilik va uzumchilik sohalari yuksak darajada rivojlangan. O'lkaning Farg'ona, Xorazm va Zarafshon vohalarida ko'plab suv ayirg'ichlar, kanallar, suv havzalari bunyod etilgan. Farg'ona va Sug'dda aholining bir qismi tog'-kon ishlari bilan ham mashg'ul bo'lgan. Bu erlarda oltin, mis, temir eritish, ulardan kerakli asbob-anjomlar ishlash yaxshi yo'lga qo'yilgan. Shuningdek Iloqda qo'rg'oshin, kumush, Shaxrisabzda esa qizil tuz qazib olingan.

Xoqonlik davrida shaharlar hayoti xiyla rivoj topgan. Xitoy manbalarida tilga olingan Xorazm, Farg'ona, So'g'd, Chu vodiysidagi shaharlar; shuningdek Tuproqqal'a, Buxoro, Samarqand, Ishtixon, Toshkent, Isfara, Qubo (Quva), Koson va boshqalar o'sha davrning hunarmandchilik va savdo-sotiq tarmoqlari gurkirab rivojlangan shaharlari bo'lgan. Buyuk ipak yo'li bu shaharlarning xalqaro savdoda faol ishtirok etishini ta'minlagan. O'rta Osiyolik qo'li gul hunarmandlar, to'quvchilar, zargarlar, miskaru temirchilar, ko'nchiyu qurolsozlar ishlab chiqargan nafis, xaridorgir buyumlar, asbob-anjomlar dunyoning turli nuqtalariga yuborilgan. Mahalliy hunarmandlar ishlab chiqargan rangli shishalar, qimmatbaho qog'ozlar, zotdor otlarga xalqaro miqyosida talab katta bo'lgan. Bu davrning o'ziga xos muhim o'zgarishlaridan yana biri-bu O'rta Osiyo kulolchiligi hunarining yuksak san'at darajasida rivojlanganligidir.

Bu davrda ham yurtimizda moddiy va ma'naviy madaniyatning yangi-yangi betimsol namunalari yaratildi. Turli olimlar mutaxassislar baxsiga sabab bo'lgan Turk-ruin, Urxon-Enasoy yozuvi, Kultegin bitiklari, Bilga xoqon yodnomasi va shu singari noyob topilmalar turk yozma madaniyatning qadimiyligi va rang-barangligiga guvohlik beradi. 1970 yilda Almati yaqinidagi «Issiq» degan joydan topilgan va fanga «Issiq yozuvi» nomi bilan kirgan turkiy yozuv ham bizning yozuv tariximizga

oid qarashlarimizni yanada boyitadi. Endilikda topilgan noyob ashyoi dalillar asosida turkiy yozuvning tarixi miloddan avvalgi II-I asrlarga borib tutashishi ma'lum bo'ldi.

Turonzaminda turkiy yozuv bilan bir qatorda so'g'd va xorazm yozuvlari ham keng qo'llanilgan. So'g'd yozuvi 22 ta belgidan iborat bo'lib, chapdan o'ngga qarab yozilgan. Shaharlarda so'g'd-turk ikki tilliligi rasmiy odat bo'lganligi haqida Mahmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'atit turk» (XI asr) asarida qayd etib o'tgan. Bu yozuvlarda ulug' ajdodlarimizning katta tarixi, boy madaniyatiga oid mislsiz ma'lumotlar aks etgan. Yana shu narsa diqqatga sazovorki, o'sha davrlarda ulug' ajdodlarimiz o'z navqiron nasllari to'g'risida ham muttasil qayg'urganlar. Shu boisdan o'smir 5 yoshga to'lishi bilan uni ilm olishga yo'llab, dastavval, xat-savdo va hisob-kitobni o'rganishga jalb etganlar. Bola o'smir-balog'at yoshiga etkach esa uni dunyo tanish, savdo-tijorat ishlarini o'rganish uchun xorijiy ellarga yuborganlar.

Turk xoqonligida yashagan xalqlarning diniy tasavvurlari ham turlicha bo'lgan, ko'p xudolilik xukm surgan. Bu esa ularda turli xil osmoniy va er jismlariga-quyosh, oy, er-suv, hayvonlar va boshqa narsalarga sig'inishlikni keltirib chiqargan. Osmon xudosi Tangri turk qavmlarining eng oliy xudosi hisoblangan. Hozirda «Tangri» iborasi Alloh nomiga nisbat sifatida qo'llaniladi.

O'rta Osiyo xalqlari orasida zardushtiylik dini bilan bir qatorda ko'pgina joylarda buddizm, monizm yoki xristianlik dinlariga e'tiqod qilishlik keng yoyilgan. Bu narsa qadimgi ajdodlarimizning tor, biqiq holda hayot kechirmasdan balki, boshqa ko'plab qavmlar, elatlar bilan bog'lanib, aralashib, ma'naviy jihatdan yaqinlashib hayot kechirganliklaridan dalolat beradi. O'rta Osiyo xalqlari orasida tasviriy san'at o'ziga xos uslubda rivojlangan. Jumladan, Varaxsha xarobalaridan topilgan saroy binolari devorlari, peshtoqlariga bitilgan rang-barang, bir-biridan nafis va jozibador rasm-suratlarini (qurollangan yoxud ov qilayotgan jangchi askarlar, oq fillar, tuyalar, otlar va boshqa xil hayvonlar, parrandayu darrandalar v.x.z.) ko'zdan kechirar ekanmiz, bunda ajdodlarimizning noyob iste'dodi va aql-zakovatiga tan beramiz va o'zimizda g'urur tuyamiz.

3. O'rta Osiyo halqlari arablar istilosi va hukmronligi davrida.

O'rta asrlar dunyosida juda katta iz qoldirgan, Mag'rib va Mashriqning ko'plab davlatlarini o'ziga bo'ysundirib, qudratli saltanat darajasiga ko'tarilgan Arab xalifaligi o'zining ijtimoiy- tadrijiy taraqqiyoti davomida murakkab, ziddiyatili tarixiy jarayonlarni bosib o'tgan. Eng muhimi, uning vujudga kelishi rivojlanish sari yo'l tutishi ham g'oyatda ziddiyatli alg'ov-dalg'ovli kechgan. Buning boisi shuki VI asrning o'rtalariga qadar Arabiston yarim orolida yashagan qabila, urug'larning hayot tarzi qoloq bo'lib, ularning mutlaq ko'pchiligida ibtidoiy-patriarxal tuzum munosabatlari hukm surgan. Ko'chmanchi badaviy oilalari, urug'lari o'z chorva mollari uchun er-suv, o'tloq qidirib keng sahrolarni kezib yurganlar. Faqatgina yarim

orolning Qizil dengizga tutash Hijoz vohasi va janubiy Yamanda ahvol birmuncha boshqacharoq bo‘lib, bu hududlarda arab qabilalari asosan o‘troq hayot kechirgan, savdo-sotiq, hunarmandchilik ancha rivoj topgan edi. Ayniqsa Hijozning bosh shahri - Makka xalqaro karvon savdosining muhim markazi hisoblangan. Makkalik quraysh qabilasi savdogarlarining turli mintaqalar bilan bog‘langanligi, savdo-tijorat va hunarmandchilik ishlarining kuchayib borishi pirovardida bu hududning har jihatdan mavqeini ko‘taribgina qolmay, shu bilan birga uning tarqoq qabila, urug‘larini birlashtirish, markazlashgan kuchli davlat tuzishdagi etakchilik o‘rnini ham tayin qilib bergan. Xususan Makka aholisi tevaragida ko‘chmanchi arab qabilalarining birlashuvi jarayoniga turtki bergan yana bir muhim omil-bu shu erlik quraysh qabilasining hoshimiylar urug‘idan chiqqan payg‘ambarimiz Muhammad Alayhi vassalam nomi bilan paydo bo‘lib, keng yoyila boshlagan islom dini va ta‘limoti bo‘ldi. Gap shundaki, o‘zida yakka xudolilik g‘oyasini mujassamlashtirgan, xalqlarni birlik, ahillik, birodarlik, hamjihatlik, o‘zaro mehr-muruvvatlik, do‘stlik singari olijanob fazilatlarga da‘vat etuvchi islom g‘oyalari har qanday to‘siqlarni, qiyinchiliklarni bartarf etib, turli-tuman arab qabila-qavmlari ongi, qalbiga yo‘l topib, ularni o‘zining yashil bayrog‘i ostiga birlashtira bordi. Muhammad ibn Abdulloh (570-632) hayotining oxirlariga kelib ko‘p sonli arab qabilalarining islom bayrog‘i ostida birlashuvi negizida Arab xalifaligiga asos solindi. Bu davlatning qudrati Payg‘ambarimiz noiblari-choriyorlari - Abu Bakr Siddiq (632-634), Hazrati Umar (634-644), Hazrati Usmon (644-656) va Hazrat Ali ibn Abu Tolib (656-661) davrida yanada ortib, hududiy chegaralari kengaya bordi. Xalifalik tarkibiga Shom, Iroq, Yaman va boshqa hududlar qo‘shib olindi. Ummaviylar davrida (661-750) Arab xalifaligi hukmronligi shu qadar katta hududlarga yoyildiki, uning tarkibiga G‘arbda Misr, shimoliy Afrika erlari, Andaluziya (hozirgi Ispaniya), shimoli sharqda Kichik Osiyoning katta qismi, Eron va O‘rta Osiyo, shimoliy-g‘arbiy Hind sarhadlari kirar edi.

Arab xalifaligining istilochilik yurishlarida O‘rta Osiyo erlarini bosib olish va uning xalqlarini itoatga keltirish, bu hududda islom dinini yoyish alohida o‘rin tutadi. Negaki bizning o‘lkamizdek boy-badavlat yurtni qo‘lga kiritish, unga hukmronlik qilish, behisob moddiy va ma‘naviy boyliklarni tasarruf etish-bu arab hukmron doiralarning eng asosiy istilochilik maqsadlari bo‘lgan. VII asr o‘rtalariga kelib Eron hududlari egallangach, endilikda xalifalik e‘tibori Xuroson va O‘rta Osiyo erlarini bosib olishga qaratiladi. Bunda Vatanimiz sarhadlarida arablar istilosi jarayoni ikki bosqichda amalga oshirilganligini ta‘kidlab o‘tmoq joizdir. Uning birinchi bosqichi - VII asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri kelib, bu davrda ayrim arab lashkarboshlari qo‘shini Amudaryo atrofidagi hududlarga bir necha bor hujumlar uyushtirib, bu erlarning boyliklarini talab, ma‘lum o‘ljalarni qo‘lga kiritib, ortga qaytganligini kuzatish mumkin. Bundan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad- bu hududlarni yaqin

kelajakda bosib olishga tayyorgarlik ko'rish bo'lgan. Masalan, arab lashkarboshlari Ziyod bin Abu So'fiyonning 666 yilda Marvga yurishi, 670 yilda uning o'g'li Ubaydulla ibn Ziyodning Amudan o'tib Boykand, Romiton erlarini egallashi, so'ngra Buxoro hukmdorini engib o'z foydasiga sulx tuzib, katta xazina, boyliklarni qo'lga kiritishi va nihoyat, 675-676 yillarda Said ibn Usmonning yangidan Buxoro va Samarqand tomon qo'shin tortib kelishi va mahalliy hukmdorlarni engib, katta boylik va ko'p sonli asirlar bilan Arabistonga qaytib ketishi-bular O'rta Osiyo hududlarini egallash borasidagi dastlabki urinishlar edi.

O'lkamizni bosib olishning ikkinchi, hal qiluvchi bosqichi VIII asrning birinchi choragiga to'g'ri keladi. Xususan, 704 yilda Qutayba ibn Muslimning Xuroson noibi etib tayinlanishi bilan uning zimmasiga butun O'rta Osiyo hududlarini uzil-kesil bosib olish vazifasi yuklanadi. Iste'dodli lashkarboshi Qutayba katta tayyorgarlik ko'rgandan so'ng 706 yilda Jayxun (Amudaryo)dan o'tib Boykandni egallash sari harakatlanadi. Arablar mahalliy xalq qarshiligini engib shaharni qo'lga kiritadilar, uning boyliklarini talaydilar. O'lja olingan boyliklar tortib ko'rilganda ularning og'irligi 150 ming misqol (bir misqol-4,240gr) chiqadi. 707 yilga kelib Kesh, Naxshab ham og'ir janglar bilan fath etiladi. 708-709 yillarda Qutayba qo'shini Vardanze, Romiton va So'g'd erlarini ishg'ol qiladi. G'oyatda usta diplomat va mohir sarkarda sanalgan Qutayba mahalliy hukmdorlarning o'zaro kelishuvi va ittifoqiga izn bermay, bu hududlarni birin-ketin egallaydi. So'g'dning bosh shahri - Samarqand bosib olingach, qo'lga kiritilgan oltin butlar va xazinalarning umumiy og'irligi 50 ming misqolni tashkil etgan. Samarqand hokimi G'urak (709-738) bilan tuzilgan Shartnomaga binan u arablarga yiliga 2200000 dirxam tovon to'lashi, 30 ming baquvvat yigitlarni qul o'rnida berishi ko'zda tutilgan edi. Buning ustiga Samarqandning eng gavjum mavzesi - Afrosiyob kelgindi arab aholisi uchun turar joy sifatida beriladi. Uning tub aholisi esa o'z joyidan mahrum etiladi. Samarqanddan so'ng arab lashkari Buxoroni bosib olib uning boyliklarini talaydi. Biroq Qutayba tobe Buxoroni boshqarishni Buxoro hukmdori Xotun podshoning o'g'li Tog'shoda izmida qoldiradi. Qutayba ibn Muslim 711-715 yillarda Toshkent, Xo'jand, sharqiy Turkiston erlarini bosib olib, bu erlarda ham o'z hukmronligini o'rnatadi. Shu tariqa, arablar Movarounnahr (daryo orti) deb nom bergan O'rta Osiyo hududlari VIII asrning dastlabki o'n yilliklari davomida bosib olindi. Arablar istilochilar sifatida bu hududda mahalliy aholiga nisbatan mislsiz zulm va zo'ravonlik o'tkazdilar. Xalq tomonidan asrlar davomida yaratilgan noyob moddiy va ma'naviy boyliklar, asori atiqalar talandi, yakson qilindi. Mahalliy yozuvlarda bitilgan nodir kitoblar, qo'l yozmalar yondirildi. Zardushtiylik, buddizm dinining ko'plab ibodatxonalari, muqaddas qadam jolari kunpaya- kun etildi. Ulug' bobokalonimiz Beruniy o'zining «O'tmish ajdodlardan qolgan yodgorliklar» asarida achchiq alam bilan ta'kidlaganidek, arablar mahalliy din, san'at, adabiyot namoyandalarini, olimlarni

o'ldirdilar, asarlarini esa olovda yondirdilar. So'ngra ular ajdodlarimizning bebaho boyligi hisoblangan mahalliy yozuvlar, tarixiy hujjatlarni yo'q qildilar. Musulmonchilik diniga, islom aqidalariga zid keladigan jamiki narsalar ularning nazarida g'ayritabiiy hol hisoblanib, ular ayovsiz yo'q qilindi. Bularning o'rniga arablar aholidan olingan mo'may daromadlar, to'lovlar evaziga hashamatli, serviqor masjidi, madrasalar xonaqolar, maqbaralar barpo etib odamlarni ularga da'vat etdilar. Yurtimiz jilovini qo'lga olgan arab hukmdorlari xalqqa zulmu, asoratni kuchaytirish maqsadida turli xil soliq, o'lponlarni joriy etdilar.

Arab xalifaligi xazinasiga to'lanishi majburiy bo'lgan markazlashtirilgan soliq turlari quyidagilardan iborat bo'lgan:

- xiroj, daromadning uchdan bir qismi miqdorida yig'ilgan;
- ushr, davlat idora ishlari uchun daromadning 10 foizi miqdorida olingan;
- juzya-jon solig'i, oziq-ovqat, xomashyo yoki pul hisobida yig'ilgan;

- zakot, mol-mulkning 2,5 foizi miqdorida olingan. Aholidan olinadigan markazlashgan soliqlar hajmi daromadning qariyb yarmini tashkil etardi. Bundan tashqari aholiga mahalliy va mavsumiy soliq va majburiyatlar ham yuklatilgan. IX asr arab tarixchisi Xo'rdodbehning ko'rsatishicha, xalifalikka faqat xiroj solig'i hisobiga So'g'd viloyati 326 ming, Farg'ona 280 ming, Shosh 607 ming, Ustrushon 50 ming dirham to'lagan. Buxoro va Samarqandga belgilangan xiroj solig'i miqdori bulardan ham ko'p bo'lgan, albatta. Shu boisdan istilochilar «kuch xirojda» deganlar. Mahalliy aholi ko'zda tutilgan bu soliqlarni muntazam to'lab borishga majbur etilgan. Bordiyu bunga qurbi etmasa o'sha shaxsning eri, mulki tortib olinib, oilasi bilan ko'chaga uloqtirilgan. Arablar dastlab juz'ya solig'ini musulmon diniga kirmagan odamlarga joriy etganlar. Biroq keyinchalik hamma islomga kira boshlagach, bu soliq yana barcha erli aholiga bab-baravar solina bergan. Ayniqsa o'lka aholisini islomlashtirish jarayoni g'oyat murakkab kechgan. Arab ma'murlari bu sohada ko'p hollarda zo'rlik, zo'ravonlik va kuch ishlatish yo'li bilan mahalliy xalq vakillarini, islomni qabul qilishga undaganlar. Bunga ko'nmaganlar yoxud bosh tortganlar esa shafqatsiz jazolangan. Ko'p joylarda mahalliy kishilar noilojlikdan, qiyin-qistov asosida musulmonchilikni majburan qabul etgan bo'lsalar-da, biroq arablar ko'zdan nari ketishi bilan ular yana bu dindan qaytib o'zlarining eski diniy aqida va marosimlariga amal qila berganlar. Hatto arablar ishonchini qozonib musulmon dinini tantanavor qabul qilgan Buxorxudot Tog'shoda ham islom dinini xo'ja ko'rsinga yuzaki qabul qilgan bo'lib, aslida zardushtiylik ahkomlariga amal qilgan. U vafot etganda ham ajdodlari diniy marosimlarga ko'ra dafn etilgan. Bundan ko'rinadiki, islom dini va uning ruknlarining mahalliy xalq orasida yoyilishi nihoyatda qiyin, murakkab kechgan.

Arablarning Vatanimiz hududida yurgizgan zo‘ravonlik va mustamlakachilik siyosati, shubhasiz, erli aholining turli ijtimoiy qatlamlarining keskin norozililgiga sabab bo‘ldi. Buning natijasida arablar hukmronligi davomida o‘lkaning turli hududlarida xalq g‘alayonlari yuzaga kelib, alanganib bordi. 720-722 yillarda So‘g‘diyonda yuz bergan G‘o‘rak (Samarqand hukmdori) va Divashti (Panjikent hokimi) boshchiligidagi qo‘zg‘olon arablar hukmronligiga qarshi yo‘nalgan dastlabki shiddatli xalq harakatlaridan biri bo‘lgan. Unda arablar siyosati va zulmidan g‘azabga kelgan o‘n minglab mahalliy xalq vakillari ishtirok etgan. Xurosonning yangi tayinlangan va zolimligi bilan nom chiqargan noibi Al-Xoroshiy, uning lashkarboshisi Mussayyob ibn Bashir Ar Riyohiylar katta muntazam harbiy kuch bilan mazkur qo‘zg‘olonni shafqatsizlik bilan bostirishga muvaffaq bo‘ladilar. Qo‘zg‘olon rahbarlaridan biri Divashti ham ushlanib qatl etiladi. 725-729 yillar davomida xalifalikning og‘ir soliq siyosatiga qarshi Samarqand, Buxoro, Xuttalon viloyatlarida ko‘tarilgan qo‘zg‘olonlar ham xalq ozodlik kurashida sezilarli iz qoldirdi. Qo‘zg‘olonchilarning ancha qismi arab ma‘murlari siyosatiga norzilik bildirib, islom dinidan chiqadilar. Kesh atrofida yuz bergan mahalliy aholining arablar bilan to‘qnashuvi rostmona jangu jadal tusini olgan. 736-737 yillarda Tohariston va Sug‘dda yangidan ko‘tarilgan kuchli qo‘zg‘olon o‘z safiga aholining turli ijtimoiy qatlamlarini jalb etgandi. Faqat Xuroson va Movarounnahrning yangi xukmdori, usta diplomat, o‘tkir siyosatchi Nasr ibn Sayyor (738-748)ning uddaburon siyosati, nizoli masalalarni xal etish borasidagi epchil tadbirlari tufayligina qo‘zg‘olon harakatlarini bartaraf etish, o‘lkada muvozanatni saqlash mumkin bo‘ldi. Bunda u mahalliy aholiga, ayniqsa uning nufuzli qatlamiga muayyan yon berishga majbur bo‘ldi. Jumladan, u arablarning mahalliy aholi bilan qon-qardoshlik aloqalarini kuchaytirishga intildi. O‘zi ham Buxorxudot Tog‘shodaning qiziga uylandi. Islomni qabul qilgan kishilar juzyadan ozod etiladi va barcha musulmonlar huquqiy jihatdan tenglashtirildi. Xiroj solig‘i to‘lash barcha uchun baravar deb e‘lon qilinadi.

Muqanna qo‘zg‘oloni. Vatanimiz xalqlarining arablar asoratiga qarshi olib borgan kurashi tarixida alohida o‘rin tutadi. Bu qo‘zg‘olon o‘zining maqsad, vazifalari, yo‘nalishi, jug‘rofiy ko‘lami va ommaviyligi bilan keskin farqlanib turadi. Gap shundaki, qo‘zg‘olon shunday bir paytda boshlanib, keng hududiy chegaralarni qamrab, aholining yangi-yangi qatlamlarini o‘ziga jalb etib bordiki, uning quddratli oqimi, na‘rasi ajnabiy hukmdorlarni ham sarosimaga solib qo‘ydi. Ular joriy etgan tuzum va tartiblarni qaqshatishga olib keldi. Tarixda «oq kiyimlilar» nomi bilan mashhur bo‘lgan bu qo‘zg‘olonga o‘z zamonasining har tomonlama etuk kishisi, xalq dardi, qayg‘usi va maqsadlarini chuqur tushungan, asl ismi Hoshim ibn Hakim, ammo Muqanna (ya‘ni yuziga niqob kiygan ma‘noda) nomi bilan tanilgan buyuk shaxs rahnamo bo‘ldi. 776 yilda Marvda boshlangan xalq qo‘zg‘oloniga qadar ham

Muqanna hayotning katta mashaqqatli yo'lini bosib o'tgan, oddiy kir yuvuvchidan vazirlik darajasiga ko'tarilgan (757-759), ummaviylar sulolasi inqiroziga kuchli ta'sir ko'rsatgan Abu Muslim qo'zg'olonida faol ishtirok etgan, ijtimoiy tenglik, erkin hayot va adolat g'oyalari o'ziga singdirgan taniqli siymo bo'lgan. Shuning uchun ham uning yangidan xalq kurashiga bosh bo'lishi bu harakatning keng quloq yozishiga, uzoq muddat davom etishiga (14 yil) sabab bo'libgina qolmay, ayni chog'da arab hukmron doiralari uchun ham kutilmagan oqibatlarni vujudga keltirib, ularga katta hayotiy saboqlar berdi. Qo'zg'olon Marvda boshlangan bo'lsa-da, u tez orada Movarounnahrning keng hududlariga yoyildi. Muqanna qo'zg'oloni davomida Samarqand, Buxoro, Naxshobu, Kesh hudulari aholisi ham faol harakatga keldi. Uni Iloq, Ohangaron, Shosh, Farg'ona vodiysining ko'p sonli xalqi ham quvvatlab chiqdi. Qo'zg'olonning bosh g'oyasi - Vatanimiz xalqlari, ularning asl farzandlarining muqaddas yurtni ajnabiy hukmronlardan ozod qilish, uning mustaqilligini kurashib qo'lga kiritish g'oyasi to'la kuch bilan namoyon bo'ladi. Mana shu yuksak vatanparvarlik, yurtparvarlik tuyg'usi qo'zg'olonchilarga hayotiy ruh, ma'naviy madad bag'ishlagan, ularning uzoq vaqt davomida arablarning katta harbiy kuchlari bilan jon berib, jon olishib kurash olib borishiga, mislsiz qurbonlar berishiga sabab bo'lgan. Biroq shu bilan birga qo'zg'olonga tortilgan aholining hamma ijtimoiy tabaqalari ham shu ulug'vor g'oyaga sodiq bo'lgan, unga oxirigacha amal qilgan, deb xulosa chiqarib bo'lmaydi, albatta. Negaki qo'zg'olon kuchaygan kezlarda undan o'z xudbin maqsadlari yo'lida foydalanishni ko'zlab xalq kurashiga qo'shilgan yuqori tabaqa namoyandalari ham bo'lgan. Ular keyinchalik qo'zg'olon pasayishi va mag'lubiyat sari yuz tutgan kezda darhol xiyonat yo'lini tutib, ajnabiylar bilan til topib, ularning tomoniga o'tib ketganligi faktdir. Ammo bunday istisnolardan qat'i nazar, bir necha yillar davom etgan «Oq kiyimlilar» qo'zg'oloni yurtimizning ozodlik kurashi tarixida katta dovruq taratdi, arab bosqinchilarini larzaga soldi, ularga sezilari zarbalar berdi. Qo'zg'olon Muqannaga katta madadkor, jangovar safardosh bo'lgan Hakim ibn Ahmad, Xishriy va Bog'iy, Girdak, So'g'diyon degan xalq qahramonlarini ham etishtirib chiqardi. Ular oxirgi tomchi qonlari qolgunga qadar bosqinchilarga qarshi mardonavor kurashdilar. 780-783 yillar qo'zg'olon harakatlari so'nggi hal qiluvchi pallaga kiradi. Bu davrda Muqanna kuchlari Qashqadaryoning Kesh vohasida to'plangan edi. Qo'zg'olonning bosh tayanch nuqtasi-Som qishlog'i ham shu joyda bo'lgan. Albatta, bu vaqtga kelib xalifalik qo'shinlari katta ustunlikka ega bo'lib, ular mahalliy aholining yuqori tabaqalarini o'z tomoniga jalb etib, qo'zg'olonchilarni tabora siqib borayotgan edi. Muqanna Somda mustahkamlanib, o'z tarafdorlari bilan so'nggi nafasigacha kurashdi. Pirovardida esa dushman qo'lida mag'lub bo'lmay, o'zini yonib turgan olovga otib, qahramonlarga halok bo'ladi. Bu voqea Beruniy ma'lumotiga ko'ra 785 yilda sodir bo'lgan. Garchand Muqanna qo'zg'oloni engilgan bo'lsa-da, biroq u buyuk xalq qudratini, agar u birlashsa,

uyushsa nimalarga qodirligini namoyon etdi. Qo'zg'olon ayni chog'da xalifalikning Movarounnahrda mustamlakachilik va bosqinchilik ildizlarini ham qaqshatdi. Uning hukmronligi davomini shubha ostiga solib qo'ydi. Eng muhimi, u erk, hurlik va ozodlik uchun talpinayotgan yurtimiz kishilarida vatanparvarlik tuygusini jo'sh urdirdi, ularni ajnabiy zolimlarga qarshi yanada shiddatkorlik bilan kurash olib borishga da'vat etdi. Buning samarasi esa IX asrning boshlariga kelib yurtimiz ustidan xalifalik hukmronligining uzil-kesil ag'darilishi va bir qator mustaqil milliy davlatlarning yuzaga kelishida to'la namoyon bo'ldi.

Arablar istilosi va hukmronligi Vatanimiz hududida qanchalik murakkab ijtimoiy-siyosiy oqibatlar bilan bog'liq bo'lmasin, shu bilan birlikda yakkaxudolik g'oyasi, ilg'or ijtimoiy-siyosiy, falsafiy qarashlarni o'zida mujassam etgan islom dini va ta'limotining o'lkamizda asta-sekin ildiz otib borishi ulug' ajdodlarimiz hayoti va tafakkurida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Butun arab dunyosini birlashtirish, uning ma'naviy qudratini kuchaytirishda etakchi omil rolini o'ynagan islom dini va uning muqaddas kitobi-Qur'oni karim g'oyalari va oyatlarining mahalliy xalqlarning ongi, shuuriga singib, ularning turmush va fikrlash tarzining ajralmas bir qismiga aylanib borishi, shubhasiz, ularning ma'naviy olamiga hayotbaxsh ta'sir ko'rsatdi hamda yuksak moddiy va ma'naviy madaniyat namunalarini ijod qilib borishlarida yangi ufqlar ochib berdi. Buning asosiy boisi shundaki, Allohning yagonaligiga imon keltirish, uning yuksak insonparvarlik g'oyalariga, olijanab shaxsiy fazilatlarga ishonch va e'tiqod-bular yurt kishilarida bir-birlarini quvvatlash, birlashish, o'zlarini yagona makonda his qilish, o'zaro hamkorlikda, keng sa'y-harakatlarda bo'lish tuyg'usini shakllantirib bordi. Negaki, islom ta'limoti, Qur'oni karim g'oyalari negizida tarkib topgan musulmonchilik ahkomlari va ruknlarining o'lkamizga yoyilishi islomni qabul qilgan o'tmishdoshlarimizning Alloh buyurgan olijanob amallarga rioya etib, ruhiy-ma'naviy poklanish sari harakatlanishi, shubhasiz, jamiyat hayoti va uning asosiy tamoyillarining sog'lom negizlarda rivojlanib, takomilashib borishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shu ma'noda Yurtboshimiz: «Biz otabobolarimizning muqaddas dini bo'lgan islom dinini qadrlaymiz, hurmat qilamiz, odamzod ruhiy dunyosida iymon- e'tiqodni, insoniy fazilatlarni mustahkamlashda uning o'rni va ta'sirini yuksak baholaymiz»¹ deb ta'kidlaganligi bejiz emasdir. Zero, o'lkaning ma'naviy yuksalishini ta'minlash, odamlarning bir-biriga qon-qardoshligi, hamjihatligini jipslashtirishda muhim omil bo'lgan asriy bebaho qadriyatlarimizni o'zida mujassam etgan islomiy ahkomlarning bugunda ham hayotimizda o'z munosib o'rnini topayotganligi islomning jamiyat taraqqiyotidagi muhim omil ekanligidan dalolat beradi.

¹ «Туркистон» газетаси, 1999 йил 2 февраль

Nazorat savollari

1. Eftaliylar davlatining yuzaga kelishi, hududiy kengayishi to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Eftaliylar davrida yerga egalik qilish munosabatlarida qanday o'zgarishlar bo'ldi?
3. Eftaliylar davriga oid moddiy va ma'naviy yodgorliklar namunalari nimalardan so'zlab bering.
4. Mazdakchilar qanday g'oyalarni ilgari surganlar?
5. Turk xoqonligiga qachon asos solingan?
6. Turk xoqonligi davrida O'rta Osiyo hududidagi davlat boshqaruvi tizimi qanday bo'lgan?
7. Arabistonda islom dini qanday omillar ta'sirida yuzaga keldi?
8. Arab istilochilarining O'rta Osiyoga yurishlari haqida so'zlang.
9. Arab bosqinchilariga qarshi yurtimiz zaminida qanday xalq qo'zg'olonlari yuz bergan?

5-mavzu. IX-XII asrlarda o‘zbek davlatchiligi. Ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayot. Ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasi taqaddiyotiga qo‘shgan ulkan hissasi

REJA:

1. Moddiy va manaviy madaniyatning yuksalishi (renessans) ni ta’minlagan tarixiy shart-sharoitlar.
2. IX-XII asrlarda ilm-fan ravnaqi. Ajdodlarimizning jahon tsivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi.
3. Islom dinining davlat tayanchiga aylanishi. Sufiylik tariqatlari.

Tayanch so‘z va iboralar: Tohiriylar. Somoniylar. Davlat boshqaruvi. Qoraxoniylar. G‘aznaviylar. Saljuqiylar. Xorazmshohlar. Uyg‘onish davri. Ilm-fan. Badiiy adabiyot. Hadisshunoslik. Tasavvuf ta’limoti.

IX-XII asrlarda O‘rta Osiyo xalqlari tarixida moddiy va ma’naviy hayotning rivojlanishida oldingi davrlarga nisbatan keskin yuksalish yillari bo‘ldi. Movarounnahr deb ataladigan bu hududda mustaqil davlatlarning tashkil topishi ularda siyosiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish va madaniy hayotning ravnaqiga katta ta’sir ko‘rsata boshladi. Buxoro, Samarqand, Urganch va Marv kabi shaharlar ilm-fan va madaniyat markazlari sifatida shakllanib rivojlana boshladi.

Ismoil Somoniy, Alptakin, Mahmud G‘aznaviy, To‘g‘rulbek, Sulton Sanjar, Otsiz, Takash singari tadbirkor va uzoqni ko‘ra oladigan davlat arboblari davrida O‘rta Osiyoda hayotning barcha jabhalarida yuksalishga erishildi, davlat hokimiyati mustahkamlandi, nisbatan tinchlik, osoyishtalik va barqarorlik vujudga keldiki, bu davrda O‘rta Osiyoda ilm-fan, madaniy hayotning rivojlanishiga keng imkoniyat yaratildi.

Fanda yirik, salmoqli ma’rifiy yuksalish uyg‘onish, ya’ni renessans deb atalgan. Frantsuz tilidan olingan bu so‘z “tiklanish”, “uyg‘onish” ma’nosida tarjima qilinib, adabiyotga kirib kelgan. Renessans, odatda, u yoki bu hududda, mamlakatda yuz bergan moddiy, ma’rifiy, ma’naviy jihatdan katta yuksalish davrini tasnif etishda ishlatiladi “Renesans”-“Uyg‘onish davri” deb ataladigan davr /arbiy va Markaziy Yevropada joylashgan mamlakatlarda XIV-XVI asrlardagi rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalash uchun ishlatilgan. Birinchi marotaba “uyg‘onish” atamasining XVI asr ital’yan rassomi va tarixchisi J.Vazari o‘z asarlarida ishlatadi. Bu atama antik davr merosini, ya’ni antik madaniyatga o‘xshash madaniyatning qaytadan “tirilishi”, “uyg‘onish” ma’nosida ishlatila boshladi. Keyinchalik fanda bu atama keng qo‘llanila boshlandi. SHu ma’noda O‘rta Osiyo xalqlari necha ming yillar davomida yaratgan va arablar bosqini davrida inqirozga uchragan madaniy hayotning IX asrdan boshlab tiklanishi va yuksak cho‘qqilarga

chiqishi davrini ham haqli ravishda “renessans” – uygʻonish davri deb atash mumkin.

Tarixchi Abu Mansur as-Salobiyning Buxoro shahriga bergan taʼrifi butun Oʻrta Osiyo davlatlarining IX-XII asrlardagi ahvoliga tegishlidir: ”... shon-shuhrat makoni, saltanat kaʼbasi va zamonasining ilgʻor kishilarini jamlagan, yer yuzi adiblarining yulduzlari porlagan hamda oʻz davrining fozillari yigʻilgan joy edi”. Bu davrdagi Oʻrta Osiyo hukmdorlari ilm ahli bilan yaqinlashdilar. Mamlakatni boshqarishda ularning bilimi va maslahatlaridan foydalandilar. Hukmdorlarning aksariyati bu davrda oʻz saroylarida olim, shoir va usta sanʼatkorlar, turli sohalar boʻyicha qimmatbaho kitoblarni toʻplashga odatlandilar. Saroyga jalb etilgan olim va shoirlar, kutubxonalaridagi nodir qoʻlyozma asarlar bilan magʻrurlanardilar.

Oʻrta Osiyoda qadimdan tsivilizatsiya asoslari, moddiy va maʼnaviy madaniyatning chuqur ildizlari mavjud boʻlgan. Arablar bosqini natijasida jiddiy putur yetgan oʻlkamiz madaniyati yillar oʻtib bir muncha tiklandi va yangi sharoitda ilm fan rivojlandi, madaniy maʼrifiy sohalarda jiddiy ijobiy oʻzgarishlar yuz berdi. Arab xalifaligi ham, IX asr boshlariga kelib ilm fan, maʼrifat ahamiyatini yaxshiroq tushundi. Xalifalikning yangi poytaxti Bagʻdodda 832 yili “Baytul hikma” (“Donishmandlar uyi”) tashkil etilib, uning ehtiyoji uchun katta mablagʻ ajratildi. Baytul hikma qoshida ikkita rasadxona, ilmiy markaz tashkil etilib, dunyoning turli yerlaridan avvallari bitilgan ilmga oid adabiyot toʻplandi, yunoncha, lotincha, hindcha, xitoycha, forsha va boshqa tillardan arabchaga tarjima qilindi, oʻrganildi. Xalifalik bu ilm maskaniga koʻp mintaqalardan mashhur allomalarni jalb etdi. Xususan, Oʻrta Osiyodan 20 ortiq olimlar bu markazda sadoqat bilan ilm fan rivojiga oʻz salmoqli hissalarini qoʻshgan edilar. Mintaqamizda IX asrga kelib arablarning maʼmuriy tazyiqi ancha zaiflashgach ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat bir muncha barqarorlashgan edi. Somoniylar, qoraxoniylar va Xorazmshohlar davlatlarida nisbatan osoyishtalik vujudga keldi. Oʻlkada moddiy ishlab chiqarish, madaniy rivojlanish jarayoni ancha tezlashdi, shaharlar hayoti yuksala bordi. Hunarmanmanchilik turlari koʻpaydi, xususan, togʻ jinlarini ishlash, shishasozlik kuchaydi, savdo-sotiq ishlari qayta rivoj topdi. Davlat tizimida madaniyatni yaxshi anglagan ilmi odamlar koʻpaydi. Xususan, devon boshliqlari (vazirlar), hokimlarning koʻpchiligi arab, fors, turkiy tillarni bilgan, dunyoqarashlari keng kishilar edi. Masalan, somoniylar davlatining vazirlari Abu Fazl Balʼamiy, Abdullo Jayhoniylar maʼrifatli insonlar boʻlgan va ilm-fan rivojiga bevosita homiylik qilganlar. Xorazmshoh Abul Abbas Maʼmun oʻz vaziri Abulhusayn bilan birga Urganchda “Donishmandlar uyi” (akademiya) ni tashkil etgan va unda Beruniy, ibn Sino, Miskavayx, Ibn Iroq kabi allomalar barakali ijod qilganlar.

X-XI asrlarda mintaqada koʻp bunyodkorlik ishlari amalga oshirilgan, yangi madrasalar, saroylar, masjidlar, maqbaralar va boshqa noyob meʼmorchilik

inshootlari barpo etilgan. O'lkada ko'plab karvonsaroylar, rabotlar, sardobalar qurilgan. Buxoro, Samarqand, Xiva, Termiz, Marv, SHosh, Xo'jand, O'sh, Andijon, Kesh, Karmana, Koson, Marg'ilon, Panjikent kabi shaharlarda turli ilm maskanlari bo'lgan. Ko'plab madrasalar ishlab turgan, kutubxonalar, kitob rastalari va bozorlari gavjum bo'lgan. Ko'pchilik oilalarda bolalar avvalo uyda o'qib savod chiqarar, so'ng madrasalarda o'qishga intilar edilar. Bularning bari o'sha paytlarda ma'rifat va madaniyat rivoji uchun zarur bo'lgan muhit, shart-sharoitlar mavjudligidan dalolat beradi. O'lkamizda bu asrlardagi kashfiyotlar va bilimlar ko'p jihatdan hayotiy bo'lib, ijtimoiy ehtiyojni, jadal sur'atlarda o'sib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar talabini qondirish, keng ma'noda moddiy va ma'naviy madaniyatning yuksalishi bilan bog'liq bo'lgan. Ana shu ehtiyoj o'lkamizda buyuk allomalarning vujudga kelishida, ular ijodining samaralarida namoyon bo'ldi. Masalan, Al-Xorazmiy o'zining algebraga oid kitobi muqaddimasida asarni yozishdan maqsad mamlakat oldida turgan ehtiyojlar, me'morchilik va sug'orma dehqonchilik bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal qilishda ko'makdir, deb ta'kidlaydi.

IX-XII asrlardagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat mintaqamizda ilm fan, umuman madaniyatning keng ko'lamda rivojlanishini taqozo qilar edi.

Bunday sharoitda yuzlab allomalar davr talabiga javob berib barakali ijod qildilar va ilmning turli sohalarida ko'plab yangiliklar yaratdilar. Aslini olganda, bunday ilmiy, madaniy va ma'naviy yuksalish o'rta asrlar uchun kutilmagan, shu bilan birga dunyoni hayratda qoldirgan hol bo'ldi. SHu boisdan ham bunday ma'rifiy siljish uyg'onish, ilk renessans deb tarixga kirdi. Bunday taraqqiyotning sarvarlari Muso al-Xorazmiy (783-850) va Ahmad al-Farg'oniy (798-865) bo'lganlar. Ular matematika, astronomiya, geografiya fanlarini chuqur o'rganib, bu sohada ko'plab yangiliklar yaratdilar. Xususan, hozirgi "algebra", "algoritm" so'zlari Al-Xorazmiy nomi bilan bevosita bog'liq. Al Farg'oniy dastlabkilardan biri bo'lib, Yer shari xaritasini tuzgan, uning Damashqdagi rasadxonada ishlab yer meridiani bir darajasining uzunligini o'lchash, Nil daryosi suvi sathini belgilovchi asbobni yaratish kabi kashfiyotlari jahonga ma'lum. Olim yilning yozda eng uzun kunini (22 iyun), qishda eng qisqa kunini (22 dekabr), tunu kunning tengligi 21 mart va 22 sentyabrga to'g'ri kelishini aniqlagan. Vatandosh allomalarimizning aksariyat ko'pchiligi qomusiy olimlar bo'lgan. Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi o'nlab olimlar falsafa, matematika, astronomiya, adabiyot, she'riyat, qonunshunoslik, jamiyatshunoslik bobida samarali ijod qilganlar. X asr allomasi Abu Abdulloh al-Xorazmiy o'zining "Ilmlar kalitlari" nomli asarida o'sha paytda ma'lum bo'lgan ellikka yaqin ilmlar tasnifini, ya'ni klassifikatsiyasini beradi va ularni sharhlaydi. Tabobat va dorishunoslik borasida dunyoga dongi ketgan Ibn Sinodan tashqari Al-qumriy, Abu Mansur

qamariy, SHarafutdin al-Iloqiy, Ismoil Jurjoniy kabi olimlar unumli mehnat qilganlar. Kimyo fani ravnaqiga Abu Bakr ar-Roziy, Abul Hakim al-Kosiy, geometriya va trigonometriya rivojiga Mahmud Chag‘iniy, Shamsutdin A‘loul Buxoriy, falsafaga Ibn Miskavayx kabi allomalarning hissalarini katta bo‘lgan.

Mashhur faylasuf, ko‘p tabiiy fanlar bilimdoni Al-Farobiy musiqa haqida ham asarlar yozgan, uning notalar xususidagi kitoblari o‘rta asrlardayoq lotin, ivrit (qadimgi yahudiy) va boshqa tillarga tarjima etilgan ekan. Yoki ibn Sinoni olaylik, bilamizki, alloma tabobat, riyoziyot, falsafa, jamiyatshunoslik sohalarida benazir asarlar bitgan. Shu bilan birga ibn Sino 10 jildlik arab grammatikasi xususida kitob yaratgan. Faxriddin Roziy falsafa, mantiq, huquqshunoslik, tibbiyot va boshqa sohalarda 150 dan ortiq ilmiy risolalar yozgan. Mintaqamizda mavjud bo‘lgan ko‘p tillilik (aholining ko‘pchiligi turkiy, fors va arab tillarini bilgan) bu davr madaniyatining muhim xususiyatlaridan biridir. Shu bilan birga donishmandlarimiz boshqa xorijiy tillardan ham xabardor bo‘lganlar. Masalan, buyuk astronom va matematik, geodeganziya, geologiya, mineralogiya, tarix fanlarining bilimdoni al-Beruniy 7-8 tilni mukammal bilgan. Xususan, u yunon olimlari Evklidning “Negizlar“ va Ptolemeyning “Almagest“ asarlarini yunonchadan, o‘zi yaratgan “Usturlobiya“ kitobini arabchadan sanskritga (qadimgi hind tiliga) tarjima qilganligi tarixdan ma’lum.

IX-XII asrlarda tarix, tilshunoslik, badiiy san’at kabi gumanitar fanlar ravnaqi ham salmoqli bo‘lgan. Abu Bakr Narshaxiyning “Buxoro tarixi”, Al-Mustag‘firiyning “Nasaf va Kesh tarixi“, Bayhaqiyning “Ma’sudiy tarixi” bitildi. Bu davrda Xorazm, Samarqand, Shosh, Termiz, Chog‘oniyon o‘tmishiga oid tarixiy risolalar yaratildi. Xususan, X asrning o‘rtalarida yaratilgan “Buxoro tarixi” turli davrlarda frantsuz, rus, ingliz, arab, fors va hozirgi o‘zbek tillarida bir necha bor chop etilgan.

O‘sha paytlarda turkiy tillarga e’tibor ham kuchayib, adib Ahmad Yugnakiy “Haqiqatlar tuhfasini” dostonini yaratdi. Bizgacha yetib kelgan bu asardan ko‘rinib turibdiki, uning muallifi salohiyatli shoir va ahloq muallimi bo‘lgan. Bu ajoyib asar 14 bobdan iborat bo‘lib, ular ma’naviy-ahloqiy kamolot sirlaridan ta’lim berishga mo‘jallangan. Dostonning birinchi bobiga “Ilm manfaati va jaholatning zarari haqida” deb bejiz nom berilmagan. Mashhur turkiyshunos olim Mahmud qoshg‘ariy “Turkiy tillarning sintaksis qoidalari”ni yozdi va “Devonu lug‘atit turk” asarini yaratdi. Unda muallif 7,5 mingdan ortiq turkiy so‘zlar izohlari, grammatik va didaktik xususiyatlari, shevalari to‘g‘risida to‘xtalgan. Shu davrlarda Yusuf Xos Hojib “Saodatga boshlovchi bilim” kitobini yaratdi. O‘zbek adabiy tilining shakllanishida bu asarlarning o‘rni katta bo‘lgan. O‘sha asrlarda o‘lkamizda she’riyat keng ko‘lamda rivojlandi. Ular ko‘pincha fors, turkiy va arab tillarida bitilar edi. Abu Abdulloh Rudakiy, Abu Mansur Daqiqiy, Sobir Termiziy,

Abu Mansur as-Saolibiylarning badiiy asarlari mashhur bo'lgan. Abulqosim Firdavsiyning "SHohnoma"si madaniyatimizda ulkan voqea bo'ldi. Bu davrda xalq og'zaki ijodi ham keng rivoj topdi. "O'g'iznoma", "Alpomish", "Go'rug'li", "Manas" kabi dostonlar elga manzur bo'ldi, aholi orasida she'riy aytishuvlar vujudga keldi.

Bundan tashqari arab tiliga bo'lgan ehtiyoj va intilish tufayli ko'p vaqt o'tmay Movarounnahrda ham hatto o'z ona tilidan ko'ra arab tili va yozuvini yaxshiroq o'zlashtirib olgan bilimdonlar paydo bo'ldi. O'rta Osiyo xalqlarining bilimga bo'lgan chanqoqligi, e'tiqodi tufayli tez orada arablarning o'ziga arab tilini o'rgatish darajasiga ko'tarildi. SHuning uchun ham ko'pgina olimlar Damashq, Basra, qohira, Bog'dod, Kufaga borib ijod etishga majbur qilinar edi. Bag'dod shahri sharqning ilm-fan markazi sifatida olamga tanildi, chunki VIII asrning oxirida bu yerda "Bayt ul - hikma" - (donishmandlar uyi) Sharqning fanlar akademiyasi tashkil etildi. Bunga monand holda X asr oxirlarida Xorazmda ham xalifa Ma'mun davrida (995-997 y) Bayt ul- hikma - Ma'mun akademiyasi (Xorazm akademiyasi) tashkil bo'ldi. Bu ikki ilm o'choqlarida SHarqning mashhur olimu-allomalari tahsil ko'rganlar. Ular orasida Ahmad Farg'oniy, Al Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqa buyuk allomalarning nomlari bor.

Xorazm akademiyasida falsafa, matematika va tib ilmiga oid masalalar muhokama qilinar edi. Bu yerda yirik mutafakkirlardan Ibn Sino, Beruniydan tashqari tarixchi Miskavayx, matematik Abu Nasr Arroq, faylasuf Abu Saxl Masixiy, tabib Ibn Xammorlar to'plangan edi. Ammo Urganchdagi bu muhit uzoq ishlamadi. U Mahmud /aznaviyning tazyiqi ostida tezda tarqalib ketdi.

Buyuk olim va alloma vatandoshlarimiz jahon ilm-fan xazinasiga qanday hissa qo'shdilar?

Muhammad ibn Muso al Xorazmiy (783-850) mashhur matematik astranom, geograf va tarixchi edi. Uning "Al Jabr va muqobala", "Hisob al-hind", "Kitob surati al-Arz". "Kitob at-tarix", "Kitob al-amal bul usturlabot" kabi asarlari olimga jahonshumul shuhrat keltirdi. xorazmiy yaratgan 20 dan ortiq asardan bizning davrimizgacha faqat 10 tasi yetib kelgan.

Xorazmiy ijodi merosida "Aljabr va al-muqobala" kitobining ilmiy ahamiyati nihoyatda buyukdir. Bu kitob bilan u matematika tarixida birinchi bo'lib algebra faniga asos soldi. Hatto "algebra" atamasi ushbu kitobning qisqacha "aljabr" deb yuritilgan qisqartirilgan nomning aynan ifodasidir.

Xorazmiy nomi esa matematika faniga "algoritm" atamasi shaklida o'z ifodasini topdi. Uning "aljabr" asari asrlar davomida avlodlar qo'lida yer o'lchash, bino qurish, merosni taqsimlash va boshqa turli hisob va o'lchov ishlarida dasturilamal bo'lib xizmat qildi. Bu risola XII asrdayoq Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilindi. Keyinchalik Yevropa olimlari Xorazmiy asarlarini qayta-qayta ishlab u

asosda asarlar yozdilar. Xorazmiyning arifmetik risolasi hind raqamlariga asoslangan oʻnlik pozitsion hisoblash tizimi Yevropada, qolaversa, butun dunyo taraqqiyotida buyuk ahamiyat kasb etdi, algebrani mustaqil fan darajasiga koʻtardi.

“Bayt ul-hikma” da faoliyat koʻrsatgan olimlardan yana biri buyuk astronom, matematik va geograf Ahmad al-Fargʻoniy (797-865)dir. U Fargʻonada tavallud topgani uchun SHarqda al Fargʻoniy, /arbda esa Alfarganus taxallusi bilan shuhrat topgan. U avval Marv, soʻngra Bagʻdod, Damashq va qohira shaharlarida astronomiya, matematika va geografiya fanlari bilan shugʻullandi. qator ilmiy va amaliy asarlar yozib qoldirdi. “Kitob fi usul ilm an-Nujum” (Falakiyot ilmining usullari haqida kitob), “Falakiyot risolasi”, “Falak asarlari sababiyati”, “Al Majistiy”, “Ilm-hayya”, “Al Fargʻoniy jadvallari”, “Usturlob bilan amal qilish haqida”, “Oy yerning ustida va ostida boʻlganida vaqtni aniqlash risolasi”, “Etti iqlim hisobi”, “Usturlob yasash haqida kitob” asarlarining qoʻlyozmalari Angliya, Frantsiya, Germaniya, Misr, Hindiston, AQSh va Rossiyada saqlanmoqda.

Ahmad Fargʻoniy Bagʻdod va Damashqda rasadxonalar qurilishida shaxsan qatnashdi. U 812 yilda quyosh tutilishini oldindan bashorat qilib berdi, yerning dumaloq ekanini ilmiy dalillar bilan isbotlab, bir xil fazo yoritgichlarni har xil vaqtda koʻrilishini, tutilishini hamma joyda har xil kuzatish mumkinligini izohlab berdi. 861 yilda qohira shahri yaqinida joylashgan Ravzo orolida Nil daryosi sohilida qurilgan qadimgi gidrometr-daryo oqimi sathini oʻlchagich Miqyos an-Nil inshooti qayta tiklandi.

Bizning davrimizgacha Ahmad Fargʻoniyning sakkiz asari saqlanib, ularning birortasi ham hozirgi zamon tillariga tarjima qilinmagan edi. Ahmad Fargʻoniy tavalludining 1200 yilligi munosabati bilan uning ayrim risolalari oʻzbek va rus tillariga tarjima qilindi.

Abu Nasr Farobiy 873 yilda Aris daryosining Sirdaryoga quyilishida joylashgan Farob (Oʻtror) shahrida tugʻildi. U avval ona shahrida, soʻng Samarqand, Buxoro va Bagʻdodda bilim oldi.

Farobiy riyoziyot, falakiyot, tabobat, musiqa, mantiq, falsafa, tilshunoslik va adabiyot sohalarida ijod etgan. U 160 dan ortiq asar yozib, oʻrta asr fan va madaniyatiga ulkan hissa qoʻshdi.

Aristotelning “Metafizika” asari maqsadlari haqida, “Musiqa kitobi”, “Baxt saodatga erishuv haqida”, “Tirik mavjudot aʼzolari haqida”, “Siyosat al Madoniya” (Shaharlar ustida siyosat yuritish) kabi asarlari shular jumlasidandir. Farobiy bilimining kengligi tufayli u Sharqda Aristoteldan keyingi ikkinchi muallim-“Muallim us-soniy” nomi bilan shuhrat topdi. Farobiy oʻrta asr sharoitida aql va ilm tantanasi, maʼnaviy ozodlik, komil inson va adolatli jamiyat uchun kurashgan buyuk siymo edi.

Bu davrning ulug‘ mutafakkirlaridan yana biri Abu Ali Ibn Sino edi. U 980 yili Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog‘ida, mahalliy amaldor oilasida dunyoga keldi. U 10 yoshlarida maktabni tugatgach, ustozlari Abu Abdulloh an Natimiydan mantiq, falsafa, riyoziyot va fikh ilmlarini o‘rgandi. 16 yoshidan turli fanlar bo‘yicha SHarq va /arb olimlarining ilmiy asarlarini mustaqil ravishda o‘rgandi. U ayniqsa tabobat ilmining qadimgi allomalari Gippokrat va Galen hamda SHarqning buyuk hakimi va mutafakkiri Abu Bakr ar-Roziy (864-925) ning asarlarini puxta o‘rgandi. U 17 yoshidayoq e‘tiborli olim va tabib bo‘lib yetishadi. U somoniylarning saroy kutubxonasida bir yil davomida bilimni chuqurlashtirishga erishdi. IX asrning oxiri X asr boshlarida Movarounnahr va Xurosondagi murakkab siyosiy vaziyat oqibatida yuzaga kelgan og‘ir sharoitda Ibn Sino o‘z ona shahri Buxoroni tark etib, avval Urganchda Xorazmshoh saroyidagi olimlar qatoridan joy oladi. So‘ng Mahmud /aznaviyning tazyiqi tufayli Xorazmdan chiqib ketadi. U umrining oxirigacha Obivard, Gurgan, Ray, qavzin, Isfaxon, Hamadon shaharlarida hukmdorlar qo‘lida tabiblik va vazirlik qildi. Ibn Sino arab va fors tillarida fanning turli sohalari bo‘yicha 300 dan ortiq asarlar yozdi. Nazm va nasrda qalam tebratdi. Uning besh jildlik “Al qonun fit-tib”, “Kitob ush-shifo”, “Donishnoma”, “Solomon Ibsol”, “Risolat at-Tayr” va boshqa ko‘pgina asarlari shular jumlasidandir. Olimning “Al qonun fit-tib” asari XII asrdayoq lotinchaga tarjima qilingan bo‘lib, to XVII asrlargacha Yevropa tabobatida asosiy qo‘llanma sifatida foydalanilgan. O‘rta asrning bu buyuk allomasi SHarqda “SHayx-ur rais”, /arbda esa “Avitsenna” nomlari bilan shuhrat topdi.

O‘sha zamonda Urganchda yashab ijod etgan mutafakkirlardan biri Abu Rayhon Beruniy (973-1048) edi. U Urganchda ta‘lim oldi. So‘ng Xorazmshoh Ma‘mun saroyida, 1017 yildan esa Mahmud /aznaviyning talabi bilan /azna shahriga borib umrining oxirigacha shu yerda ijod qiladi. U falakiyot, geografiya, matematika va tarix fanlari bo‘yicha 154 ta ilmiy asar yozgan. Beruniyning “Osor ul-boqiya” (“O‘tmish ajdodlardan qolgan yodgorliklar”), “Hindiston”, “Minerologiya”, “Geodeziya” kabi yirik asarlari shular jumlasidandir. U o‘zining falakiyotga oid asarida Kopernikdan qariyb 5 asr ilgari yerning quyosh atrofida aylanishi haqidagi fikrni birinchi bo‘lib ilgari surgan edi. Yerning dumaloq shaklda ekanligini asoslab berdi. Amerika qit‘asi borligini bashorat qildi. U, dunyoning geografik xaritasini tuzdi. Beruniyga fan olamida katta shuhrat keltirgan asarlari “Hindiston” va “O‘tmish ajdodlardan qolgan yodgorliklar” nomli kitobidir. Olim “Hindiston” asarida Hindistonning geografiyasi, aholisining mifologik tasavvurlari haqida ma‘lumot beradi. “O‘tmish ajdodlardan qolgan yodgorliklar” asarida esa yunonlar, rumliklar, forslar, so‘g‘dlar, xorazmlilar, nasorolar, yaxudiylar, arablarning islomgacha bo‘lgan urf-odatlar, diniy e‘tiqodlari, matematik va geografik tushunchalar to‘g‘risida qimmatli tarixiy ma‘lumotlar bayon qilingan. Beruniyning ilmiy-falsafiy merosi shubhasiz jahon fani va madaniyati xazinasiga qo‘shgan katta hissi bo‘ldi.

899 yilda Buxoro yaqinidagi Narshax qishloqida tavallud topgan Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiyning ilmiy asarlari to'qrisida ma'lumotlar juda kam. Uning faqat "Tarixi Buxoro" (Buxoro tarixi) asari bizgacha yetib kelgan. Asar qo'lyozma nusxalarda va hozirgi zamon ilmiy adabiyotlarida "Tarixi Narshaxiy", "Tahqiq ul-Viloyat" (Viloyat haqiqatini aniqlash), "Axbori Buxoro" (Buxoro haqida xabarlar) kabi nomlar bilan atalishiga sabab uning asl nusxasi saqlanib qolmagan. Arab tilidan fors tiliga tarjima qilish jarayonida va nusxa ko'chirishda matnlar qisqartirilgan va yangi voqealar bilan to'ldirilgan.

"Buxoro tarixi" asari o'zining ilmiy ahamiyatini yo'qotmagan va hozirgi kunda somoniylar davri tarixi bo'yicha eng noyob, qimmatli asar hisoblanadi. Asarda Somoniylar davlatining siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy hayotiga oid ma'lumotlar keltirilgan. Movarounnahr va Xuroson aholisining arab bosqinchilariga qarshi Muqanna boshchiligidagi qo'zg'oloni bilan boqliq bo'lgan ma'lumotlar ham bu asarda ma'lum darajada o'z ifodasini topgan. Narshaxiy saroy tarixchisi bo'lgani sababli hukmron tabaqa siyosatini yoqlab, xalqning hokimiyatga chiqishini qoralagan.

Mashhur tilshunos olim Mahmud qoshg'ariyning 1069 yilda yozgan "Devoni Lug'ati turk" asari diqqatga sazovordir. Mahmud qoshg'ariy bu asarda qadimiy turkiy tilga oid so'zlar ifodalarining arab tiliga tarjimasini, shuningdek, she'riy parchalarni turkiy tilda bergan. Mazkur asar bizga qadim zamonlardagi turkiy xalqlarning tili, tarixi, turmush tarzi, badiiy ijodi to'qrisida keng ma'lumotlar beradi.

Yusuf Xos Hojibning "qutadg'u bilig" asari masnaviy yo'lda bitilgan doston bo'lib, u 1300 misradan ziyoddir. Bu asarning qimmatini shundaki, u eski turkiy tilda yozilgan shoh asardir. Unda muallif ahloqiy-tarbiyaviy fikrlarni badiiy shaklda ifoda etib, ezgulik, adolatparvarlik va xalqparvarlikdan ta'lim beradi. Asar tilining ravonligi, badiiy barkamolligi, geografik ma'lumotlarga boyligi bilan ajralib turadi. Juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan nodir asardir.

XII asrda turkiy tilda ijod etgan shoir va mutafakkirlardan yana biri Ahmad Yugnakiydir. Ahmad Yugnakiydan yagona meros-"Hibatul-haqoyiq" nomli asari saqlanib qolgan. Shoir o'z asarida ilm-fan, olim va fozillarni ulug'laydi, ma'rifatparvarlikni targ'ib etadi, kishilarni ilmi va ma'rifatli bo'lishga chaqiradi.

Bu davrda yuksak badiiy tafakkur timsoli sifatida forsiyda dahol shoir hisoblangan Abulqosim Firdavsiy tomonidan yaratilgan shoh asar "Shohnoma" asarini ko'rsatish mumkin. Unda Eron va Xurosonning ming yillik boy tarixi podsholarining saltanat uchun olib borgan janglari, xalqlarning achchiq kechmishlari yuksak badiiy obrazlar timsolida yoritib berilgan.

O'rta Osiyoda arab, turkiy tillar bilan bir qatorda fors-tojik, dariy tili ham rivojlanib bordi. O'rta Osiyoda badiiy adabiyotning ravnaqiga tojik klassik

poeziyasining asoschisi Abu Abdulloh Ja'far Rudakiy, Abu Mansur Daqiqiy, Abdulhasan Balxiy va boshqalar g'oyat katta hissa qo'shdilar.

Rudakiy IX asr oxirlarida Panjikent yaqinidagi Panjrudak qishloqida tug'ilgan. Yoshligidan u chang (rud) chalib, she'r yozib kuy bastalagan va hofizlik qilgan. U Nasr ibn Ahmad tomonidan sozanda va shoir sifatida saroyga chaqirtirilgan. Rudakiy "Kalila va Dimna", "Sinbadnoma", "Arois va Nafois", "Davroni oftob" nomli asarlar yozgan. U she'riyatda, ayniqsa qasida bitishning mohir ustasi bo'lgan. Uning "Jo'yi Muliyon", "Mayning onasi" va "qarilik" kabi qasidalarini xalq o'rtasida g'oyat shuhrat topgan. Rudakiy o'z she'rlarida ona Vatani, uning tabiati va aholisini, insooniylarini his-tuyg'ularini tarannum etadi. Shoir haqsizlik va adolatsizlikka qarshi dadil chiqadi, o'sha vaqtlarda hukm surgan tartibsizliklarni ayamay fosh etadi. SHuning uchun ham umr bo'yi ta'qib etilgan. Oxiri Buxorodan quvilgan Rudakiy 941 yilda ona qishlog'ida vafot etadi.

IX-XII asrlarda islom dini O'rta Osiyo xalqlari davlatchiligi tarixida katta rol o'ynay boshlaydi. Bu vaqtda islom dini Sharqda keng tarqalib jahon dini darajasiga ko'tarildi. IX-XII asrlarda dunyoviy fan va madaniyat bilan bir qatorda islom mazmunini anglash, uning mohiyatini o'rganish, targ'ib qilishda ham katta ishlar qilindi. Bunday mas'uliyatli va savob ishda Imom al-Buxoriy (810-870) va Abu Iso Muhammad at-Termiziy (824-892)lar tashabbuskor bo'ldilar. Ular islom dunyosida vujudga kelgan minglab hadislarini sinchiklab o'rgandilar, xolis va ishonarlilarini ajratib, ularga sharhlar berdilar. Ular Muhammad payg'ambarning hayoti va faoliyati, shuningdek uning diniy va axloqiy ko'rsatmalariga oid asarlar yozdilar. Bu buyuk allomalar mashaqqatli ijodlarida va amaliy ishlarida musulmonchilikning asl ma'nosini mahorat bilan ochib berdilar, islomning ilm fanga, madaniyatga, umuman taraqqiyotga bo'lgan ijobiy ta'sirini ko'rsata bildilar. Ular islomning insonparvarlik xususiyatlarini ta'kidlab, uning ko'pchilik manfaatini ko'zlovchi demokratik e'tiqod ekanligini yoritib berdilar. Al-Buxoriy va At-Termiziyning sadoqatli izdoshlari Abdurahmon an-Nasoiy, Abu Mansur al-Moturidiy, qaffol ash-Shoshiy, Mahmud az-Zamaxshariy, Abu Iso Samarqandiy, Najmiddin Kubro kabi ulamolar musulmon dunyosining yirik mutafakkirlari sifatida ko'pchilikka mashhur bo'ldilar. Xususan, shayx al-Moturidiy ta'limotiga ko'ra, bilishning uch manbai mavjud. Ular his (sezgi), naql rivoyat va aql-idrokdir. SHu bilan birga ul zot aql idrokning alohida o'rni borligini ta'kidlaydi. Demak, aqliy dalillar va isbotlar asosida vokelikni anglamoq musulmonchilikda muhimdir.

Hazrati imom ash-Shoshiy halollik, odillik masalalarini o'z asarlarida keng yoritgan. Shariat qonun-qoidalarini chuqur tahlil etib, "Hidoya" asarini yaratgan Burxoniddin Marg'inoniyning mulohaza va tavsiyalari islom dunyosida

ko'p asrlar davomida muhim manba bo'lib, u yoki bu masalani adolat va insof nuqtai nazaridan hal etishda asosiy qo'llanma vazifasini bajargan.

Islom dini shakllangandan so'ng uning doirasida, qur'on va hadis talablariga mos ravishda paydo bo'lgan tasavvuf (so'fiylik) ta'limoti XI asrga kelib keng tarqala boshladi. O'lkamizda so'fiylik asoslarini Yusuf Hamadoniy, Abdulholiq Fijduvoniy, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy targ'ib etganlar va rivojlantirganlar. So'ng Xorazmda Kubraviya, Buxoroda naqshbandiya tariqatlari shakllandi. Bularning barchasi o'sha davrda islom madaniyatining shakllanishida, odamlarning iymonli bo'lib yetishishida muhim o'rin tutgan. Bu iymon e'tiqod asrlar davomida sinovdan o'tdi va hamon odamlarni kamtarlikka, mo'minlikka, halollikka, bag'rikenglikka, insofu vijdonli bo'lishga da'vat etib kelmoqda.

Demak, bir davrda va bir makonda ham dunyoviy fanlar, ham diniy bilimlar rivojlangan, ular biri ikkinchisiga keskin ziddiyatda bo'lmagan. Farb mamlakatlarida deyarli yetti asr davomida inkvizitsiya (zulmat) hukm surgan bir vaqtda, ilm fan quvg'inda bo'lib, xurofot esa keng ildiz otgan bir paytda, musulmon yurtlarida, xususan O'rta Osiyoda, ma'naviy- ma'rifiy taraqqiyot yuz berdi va yuksaldi. Bu holatning asosiy sabablaridan biri islomning bilimga ijobiy qarashidadir. Ayni paytda, dunyoviy ilm ahli islomni nafaqat inkor etmadi, balki ko'p jihatdan unga tayandi, musulmonchilikning axloqiy, ma'naviy sifatlari esa ularga madad bo'ldi.

O'sha davr shaharlari orasida islom dini ta'limotini chuqur tarqib qilishda Buxoro shahri alohida o'rinni egallaydi. SHu davrdan boshlab "qubbatul islom"- "Islom dinining gumbazi" nomi bilan shuhrat topa boshladi. Bu davrda islom ta'limotiga bebaho hissa qo'shgan Imom al-Buxoriy va Iso at-Termiziy kabi ko'plab ulamolar yetishib chiqdilar. Ular shu kunga qadar hadis ilmining eng ko'zga ko'ringan, butun musulmon dunyosi tomonidan tan olingan allomalari darajasiga ko'tarilgan allomalardir.

Imom Buxoriy (809-870) Buxoroda tug'ilib, shu yerda birinchi bilimlarni oladi. So'ngra bilimni yanada chuqurlashtirish maqsadida Makka, Madina, Bag'dod Damashq, Kufa, Nishopur kabi shaharlarga boradi. Manbaalardan bizga ma'lumki, Imom Buxoriy islom dini masalalariga bag'ishlangan 20 ga yaqin asar yozgan. SHu kitoblar orasida Buxoriyni butun dunyoga mashhur qilgan asar "Al-Jome' as-Sahih" (Ishonchli to'plam) asaridir. Bu asar 160 qismdan iborat bo'lib, 7275 hadisni o'z ichiga oladi. Buxoriy hadislarni to'plash va bayon etishda uning haqiqiyiligiga asosiy e'tibor bergan, uning haqiqatga yaqinligini isbotlovchi dalillarni keltirgan va shu asosda hadislarni klassifikatsiya qilgan olimdir. Uning diqqat markazida fanning inson uchun tarbiyaviy ahamiyati, uning ma'naviy yuksalishi, fozilligi, donoligi, yaxshi va yomonni ajrata olishi turadi. Umrining oxirida u o'z vataniga qaytib keladi va Samarqand yaqinida vafot etadi. Mustaqillik yillarida bu ulug' bobokalonimiz

ruhini shod etib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan uning vafot etgan joyida ulkan majmua barpo qilindi. Hozirda u joy nafaqat mamlakatimiz fuqarolarining, balki butun musulmon dunyosi ahlining ziyoratgohiga aylandi.

Imom at-Termiziy (824-892) Termiz yaqinida tug‘ilgan. U ham Buxoriy singari Sharqning juda ko‘p shaharlarida bo‘lib, o‘z bilimini oshirishga harakat qiladi. At-Termiziy hadislardan tashqari filologiya va tarixga oid asarlar ham yozdi. Uning 10 dan ortiq yozgan asarlari orasida nomini butun musulmon olamiga mashhur qilgan asari “Jome’ at-Termiziy” yoki “Sunan at-Termiziy” dir. Bu asar islomda ulamolar tomonidan haqiqiy deb tan olingan mashhur hadislar to‘plamidan biridir. Termiziyning ilmiy merosi diniy ahamiyatga ega bo‘lishi bilan birga, axloqiy, didaktika tarixida ham juda katta o‘rin egallaydi.

IX-XII asrlarda Movarounnahr va Xorazmda islom huquqi - shariat ancha rivoj topdi. Fiqh ilmi-musulmon qonunchiligi-Sharq xalqlari va islom madaniyati erishgan buyuk yutuq bo‘lib, bu borada Movarounnahr va Xorazm allomalari juda boy meros qoldirganlar. Vatandosh fikhshunos olimlarimiz: Abu Lavs al-Buxoriy, Abu Mansur al-Moturudiy, Abullays as-Samarqandiy, Abu Bakr al-Buxoriy, va boshqalar o‘z davrida islom dunyosida ma‘lum va mashhur bo‘lganlar. Namlari yuqorida tilga olingan olimlar orasida Ali ibn Abu Bakr ibn Abdul Jalil al-Farg‘oniy ar- Rishtoniy al-Marg‘inoniy alohida o‘rin tutadi.

Burxoniddin Marg‘inoniy musulmon olami fani erishgan barcha bilimlarni egallagan, ulug‘ allomalardan saboqlar olgan. Sunniy shariatning to‘rt asosiy mashablari asoschilari va ularning shogirdlari asarlarini qunt bilan mutolaa qilgan. Bu narsa ulug‘ allomaga fiqh ilmi bo‘yicha tengsiz asarlar yozib qoldirishga imkoniyat yaratadi. Fiqhshunos olimning “Bidoyat al-mubtadiy” (Boshlovchilar uchun dastlabki ta‘lim), “Kifoyat al-muntaqiy” (Yakunlovchilar uchun tugal ta‘lim), “Nashr-ul mashab” (Mashabning yoyilishi), “Kitob ul-mazid” (Ilmni ziyoda qiluvchi kitob), “Kitob ul-faroiz” (Farzlar kitobi), “Majmaa ul-navozil” (Nozil bo‘lgan narsalar to‘plami), “Manosiq ul-haj” (haj masorimlari), “Kitob ul-mashoyix” (SHayxlar to‘g‘risidagi kitob) kabi buyuk asarlar shular jumlasidandir. Albatta bu ulug‘ alloma ijodida “Xidoya fi furu’ al fikh” (Fiqh sohalari bo‘yicha qo‘llanma) tengi yo‘q shoh asardir. Bu asarni olim 1178 yilda Samarqandda yozgan. Burxoniddin Marg‘inoniyning “Hidoya” kitobi to‘rt jilddan iborat bo‘lib, u 56 bobni o‘z ichiga oladi. Bu asar o‘ziga xos shariat kodeksi bo‘lib, u hozirgi kunda ham islom dunyosi qonunshunoslari uchun asosiy qo‘llanma sifatida xizmat qiladi. Unda shariat masalalarida muallifning fikr-mulohazalari bilan bir qatorda hanafiylik mashabining barcha imomlari, shuningdek boshqa mashab vakillarining mulohazalari ham o‘rin olgan. Asarda islomning asosiy marosim talablari, huquqiy va ahloqiy qoidalari, xususan, tahorat, namoz, zakot, ro‘za, haj, qurbonlik; oila va nikoh bilan bog‘liq

bo'lgan masalalar, huquqiy qoidalarni bajarmaganlik uchun jazo choralari belgilangan. "Hidoya" da mulkiy va moliyaviy munosabatlarga, jinoyat va jazo, fuqarolik huquqlari, sud va protsessual masalalar keng o'rin olgan. Yana unda urushlar, o'lja olish va uni taqsimlash, turmush va faoliyatdagi taqiqlashlar, ijozatlar haqida ham yo'l-yo'riqlar berilgan.

Tasavvuf, ya'ni so'fiylik, umumiy tarzda aytganda, poklangan, zohid, taqvodorlik ma'nosini anglatuvchi xalqparvar tariqat bo'lib, u o'rta asrlar musulmon SHarqida keng tarqalgan. Feodal davrning bu diniy-falsafiy oqimi dastlab IX asrda Iroqda yuzaga keldi. U jabrdiyda odamning nochorlik va zulmga qarshi noroziligini ifodalaydi. Tasavvuf hususiy mulkchilik hamda boylik va kambag'allikning vujudga kelishini adolatsizlikning oqibati deb qaraydi.

Bu oqim Movarounnahrda Eron orqali kirib keladi. Uning yoyilishi o'rta asrlarning aqid mutafakkirlari Hakim at-Termiziy, Abu Hamid /azzoliy, Yusuf Hamadoniy, Abduholiq /ijduvoniy va Ahmad Yassaviylarning nomlari bilan bog'liq bo'ldi. U hayot bilan chambarchas boqliq bo'lib, izdoshlarini mehnatga, kasb-hunar egallashga da'vat etadi. Tasavvuf ta'limoti asosida inson faoliyati va uning kamoloti yotadi. Unda inson har bir narsaga ong, aql-idrok bo'lmog'i, bosgan har bir qadamida diqqat-e'tibor sezmo'g'i lozim, u Vatan ishq bilan band bo'lmog'i, xalq bilan aloqada birga hayot kechirmog'i kerak deb uqtiradi.

Tasavvufning turli davrlarda turli xildagi yo'nalishlari paydo bo'ladi. XII asrda Turkistonda yassaviya, XII asrning oxirida Xorazmda kubroviya, XIV asrda esa Buxoroda naqshbandiya va boshqalar vujudga keladi. Bular insonni mehnat qilishga, to'g'ri yo'ldan adashmaslikka targ'ib qiladi. U insonni halol va pok bo'lishga, o'z mehnati bilan kun kechirishga, muhtojlarga hayr-ehson berishga, sofdil va kamtar bo'lishga chaqiradi. Uning "Dil ba yoru, dast ba kor" (Olohni o'zinga yor bilginu, ammo mehnat qilishni unutmagin) degan hikmati shiorga aylandi.

"Naqshbandiya" tariqatining asoschisi Xoja Abduxoliq /ijduvoniy (1103-1179y) Sharq falsafasi tarixida o'ziga xos o'rin egallaydi. Uning falsafiy qarashlari tasavvufdagi Xojagon(Xojalar) xalqasida shakllandi. Agar bizgacha Ahmad Yassaviyning "Hikmat" lari meros bo'lib qolgan bo'lsa, Abduholiq /ijduvoniydan "Risolai Sohibiya", "Risolai Shayxshuyuk Hasrati

Abu Yusuf Hamadoniy" kabi asarlari meros bo'lib qolgan. Ammo bu asarlar hali yaxshi o'rganilmagan va keng xalq ommasi orasida tarqib qilinmagan. Xoja Abduholiq /ijduvoniy ustozidan ko'p narsalar o'rganar ekan, o'zi ko'p hollarda mustaqil fikr yuritib, ba'zi masalalarda o'z yo'lini shakllantirishga harakat qilgan. Uning asarlari, hayoti, qilgan ishlari butun turk olamida alohida o'rin egallab, ma'naviy hayotda o'chmas iz qodirgan. Uning ma'naviy merosini o'rganish uchun katta ishlar amalga oshirilyapti. Asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish boshlandi. 2003 yil noyabr oyida Abduholiq /ijduvoniy tavalludining 900 yilligi nishonlandi.

Uning maqbarasi ta'mirlandi va qo'shimcha binolar qurilib kompleks ziyoratgohga aylantirildi.

Xulosa qilib ona diyorumizning uyqonish (renessans) davri tarixiga yakun yasar ekanmiz, shuni e'tirof etish kerakki, Islomning kirib kelishi bilan ajdodlarimizning qarashlari yanada mustahkamlandi va o'ta xalqchil baynalminallik mafkurasi shakllanib taraqqiy topdi. Bu davrda Ismoil al-Buxoriy, Iso at-Termiziy, Burxoniddin Marg'inoniy kabi zabardast aqoid ulamolari yetishib chiqdi. Ular islom dini va qonunshunosligi taraqqiyotiga va uning jahon dini darajasiga ko'tarilishiga katta hissa qo'shdilar.

Keyinchalik vujudga kelgan Somoniylar, qoraxoniylar, /aznaviylar, Xorazmshohlar kabi buyuk davlatlar tashkil topishi bilan bu o'lkada ilm-fanning rivoji uchun qulay imkoniyatlar ochildi. Ilmu-fanning rivoji o'z navbatida o'lkada sug'orma dehqonchilik, irrigatsiya, ayniqsa, muhandislik asosidagi suv inshootlarini qurish, binokorlik, me'morchilik va kon ishlarini yo'lga qo'yilishiga olib keldi.

Aynan shu davrda ko'plab buyuk allomalar yetishib chiqdilar. Ular jahon ilm-faniga ulkan hissa qo'shdilar. Bu davr O'rta Osiyoda ilm-fan, ma'rifat va madaniyatning yuksak parvozi bo'lib, jahon tsivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shilgan davr bo'ldi. Shuning uchun ham IX-XII asrlar Vatanimiz tsivilizatsiyasi va madaniyati taraqqiyotida "Oltin asr" (renessans) davri bo'lib qoldi.

Nazorat savollari

1. "Uyg'onish" davri qanday davr?
2. Buyuk olim va alloma vatandoshlarimiz jahon fani va madaniyatiga qanday hissa qo'shdilar?
3. IX–XII asrlarda O'rta Osiyoda ilm–fan va madaniyatining yuksalishiga nimalar turtki berdi?.
4. IX-XII asrlarda O'rta Osiyoda ilm-fan taraqqiyotiga hissa qo'shgan qanday allomalarni bilasiz?
5. Ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy va madaniy meros jahon fani va madaniyatida qanday o'rin tutadi?
6. Islom madaniyatining muhim tarkibiy qismi hisoblangan tasavvuf ta'limoti haqida nimalarni bilasiz?

6-mavzu. Mo‘g‘ullar istilosi va zulmiga qarshi kurash. Jaloliddin Manguberdi – mard va jasur ajdodimiz

REJA:

1. Mug‘ullar istilosi arafasida Xorazmshohlar davlatidagi vaziyat. Mug‘ullar saltanatining vujudga kelishi. Uning istilochilik yurishlari va oqibatlari.
2. Jaloliddin Manguberdi jasorati. Mo‘g‘ullar zulmiga qarshi kurash.
3. Chig‘atoy ulusining tashkil topishi, uning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.
4. XIII-XIV asrning birinchi yarmida o‘lkaning madaniy hayoti.

Tayanch tushunchalar: *Xorazmshohlar davlati, Muhammad Xorazmshoh, Chingizxon, xoqon, qoraqurum, O‘tror fojeasi, Inolchiq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddin Kubro, Urganch fojeasi, Mahmud Torobiy, Chig‘atoy ulusi, Mahmud Yalovoch, Ma’sudbek, Kepakxon, qarshi, Bahouddin Naqshband, Jaloliddin Rumi, Sa’diy She’roziy, Pahlavon Mahmud, Sayfi Saroyi.*

Avval aytib o‘tganimizdek XII asrda Xuroson va Movarounnahrda saljuqiylar, qoraxoniylar va qoraxitoylar singari sulolar o‘rtasida o‘zaro kurashdan foydalangan Xorazm yana o‘z mustaqilligini tiklab oldi.

Xorazm tarixi va madaniyatini o‘rgangan olim S.P.Tolstov “Bu davrlardagi Xorazmning iqtisodiy parvozini nazardan o‘tkazar ekansan, bir vaqtlar buyuk feodal monarxiya bo‘lgan bu davlat qiyofasining qoldiqlari ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi. Bizning nigohimizda yuz ming gektarlab yerlarga obihayot bergan ulkan irrigatsiya inshootlari, Xuroson, Movarounnahr va qipchoq dashtlariga tutashib ketgan strategik va savdo yo‘llari istehkomlari, shaharlarning qaynoq hayoti, hunarmandchilik va savdo-sotiq ravnaq topgan hamda O‘rta Osiyo, Eron va Volga bo‘yi badiiy madaniyatining keyingi butun tarixiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan Xorazm uyg‘onish davrining boy ulug‘vorligi va boy ravnaqi gavdalanganday bo‘ladi ...”, - deb yozgan edi.

Saljuqiylar Xorazmni egallagach, uni noiblar orqali boshqarishni yo‘lga qo‘ygan edilar. Masalan, Malikshoh huzurida (1072-1092y) devon mahkamasining boshliqi Anushteginga Xorazmni boshqarish topshirib qo‘yilgan edi.

1112-1127 yil uning o‘g‘li qutbiddin Muhammad noibliigi davrida Xorazm mustaqillik yo‘liga olib chiqildi. Uning o‘g‘li Otsiz o‘zini Xorazmshoh deb e’lon qildi va Sirdaryo bo‘yidagi turklar bilan urush olib bordi. SHimoli SHarqdagi Jandni va Manqishloq yarim orolini bosib oldi.

Otsizning nevarasi Takash (1172-1200) davrida Xorazm davlati yanada kengayib, u Sirdaryo etaklaridan to Iroqqacha cho‘zilgan edi.

XIII asr boshlariga kelib Xorazmshohlar O‘rta Osiyoda hukmronlikni to‘la o‘rnatgan edilar. Lekin bu davrga kelib feodal tarqoqlik avj olib, turli viloyatlarning beklari va

amaldorlari o‘z mustaqilligi uchun to‘xtovsiz kurashlar olib bordilar. Muhammad Xorazmshoh davlati tashqaridan kuchli ko‘rinsada, aslida zaiflashib qolgan bir davlat edi.

O‘zaro feodal urushlar, xalq qo‘zqolonlari va nihoyat hukmron tabaqa ichidagi oppozitsion kuchlar ta’siri markazlashgan davlat mavqeiga putur yetkazib ichki va tashqi dushmanlar uchun qulay shart-sharoitni yaratib berdi. Xorazmshoh davlatida kechayotgan bu xildagi chuqur tanazzul mug‘ullar hukmdori Chingizxonni befarq qoldirmadi. U kata harbiy tayyorgarlik ko‘rib, Movarounnahrqa qarshi istilochilik urushlarini boshladi Xuddi shu davrda O‘rta Osiyo yerlarini mo‘g‘ul bosqinchilari tomonidan bosib olinishi tasoddiy emas edi.

XIII asr boshlarida Mo‘g‘uliston cho‘llarida chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi tarqoq ko‘chmanchi chorvador aholi birlashib markazlashgan feodal davlatga aylandi. Dunyoga yagona hukmdor bo‘lish da’vosi bilan dovrug‘ solgan o‘z zamonasida ne-ne mamlakatlari xalqlarni larzaga keltirgan, ular boshiga mislsiz kulfatlar yog‘dirgan CHingizxon (Temuchin) 1155 yilda qiyot urug‘idan bo‘lgan mo‘g‘ul ulusi urug‘laridan bahodur Yesuchay oilasida dunyoga kelgan.

Temuchinning ulug‘ xoqon sifatida mavqeini har jihatdan mustahkamlashida 1206 yilda poytaxt qoraqurumda chaqirilgan umum mo‘g‘ul qurultoyi alohida o‘rin tutdi. Bu qurultoyda Temuchin barcha mo‘g‘ul-tatar xonlarining ulug‘ xoni (qooni) deb e‘lon qilindi va unga Chingizxon laqabi berildi. Chingizxon iborasi mualliflar tomonidan “kuchli”, “qudratli”, “toza” va hokazo ma’nolarda talqin qilinadi.

Qurultoyda qabul qilingan “Yaso” hujjati ulug‘xon hokimiyatini yanada mustahkamlash, ya’ni feodal tabaqa-tarxonlar mavqeini kuchaytirish, davlatning harbiy qudratini yuksaltirishning muhim qonuniy asoslarini yaratib berdi.

Chingizxon ulug‘ xoqon deb e‘lon qilingan birinchi kunning o‘zidayoq o‘zining eng yaqin kishilaridan 95 nafarini bahodur-mingboshilar etib tayinladi vabir necha ming kishi tarxonlik yorliqlari Bilan siylandi. U Ayni paytda 10 ta oliy hokimiyat lavozimlarini ta’sis etdi va 150 kishidan iborat shaxsiy gvardiya hamda 1000 nafar dovyurak jangchilardan iborat shaxsiy drujina tuzdi. Keyinchalik shaxsiy drujina tarkibi 10 ming nafarga yetkazildi.

Chingizxon o‘z markaziy hokimiyatini mustahkamlab olgach, kuchli, har tomonlama harbiy tayyorgarlik ko‘rgan jangovar armiya tuzib, qo‘shni davlatlarni birin-ketin bosib olishga kirishadi. 1206-1211 yillar davomida Sibir va Sharqiy Turkiston xalqlari (buriyat, yoqut, oyirat, qirg‘izlar) bo‘ysundiriladi. Mo‘g‘ul sarkardasi Xubilay Yettisuvning shimoliy hududlarini zabt etadi. 1211 yilda uyg‘urlar yeri istilo etilgach, CHingizxon Xitoy hududlarini bosib olishga kirishadi. 4 yil davom etgan bu istilochilik urushlari davomida Xitoyning o‘nlab shaharlari yakson etilib, uning behisob boyluklari io‘g‘ullar tomonidan talanadi. Nihoyat 1215 yilda SHimoliy Xitoy poytaxti Pekin ishig‘ol qilinadi. 1217 yilga kelib, Xuanxe daryosining

shimolidagi barcha yerlar mo'g'ullar qo'l ostiga o'tadi. 1218 yilga kelib esa Yettisuv hududining qolgan qismi ham mo'g'ullarga tobe bo'ladi. Mo'g'ullar bosqini xavfi Xorazmshohlar davlati sarhadlariga bevosita yaqinlashadi.

Muhammad Xorazmshoh (1200-1220) davlati bu davrga kelib har jihatdan chuqur tanazzulga yuz tutgan, siyosiy beqarorlik kuchayib, markaziy hokimiyat bilan mahalliy hukmdorlar o'rtasidagi ixtiloflar chuqurlashib, xalq ommasining ahvoli tobora nochorlashib borayotgan edi. Oliy hokimiyat tizimida shoh bilon uning onasi Turkan xotun o'rtasida davom etib kelayotgan chuqur ixtilof ham Xorazm davlatining benihoya zaiflashib borayotganligidan yaqqol dalolat berardi.

Xorazmshohlar davlati xalqaro maydonda ham yakkalanib bormoqda edi. Muhammad Xorazmshohning xalifalik hokimiyatini qo'lga kiritish borasida olib borayotgan besamar urushlari uning ko'pchilik musulmon davlatlari tomonidan ajoalib, ularning nafratiga duchor bo'lishga mahkum etgandi.

Chingizxon Xorazmshohlar davlati to'g'risida chuqur ma'lumotga ega bo'lish uchun o'z tasarrufidagi elchilik, josuslik xizmatlaridan ustamonlik bilan foydalandi. Bunda u Xorazmdan Mo'g'ulistonga qatnaydigan bmr guruh savdogarlar xizmatiga tayandi. Unga Xorazmdan Mo'g'ulistonga qatnaydigan bir guruh yirik savdogarlar: Mahmud Yalovoch, Hasan Xoja, Yusuf O'troriy, Ali Xoja al-Buxoriy singarilarning josuslik xizmati AyniqSA qo'l keladiyu Chingizxon ular orqali Xorazm mamg'lakatiga oid keng ma'lumotlarni olib turdi va buni o'z siyosatida hisobga oldi. Nihoyat, 1218 yil kuzida CHingizxon jo'natgan, tarkibi musulmon savdogarlaridan iborat 450 kishilik boy savdo karvonining O'trorda Xorazmshoh ishorasi bilan talanishi va yo'q qilinishi mo'g'ullar uchun muhim ashyoi dalil bo'ldiki, bu hol ikki o'rtada yuz berishi muqarrar bo'lgan kata urushga sabab bo'ldi.

Chingizxon o'zining ko'p sonli qo'shini (ba'zi manbalarda ta'kidlanishicha, uning tasarrufida 600 minglik jangovar armiya to'plangan edi) Bilan Movarounnahr sarhadlariga istilochilik yurihlarini boshlaydi. Oldindan puxta tayyorlangan rejaga binoan Chingizxonning o'rtancha o'g'illari-CHig'atoy va O'qtoy O'tror sari, kata o'g'li Jujji qizilqum orqali Xorazm tomon, Chingizxon va uning kichik o'g'li To'lixon esa Buxoro yo'nalishi tomon harakat qiladi. Shuningdek, Oloqno'yon va Sintibuqo sardorlar boshliq bir qism qo'shin Binkent va Xo'jand tomon hujum boshlaydi. SHu tariqa, Movarounnahr hududlari uzra mislsiz falokat yog'iladi.

Haddan ziyod o'ziga bino qo'ygan,soxta obrulardan sarmast bo'lgan, o'zini "Iskandari soniy" (Ikkinchi Iskandar) deb atagan Muhammad Xorazmshoh mo'g'ullar hujumi boshlanishi bilanoq butunlay vahimaga tushib, dushmanga qanday zarba berishni ham, mamlakat mudofaasini tashkil etishni ham bilmay qoladi. Bu borada shohga berilgan to'g'ri maslahatlar ham (masalan, o'g'li Jaloliddin va Xo'jand hokimi Temur Malik) unga kor qilmaydi. Buning aksicha, Xorazmshoh o'z saroyidagi bir to'da qo'rqq, sotqin shaxslar qutqusiga uchib mamlakat taqdirini o'z

holiga tashlab, arkoni davlati bilan janub tomon ravona bo‘ladi. Keyinchalik u mo‘g‘ullar ta‘qibidan CHekina-chekina oxiri Kaspiy dengizining Ashura orolidan panoh topib, shu yerda 1220 yilning dekabrda xoru zorlikda vafot etadi.

Mo‘g‘ullar istilosi O‘rta Osiyo xalqlari uchun mislsiz og‘ir oqibatlarni yuzaga keltirdi. Ularning bu yerda qariyb bir yarim asr mobaynida mustamlaka tariqasida siyosat yurgizganligi tufayli madaniy hayot tushkunlikka uchradi. CHunki mo‘g‘ullar ko‘chmanchi chorvador xalq bo‘lgani uchun Movarounnahr xalqlari yaratgan ilm-fan sohasidagi kashfiyotlar, me‘moriy obidalar, umuman madaniy hayotni ko‘rib esankirab qoldilar. Mo‘g‘ullar uchun bunday madaniy hayot yot edi. O‘zlarining madaniyatsizligini niqoblash uchun ular asrlar davomida xalqimizning aql-zakovati bilan bunyod etilgan go‘zal shahar va qishloqlar, osmono‘par tarixiy qurilish obidalari, binokorlik va me‘morchilik san‘atining nodir va betakror nusxalari yer bilan yakson qilindi, ularning kuli ko‘kka sovurildi. Ayniqsa, ma‘naviy merosimiz ko‘rgan zararni til bilan ifoda etish qiyin. Yozma manbaalar, nodir kitoblar yondirildi, oyoq ostlarida toptaldi. Mo‘g‘ullar fan va madaniyat arboblari, olimu-fuzalolar, shoir va yozuvchilar-xalqimizning ming-minglab ulug‘ farzandlarini yoppasiga qirib tashladilar yoki qul qilib Mo‘g‘ulistonga olib ketdilar. Mo‘g‘ullar bosqini o‘lkamizning moddiy va mad‘naviy taraqqiyotini bir necha yuz yillar orqaga surib yubordi. Madaniy hayotga shu qadar katta zarba berildiki, uni XIV asrning yarmiga qadar ham tiklab bo‘lmadi. Mo‘g‘ullarning o‘troq hayotga o‘ta boshlaganidan va islom dinini qabul qilganidan keyin, madaniy hayot birmuncha jonlandi.

Xullas, 1219-1221 yillar oralig‘ida Movarounnahr va Xorazm hududlari mo‘g‘ullar asoratiga tushib qoldi. O‘tror, Buxoro, Samarqand, Xo‘jand, Urganch singari gullab-yashnagan shaharlar xarobazorga aylandi. O‘lkaning ijtimoiy-xo‘jalik va madaniy hayoti chuqur tanazzulga yuz tutdi.

2. Tish-tirnog‘igacha qurollangan Chingizxon qo‘shini o‘lkamizning har bir shahri, hududini zabt etishda mahalliy xalqlarning beaded qarshiligiga duch keldi. Besh-olti oylab davom etgan O‘tror, Xo‘jand, Urganch shaharlari qamali, bu shaharlar va boshqa hududlar aholisining yovuz bosqinchilarga ko‘rsatgan shiddatli qarshiligi, mislsiz jasorati bunga yaqqol dalildir. O‘tror bahodiri Inolchiq, Xo‘jand hokimi Temur Malik, Xorazmshohlar saltanati taxt vorisi Jaloliddin Manguberdi, tengi yo‘q olim va mutafakkir shayx Najmiddin Kubrolar boshliq xalqning buyuk xaloskorlik jasoratini tilga olib o‘tish joizdir.

Jaloliddin Manguberdi xalq rahnamosi sifatida bir necha bor mo‘g‘ul lashkari bilan jang qilib ularga qiron keltirdi. Bu jasorat ona yurt bahodirlarining muqaddas zamin ozodligi va mustaqilligi uchun chin fidoyilik ko‘rsatib kurashganligini ro‘y-rost tasdiqlaydi.

Taniqli venger olimi Herman Vamberining ma'lumot berishicha, bir safar mo'g'ullar Hind yerida Jaloliddinni ta'qib etib, unga juda yaqinlashib boradilar: "Mo'g'ullar saflarini tezlashtirib, g'alaba qilgan shahzodaning ortidan ketdilar. U (Jaloliddin) g'azablangan arslon kabi dushmanga goh o'ng, goh so'l qanotdan, ba'zan markazdan hujum qildi". Oqibatda mo'g'ullar uni o'rab oldilar. U Sind daryosining 10 arshinlik sohilidan suvga sakradi va narigi tomonga salomat chiqib oldi. Buni ko'rgan mo'g'ullar uning ortidan suvga tashlamoqchi bo'ladilar. Lekin Jaloliddinning qahramonligiga hayron, mutaasir bo'lgan Chingizxon, Mirzo Ulug'bekning ta'kidlashicha, bundan keyin ta'qib etishni man qildi va o'zining o'g'illariga xitob qilib aytdi: "Otdan dunyoda hali bunday o'g'il tug'ilmagan. U sahroda sher kabi g'olib jangchi, daryoda esa nahang (akula) kabi botir".

Jaloliddin ko'p yillar davomida ona yurt ozodligi va hurligi yo'lida to'xtovsiz kurash olib bordi. U 1231 yil avgustda Kurdiston tog'larida halok bo'lgan.

Xo'jand hokimi Temur Malik 5 oydan ziyod shahar qal'asini son-sanoqsiz mo'g'ul jangchilaridan mudofaa qildi, shahar qo'ldan ketgach, mag'lubiyatini tan olmay, dushman bilan mardonavor kurashishda davom etdi, o'z taqdirini Vatan mustaqilligi, xalqning ozodligi kurashiga bag'ishladi.

Shuningdek, 76 yoshli vatanparvar olim, Urganchlik shayx Najmiddin Kubro Chingizxonning unga bildirgan marhamatidan voz kechib, o'z taqdirini yurt himoyachilari bilan bog'lab, shu yo'lda fidoyilik ko'rsatib, oxirgi nafasigacha mo'g'ullar asoratiga qarshi kurash olib borganligi ham bu buyuk siymo hayotining mangulikka daxldorligini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, o'lkamizning yurtparvar, erksevar xalqi ona Vatan hoki poyini ko'ziga to'tiyo etib, yovuz dushman bilan jon olib, jon berib kurash olib bordi, bu yo'lda kerak bo'lsa mislsiz qurbonlar ham berdi.

Mo'g'ullar tomonidan mahalliy xalq ommasining haddan ziyod asoratga solinishi va ezilishi o'z navbatida ularga qarshi aholining keskin noroziligi va g'alayonlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Xalq qo'zg'olonlaridan biri 1238 yilda Buxoro yaqinidagi Torob qishlog'ida elaksoz hunarmand Mahmud boshchiligida sodir bo'ldi. Mo'g'ul zodagonlarining mahalliy aholining yuqori tabaqasi vakillari bilan til biriktirib bechorahol xalqni talab, boyluk orttirayotganligi, oddiy fuqaroning turmushi nochorlashib borayotganligi Mahmud va uning maslahatdoshlarini g'azabga keltirdi hamda qo'lga qurol olib mo'g'ullar zulmini ag'darib tashlash uchun kurashga undadi.

Mahmudning oddiy xalq manfaatlarini himoya qilish, zolimlarning kirdikorlarini fosh etishga qaratilgan otashin so'zlari hamda vatanparvar ruhoniylardan biri, nufuzli Shamsiddin Mahbubiyning qo'zg'olonchilar tarafiga utishi xalq harakatining ommaviy tus olishiga olib keldi. qo'zg'olonchilar tez orada Buxoroni egallab, xalq manfaatiga javob beradigan bir qator tadbirlarni ham amalga

oshirishga muvaffaq bo'ldilar. Mahmud Torobiy Buxoroni egallagach, xalqqa zulm o'tkazgan ko'plab amaldorlarni jazolaydi hamda bir qator soliq va to'lov turlarini bekor qiladi. Tarixchi Juvayniy bu xususda to'xtalar ekan: "Amaldor va mu'tabar zotlarning katta qismini u (Mahmud) haqorat qildi, ayrimlarini o'ldirdi, qolganlari qochishdi. Oddiy fuqaroga va daydilarga esa hurmat-izzat ko'rsatdi", deb yozgan edi. Mo'g'ul bosqinchilari bu qo'zg'olonni bostirish uchun mahalliy amaldorlar bilan birikkan holda bir necha bor harakat qildilar. Nihoyat Karmana yaqinidagi to'qnashuvda har ikkala tomon kata talofat ko'radi. Ayniqsa bunda Mahmud Torobiy va SHamsiddin Mahbubiylarning halok bo'lishi xalq qo'zg'olonining keyingi borishi uchun salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'p o'tmay mo'g'ul hukmdorlari yuborgan ko'p sonli qo'shin bu qo'zg'olonni uzil-kesil bostiradi. Garchi qo'zg'olon yengilgan bo'lsada, u Movarounnahr erksevar xalqining hurlik, ozodlik va mustaqillik yo'lidagi mardonavor kurashi, qat'iyatini namoyon etdi. U xalqimizning keyingi ozodlik kurashlari uchun, xususan sarbadorlar harakati uchun o'ziga xos ma'naviy asos bo'lib xizmat qildi.

3. Mo'g'ullar saltanatining ulug' hukmdori Chingizxon vafotidan so'ng uning vasiyatiga binoan itoatga keltirilgan ajnabiy hududlar o'g'illari-Jujixon, CHig'atoy, O'qtoy va To'lixonlarga bo'lib berilgan edi. SHu jumladan, Movarounnahr, Yettisuv va Sharqiy Turkiston Chig'atoy tasarrufiga berilganligidan bu hududlar Chig'atoy ulusi nomi bilan atala boshlandi.

Chig'atoy (1227-1241) Movarounnahrni boshqarishni bir mahallar otasi Chingizxonga xizmati singgan xorazmlik yirik savdogar Mahmud Yalovoch ixtiyoriga berib qo'ydi. Mahmud o'z poytaxti qilib Xo'jandni tanladi. Uning tasarrufida bosqinchilarning tayanchi hisoblangan mahalliy hokimlar, dorug'alar-harbiy ma'mur vasoliq yig'uvchilar hamda ko'p sonli mo'g'ul askarlari bor edi. Mo'g'ullar Movarounnahrni idora etishda o'z yurtiga xoinlik, sotqinlik qilgan bir guruh vatanfurush kimsalar, chunonchi, Badriddin Amid, Hasan Xoja, Yusuf O'troriy, qutbiddin Habash Amid singlarlar xizmatidan ham g'oyat ustamonlik bilan foydalandilar.

Vaqt utishi, vaziyat taqozosi bilan mo'g'ullar badavlat o'lkadan ko'proq foyda, manfaat topish maqsadida mahalliy aholi bilan yaqinlashishga, ular orasidan o'zlariga tayanch ijtimoiy kuch topishga harakat qildilar. Ko'plab mo'g'ul va turkiy ko'chmanchi urug'-elatlari ko'chib kelib mahalliy aholi bilan yaqinlashib, uning yuqori maishiy-madaniy turmush darajasi, urf-odatlari, an'analarini o'zlariga singdirib bordilar.

Mo'g'ullar tomonidan Movarounnahrni boshqarishga tayin etilgan Mahmud Yalovoch(1226-1238), uning davomchisi Ma'sudbek (1238-1289) singari mahalliy hukmdorlarning bu boradagi sa'y-harakati ham diqqatga sazovordir. Ayniqsa

Ma'sudbek davrida o'lka hayotida yuz bergan muhim o'zgarishlar, jumladan, shaharlar hayotining o'sishi, savdo-sotiq, hunarmandchilik sohaslarining rivojlanishi, qishloq xo'jaligi madaniyatining ko'tarilishi bundan yaqqol dalolat beradi.

Ma'sudbek Ayni zamonda o'lka ijtimoiy hayotini oyoqqa turg'izish, uning iqtisodiy, madaniy turmushini yuksaltirish borasida talay ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirishga muvaffaq bo'ldi. U o'zining nufuzli ta'siri, amaliy ishlari bilan mo'g'ullarning ulug' qoonlari Guyukxon (1246-1248), Munkaxon (1251-1260) hamda CHig'atoy xonlaridan Olg'uyxon (1261-1266) singari hukmdorlarni Movarounnahrda nisbatan tinchlik va osoyishtalik, har xil mo'g'ul shahzodalari va aslzodalarining o'lka hayotiga huda-behuda aralashuvlariga chek qo'yishga da'vat etib, shunga ishontirib,, bu hududda ko'plab yaratuvchilik ishlariga bosh bo'ldi. Jumladan, Munkaxon tashabbusi bilan bu yerda jon solig'i tartibga solindi, pul muomalasi yo'lga qo'yildi.

Mo'g'ul xonlari va shahzodalarining 1269 yilda Talos vodiysida bo'lib utgan qurultoyi, undagi tarixiy kelishuv ham bu sohada muhim ahamiyatga ega bo'ldi. qurultoy mo'g'o'l xonlari va aslzodalariga qaerda yashashlaridan qat'i nazar, mahalliy tub aholi hayoti, turmush tarziga aralashmaslik, belgilangan soliq, to'lovlarni buzmaslik, ekinzorlarni payhon qilmaslik majburiyatini yukladi.

1271 yilda Ma'sudbek pul pul islohoti o'tkazdi. Movarounnahr viloyatlarida bir xil vazndagi kumush tangalar zarb etildi va muomalaga kiritildi. Bu tangalar qaerda zarb etilishidan qat'i nazar umum davlat muomalasida bo'la olardi. Aholining kumush tangalarga bo'lgan ishonchi mustahkamlana borishi natijasida ularning qadr-qimmatini, nufuzi ortib bordi. Natijada XIII asrning 80-90 yillariga kelib o'lkaning 16 ta shahrida zarbxonalar ochilib, ularda kumush tangalar doimiy ravishda zarb etib turildi.

Kepakxon mo'g'ul xonlari orasida birinchi bo'lib o'z poytaxtini Movarounnahr hududiga ko'chirgan xon hisoblanadi. U qarshi shahrini bunyod etib, uni CHig'atoy ulusining poytaxtiga aylantirdi. Kepakxon musulmon ahli va islom ruhoniylariga kata e'tibor bilan qaragan. U pul va ma'muriy-hududiy sohalarda islohotlar o'tkazdi. 1321 yilda o'tkazgan pul islohoti o'lkada pul muomalasi va moliya tizimini izga solishda muhim rol o'ynaydi.

Ma'muriy islohotga ko'ra, Movarounnahr hududlari tumanlarga bo'lindi. Jumladan, Samarqand viloyatida 7 ta, Farg'ona muzofotida 9 ta tuman tashkil topgan edi.

Erli aholidan markaziy mo'g'ullar hokimiyati xzinasi uchun turli xil quyidagi soliqlar undirilgan:

-Er yoki daromad solig'i, u yerning sharoiti va sifatiga qarab olingan. Oliy mansabdorlar undan xoli bo'lganlar.

-Ko'bhur. Bu soliq turi ko'chmanchi aholidan olingan.

-Targʻu. U hunarmandlar va savdogvarlardan olinib ,ishlab chiqarilgan yoki sotilgan molning 1/30 qismi hajmida belgilangan.

-Tuz soligʻi.

-Jon yoki kumush soligʻi.

XIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab moʻgʻullarning islom dini, eʻti-odiga ham munosabati oʻzgardi. Ular orasida bu dinga eʻtiqod quyuvchilarning soni koʻpayib bordi. Shu asrning 60 yillariga kelib moʻgʻul xonlaridan Muborakshoh va Baroqxonlarning islom dinini rasman qabul qilishlari, shubhasiz, kata voqea boʻlib, bu musulmon ruhoniylarining Chigʻatoy ulusi hayotidagi roli va nufuzi ortib borayotganligidan yaqqol dalolat beradi.

XIV asrning 40-yillariga kelib CHigʻatoy ulusi ikki qismga: Yettisuv, Fargʻonaning sharqiy qismi, SHarqiy Turkistondan iborat Moʻgʻulistonga va /arbiy ulus-Movarounnahr ga boʻlinib ketdi. Xorazmning sharqiy qismi ham /arbiy ulusga qaragan.

1340-1360 yillar fitna-fasod, oʻzaro feodal kurash va ulusda siyosiy tarqoqlikning kuchaygan davri boʻldi. XIV asrning 50-yillari oxirida CHigʻatoy ulusining har ikkala qismi mayda boshqaruv tizimlariga boʻlinib ketdi. Ulusning /arbiy qismida hokimiyatni asosan turkiy qabila boshliqlari egalladi. Masalan, Kesh viloyati amir Sayfiddin Xoja barlos, Xujand viloyati Boyazid jaloyir, Balx viloyati amir qazagʻon nabirasi amir Husayn qoʻlida boʻlgan.

Movarounnahrda avj olib ketgan ijtimoiy-siyosiy tarqoqlik, moʻgʻul va turk xonlari, amirlari oʻrtasidagi oʻzaro nizolar va besamar kurashlar oʻlka hayotiga chuqur salbiy taʻsir oʻtkazdi, uning uzil-kesil parchalanib ketish xavfini keltirib chiqardi. Bunday murakkab, keskin vaziyatda Movarounnahr yaxlitligini saqlash, mahalliy hukmdorlarning oʻzboshimcha xatti-harakatlarini jilovlash, yurtni moʻgʻullar istibdodidan xalos qilish, uni mustaqil yoʻliga solib yuborishdan iborat birdan-bir tarixiy vazifa koʻndalang boʻlib turardi. Uni muvaffaqiyatli uddalash ulugʻ bobomiz Amir Temurga nasib etdi.

4. Moʻgʻullar istilosi va asorati Movarounnahr yurtiga qanchalik vayronagarchilik keltirmasin, magʻrur va masrur ajdodlarimiz isteʻdodini. bunyodkorlik dahosini soʻndira olmadi. Aksincha, ular vayron boʻlib, kuli koʻkka sovurilgan shaharu qishloqlar oʻrnida fusunkor meʻmoriy binolar, tarixiy obidalar, koʻrkam arxitektura yodgorliklarini bunyod etdilar. Bu davrda barpo etilib, gavjum savdo-sotiq , hunarmandchilik markazlariga aylana borgan Andijon, qarshi, Urganch qaytadan taʻmirlanib, chiroy ochgan, oldingi mavqei, ahamiyatini bir muncha tiklagan Samarqand, Buxoro, SHosh, Xoʻjand singari shaharlar, ularning oʻziga xos meʻmorchilik qiyo-fasi shundan dalolat beradi.

O'rta Osiyo xalqlarining ma'naviy madaniyati, xususan, ilm-fan va badiiy adabiyot ham kata qiyinchiliklar bilan bo'lsada, bu davrdav rivoj topib bordi.

So'fiylik ta'limoti, ilmi nujum, tarixshunoslik kabi sohalarda zabardast olimu fuzalolar yetishib chiqdi. Butun SHarq olamiga mashhur bo'lgan shayx Sayfuddin Boxarziy Bahovuddin Naqshband (1318-1389), Juvayniy (vafoti 1383), Fazlulloh Rashididdin (1318 yilda o'ldirilgan) singari olimlarning tarixiy asarlari hozirda ham o'z qiymatini yo'qotmagan.

O'rta Osiyo xalqlari dahosining eng yuksak badiiy in'ikosi usha davrda yetishib chiqqan nafis adabiyotning ko'plab yirik namoyandalari ijodida yorqin aks etdi. Jaloliddin Rumiy, Muslihiddin Sa'diy, Amir xusrav Dehlaviy, Nosiriddin Rabg'uziy, Pahlavon Mahmud, qutb Xorazmiy, Sayfi Saroyi singari xalq orsidan chiqqan mumtoz ijodkorlar shulur jumlasidandir.

Asl nasl-nasabi xorazmlik bo'lib Turkiyadan qo'nim topgan shariyat daholaridan Jaloliddin Rumiy (1207-1277) ning 6 jildli, 25 ming 700 baytdan iborat muqaddas kitob darajasida ulug'langan go'zal "Masnaviy" si, nazm va nasrda barobar qalam tebratgan ulug' g'azalnavis shoir Sa'diy Sh'eroziy (1219-1292) ning mashhur "Bo'ston" va "Guliston"i yoxud Paxlavon Mahmud (vafoti 1322) ning chug'ur falsafiy mazmun bilan yo'g'rilgan boy ruboiyoti va,shuningdek, XIII asr oxiri-XIV asr birinchi yarmida yashab, ijod etgan Rabg'uziyning ilk o'zbek nasr namunalarini o'zida aks ettirgan ikki jildli "qissasi Rabg'uziy" asari va shu singarilar mana shunday hayotbaxsh ruh va mazmun bilan sug'orilgandir.

Bular jumlasiga XIV asrning birinchi yarmida ijod etib, o'zlaridan boy meros qoldirib ketgan Xorazmiy, uning o'zbek dunyoviy shariyatining dastlabki ajoyib namunasi hisoblangan "Muhabbatnoma", qutbning "Xusrav va Shirin", Sayfi Saroyining "Suhayl va Guldursun", "Gulistoni biturkiy" singari go'zal dostonlarini ham nisbat berish mumkin.

Shunday qilib, XIII-XIV asrlar davomida Movarounnahr hududi mo'g'ullar hukmronligi bilan bog'liq qanday ziddiyatli, murakkab hayotiy jarayonlarni boshdan kechirmasin, uning ko'hna madaniyati ilm-urfonu o'ziga yo'l topib rivojlanishda davom etdi. Xalq dahosi, ijodkorligi uning asl iste'dodli salohiyatli namoyandalari sa'y-harakatlari ila sayqal topib, yangi jozibador qirralar kashf etib bordi. Bu esa, shubhasiz, o'lka xalqlari ma'naviy merosi, qadriyatlarining mazmunan boyib, yuksalishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Savol va topshiriqlar

- 1.Mo'g'ul-tatar urug'-qabilalari haqida nimalarni bilasiz?
- 2.Chingizxon Xorazmshohlar davlati bilan qanday munosabatlarni o'rnatgan edi?
- 3.Nima sababdan Xorazmshohlar davlati Chingizxon boshliq mo'g'ullar qo'shinidan mag'lubiyatga uchradi?

4. Temur Malik va Jaloliddin Manguberding jasoratlari to'g'risida qanday ma'lumotlarga egasiz?
5. Mo'g'ullar istilosi O'rta Osiyo xalqlari uchun qanday oqibatlarni yuzaga keltirdi?
6. O'lkamiz hududlarida mo'g'ullar zulmiga qarshi qanday qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi?
7. Chig'atoy ulusi davrida xalqning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida qanday o'zgarishlar ruy berdi.
8. Mo'g'ullar bosqini davrida ilm-fan va madaniyatning inqirozga uchrashining sababi nimada?

7-mavzu. Amir Temur va Temuriylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot

Reja:

- 1.XIV asr o'rtalarida Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Amir Temurning siyosat maydoniga kirib kelishi markazlashgan davlatning tuzilishi.
- 2.Amir Temurning davlat boshqaruv tizimi, uning ichki va tashqi siyosati. Temur tuzuklari, uning milliy davlatchilikni yaratish va mustahkamlashdagi ahamiyati.
- 3.Temuriylar davrida Movarounnahr va Xurosondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat.
- 4.Temur va temuriylar davrida moddiy va ma'naviy madaniyatning tiklanishi. Sivilizatsiyaning yangi bosqichga ko'tarilishi.

Tayanch so'z va iboralar: *Siyosiy tarqoqlik. Amir Temur. Amir Temur — markazlashgan davlat asoschisi. Amir Temur yurishlari. Temur tuzuklari. Movarounnahr. Xuroson. Shohrux Mirzo. Mirzo Ulugbek. Husayn Boyqaro. Madaniyat. Ulugbek akademiyasi. Alisher Navoiy.*

Amir Temur elimizning asl farzandi, uning chinakam xalokori, shonu shuhratini jahonga mashhur etgan buyuk siymodir. Amir Temur Kesh shahri yaqinidagi Xo'jailg'or qishlog'ida (hozirgi Yakkabog' tumani hududida) 1336 yil 9 aprel kuni o'z zamonasining nufuzli barlos urug'laridan biri Tarag'ay Barlos oilasida dunyoga keldi. Tarag'ay Bahodir o'g'liga yoshligidan ham dunyoviy, ham diniy ilmlar olishi uchun tegishli sharoit yaratib bergan. Ikkinchi tomondan esa tug'ma iste'dod va o'tkir xotira sohibi bo'lgan Amir Temur turli soha ilmlarini o'zlashtirishda g'oyatda tirishqoqlik bilan harakat qilgan. O'rta asr tarixchilari uning tarix, she'riyat, tibbiyot, matematika, astronomiya, me'morchilik borasidagi salohiyati haqida ko'plab ma'lumotlar qoldirganlar.

Temur yoshligidan tengqurlari orasida jasurligi bilan ajralib turgan, harbiy ishni yaxshi ko'rgan, yaxshi chavondozi va mohir mergan bo'lgan. Turk va fors tillarini yaxshi bilgan. Ko'chmanchilar, chorvadorlar, o'troq aholi va shahar hayotidan yaxshi xabardor bo'lgan. Temurga yoshligidan o'z davrining mashhur ilm va tariqat bilimlari sohiblari bo'lgan shayx Amir Said Kulol, Abu Bakr Taybodiy, Sayid Baraka singari muborak zotlar ustozlik qilganlar. Ayni paytda Temur yoshligidan harbiy ishlarni puxta o'rganib, bu sohada ham o'z mahoratini oshirib borgan.

XIV asrning 50-60 yillarida Movarounnahrda feodal tarqoqlik g'oyatda kuchayib, o'zaro kurash yanada keskinlashdi Temurbek tarixan o'ta murakkab vaziyatda, XIV asrning 60-yillarida siyosat maydoniga chiqdi. Bu davrda mo'g'ul hukumdorlari o'rtasidagi toju taxt, davlat va mol-dunyo uchun bo'lgan kurashlar shu darajada kuchayib ketib Chig'atoy ulusiga qarashli hududlarda feodal tarqoqlik avj oladi. Natijada Chig'atoy ulusiga qarashli Movarounnahr xududida o'nlab mustaqil

bekliklar vujudga keladi. Xondamirning yozishicha, ulus 10 ga yaqin mustaqil beklarlarga bo'linib ketgan. Samarqand viloyatida Amir Bayon Sulduz, Keshda Amir Xoji Barlos, Xo'jandda Amir Boyazid Jaloir, Balxda Uljaytu Sulduz, Hisoni Shodmon chegarasida Amir Husayn va Amir Yassaviylar o'zlarini tanho hukmdor deb e'lon qiladilar. Shahrisabzda Xoji Barlos (Temurning amakisi), Xo'jandda Boyazid Jaloir, Balxda Amir Husayn va boshqalar o'zlarini hokimi mutloq deb hisoblashardi va bir-birlari bilan yovlashib, saltanatni talon-taroj qilar edilar. Bir tomondan, mo'g'ul xonlari tomonidan o'tkazilayotgan zug'umlar, ikkinchi tomondan esa mahalliy hokimlar o'rtasidagi to'xtovsiz davom etayotgan nizo va urushlar o'lkani mushkul ahvolga solib, oddiy xalq ommasining turmushini og'irlashtiribgina qolmasdan, ayni zamonda boy va zodagonlarning ham manfaatlariga putur yetkazadi. Shu boisdan ham o'lkada feodal tarqoqlikka barham berish, markazlashgan kuchli davlat hokimiyati barpo etish va mo'g'ullarning istibdodidan ozod bo'lishga intilish g'oyasi tobora kuchayib boradi. Xalqning ana shu istak va orzusini birinchilar qatorida tushungan amirlardan biri Temurbek bo'ldi.

O'zaro ichki ziddiyatlar qizigan, mug'ullar zulmiga qarshi mahalliy aholi harakatlari boshlangan bir davrda mamlakatda yangi siyosiy kuch yetilmoqda edi.

Shunday vaziyatda mo'g'ul xoni To'g'liq Temur 1360-1361 yillarda Movarounnahrda hujum qilib, o'lkada mo'g'ullar hukmronligini saqlab qolishga kirishganda o'zaro urushayotgan xonlaru-beklar unga qarshilik ko'rsatisha olmadi. Yosh Temur ham bunga jur'at qilolmadi, aksincha oldiga o'z ona yurtini ozod qilishdek aniq maqsad qo'yib uning xizmatiga kirdi.

Shunday paytda Temurbek yurt omonligini ko'zlab, mo'g'ul xoni huzuriga keldi. Mo'g'ullar xizmatiga kirgan Temur tezda xon nazariga tushdi. Natijada Temurdan minnatdor bo'lgan To'g'liq Temur uni qo'rquvdan SHahrisabzni tashlab Xurosonga qochgan amakisi Xoji Barlos o'rniga SHahrisabz hokimi qilib tayinladi. Bu esa 25 yoshli Temurga o'z maqsadini amalga oshirishda juda zarur edi. SHunday qilib, Amir Temur siyosat maydoniga keldi.

To'g'liq Temur Movarounnahrni taslim qilib, o'g'li Ilyosxo'jani bu yerga hukmdor qilib tayinlagach, Temur unga xizmat qilishdan bosh tortdi. Bu yo'lda u o'ziga hamkor izlab, mo'g'ul qozonxonning nevarasi, Balx hokimi amir Husayn bilan aloqa o'rnatib mo'g'ullarga qarshi birgalikda kurash boshladilar.

1365 yilda Ilyosxo'ja katta qo'shin bilan Temur va Husayndan o'ch olish maqsadida Movarounnahrda bostirib keladi. Temur va Husayn ham tayyorgarlik ko'rib Ilyosxo'jani Chinoz yaqinida qarshi oldi. O'rtada qattiq jang bo'ldi va u tarixga "Loy jangi" nomi bilan kirdi, chunki shu kuni kuchli jala yog'ib, qo'shinlar va otlar loyga botib ketishadi. Jangga birinchi bo'lib Temur qo'shini kiradi. Husayn qo'shini esa zahirada turadi. Hal qiluvchi lahzada, Temurning qo'li baland kelib,

g'alaba yaqinlashib kelganda Husaynning qo'shini qat'iyatsizlik qildi va g'alaba boy berildi. Temur va Husayn qo'shinlari bilan Samarqandga, undan Balxga chekinishdi. Ilyosxo'ja o'z g'alabasini mustahkamlash maqsadida Samarqandga yo'l oldi, lekin bu yerda sarbadorlar ozodlik va mustaqillik yo'lida o'zini qurbon qilishga tayyor turganlar, ya'ni "boshini dorga tikkanlar" Samarqand himoyasini o'z qo'llariga oldilar. Hunarmandlar, dehqonlar, do'kondorlar va ma'rifat faollaridan iborat bo'lgan Samarqand sarbadorlariga madrasa talabasi Mavlonzoda, paxta savalovchi Abu Bakr Kalaviy, mohir mergan Xudaki Buxoriylar rahbarlik qilishdi. 7 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan oddiy xalq sarbadorlarni qo'llab quvvatladi. SHahar ko'chalarida g'ovlar qo'yilib, mudofaa inshootlari mustahkamlandi. Bunday tayyorgarlikni ko'rmagan mo'g'ullar tor ko'chalarga kirib qolgach, yuqoridan yog'ilgan kamon o'qlari, tosh, yog'och, qaynoq suv, qora moylardan sarosimaga tushib, katta talafot bergan holda chekinishga majbur bo'ldilar.

Sarbadorlar to'la g'alaba qilib, shaharda o'z boshqaruvini joriy qildilar. Sarbadorlar g'alabasidan xabar topgan Husayn bilan Temur Samarqandga qaytishdi, hokimiyatni olishdi. Amir Husayn bosh vazir, Temur esa uning o'ng qo'li bo'ldi. Biroq ular sarbadorlarni ziyofatga chaqirib qirib tashlashdi. Temur Mavlonzodani saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. SHu vaqt hokimiyat taqsimotida Temur bilan Husayn o'rtasida ixtiloflar kuchaydi.

Temur bilan Husayn o'rtasidagi ziddiyat to'rt yil davom etib, nihoyat 1370 yilda Temurning g'alabasi bilan tugadi. Husayn o'ldirildi. Balx Temur qo'liga o'tdi. Shu payt Balxni olgan Temur huzuriga Makkalik shayx Sayid Baraka kelib, unga buyuk davlat tuzish yo'lidagi harakatiga fatvo berdi va hokimiyat ramzi sifatida nog'ora va bayroqni topshirdi. So'ng bir umrga Temurning ma'naviy homiysi bo'lib qoldi. Temur 1370 yili hokimiyatga chiqdi.

Amalda Temur Movarounnahrda yagona hukmdor bo'lsada, o'zini amir deb hisoblab, chingiziylardan Suyurg'otmishni xon deb ko'tardi. qo'shin sarkardalar qurultoyi esa Amir Temurni Movarounnahrning yagona hukmdori deb e'lon qildi. Bu orada Amir Temur chingiziylar malikasi, Chig'atoy xonining qizi, Husaynning beva qolgan xotini - Saroymulxonim (Bibixonim)ga uylandi va shu sababli "Ko'rag'on" (sohibqiron) xonning kuyovi unvonini va podsholik qilish huquqini oldi.

Endilikda Temurning asosiy vazifasi Movarounnahrni birlashtirish, kuchli markazlashgan davlat barpo etish bo'lib qoldi. Shu maqsadda o'zi tug'ilib o'sgan Kesh (Shahrisabz)ga qaytdi. U yerdan Samarqandga o'tib, shaharni bo'lajak davlatiga poytaxt qilib oldi. Shahar devorlarini mustahkamlab, shahriston va saroylar qura boshladi.

Amir Temurning buyuk saltanat barpo qilish bobidagi sa'y-harakatini shartli ravishda ikki davrga bo'lish mumkin: Birinchi davr 1370-1388 yillarni o'z ichiga

oladi. Bu davrda Amir Temur asosan turkiy xalqlardan tashkil topgan Chig'atoy mulkini markazlashgan qudratli davlatga birlashtirish uchun kurashadi.

Ikkinchi davr 1388-1405 yillardir. Bu davrda Amir Temur o'z davlatining hududini kengaytirish va buyuk saltanat barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. 1370-1405 yillar mobaynida, ya'ni 35 yil Samarqand taxtini boshqargan Amir Temur o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadi. Jumladan, u shu davr mobaynida 30 martadan ortiq harbiy yurishlar uyushtiradi va biror marta ham yengilmaydi, dunyodagi 28 mamlakatni fatx etadi. Amir Temur tuzgan saltanat sarhadlari janubda Arabiston yarim orolidan shimolda to Moskva knyazligiga qadar, sharqda Xitoy hududlaridan qarbga tomon o'rta Yer dengizi va Misr davlatlari yerlarini o'z ichiga olgan xududlarga qadar cho'zilib ketgan edi.

Amir Temur davlat arbobi sifatida ulkan tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lgan, u Movarounnahrni yagona bir davlatga birlashtirdi, bosib olgan xududlarini to'rt qism — mulkka bo'lgan va ularni o'z farzandlariga suyurg'ol (sovg'a) qilib berdi. Jumladan, Xuroson, Jurjon, Mozandaron, Seyston (markazi Hirot) Shohruhga; /arbiy Eron, Ozarbayjon, Iroq va Armaniston (markazi Tabriz) Mironshohga; Fors, ya'ni Eronning janubiy qismi (markazi SHeroz) Umarshayxga; Afg'oniston va SHimoliy Hindiston (markazi /azna) Pirmuhammadga suyurg'ol qilib berildi. Natijada Amir Temur davlati yagona, yaxlit feodal davlatga birlashgan. Butun hokimiyat ularning qo'lida bo'lib, markaziy hukumatga (Samarqandga) xiroj va soliqlarning bir qismini to'lab turganlar va oliy hukmdorga harbiy yurishlar paytida askar yuborib turish majburiyatini bajarganlar.

Amir Temur davlati o'z davrida markazlashgan davlat edi. Bu davlat asoschisi mamlakatdagi barcha ijtimoiy tabaqalar — (ular 12 ta edi) sayyidlar va din peshvolari, harbiylar va amaldorlar, olim va fozil kishilar, ahli hunar, dehqonlar, savdo-sotiq ahli, chorvadorlar va boshqalarning maqsad va manfaatlarini himoya qilish, maslahat va kengash ila qattiqqo'llik bilan boshqarishga erishdi. Ikkinchdan Amir Temur saltanatning to'rt asosiy ustini to'g'ri angladi va unga amal qildi. Bu ustunlar quyidagilardir:

-Islom va shariat aqidalari:

-qadimdan amalda bo'lgan odoblar- yo'sun va tuzuklar, qonun ustivorligi:

-Xazina:

-Raiyat, ya'ni mehnatkash xalq.

Amir Temur davlatining boshqaruv tizimi ikki qismga-qonun chiqaruvchi va ijroiya tizimlariga bo'lingan. qonun chiqaruvchi tizim qurultoy deb atalib, u asosan yirik turk qabilalarining yo'l boshchilari ishtirokida o'tgan va oliy hukmdor paytida chaqirilgan. qurultoy urush va sulh, davlatning ichki va tashqi siyosatini istagan belgilash kabi masala muammolarni muhokama qilgan va qonunlashtirilgan.

Ijroiya tizimi devonlar va boshqa oliy davlat idoralaridan iborat bo'lgan. Davlatning ijroiya tizimi (devonlar) qurultoy qabul qilgan qarorlarni, podshoh farmonlarini va davlatning kundalik yumushlarini hayotga tadbiiq etgan.

Tarixiy manbalarda ta'kidlanishicha Temur davlatini asosan quyidagi to'rt vazir boshqargan.

1. Mamlakat va raiat vaziri-mamlakatning muhim va kundalik ishlarini ado etgan; U raiatning ahvolini, mamlakat obodonchiligi va umumiy ahvolini, riatning farovonligini, mamlakatning umumiy ahvolini nazorat qilib turuvchi vazir bo'lgan. Uni bosh vazir (vaziri a'zam) deb atashgan. U bosh bo'lgan muassasa esa devoni oliy deb atalgan.

2. Sipoh vazirligi- sipohiylarning umumiy ahvoli – ularni harbiy yurishlar oldidan to'plash, joylashtirish, oziq-ovqat va harbiy aslaha bilan ta'minlash maosh va nafaqalarini o'z vaqtida yetkazib berish bilan shug'ullangan. U bosh bo'lgan muassasa devoni tavochi deb atalgan.

3. Uchinchi vazir egasiz qolgan yer-suv, mol-mulkni haqiqiy merosxo'rlari topilguncha tasarruf qilib turish, shuningdek, savdogarlardan olinadigan boj-xiroj va yaylovdagi mol-qo'ydan olinadigan zakotni undirish bilan shug'ullangan. Uning devoni devoni sarkor deb atalgan.

4. Bu vazir saltanat ishlarini, ya'ni davlat idoralarining sarf-harajatlarini, umuman xazinadan ketgan barcha harajatlarning hisob-kitobi bilan shug'ullangan. Uning devoni–devoni mushrif (maxsus nazoratchilar devoni) deb atalgan.

Shuningdek, chegara yerlari va tobe mamlakatlarni boshqarish ishlariga ma'sul etib yana uchta vazir tayinlangani "Temur tuzuklari"da aytilishicha ulardan biri xorijiy mamlakatlar bilan olib boriladigan munosabatlarga boshchilik qilgan oliy davlat muassasasi – devoni insho yoki devoni rasoil deb atalgan.

Din va shariat bilan bog'liq bo'lgan masalalar, shuningdek, sud ishlari qozi va shayxulislom qo'lida bo'lgan.

Amir Temur davrida davlat ishlarini ado etadigan quyidagi oliy lavozimlar: otaliq, arzbegi, a'lam, bakovulboshi, daftordor, jarchi, munshiy, muftiy, muxtasib, soxibi devon, tavochi, farrosh, xazinador, eshik og'aboshi kabi lavozimlar ta'sis etilgan.

Aytiladigan yana bir muhim masala shuki, Amir Temur o'z davlatida qonun ustivorligini ta'minladi. Jinoyatga tortiluvchining aybi faqat to'rt nafar guvoh oldida isbot qilingandan keyingina uning ustidan hukm chiqarilgan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, Amir Temur davlatida qonun barchaga – vazirga ham, amirga ham, hokim uchun ham, shahzoda uchun ham barobar bo'lgan. Masalan, g'arbiy Eron va Ozarbayjon hokimi shahzoda Mironshoh Mirzo maishat va kayfu safoga mukkasidan ketib, davlat ishlariga e'tibor qilmay qo'ygani uchun lavozimidan olib tashlangan. Atrofidagilarning ba'zilar esa oliy jazoga mahkum etilganlar. Fors

hokimi Pirmuhammad Sulton yetti yillik urush (1399-1404) paytida sustkashlikka yo‘l qo‘ygani uchun egallab turgan mansabidan olib tashlangan. Yuqorida keltirilgan fikrlarimizdan xulosa shuki, Amir Temur kuchli markazlashgan davlatga asos solgan.

Amir Temur Genuya, Venetsiya, Vizantiya, Ispaniya, Frantsiya, Angliyadek Yevropaning davlatlari bilan bir kator diplomatik alokalarni olib borishi: jumladan, uning frantsiyalik Karl VI angliyalik Genrix IV yozishmalari majud. Karl VI ham, Genri IV xam Soxibqironni ko‘kka ko‘tarib maqtab, uning usmoniylarga qarshi kurashini yuqori baholaydilar. Ular Amir Temur davlati bilan o‘zaro savdo-sotiq aloqalarini rivojlantirishga tayyor ekanliklarini bildirganlar, Samarqandga o‘z elchilarini yuborganlar. (Ispaniya elchisi Klovixo).

Shunday qilib Amir Temur davrida o‘zbek davlatchiligi tarixidagi eng yorqin sahifalar bitildi desak har jihatdan to‘g‘ri bo‘ladi. Mazkur yillarda davlatimizning, umuman o‘zbek xalqining ichki va tashqi siyosatdagi imkoniyatlari, salohiyati to‘la - to‘kis namoyon bo‘ldi. Mamlakatimiz jahonning siyosiy, iqtisodiy, madaniy markaziga aylandi. Davlatimiz kuch-qudratiga Yevropadan Xitoyga qadar ulkan xududdagi davlatlar tan berdi. Shu bilan birga ming afsuski so‘ngi temuriylar XVI asrda ulardan hokimiyatni tortib olgan shayboniylar va kelgusida hokimiyatni boshqargan sulolalar ushbu muvoffaqiyatlar va davlatchilikdagi taraqqiyot darajasini saqlab qololmadilar.

Amir Temur tarixda o‘chmas iz qoldirgan buyuk shaxs- ulkan bunyodkor, yirik davlat arbobi, mohir sarkarda, ilm-fan homiysi. Biz bugun bu haqiqatni yaxshi angladik. /arbda, masalan, Italiyada, Ispaniyada, Frantsiyada, Angliyada, Germaniyada bu XVI-XVII asrdan beri ma‘lum. Misol keltiramiz, Amir Temur haqidagi birinchi kitob Italiyalik olim Perondini qalamiga mansub bo‘lib 1553 yil Florentsiya (Italiya)da nashr qilingan.

Ikkinchidan: Davlatni boshqarish va idora qilish, barcha sohada adolat, insof, diyonat va imon amriga quloq solib maslahat, moshvarat va kengash asosida ish yuritishda ulug‘ bobokalonimizdan o‘rgansak va ibrat olsak nur ustiga a‘lo nur bo‘lur edi.

Amir Temur o‘zining 35 yillik (1370-1405 yillar) hukumronligi davrida Movarounnnahrdan tashqari 28 ta davlatni bosib olgan bo‘lsa, u yerlarda adolat va tinchlik o‘rnatdi. Buyuk davlat arbobi va yengilmas sarkarda sifatida jahonda nom qozondi. O‘zbekistonda Prezidentimiz farmoni bilan 1996 yil “ Amir Temur” yili deb e‘lon qilindi 1996 yilda ulug‘ bobomizning 660 yilligi nafaqat mamlakatimizda, balki Parijda YUNESKO doirasida, jahon miqiyosida keng nishonlanishi ham fikrimizning isbotidir.

Temur Movarounnahrni 150 yillik mo‘g‘ullar hukumronligidan ozod qilib, kuchli va qudratli markazlashgan feodal davlatga asos soldi. Xududlar, viloyatlar

o'rtasidan o'zaro urushlarga, toju-taxt talashishlarga chek qo'ydi. Mamlakatda osoyishtalik va barqarorlikni ta'minladi. "Kuch adolatda" degan aqidaga qat'iy amal qilib, adolatsizlik qilgan hukumdorlarni jazoladi, xalq hurmat e'tiborini qozondi.

Amir Temur mo'g'ullar davrida toptalgan va vayron qilingan xalqimizni madaniyatini, ma'naviyatini, tili va dinini, urf-odatlarini tiklashga homiylik qildi. Samarqand, Shahrisabz, Turkiston va boshqa shaharlarda katta-katta qurilishlar qildi. Masjid va madrasalarni ko'paytirdi. Oq Saroy, Bibixonim, Shohizinda komplekslari, Ahmad Yassaviy maqbarasi va hokozolar shular jumlasidandir. Dunyoning turli burchaklaridan olimu-fozillarni, hunarmandlarni Movarounnahrda, aniqrog'i Samarqandda to'pladi. Ularga g'amxo'rlik va mehr- muruvvat ko'rsatdi.

Temur Samarqandni jahonning yetti mo'jizasidan biriga aylantirdi. Uni dunyoning poytaxtiga aylantirish maqsadida shahar atrofida ko'plab qishloqlar qurib ularga dunyodagi shaharlar- Bog'dod, Damashq, qohira, SHeroz, Sultoniya va hatto Parij (Forish) nomlarini berdi. qadimiy Ko'ksaroy qayta tiklandi. SHaharlar atrofida Bog'i CHinor, Bog'ibaland, Bog'ibixisht, Maysazorlar, soya-salqin yo'laklar, ariqlar qurildi. Barcha binolar pishiq g'ishtdan qurilib, gumbazlar turli naqsh va bo'yoqlar bilan bezatildi. Umuman Samarqand tubdan qayta qurilib yanada obod va go'zal shaharga aylandi..

Temur To'xtamishxonni tor-mor qilib, Botuxon asos solgan Oltin O'rda davlati inqirozini tezlashtirdiki, bu hol qadimiy rusning 200 yillik mo'g'ul bosqinidan ozod bo'lishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Afsuski Rossiya Amir Temurning bu xizmatini tan olmadi.

Amir Temur turk sultoni Boyazid Yeldirimni mag'lubiyatga uchratib Usmonli turklarning Ovropaga yurishini to'xtatib qoldi. Bu bilan olmon, frantsuz, ispan, ingiliz, italyan va boshqa ko'plab Yevropa xalqlari tarixiy taqdirida katta rol o'ynadi. Keyinchalik Yevropa xalqlarining taraqqiyotida olg'a siljib ketishiga ulkan hissa qo'shdi. Buning uchun Yevropa xalqlari buyuk bobokalonimizdan hanuz minnatdordir. Sobiq mustamlakachilik yillarida bizga Amir Temur to'g'risida biron bir ijobiy fikr aytish ta'qiq qilib qo'yilgan davrlarda ham Yevropada Temur haqida ilmiy izlanishlar olib borildi, kitoblar yozildi, muzeylar ochildi, hatto oltindan haykal qo'yildi.

Amir Temur mo'g'ullar hukmronligi davrida izdan chiqqan qadimiy savdo yo'li- Buyuk Ipak yo'lini tikladi. SHarq va /arb xalqlarining savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalari rivojiga ulkan hissa qo'shdi.

Amir Temur turkiy (o'zbek) harbiy sa'natini dunyoga namoyish qildi. Kuchli mustahkam, intizomli qo'shin tuzdi. Jangchilarni, xarbiy sarkardalarni e'zozladi, moddiy rag'batlantirdi, ularni botir va qo'rqmas qilib tayyorladi. Jangda har doim o'zi namuna ko'rsatib, qo'shinlarni ruxlantirib keldi. Temur tarixdagi buyuk sarkardorlar orasida alohida ajralib turadi... Temur barcha davr buyuk harbiy

qo‘mondonlari orasida alohida o‘rin egallaydi... deb ta’kidlaydi AqSHlik olim Rigard Nelson.

Temur o‘zining butun faoliyati davomida xalqimizning, millatimizni ulug‘ladi. Agar bu xalq birlashsa, o‘z milliy davlatiga ega bo‘lsa nimalarga qodir bo‘lishi mumkinligini dunyoga ko‘rsatdi.

Jahon Temur timsolida o‘zbek (turkiy) millatini tanidi.

Temurning ichki siyosati. Amir Temur o‘z saltanati hududida xalq osoyishtaligi, tinch mehnat uchun sharoit yaratishga, adolatli boshqaruv usulini joriy etishga qaratilgan siyosat olib bordi.

Amir Temur o‘zining ichki siyosiy faoliyatida ruhiy ma’naviy rahnamolari. pirlarining ugitlariga, maslahatlariga amal qildi. SHamsiddin Kulol, Sayyid Baraka, Abu Bakr Muhammad Toybodiylarning xizmatlari bu sohada bebahodir. Vaziyatni tug‘ri tahlil etish, maslahatlarga quloq solish, kengashib, odilona va adolatli qaror qabul qilish Amir Temur ning uslubi bo‘lgan.

Temurning katta o‘g‘li Jahongir Balxda, o‘g‘li Umarshayx Forsda, yana bir o‘g‘li Mironshoh Eron va Ozarbayjonda, SHoxruh Xuroson yerlarida ichki siyosatni amalga oshirar edilar. Davlatni boshqarish uchun esa devonbegi (markaziy ma’muriyatchi), arkbegi (marosimlarni utkazish) va turta vazir (soliq va mirshablik xizmati, askarlar va oziq.ovqat ta’minoti, Harbiy masalalar va saroy harajatlari bo‘yicha) tayinlangan edi. Amir Temur muhim davlat ishlarini hal etish uchun chaqiriladigan kengashlarga katta ahamiyat berib, “o‘z ishlarimning undan tuqqiz qismini men kengash (oqsoqollar, amirlar, vazirlar, aqlli va ko‘pni ko‘rgan kishilar maslahati) asosida, faqat bir qismini qilich yordamida hal qildim”, degan edi. Kengashning qarorisiz Amir Temur xech qanday ishga kirishmas edi.

Temurning tashqi siyosati. Sohibqiron qaysi bir mamlakatga lashkar tortib borishidan qat’i nazar, u adolatni himoya qilgan insof va diyonat uchun jangga kirgan. Aksariyat hollarda kelib chiqqan urushlar Amir Temurning Raqiblari adolatsizligi, insof diyonatsizligi, imonsizligi aybi bilan kelib chiqqan. Ana shu ma’noda Amir Temurning Xorazm bilan bo‘lgan munosabatlari yorqin misol bo‘la oladi. Hazrat Sohibkiron Markazlashgan davlat tuzib mo‘g‘ullarni Movarounnahr hududidan haydab chiqargach, Xorazm masalasini adolatli hal qilishga kirishadi. AmirTemur Boyazid bilan o‘zaro diplomatik yozishmalar olib borish bilan bir qatorda Turkiya bilan bo‘lajak to‘qnashuvda Trapezund va Konstantinopol harbiy kemalaridan foydalanishga harakat qiladi. O‘zaro yordam masalasida Amir Temur Konstantinopol noibi Ioan VII bilan ham yozishmalar olib boradi. Amir Temur Frantsiya qiroli Karl VI (1360-1422) Angliya qiroli Genrix IV (1399-1413) Kastiliya va Leon qiroli Genrix III lar bilan diplomatik aloqalar o‘rnatib , yozishmalar olib boradi. Vizantiya imperatoridan boj olib uni bevosita buysundirish bilan kifoyalangan Amir Temur 1402 yilning yozida Frantsiya va Angliyaga maxsus

elchilar orqali Karl VI va Genrix IV nomlariga maktublar yullaydi. Frantsiya qiroluqi Karl VI 1403 yilning 15 iyunida Amir Temurga yoʻllangan javob maktubidan maʼlum boʻlishicha Amir Temur takliflari Frantsiya tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilingan.

Davlat boshqaruvi tizimining eng muhim tarkibiy qismi qoʻshin boʻlib, uni takomillashtirish va mustahkamlashga Temur alohida ahamiyat bergan. Amir Temur jahon harbiy sanʼati tarixida birinchi boʻlib qoʻshinni jang maydonida yetti qoʻlga (qismga) boʻlib joylashtirish tartibini joriy qildi. Temur oʻz armiyasining jangovor tayyorgarligiga alohida eʼtibor berish bilan birgalikda ularning moddiy taʼminoti toʻgʻrisida ham doimo gʻamxurlik koʻrsatgan. U oʻz tuzuklarida ham bunga alohida tuxtalib utgan. SHuning uchun ham uning sadoqatli, mustahkam, jangovor qoʻshini hamisha zafarlar ketidan zafarlar quchdi.

Turli mamlakatlarni bogʻlovchi savdo karvonlari bexatarligi, osoyishtaligini taʼminlash, ayniqsa Buyuk Ipak yoʻli shuhratini tiklash borasida qilingan saʼy harakatlar bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada SHarq-Farb, Janubu-SHimol oʻrtasidagi elchilik, diplomatik va savdo tijorat munosabatlari yanada kuchaydi, bu esa Temur davlatining ijtimoiy iqtisodiy va madaniy yuksalishida hal qiluvchi rol uynadi. Amir Temur mohir diplomat sifatida qaysi mamlakat bilan aloqa bogʻlashga yoʻl tutsa, u dastavval, ikki oʻrtadagi har bir masala, muammoni urushsiz, nizolarsiz tinch, muzokaralar yoʻli bilan hal etishga intilgan boshqa hukmdorlarni shunga daʼvat etgan. Urush harakatlariga esa faqat noiloj xollardagina izn berilardi. Xususan, Sohibkironning Oltin Urda xoni Tuxtamishxon, Turkiya sultoni Boyazid Yildirim singari hukmdorlar bilan avval boshda olib borgan muloqotu yozishmalari ham bundan guvohlik beradi.

“Temur tuzuklari” Amir Temurning davlat va harbiy ishning qurilishi haqidagi nazariy va amaliy fikr-mulohazalari jamlangan muhim asardir. Boshqacha nomlari: “Molfuzoti temuriy” (Temurning aytganlari), “Voqeoti Temuriy”(“Temur hayoti bilan bogʻliq voqealar”). Bu asar ikki qism, 56 banddan iborat boʻlib, hukmdorlarning tor doirasigagina emas, butun dunyo ahliga mashxur boʻlgan. Bizning davrimizgacha uning koʻplab qoʻlyozma nusxalari yetib kelgani bundan guvohlik beradi. Asarning nusxalarini Rusiya, Hindiston, Eron, Turkiya, Misr, Angliya, Olmoniya, Daniya va boshqa mamlakatlarning kutubxonalarida topish mumkin.

Asar birinchi bor 1783 yil Buyuk Britaniya (Oksfordda), 1785 va 1890 yillarda Hindistonda nashr etildi.

“Bu Tuzuklardan – deb yozadi muallif, - (kelajakda) saltanat ishlarini boshqarishda qoʻllanma sifatida foydalangaylar” . Demak “Tuzuklarni” yozishdan maqsad jamiyat va davlat boshqaruvida zarur hisoblangan qonun-qoidalar, yaʼni

tuzuklar majmuini yaratish bo'lgan. Agar undagi ba'zi-bir qaytarishlar, shaxsiy muloxazalar va "Lirik kechinmalarni" olib tashalajak, ixtiyorimizda o'sha davrning asosiy qonunlari, qonunchiligi majmui gavdalanadi.

Tuzuklarning birinchi qismida Amir Temurning yetti yashardan to vafotiga qadar (1336-1405 yillar) kechgan hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati, uning Movarounnahrda Markaziy hokimiyatning qo'lga kiritishi, ijtimoiy tarqoqlikka barham berishi va markazlashgan davlat tuzishi, harbiy yurishlari ixcham bayon etilgan.

Ikkinchi qismi-Sohibqironning nomidan toju-taxt vorislariga aytilgan o'ziga xos vasiyat va nasihatlardan iboratdir.

Jumladan, Amir Temurning fikricha davlat vazirlari quyidagi to'rt sifatga ega bo'lishlari shart: 1. Asillik va toza nasillik, buyuklik; 2. Aqlu farosat. 3. Sipoxu raiyat ahvolidan xabardorlik va ularga xushmuomalada bo'lish. 4. Sabru bardoshlik va muloyimlik. Asarda ko'rsatilishicha, davlat taqdirini uch narsa: podshoh, xazina va askar hal qilgan. qo'shin yuz ming va tumanga bo'lingan.

Xalqni ortiqcha soliq bilan xonavayron qilish davlat xazinasining kambag'allashishiga, bu esa o'z navbatida hokimiyatning kuchsizlanishiga olib kelinishi asarda ta'kidlangan.

Tuzuklarda vazirlar amirlar va hokimlarga beriladigan inomlar haqida ham aytilgan: Masalan: qaysi bir amir biron qo'shinni yengsa u uch narsa bilan siylangan. Tug', nog'ora va bahodirlik martabasi. Davlat kengashlariga bemalol kirish huquqi.

Biron sarhadning noibligi berilgan

"Temur Tuzuklarida" payg'ambar avlodlariga, qonun targ'ibotchilariga, olimlar, shoirlarga, keksalarga Temur nafaqa belgilaganligi qayd etilgan, shuningdek uning davlatida barcha xalqlar millati va dinidan qat'iy nazar teng huquqli ekanligi e'lon qilingan.

Tuzuklarda buyuk saltanatdagi ijtimoiy-siyosiy hayotning eng kichik, ko'z ilg'amas masalalarigacha o'z aksini topgan. Misol uchun madrasalar va qiroatxonalaridagi kitoblarni yirtgan, unga ehtiyotsizlik bilan qaragan shaxslar zindonband qilinishi ko'rsatilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Yevropada Konstitutsiya haqida tushunchaga ham ega bo'lishmagan bir davrda Amir Temur davlatida Konstitutsion qonunlar majmuasi- "Temur Tuzuklari" mavjud bo'lgan va amal qilgan. SHuni afsus bilan aytish kerakki, sho'rolar hukumronligi yillarida biz tariximizga, xususan Temur va temuriylar davri tarixiga haqqoniy baho bera olmadik. Evropada Temurga oltindan haykal qo'yilganda, jumladan frantsuzlar Amir Temurning oltindan haykalchasini qo'ydirib ostiga "Evropa xaloskori" deb yozdirib qo'yishgan ekan, uning o'z yurtida loydan ham haykal qo'ya olmadik, nomini faqat salbiy tomondan tilga ololdik xolos. Temur o'z Tuzuklarini yozib keyingi avlodlari uchun davlatni boshqarish, huquq,

axloq-odob, ma'naviy fazilatlariga oid ajoyib vasiyat va nasihat qoldirdi. "Temur Tuzuklari" bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Amir Temur qudratli saltanat barpo etib, uning hududlarini SHarq-/arbga, SHimolu-Janubga kengaytirib, iqtisodiy- madaniy, ma'naviy jixatdan yuksaltirib, dovrug'ini olamga mashhur qilgan bulsada, biroq uning vafotidan keyin mamlakat tanazulga uchrab bordi. Buning asosiy boisi shundaki, Amir Temur tassarufidagi el-yurtlar shu qadar xilma-xil, va uzoq masofalarga cho'zilgan bo'lib, ularni yagona bir markazdan turib, boshqarish murakkab edi. Buning ustiga ulardagi mavjud turli-tuman muxolifatchi kuchlar ertami kech o'z hududiy mustaqiligi uchun harakat qilishlari tabiiy edi. Amir Temur va uning avlodlari hukm surgan tarixiy davrni nazardan utkazar ekanmiz, bunda ijtimoiy- iqtisodiy va madaniy taraqqiyotni yuksak marralari sari ko'tarilgan Mavarounnahr va Xurosonni butun tarovati, yorqin manzarali ko'z ungimizda nomoyon bo'ladi. Amir Temur davrida Samarqandda bunyod etilgan tevarak atrofga husnu –latofat bag'ishlagan, bir-biridan ko'rkam unlab bog'lar, chunonchi "Bog'i Dilkusho", "Bog'i jahanaro", "Bog'i Davlatobod", "Bog'i nav", shuningdek o'z davrini tengsiz me'moriy obidalari "Ko'ksaroy", "Bustosaroy", Guri Amir maqbarasi, SHohi Zinda, Bibixonim masjidi va madrasasi, Shahrizabzdagi mashhur Oqsaroy, Turkiston shahridagi Xo'ja Ahmad Yassaviy maqbarasi kabilar shular jumlasidandir.

Amir Temur valiaxd etib nabirasi Pirmuhammadni tayinlagan edi. Biroq Mironshohning o'g'li Halil Sulton Mirzo 1405 yilning 18 martida Samarqandni egallab, o'zini "Movarounnahrning oliy hukmdori" deb e'lon qildi. Bir necha yil to'xtovsiz davom etgan urushlar natijasida bir qancha temuriy shahzodalar, shu jumladan valiaxd Pirmuhammad olamdan utdi. qudratli saltanat larzaga keldi va u parchalanish sari yuz tutdi. 1409 yil Temurning kenja o'g'li SHoxruh Movarounnahr va Xurosonni egallab, Movarounnahrni to'ngich o'g'li Ulug'bek ixtiyoriga beradi. O'zi esa Hirotga qaytib, Xuroson davlatini idora qila boshlaydi. Ulug'bek Samarqand taxtini egallagan paytida 15 yoshli uspirin yigit edi. SHuning uchun SHoxruh tajribali amir SHohmalikni unga otaliq qilib tayinlaydi. Ikki yildan so'ng, ya'ni 1411 yildan boshlab Ulug'bek to umrining ohirigacha (1449) Movarounnahr mamlakatini tanho boshqaradi. Ulug'bek asosiy faoliyatini davlatni idora qilish, ilm fanni ravnaq toptirish, mamlakat obodonchiligini yaxshilashga bag'ishladi. Ulug'bek noiloj xollardagina qo'shin tortishga majbur bo'lgan. 1414 yili u Farg'onada Amir Ahmad isyonini, 1425 yilda mo'g'ullar harakatini bostirdi. 1427 yilgi Dashti qipchoq hukmdorlaridan Baroq o'g'longa qarshi yurishi Ulug'bekka nihoyatda qimmatga tushdi. 1428 yil Abulhayrxon boshchiligida Dashti qipchoq davlati bilan ko'p bor to'qnashuvlarga to'g'ri keldi. Buning oqibatida esa asta-sekin Movarounnahr davlatining parchalanish va zaiflashish jarayoni yuz berdi.

XV asr oxiri, ayniqsa uning so‘ngi choragida mamlakatda ijtimoiy-siyosiy beqarorlikning kuchayishiga Temuriy shohzodalarning o‘zaro kelishib bir fikrga kelmaganliklari, ular o‘rtasidagi toj-taxt uchun doimiy kurashning mavjudligi sabab bo‘ldi.

Jumladan, 1450 yilda Samarqand taxtiga Mirzo Ulug‘bekning jiyani va kuyovi Mirzo Abdulloning o‘tirishi, Buxoroda esa Shohruh Mirzoning nevarasi Abulqosim Bobur qo‘lida bo‘lishi yagona mamlakat parchalanganligining isboti edi. Afsuski, bu shahzodalar kelishishga intilmadi, aksincha bir-birlari taxtiga da’vo qila boshladi. Natijada nizolar kuchaydi, ko‘plab qurbonlar bo‘ldi, o‘zaro urushlar avj oldi. Masalan: Mirzo Abdullo Alouddavla va Abu Saidga qarshi kurashdi. Oqibatda 1451 yilda Samarqand yaqinidagi SHeroz qishlog‘idagi jangda Abu Said Mirzodan yengilib o‘ldirildi.

Shundan so‘ng ham tinchlik bo‘lmadi. Endi buyuk bobosi davlatini tiklash uchun kurash Abu Said Mirzo (Movarounnahr) va Abulqosim Bobur (Xuroson) o‘rtasida bordi. Nihoyat, 1457 yilda Abulqosim vafotidan so‘ng Abu Said Mirzo vaqtincha bo‘lsada Temuriylar davlati har ikki qismi (Movarounnahr va Xuroson) ni birlashtirishga muvaffaq bo‘ldi.

Biroq, Abu Said Mirzo qancha harakat qilmasin bu hududni saqlab qola olmadi. U Mamlakatdagi siyosiy tarqoqlikni to‘la tugata olmadi. Xuroson, Eron, Xorazm deyarli mustaqil edi. Xurosonda Temuriy shahzoda Sulton Husayn Boyqaro Hirot taxti uchun kurash boshladi. /arbiy Eron yerlari uchun kurashda oqquyunli turkmanlar Abu Saidga qattiq qarshilik ko‘rsatadi. Oqibatda 1469 yilda Abu Said oqqo‘yunli turkmanlar bilan bo‘lgan jangda o‘ldiriladi. SHundan so‘ng Xurosonda hokimiyat Sulton Husayn Boyqaro(1469-1506) qo‘liga o‘tib ketdi. Saltanat yana ikkiga bo‘lindi. Movarounnahrda taxtga o‘tirgan Abu Saidning o‘g‘illari Sulton Ahmad (1469-1494), Sulton Mahmud (1494-1496) va uning o‘g‘li Sulton Ali Mirzolar uquvsiz chiqishdi, ayshu-ishratga berilib davlat ishlarini tashlab qo‘yishdi.

Anna shu tariqa, mamlakat parchalanish sari yo‘l tutdi. Xususan, Movarounnahr hukmdori Sulton Ahmadning uquvsizligi, sustkashligi va savodsizligi tufayli feodal tarqoqlik avjiga chiqdi. Bundan foydalanib Dashti qipchoqdagi o‘zbek qavmlari tomonidan uyushtirilgan yurishlar Movarounnahrni yanada tang ahvolga mahkum etdi.

XV asrning 90-yillarida Farg‘onaning yosh hukmdori, Umarshayx Mirzoning o‘g‘li Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) temuriylar hukmronligini qaytadan mustahkamlash yo‘lida bir necha bor qat’iy harakat qildi. Biroq uning bu urinishlari ham kutilgan natijaga olib kelmadi.

Sohibqiron Amir Temurning say’i harakati bilan XIV asrning ikkinchi yarmi XV asrlarda Movarounnahr va Xurosonda ilm-fan va madaniyatning rivojlanib tsivilizatsiyaning yangi bosqichiga ko‘tarildi

Markazlashgan mustaqil davlatning barpo etilishi, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Sohibqiron birinchi navbatda Movarounnahr olimlarini o'z davlatining poytaxti Samarqandga yig'di. Uning maqsadi IX-XII asrlarda bo'lgani kabi islom dunyosining ilmiy markazlari bo'lgan Xorazm va Bag'dod fanlar akademiyasining an'analarini Samarqandda tiklashdan iborat edi. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda Amir Temur o'zi istilo etgan mamlakatlardan ko'plab yetuk olimlarni, tabiblarni, san'atkor va hunarmandlarni, me'morlar va kosiblarni Movarounnahrqa olib kelgan. Ularga erkin faoliyat ko'rsatish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib bergan.

Nizomiddin Shomiy, Sharofiddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh, Mahmud Dehlaviylarning bergan ma'lumotlariga ko'ra Amir Temurning ilm-fan, madaniyat va boshqa kasb egalariga bo'lgan hurmati va ko'rsatgan amaliy g'amxo'rliqi keyinchalik dunyoning ko'pgina mamlakatlaridan ko'plab olimlar, san'atkorlar, me'morlar va mohir ustalarning o'z ixtiyori bilan Samarqandga kelishiga sabab bo'ldi. Ba'zan go'yo, Amir Temur o'zi bosib olgan mamlakat olimlari, hunarmandlarini Samarqandga zo'rlik bilan olib kelgan degan o'ylar ham mavjud bo'lgan. Ayrim olimlar Amir Temurga o'z uzrlarini aytib, Samarqandga bormaslikka ham jur'at etganlarida Sohibqiron bunga qarshilik ko'rsatmagan. Masalan, Damashq va Xalab zabt etilganda u yerlarda yashagan mashhur tarixchi olim Ibn Xoldun Temur bilan suhbatlashib, Samarqandga bormaslikka uni ko'ndiradi va tez orada Misrga borib, bosh qozilik mansabiga musharraf bo'ladi. Ammo bunday istisnolardan qat'iy nazar, o'sha zamonning barcha yirik olimlari Samarqandga borishni o'zlari uchun sharaf deb bilar edilar. Shundaylardan biri O'rta Osiyo falsafiy tafakkuri tarixida o'chmas iz qoldirgan faylasuf Sa'diddin Taftazoniy edi. U 1332 yilda Ashxobod yaqinidagi, Niso shahri atrofidagi Taftazon qishlog'ida tug'ilgan. O'n olti yoshgacha Sa'diddin ilohiyot fanlarini, arab tili, nutq san'ati va mantiq sohalarini mukammal egalladi.

Taftazoniyning 16 yoshida yozgan birinchi ilmiy asari unga shuhrat keltirdi va uni madrasada mudarrislik qilish huquqini qo'lga kiritishiga sabab bo'ldi. 1340-1372 yillar ichida Taftazoniy, /ijduvon, Jom, Turkiston, Hirot va Movarounnahrning boshqa shaharlaridagi madrasalarida dars berib, yirik olim sifatida shuhrat qozondi. Natijada Sohibqiron Amir Temur undan xabar topib, Samarqandga chaqirdi. U umrining oxirigacha saroyda yashadi va 1392 yil 12 avgustda vafot etdi.

Shu davrning yana bir zabardast faylasufi Mir Sayid Sharif Jurjoniy 1387 yilda Samarqandga kelib 20 yil samarali ijod etdi va faqat Temur vafotidan keyingina SHE'rozga qaytib, 1413 yilda vafot etdi. Jurjoniy Samarqandning mashhur madrasalarida falsafa, mantiq, falakiyot, fikh, til va adabiyotdan dars berib o'zidan yaxshi nom qoldirdi.

Amir Temur hukmronligi davrida Samarqand shahrida to'plangan fikh olimlaridan Mavlono Abdumalik sohibqiron hurmatiga sazovor bo'lganlardan biridir.

Amir Temur g'amxo'rligida ijod qilgan olimlardan No'roniddin Xorazmiy, Xoja Muhammad az-Zohid al-Buxoriy va boshqalar ilm-fanning rivojlanishiga o'zlarining tegishli hissalarini qo'shdilar.

Amir Temur qur'oni Karimni yaxshi biladigan yetuk qorilarning ham hurmatini joyiga qo'yib, ularga shart-sharoit yaratib berishni o'zgalardan ham talab qilgan. Natijada mashhur qorilardan Mavlono Faxriddin, qur'oni qiroatda ham, savtda ham tavjid bilan yod olgan hofizlardan Abdulatif ad-Domqoniy, Mavlono Asouddin, SHarif Hofiz al-Husayniy, Mahmud Muhriq al Xorazmiy va Jaloliddin Ahmad al Xorazmiylar madaniy-ma'rifiy ishlarni boyitishga o'zlarining salmoqli ulushlarini qo'shdilar.

Amir Temur davrida davlat tili turkiy til bo'lganligi uchun uning rivojiga katta e'tibor berdi. Manbaalarda yozilishicha u tiniq turk shevasida chiroyli gapirgan va yoza bilgan.

Amir Temurning ilm-fan va madaniyat ravnaqi yo'lida qilgan xizmatlaridan yana biri shuki, uning shaxsan o'zi Samarqandda kutubxona tashkil etishga boshchilik qilgan. U o'z kutubxonasi uchun butun Movarounnahr va istilo qilgan mamlakatlardan nodir kitoblar nusxalarini yig'dirdi. qo'lyozmalarni ko'chirish va kitoblar chop etish ustaxonalarida milliy kitob san'atining eng yaxshi ustalarini to'plagan. Amir Temur davlatni yuksaltirishda ilm-fanning ahamiyati katta ekanligini yaxshi bilgani holda, u o'z vaqtida bu masalaga o'g'illari, nabiralari e'tiborini qaratgan.

Samarqandda tashkil etilgan sulolaviy kutubxona uning nabirasi Ulug'bekka meros bo'lib qoldi. Bu buyuk olimning xizmatlaridan biri shuki, u o'z davrida sulolaviy saroy kutubxonasini ko'plab yangi kitoblar, qo'lyozmalar bilan boyitdi.

Muhammad Tarag'ay Ulug'bekning tarixdagi o'rni uning davlat arbobi sifatidagi ko'p yillik faoliyatidan ko'ra ham afzalroq buyuk olimlik, ilmu-urfon homiysi maqomidagi o'lgan xizmatlari bilan belgilanadi.

Ulug'bek farmoni bilan 1417 yilda Buxoroda, 1417-1420 yillarda Samarqandda va 1433 yilda Fijduvonda madrasalar qad ko'tardi. Ulug'bek atrofida uyushgan ko'plab buyuk qomusiy olimlar qozi zoda Rumiy, Fiyosiddin Jamshid Koshiy, Muhammad Ali Kushchi, Muhammad Xavofiylar ilm fanning turli sohalarida, ayniqsa astronomiya, matematika singari aniq fanlar bo'yicha barakali ijod qildilar hamda o'zlaridan salmoqli ilmiy meros qoldirib ketdilar. Ulug'bek rasadxonasida 1018 ta yuldo'zlar harakatiga oid jadval to'zildi. Uning qalamiga mansub "Ziji kurogoniy" asari o'zining ilmiy yechimlari, xulosalari bilan hozirga qadar ham jahon olimlari e'tiborini qozonib kelmoqda. Mirzo Ulug'bek "Turt ulus tarixi" nomli tarixiy asar hamda musiqaga bag'ishlangan besh risola ham yozadi.

Xuroson yerlarida esa Sulton Husayn Bayqaro davrida siyosiy barqarorlikni saqlash xalq turmush darajasini ko'tarish, obodonchilik borasida ko'plab ishlar amalga oshirildi. Mashhaddagi Gavharshod masjidi, Marv va Hirotdagi bir qator binolarning ta'mirlanishi, Ixlosiya madrasasi, "Kudsiya" masjidi, "Safoiya" hammomi, "Shifoia" davolash uyi kabi inshootlar shu davrdagi ishlar jumlasidandir. Bu davrda she'riyat va rassomlik borasida alohida maktab yuzaga keldi.

Shunday qilib, Temur va temuriylar davrida o'lkamizda fan va madaniyat barq urib usdi, rivojlandi va kamol topdi. Fan va madaniyatning qaysi bir sohasini ko'zdan kechirmaylik, diyorimiz XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrlarda jahon tsivilizatsiyasining oldingi saflaridan joy olganining guvohi bo'lamiz. Temuriylar sulolasi davri jahon fani va madaniyatining Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bahovuddin Naqshband, Xoja Ubaydulloh Ahror kabi ulug' vakillarni yetishtirib berdi. Bu davrda zamonasining iste'dodli shoirlari va adiblari Lutfiy, Bobur, Abdurahmon Jomiy va boshqalar yashab ijod etishdi. Lutfiy nafis o'zbek tilida asarlar yozish bilan birga tojik tilida ham qasidalar bitdi. Lutfiyning "Zafarnoma", "Gul va Navro'z" dostonlari shu davr badiiy adabiyotining durdonalaridan biridir. Bu davr madaniyati taraqqiyotida ulug' shoir Abdurahmon Jomiyni roli buyukdir. Jomiyni yirik va mashhur asari yettita katta dostonidan iborat "Haft avrang", "Bahoriston" kabilardir. A Navoiy xomiyligida Mirxond, Xondamir, Vasifiy va boshqa tarixchilar ijod qildilar Xondamir 63 yillik umri davomida taxminan 13 ta asar yozgan bo'lib, ulardan bizgacha 8 tasi yetib kelgan. Temur va Temuriylar davri ulkan muvaffaqiyatlaridan biri tasviriy san'atning gurkirab usganligi bo'ldi. O'z zamonasining mashhur rassomi Kamolliddin Behzod o'zining xayratomo'z rassomchilik san'ati bilan "Moniyi soniy" (ikkinchi Moniy) va "SHarq Rafaeli" nomi bilan jahonga mashhur bo'ldi. Kamolliddin Behzod tomonidan yaratil shoir Abdullo Xotifiy, Husayn Boyqaro, SHayboniyxon portretlari, Sa'diyni "Buston" kitobi va Navoiyni "Hamsa" sig a ishlangan rasmlar xalqimizning nodir yodgorliklari sifatida Toshkent, Sankt Petrburg, London, Texron va boshqa shaharlarning mo'zey va kutubxonalarida saklanmokda. Bu davrdagi Movarounnahr va Xurosonda moddiy va ma'naviy taraqqiyotning tamal toshini ulug' bobomiz Sohibqiron Amir Temur quygan edi.

XIV asrning ikkinchi yarmi XV asr O'rta Osiyo xalqlari adabiyoti taraqqiyotida yangi va juda sermahsul davr bo'ldi. Bu davrda adabiyot, badiiy uslubiy jihatidan takomillashdi va yangi pog'onaga ko'tarildi. Nasrda ham, nazmda ham ko'plab nodir badiiy va lirik asarlar yaratildi.

Alisher Navoiy Abdurahmon Jomiyni ustoz, buyuk so'z san'atkori deb bildi, u bilan hamkorlik qildi. Unga bag'ishlab "Xamsai ul-mutaxayyirin" (Besh hayrat) asarini yaratdi. "Tuhfat ul-afkor" (Fikrlar sovg'asi) asarini unga atadi. Navoiy butun

faoliyati davomida insonning baxt-saodati uchun kurashga, xalqning osoyishtaligiga, o‘zaro urushlarning oldini olishga, obodonchilik ishlariga, ilm-fan, san’at va adabiyot taraqqiyotiga bag‘ishladi. U ulug‘ insonparvar, donishmand davlat arbobi, o‘zbek adabiy tiliga asos solgan, o‘zbek klassik adabiyotini yangi taraqqiyot pog‘onasiga ko‘targan buyuk so‘z san’atkori, iste’dodli qomusiy olim bo‘lib yetishdi. U o‘ttizdan ortiq yirik badiiy asar yozdi. “Xamsa”, “Xazoin ul-maoniy”, “Mahbub ul-qulub”, “Lison ut-tayr” shular jumlasidandir. Navoiy “Foniy” taxallusi ostida tojik tilida ham ijod qilib, “Devoni Foniy”, “Xasbi hol”, “Tuhfat ul-afkor” kabi lirik asarlar yaratdi. U tarixni bilishni ahamiyati katta ekanligini bildirib uni o‘rganishga da’vat etdi. Uning fikricha tarix fani shohlar, hukmdorlarning tarjimai xolini emas, balki mamlakat tarixini o‘rganib, mamlakatni nimalar halok qiladi, nimalar farovonlikka olib keladi, qanday ishlar mamlakatni obod qilishini, nima sababdan mamlakat tanazzulga yuz tutishini, qanday ishlar xalqqa farog‘at va baxt keltirishini tarix ko‘rsatib berishi lozim deb hisoblaydi. Uning xushxulq, odobli va tarbiyasi bo‘lish to‘g‘risidagi fikrlari ayniqsa qimmatlidir. Shuning uchun ham u jahon adabiyotining buyuk so‘z ustalari qatoridan munosib o‘rinni egalladi. Uning nomi va merosi Gomer va Dante, Rudakiy va Firdavsiy, Nizomiy va SHota Rustaveli, Sa’diy va Jomiy, Shekspir va Balzak, Pushkin va Tolstoy, Robindranat Tagor va Lu Sin kabi ulkan mutafakkirlarning nomi va merosidek abadiydir.

Navoiyning o‘zi esa barkamol, komil inson qiyofasi uchun buyuk ramzdir. Ulug‘ shoirning o‘lmas merosini o‘rganish mustaqillik yillarida o‘zining haqiqiy darajasiga yetdi. Adibning barcha asarlari qayta chop etildi. Hukumatimiz qaroriga binoan xalqimizning buyuk mukofoti ramzida Navoiy nomidagi davlat mukofoti ta’sis etildi. Prezidentimiz tashabbusiga ko‘ra Alisher Navoiyning 560 yilligi juda katta tantanalar bilan nishonlanib, shoirning mahobatli haykali xalqimizning muqaddas ramzi sifatida poytaxtning markazida qad ko‘tardi.

Shunday qilib, Amir Temur va temuriylar Markaziy Osiyoda fan va madaniyatning rivojlanishida muhim rol o‘ynadilar. Bu davr fan va madaniyatining ilg‘or yutuqlari bilan Yevropa xalqlarini tanishtirishda va undan foydalanishda keyingi avlodlar ham alohida o‘rin tutdilar.

Mo‘g‘ullar istibdodi davrida tushkunlikka yuz tutgan fan va madaniyat Temur va Temuriylar davrida yanada rivoj topdi va jahon tsivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shdi.

Afsuski, XV asrning oxirida mamlakatda mulkdor viloyat hokimlarining o‘zaro urushlari va markaziy hokimiyatga qarshi isyonlar kuchayib, fitna-fasodning avj olib ketishi oqibatida boshlangan siyosiy tanglik, shubhasiz, uning iqtisodiy va madaniy hayotiga salbiy ta’sir etdi va uni oqir tushkunlikka olib keldi. Bularning hammasi Temuriylar hukmronligining so‘nggi kunlari nishonasi edi.

Nazorat savollari

1. Amir Temur shaxsini ta'riflab bering.
2. Amir Temur qanday vaziyatda siyosiy kurash maydoniga kirib keldi?
3. Amir Temurning buyuk tarixiy xizmatlari nimada?
4. Amir Temur davrida shakllangan markaziy davlat boshqaruvi tizimi qanday tamoyilarga asoslangan edi?
5. Amir Temurning xorijiy ellarga uyushtirgan harbiy yurishlardan ko'zlagan maqsadlari nimalardan iborat bo'lgan?
6. Mirzo Ulug'bek shaxsi to'g'risida nimalarni bilasiz?
7. Mirzo Ulug'bek amalga oshirgan ichki davlat siyosatining muhim jihatlari nimada?
8. Temuriylar sulolasi inqirozining asosiy sabablarini ta'riflab bering.
9. Husayn Boyqaro davrida Xuroson davlatining iqtisodiy va madaniy yuksalishining muhim omillarini tushuntirib bering.
10. Qanday omillar Amir Temur va temuriylar davri moddiy va ma'naviy-madaniyatining ravnaqini ta'minlagan?
11. Temuriylar davrida bunyod etilgan moddiy madaniyat namunalari qatoriga nimalarni kiritish mumkin?
12. Movarounnahrda ilm-fan ravnaqini ta'minlagan omillar to'g'risida so'lab bering.
13. Ulug'bek akademiyasining yutug'i va yuksak shuhratini ta'riflab bering.
14. Temuriylar davrida tarixshunoslik fani bo'yicha qanday asarlar yaratildi.

8-mavzu. O‘rta Osiyo hududlarining xonliklarga bo‘linib ketishi, unig sabablari va oqibatlari

REJA:

1. Buxoro xonligining tashkil topishi va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.
2. Xiva xonligi. Siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayot.
3. Qo‘qon xonligi. Xo‘jalik va madaniy hayoti.

Tayanch so‘z va iboralar. *Dashti Qipchoq. Shayboniylar. Xiva xonligi. Qo‘ng‘irotlar. Buxoro xonligi. Abdullaxon II. Ashtarxoniylar. Buxoro amirligi. Mang‘itlar. Qo‘qon xonligi. Minglar. Toshkent bekligi. Davlat boshqaruvi. Davlat lavozimlari. O‘zaro va ichki kurash. Qoloqlik sabablari.*

Sohibqiron Amir Temur vafot etgach, uning saltanati asta-sekin parchalana boshlandi. Amir Temur vorislari temuriylar 1405-yildan 1506-yilgacha Movarounnahr va Xurosonda hukmronlik qildilar. Deyarli bir asr mobaynida ulkan saltanat amalda ikki davlatga bo‘linib, o‘zaro toju-taxt uchun kurash XV asr oxiriga kelib Samarqand temuriylarini ham, Xirot temuriylari hokimiyatini ham zaiflashtirib qo‘ygan edi.

1428-yilda Jo‘jining beshinchi o‘g‘li Shaybon naslidan bo‘lgan *Abulxayrxon* (1412-1468) Dashti Qipchoqda yangi davlat – *Ko‘chmanch O‘zbeklar davlatiga* asos soladi. Tarixiy manbalarda bu davlat „O‘zbek ulusi“ (o‘zbeklar mamlakati) deb ham ataladi.

1446-yilda Abulxayrxon Sirdaryoning o‘rta oqimida joylashgan shaharlar – Sig‘noq, Oqqo‘rg‘on, Arquq, O‘zgan va Suzoqni bosib oladi. O‘z davlatining poytaxtini Turadan Sig‘noqqa ko‘chirdi. Bu endi Abulxayrxonning temuriylarga qarshi kurashga kirishganligining tasdig‘i edi. U 1451-yilda o‘zidan madad so‘ragan temuriyzoda Abu Said Mirzoga Samarqand taxtini egallashda yordam berish bahonasida yurish boshladi. Abulxayrxon ko‘rsatgan yordami evaziga kattadan katta sovg‘alar bilan o‘z yurtiga qaytadi. Minnatdorchilik tariqasida Abu Said Mirzo Ulug‘bekning qizi Robiya Sultonbegimni Abulxayrxonga xotinlikka beradi.

Abulxayrxon keyin ham bir necha bor Movarounnahr ishlariga aralashdi. Shu tariqa u Movarounnahrda borgan sari o‘z nuluzining ortishiga erisha olgan.

1468-yilda Abulxayrxon vafot etishi bilan oq, u tuzgan davlat parchalanib ketdi. Abulxayrxonning nabirasi Muhammad Shayboniyxon (1451-1510) ko‘p yillik kurashdan so‘ng XV asrning 80-yillariga kelib Dashti Qipchoqda hokimiyatni egallashga muvaffaq bo‘ladi. 90-yillardan boshlab o‘zaro kurashlar va ichki nizolar tufayli tobora zaiflashib borayotgan temuriylar hududi bo‘lgan Movarounnuhrda ham o‘z hukmronligini o‘rnatish uchun harakat boshlaydi. Shayboniyxon avval Sig‘noq, Sabron, Yassi shaharlarini, 1500-yil Samarqandni, 1503-yil Toshkent va Farg‘onani,

1504-yil Hisor, Qunduz, Badahshon, Balxni, 1505-yil Xorazmni, 1507-yil Xuroson temuriylarining poytaxti Xirotni, keyinroq Eronning Mashhad va Tus shaharlarini ham egallaydi.

1502-yilda Eronda shoh *Ismoil* (1502-1524) yangi bir sulola – *Safaviylar sulolasi* (1502-1722)ga asos soladi. Xurosonga egalik qilish masalasida Shayboniyxon va Ismoil Safaviy o'rtasida nizo kelib chiqadi. 1510-yil Marv yaqinidagi jangda Shayboniyxon Eron qo'shinlaridan mag'lubiyatga uchrab jang maydonida halok bo'ladi.

Shayboniyxon halok bo'lgach, Bobur Mirzo shoh Ismoil yordamida Movarounnahrni shayboniylardan qaytarib olish uchun kurash boshladi va nihoyat, 1511-yilning kuzida Samarqandni uchinchi marta qo'lga kiritdi. Bobur Samarqandni egallagach, noilojlikdan islomning shiyalik yo'nalishiga e'tiqod qiluvchi shoh Ismoilni oliy hukmdor deb e'lon qildi. Bu esa Samarqand xalqining Bobur Mirzodan yuz o'girishiga sabab bo'ldi. Chunki Movarounnahr aholisi, Boburning o'zi ham islomning sunniylik yo'nalishiga e'tiqod qilganlar. Shayboniylar ham shu yo'nalishda edilar. 1512-yilning aprel va noyabr oylarida Shayboniyxonning ukasi Mahmud Sultonning o'g'li Ubaydulla Sulton boshchiligida shayboniylar qo'shini bilan bo'lib o'tgan har ikki jangda Bobur Mirzo qo'shini mag'lubiyatga uchradi. Noyabr oyidagi jangda shayboniylar shoh Ismoilning Bobur Mirzoga yordam uchun yuborgan Ahmad ("najmi soniy") qo'shinini ham mag'lub ettilar.

Bobur endi Movarounnahrdan tamoman umidini uzib, yana Kobulga qaytdi va 1526-yilga qadar Kobulni idora qildi. So'ngra Kobulni ikkinchi o'g'li Komron Mirzoga qoldirib, o'zi Hindiston sari yurish boshladi va u yerda 332 yil hukmronlik qilgan *Boburiylar saltanati* (1526-1858)ga asos soldi.

Buxoro xonligining tashkil topishi. Shayboniylar urf-odatiga ko'ra, vafot etgan xon o'rniga taxtga yoshi katta shayboniy o'tqazilgan. Shuning uchun ham Muhammad Shayboniyxonning o'limidan so'ng taxtga bevosita uning avlodlari emas, amakisi *Ko'chkunchi Sulton* (1510-1530, (Mirzo Ulug'bekning qizi Robiya Sultonbegim bilan Abulxayirxonlarning farzandi) o'tqazilgan. XVI asrning 40-yillaridan so'ng bu urf-odatga rioya etilmay qo'yilgan. Ko'chkunchixonidan so'ng esa taxtga uning o'g'li *Abu Said* (1530-1533) o'tirdi. Undan keyin esa hukmdorlik Shayboniyxonning ukasi Mahmud Sultonning o'g'li *Ubaydullaxon* (1533-1540) qo'lga o'tdi. Ubaydullaxon poytaxtni Samarqanddan Buxoroga ko'chirtirdi. Ubaydullaxon Buxoroga ota meros mulk deb qarar edi, chunki Shayboniyxon hayotligidayoq Buxoro hokimligini ukasi Mahmud Sulton (Ubaydullaxonning otasi)ga bergan edi. Shu tariqa, shayboniylarning Movarounnahrda tashkil etgan davlati endilikda rasmiy ravishda Buxoro xonligi deb ataladigan bo'ldi.

Ubaydullaxon o'z davlatining chegarasini Shayboniyxon davridagi sarhadlarda qayta tiklashga harakat qildi. U Hirotni ishg'ol etgan Eron qo'shinini bir necha marta

magʻlubiyatga uchratgan edi. Ayni paytda, u mamlakat ichkarisidagi oʻzaro kurash va tarqoqlikka barham berdi.

Ubaydullaxon vafot etgach esa ichki ziddiyatlar yana kuchaydi. Hokimiyat uchun qattiq kurashlar boshlandi. Shayboniyxon avlodlarining har biri toj-taxtga daʼvogar edilar. Ularning har biri oʻz ota merosi boʻlgan hududlarda mustaqillikka intilar, imkoni boʻlsa, xonlik taxtini egallash ishtiyoqida edilar.

Buning natijasida, Koʻchkunchixonning oʻgʻli Abdullaxon I ning qisqa vaqt hukmdorligidan soʻng mamlakatda qoʻshhokimiyatchilik vujudga keldi. Yaʼni bir davlatda ikki hukmdor paydo boʻldi.

Biri – Ubaydullaxonning oʻgʻli Abdulazizxon Buxoroda, ikkinchisi – Koʻchkunchixonning oʻgʻli Abdulatifxon Samarqandda hukmdorlik qila boshladilar. Mamlakat bir necha mustaqil hokimliklarga boʻlinib ketdi.

Mamlakatdagi parokandalikka chek qoʻyish uchun markaziy hokimiyatni yana tiklash va kuchaytirish zarur edi. Bu zaruriyatni urushsiz amalga oshirib boʻlmas edi. Ana shunday sharoitda kurash maydoniga Miyonqol hokimi Iskandar Sultonning oʻgʻli *Abdullaxon II* (1534-1598) chiqdi.

1556-yili Muhammad Islomning koʻmagida Abdullaxon II Buxoro taxtini egallaydi. Toʻgʻri, 1557-1561-yillarda amakisi *Pirmuhammadxon*, 1561-1583-yillarda otasi *Iskandarxon* oliy xukmdor deb eʼlon qilingan boʻlsada, amalda xukmdor Abdullaxon II edi.

Abdullaxon II siyosiy tarqoqlikka qarshi uzoq yillar urush olib borib, 1573-yilda Fargʻonani, 1574-yilda Shahrisabz, Qarshi, Hisor viloyatlarini, 1578-yilda Samarqandni, 1582-yilda Toshkent, Shohruhiya, Ohangaron va Sayramni, 1583-yilda Balxni, 1584-yilda Badaxshonni, 1588-yilda Hirotni, 1595-yilda Xorazmni zabt etib, mamlakatni birlashtirish ishini uddaladi. Uning davlati sarhadlari janubda Hirotdan Mashhadgacha, shimolda Orol dengizigacha, Kaspiy dengizidan Issiqkoʻlgacha yetdi. Butun Movarounnahr, Xorazm va Xuroson yana yagona hukmdor qoʻli ostida birlashtirildi. XVI asr oxirlariga kelib Buxoro xonligi nisbatan markazlashgan ulkan davlatga aylandi.

Rossiyada bu davlatga nisbatan „Velikaya Buxariya“ (Buyuk Buxoro) iborasi qoʻllangan edi.

Shunday qilib, XVI asrdagi davlatchiligimiz tarixida yetakchi sulola – shayboniylar sulolasi boʻldi. Sulolaning eng qudratli vakili Abdullaxon II davrida esa oʻzbek davlatchiligi oʻz tarixida yana bir bor yuksak darajaga koʻtarila oldi.

Abdullaxon II 1598-yilda vafot etgach, taxtni uning oʻgʻli *Abdulmoʻmin* (1598-1599) egalladi. Biroq koʻp oʻtmay Abdulmoʻmin fitnachilar tomonidan oʻldirildi. Taxt uchun kurash yakunida Abdullaxon II ning amakivachchasi *Pirmuhammad* (1599-1601) taxtga oʻtqazildi.

Ichki nizolar tufayli Buxoro xonligida sodir bo'lgan og'ir vaziyatdan foydalangan Eron hukmdori shoh Abbos bostirib kirib, Nishopur, Sabzavor, Mashhad, Hirotni egallaydi. Xorazm esa xonlik tasarrufidan chiqib, davlat mustaqilligini tiklab oldi. Ayni paytda, qozoq xoni Tavakkal Movarounnahrqa qo'shin tortib, Axxi, Andijon, Toshkent, Samarqandni egallab, Buxoroga yurish qildi. Pirmuhammadxon qo'shini 1599-yilda Tavakkal qo'shinini tor-mor keltirdi va Movarounnahr hududini ozod etdi. Qozoqlar qo'shini Dashti Qipchoqqa chekindi.

Pirmuhammad Buxoro xonligini yana ikki yilcha idora qildi. 1601-yilda Pirmuhammad va kelib chiqishi ashtarxoniylardan bo'lgan Boqi Muhammad o'rtasida qonli to'qnashuv yuz beradi. Mag'lub bo'lgan Pirmuhammad o'ldirildi. Shunday qilib Abdullaxon II vafotidan atigi 3 yil o'tgach bir asr davom etgan shayboniylar sulolasi hukmronligi barham topdi.

Shayboniylar davrida davlat boshqaruvi. Buxoro xonligi ma'muriy jihatdan viloyatlar va tumanlarga bo'lingan. Xonlikda oliy davlat idorasi *dargoh* deb atalgan. Uning tepasida xon turgan. Ijro etuvchi hokimiyat *devon* (vazirlik) deb atalgan. Unga *devonbegi* (bosh vazir) rahbarlik qilgan. Katta nufuzga ega bo'lgan devonbegi ayni paytda davlatning moliya va xo'jalik ishlarini ham boshqargan.

Yana bir katta davlat mansabi – *otaliq* edi. Xon siyosatining viloyatlardagi ta'siri otaliq mansabiga tayinlanganlarning nufuzi bilan belgilangan. Xon viloyatlarni shahzodalarga taqsimlab berar ekan, ularga rahnamo etib o'z nazoratchisini, ishongan kishisini tayinlagan. Bunday nazoratchi, ishonchli shaxs *otaliq* deb atalgan. Balog'atga yetmagan shahzodalar ulg'ayib, mustaqil faoliyat yuritgunlariga qadar viloyatlardagi davlat ishlarini uning nomidan otaliqlar boshqargan.

Yana bir davlat mansabi – *parvonachi* deb atalgan. Uning vazifasi xon farmonlarini, rasmiy hujjatlarni mas'ul shaxslarga, ijrochilarga yetkazishdan iborat bo'lgan.

Dodxoh mansabida ishlagan amaldor dargohga tushgan arizalarni qabul qilgan va ularga javob qaytargan. Shuningdek, dodhoh mamlakatda adolat mezonlariga amal qilinishini ham nazorat qilgan.

Muhim davlat mansablaridan yana biri – *ko'kaldosh* mansabi edi. Bu mansabga xon sulolasiga eng yaqin shaxslardangina tayinlangan. Ko'kaldosh xon siyosatiga fuqarolarning munosabatini o'rgangan va bu siyosatning daxlsizligini ta'minlagan.

Xon va shahzodalar o'rtasidagi ichki munosabatlar masalasi bilan *xon yasovuli* mansabida ishlagan amaldor shug'ullangan.

Shayboniylar davlatida *eshikog'aboshi* lavozimi ham muhim sanalgan. U dargoh xavfsizligi, undagi tartib hamda kelgan-ketganlardan xabardor bo'lib turish masalalari bilan shug'ullangan.

Yuqori davlat lavozimlari ichida katta mavqega ega bo'lgan lavozimlardan yana biri *shayxulislom* hisoblangan. Shayxulislom shariat qonunlari bajarilishi ustidan

nazoratni amalga oshirgan.

Qozikalon bo'lgan amaldor esa sud ishlariga yetakchilik qilgan.

Yana bir muhim davlat lavozimi *muhtasib* (rais) deb atalgan. Bu lavozimni egallagan amaldor mamlakatda jamoat tartibining saqlanishini, diniy marosim va amallarga rioya qilinishini kuzatgan, bozorlarda narx-navo va tarozilarning to'g'riligini nazorat qilish bilan shug'ullangan.

Mehtar lavozimiga tayinlangan mansabdor esa zakot va boshqa tushumlardan tushgan mablag'larni zarur o'rinlarda ishlatishni nazorat qiluvchi amaldor hisoblangan.

Xonlikda davlat lavozimi mansabdori hisoblanmasa-da, *naqib* unvoniga sazovor bo'lgan shaxsning xon saroyida nufuzi baland bo'lgan. Chunonchi, u xonning yaqin va ishonchli kishisi sanalgan. Ayni paytda, u davlat ichki va tashqi siyosati masalalarida xonning maslahatchisi ham hisoblangan. Zarur bo'lganda elchilik vazifasini ham bajargan.

Shayboniylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Shayboniyxon davlatni iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustahkamlash yo'lida quyidagi islohotlar o'tkazdi:

-Davlat boshqaruvida *suyurg'ol tizimini* joriy etdi. Ya'ni zabt etilgan hududlarni boshqarish ishini o'z farzandlariga, qarindosh-urug'lariga, birodarlariga topshirdi;

-Mamlakatda yer-suv qaytadan taqsim qilindi. Ko'chmanchi qabila zodagonlari yengilgan mahalliy mulkdorlar mol-mulkini musodara qilish, sotish, egasiz qolgan yerlarni o'zlariniki qilib olish yo'li bilan mulklarini ko'paytirib oldilar;

-Mamlakat ichida ijtimoiy hayotni tartibga solishga imkon beruvchi islohot ham o'tkazildi. Keyingi 10 yil ichida soliqlar og'irligidan va mulkdorlar jabr-zulmidan yer-suvlarini tashlab ketgan xo'jaliklar yerlarini ishga tushirish masalasi ko'rib chiqildi;

-Sayboniyxon, Ko'chkunchixon va Abdullaxon II lar davrida pul islohotlari o'tkazildi. Bu hol, o'z navbatida, hokimiyatning yanada markazlashuviga, xazinaga katta daromad tushishiga olib keldi, savdo-sotiq yanada jonlandi.

Iqtisodiy hayot. Shayboniylar davrida ham iqtisodiy hayotda sun'iy sug'orish bilan bog'liq muammolarni hal etish ishiga jiddiy e'tibor bilan qaralgan. Bu sulola vakillari Sangzor, Chirchiq, Sirdaryo, Amudaryo, Vaxsh va Murg'ob daryolari imkoniyatlaridan unumli foydalanish choralarini ko'rganlar.

Shayboniyxon avlodlari keyinchalik Qashqadaryoning irmoqlaridan Kesh viloyati yerlarini sug'orish uchun 10 dan ortiq kanallar qazitganlar.

Sun'iy sug'orish ishlari, ayniqsa, Abdullaxon II davrida keng rivojlangan. Masalan, 1556-1585-yillar oralig'ida Zarafshon daryosida Karmana, Mehtar Qosim, Chahorminor, Jondor suv ayirg'ichlari; Nurota tog'ida Oqchob, Murg'ob vohasida Hovuzixon suv omborlari qurilgan. Bundan tashqari, Sangzor daryosidan Jizzax vohasiga Tuyatortar kanali, Somonjuq dashtini obodonlashtirishga xizmat qilgan

Xoja Ka'ab kanali, Afshona kanali, Amudaryodan Chorjo'yga, Murg'obdan Marvga, Vaxshdan uning atrof vohalariga suv chiqarishga imkon beruvchi kanallar qazilgan.

Bundan tashqari, Abdullaxon II karvon yo'llarini qayta jonlantirish, sardobalar, karvonsaroylar qurish va ta'mirlashga ahamiyat berdi. 1577-yilda Buxoroda yirik usti berk bozor – Abdullaxon timi qurildi. Nurota tumanidagi Oqchob yaqinida Beklarsoy darasida joylashgan qadimgi to'g'on qoldiqlari o'rnida ulkan band (to'g'on) qurdirdi. Abdullaxon bandi uning ravoqlarini to'g'on tepasida turib ochishi yoki berkitishi mumkin edi. Maqsad esa o'sha atrofdagi bo'z yerlarni sug'orib, dehqonchilikni rivojlantirish va yurtni obod qilish edi.

Bu tadbirlar, o'z navbatida, qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishini ta'minlagan.

Shayboniylar davrida ishlab chiqarish tarmoqlari bo'lgan tikuvchilik, kulolchilik, temirchilik, qurolsozlik, zargarlik, qog'oz va qurilish ashyolarini ishlab chiqarish rivojlangan.

Ashtarxoniylar davrida davlat boshqaruvi. Ashtarxoniylar davrida davlat tizimi va boshqaruvi o'z tuzilishi, mohiyati jihatidan shayboniylar davridagidan deyarli farq qilmas edi. Davlatning ichki va tashqi siyosatiga doir masalalar rasman oliy hokimiyat boshlig'i – Xon ixtiyori bilan hal qilinardi.

Devonbegi xondan keyingi shaxs bo'lgan. Ashtarxoniylar davrida saroy qutvoli davlat lavozimi joriy etilib, u davlat mablag'i hisobiga amalga oshiriladigan qurilish, suv inshootlan barpo etish va obodonchilik ishlarini boshqargan.

Buxoro xonligi ma'muriy jihatdan viloyatlarga, viloyatlar tumanlarga bo'linib boshqarilgan. Viloyat hokimlari xon tomonidan tayinlangan. Eng yuqori davlat lavozimlariga qudratli o'zbek qabilalarining boshliqlari tayinlangan. Bu esa mazkur qabilalarning xonlikdagi mavqeyini yanada kuchaytirgan. Harbiy sohada doimiy qo'shin, markaziy harbiy qo'mondonlikning yo'qligi, qo'shinning zamonaviy qurol-yarog'lar bilan ta'minlanmaganligi Buxoro xonligining harbiy jihatdan o'ta zaiflashuviga olib kelgan.

Yer egaligi munosabatlari. Ashtarxoniylar davrida yerga egalik qilishning mulki sultoniy, xususiy mulk, vaqf yerlari shakllari mavjud edi.

Mulki sultoniy davlat yerlari hisoblanib, undan keladigan daromad xon xazinasiga kelib tushardi. Davlat yerlaridan o'sha joylarda yashagan dehqonlar foydalangan, ular yerni ishlatib, olingan hosildan xiroj solig'i to'laganlar.

Xon davlat tasarrufidagi yerlarni, aholi yashaydigan qishloqlarni shahzodalarga, yirik din ulamolari va sayyidlarga *suyurg'ol* shaklida, harbiy qism boshliqlari va saroy amaldorlariga *tanho* shaklida in'om qilardi.

Suyurg'ol qilingan katta yer egalari xon xazinasiga soliq to'lmas edi. Tanho shaklida in'om qilingan yerlar tanhodorning xususiy mulki bo'lmagan. Bu o'rinda tanhodor o'sha yerlarda ishlayotgan dehqonlardan soliq yig'ib olish huquqiga ega

bo'lgan. Xon ayrim shaxslarga hukmdorga ko'rsatgan alohida xizmatlari uchun ham yer-mulklar in'om etardi. Bunday mulklar soliqlardan ozod qilinardi va shu boisdan ular "*Mulki hurri xolis*" deb atalardi.

Diniy mahkamalarga mulki sultoniy hisobidan berilgan yerlar, masjidlar, xonaqohlar, qabristonlar *vaqf mulki* hisoblanardi. Vaqf mulkidan ham soliq olinmas edi.

Barcha mulk shakllarida yersiz kambag'al dehqonlar ijara hisobiga mehnat qilganlar.

Dehqonchilik va chorvachilik. Sug'oriladigan yerlarda bug'doy, arpa, jo'xori, loviya, mosh, sholi, paxta, sabzavot va poliz ekinlari ekilgan. Dasht va tog'oldi lalmi yerlarda ham boshqoqli ekinlar, kunjut, tarvuz, qovun ekilib, dehqonchilik qilingan.

Qabila boshliqlari va amirlar o'rtasidagi ichki kurashlar mamlakat iqtisodiy hayotini, aholining moddiy turmushini ayanchli ahvolga tushirdi.

Dehqonchilik mamlakat iqtisodining butunlay inqirozga tushib qolishidan saqlab turgan asosiy omil bo'lib, aholining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qilgan. Imomqulixon davrida, 1614-1615-yillarda Qashqadaryodan Qarshi cho'liga, 1633-1634-yillarda Qo'shqo'rg'onda kanal chiqarilib, vohalarga suv chiqarilgan. Biroq, ashtarxoniylar davrida suv inshootlari qurilishiga yetarli e'tibor berilmadi.

Chorvachilik ham qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i bo'lgan.

Hunarmandchilik va savdo. Hunarmandchilik mahsulotlari, asosan, shaharlarda, yirik qishloqlarda yetishtirilardi. Hunarmandchilikning *to'qimachilik* tarmog'ida ip yigirish, gazlamalar tayyorlash, kiyimlar tikish, gilam to'qish, kashtachilik rivojlandi.

Hunarmandchilikning kulolchilik tarmog'i ham rivoj topadi. O'lkada sog' tuproq manbalarining ko'pligi sopol va chinni idishlar, ko'za, kosa va boshqa tayyor kulolchilik mahsulotlari tayyorlashga imkoniyat berardi.

Metall va yog'ochga ishlov berish orqali uy-ro'zg'or buyumlari tayyorlash, binolar qurilishida *yog'och va ganch o'ymakorligi* kabi hunarmandchilik tarmog'i ham ancha o'sdi.

Buxoro va Samarqandda yuqori sifatli yozuv qog'ozi ishlab chiqarish, tog'li hududlardan nodir metallar, kaliy qazib olish ham yo'lga qo'yilgan.

XVII-XVIII asrlarning birinchi yarmida *savdo-sotiq* ishlari ham bir qadar o'sib bordi. Savdo-sotiq ishlarida Buxoro Samarqand, Qarshi, Toshkent, Balx va boshqa yirik sharlarning mavqeyi baland edi. Ichki savdoda dehqonchilik chorvachilik mahsulotlariga, hunarmandchilik buyumlariga ehtiyoj kattaligi sababli bozorlar gavjum bo'lardi.

Tashqi savdo ham to'xtab qolmadi. Rossiya, Xitoy, Hindiston, Eron, Qashqar, Turkiya mamlakatlariga paxta, teri, jun turli matolar va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari chiqarilardi. Buxorolik savdogarlarning Sibir shaharlarida o'z savdo

rastalari bo'lgan. Xitoydan shoyi matolar, chinni idishlar, dori darmon, choy, Hindistondan qimmatbaho toshlar, matolar, oltin iplar olib kelib sotilgan.

Yer mulkchilik shakllari. Buxoro davlatida yer-suv mulkchiligining uch shakli mavjud edi: 1) davlat yerlari (bu amlok yerlar deb ham atalgan); 2) mulk yerlari (xususiy); 3) vaqf yerlari.

Davlat yerlarining suvsiz dasht, to'qayzor qismi ko'chmanchi jamoalarga bo'lib berilgan bo'lib, ular bu yerlardan foydalanganliklari uchun davlatga xiroj to'lar edilar. Bunday yerlar sotilmasdi va ayirboshlanmasdi. Davlat yerlarining boshqa hir qismi hukmron sulola a'zolariga, yirik davlat mansabdorlariga, lashkarboshilariga davlat oldidagi xizmatlari evaziga suyurg'ol shaklida in'om etilgan edi. Suyurg'ol olganlar u yerni boshqarish huquqini ham olganlar. Suyurg'ol egasi davlat xazinasiga xiroj to'lashi hamda oliy hukmdorning chaqirig'iga ko'ra, o'z qo'shini bilan harbiy yurishlarda ishtirok etishi lozim edi.

XVI asrdan boshlab davlat yerlarini „tanho“ deb nom olgan shaklda in'om etish qaror topa borgan. Bunday in'omga sazovor bo'lgan kishi yerga emas, mansabining darajasiga qarab shu yerdan olinadigan soliqning ma'lum qismiga egalik qilgan. XIX asrda ham amirlikda tanholarning soni tobora ortib borgan. Eng kichik tanho yeri 3-5 gektarni tashkil etgan.

Davlat yerlarining yana bir qismi dehqonlarga ijaraga berilgan. Xazinaga eng ko'p soliq ham ana shu yerlardan tushar edi.

Xususiy yerlar (mulk)ning bir qismi xususiy shaxslarning yerlari bo'lib, ularning bu yerlarga egalik qilishlari davlat xizmati bilan bog'liq bo'lmagan. *Bunday yerlar, asosan, amirlikda asrlar osha yashab kelayotgan arablarga qarashli bo'lgan.* Bu yerlardan 1/10 qismi miqdorida o'lpon to'lanardi. Mulk yerlarining ikkinchi qismi (mulki hur yoki mulki hurri xolis) davlat xizmati bilan bog'liq bo'lib, bunday yerlar urushlarda jasorat ko'rsatgan yoki hukmdorning alohida topshiriqlarini bajarishda namuna ko'rsatgan shaxslarga berish natijasida vujudga kelgan. Bunday yerga ega bo'lgan shaxslarga maxsus yorliqlar berilgan hamda ular barcha soliqlardan ozod etilgan.

Vaqf yerlari – bu masjid, mozor, xonaqoh, madrasa va maqbaralar uchun ajratilgan yerlar edi. Bunday yerlar musodara etilgan, davlat hamda yirik yer egalari tomonidan hadya etilgan yerlar hisobiga vujudga keltirilgan edi. Masjid, madrasa, qabristonlarning asosiy sarf-xarajatlari, shuningdek, talabyu, mudarris hamda mutavallilarga beriladigan nafaqa va maoshlar vaqf yerlaridan olinadigan daromad hisobidan qoplanar edi. Vaqf mulkini mutavalli tasarruf etishi belgilab qo'yilgan edi.

Soliq tizimi va majburiyatlar. Amirlikda asosiy soliq *xiroj* deb atalgan U hosil ulushidan, asosan, mahsulot bilan to'lanardi. XIX asrda xirojning bir qismi pul bilan ham yig'iladigan bo'lgan. To'lanadigan xiroj miqdorini aniqlashda amlokdor o'z

odamlari bilan dehqonchilik dalasiga chiqib, qishloq oqsoqoli ishtirokida hosil miqdorini ko'z bilan chamalab aniqlab chiqqan.

Xirojdan tashqari bog', poliz, ekilgan yerlardan *tanobona* deb atalgan soliq ham olingan. Bu soliqning miqdori ekinzoming bozorga uzoq-yaqinligiga qarab belgilangan.

Keyinchalik polizlarga yangi soliq – *qo'sh puli* solinadigan bo'ldi. Uning miqdori yer haydashga yaroqli har bir juft ho'kiz hisobidan kelib chiqib belgilangan.

Soliq tizimi orasida *zakot* deb atalgan soliq ham bo'lgan. Uning miqdori soliq solinadigan narsa qiymatining 2,5% ini tashkil etgan.

Zakot solig'iga, asosan, chorva mollari egalari va savdogarlar tortilgan.

Tanobona, zakot, qo'sh puli soliqlari esa faqat pul shaklida olingan.

Kanallar, inshoot, qal'a, ko'priklar, yo'llar ta'miri hashar yo'li bilan amalga oshirilgan. Boshda hasharchilar oziq-ovqat bilan ta'minlangan. XVIII asrdan boshlab hasharga keluvchilar oziq-ovqati, ish asboblari, ot-aravasi bilan kelishi lozim bo'lgan.

Davlat tuzumi va boshqaruv tizimi. Xonlik mutlaq monarxiya bo'lib, oliy hukmdor - xon davlat boshligi edi. Ma'muriy jihatdan xonlik hududi 15 ta viloyatga (Pitnak, Hazorasp, Xonqa, Urganch, Qo'shko'pir, G'azovat, Qiyot, Shohabbos, Toshhovuz, Ambar-Manoq, Gurlan, Ko'hna Urganch, Xo'jayli, Chumanoy va Qo'ng'iroq) va 2 ta noiblikka bo'lingan. Viloyatlar shahar va masjid qavmlarini (qismlarni) o'z ichiga olgan. Masjid qavmlari obro'li oqsoqollar, qozilar va miroblar tomonidan boshqarilgan.

Davlat boshlig'i – xon hokimiyati vakolati nasldan naslga o'tgan. Muhammad Rahimxon I o'z hukmdorligi davrida davlat boshqaruvi tizimida islohot o'lkazgan. Unga ko'ra xon huzurida yuqori ma'muriy organ – Oliy Kengash ta'sis etilgan. Oliy Kengash davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati vazifasini bajargan. Oliy Kengashga xonning o'zi rahbarlik qilgan. Oliy Kengash ishida xonning yaqin qarindoshlari, mehtar, qo'shbegi, devonbegi, naqib, shayxulislom, bosh qozi, inoq, otaliq va biylar qatnashganlar. Oliy Kengash majlisi haftada bir marta o'tkazilgan va unda davlatning ichki va tashqi siyosatiga oid eng muhim masalalar muhokama etilgan.

Ayni paytda, xonlik hayotiga oid kundalik masalalarni hal etish uchun Kichik Kengash ham ta'sis etilgan. Bu kengash ishida xondan tashqari mehtar, qo'shbegi, devonbegi, naqib va shayxulislom qatnashganlar.

Xonlikda mehtar bosh vazir hisoblangan. U xon safarga chiqqan paytlarda xonlikni idora qilgan. Mehtar va qo'shbegi mamlakat miqyosida soliqlar yig'ilishiga javobgar bo'lganlar.

Xonlikda 3 ta devon (vazirlik) ham faoliyat ko'rsatgan. Bular xo'jalik, ijtimoiy-siyosiy va harbiy ishlar bilan shug'ullanuvchi devonlar edi. Ularning faoliyatiga

devonbegi rahbarlik qilgan. Xonlikning qo‘shiniga yasovulboshi qo‘mondonlik qilgan.

Xonlik tarkibidagi qozoq va qoraqalpoqlar esa o‘zlarining biylari, turkmanlar esa ularning vakili tomonidan boshqarilgan. Ularning lavozimlari nasldan naslga meros bo‘lib o‘tsa-da, nomzodini xon tasdiqlashi shart bo‘lgan.

Yer egaligi. Xonlikning asosiy boyligi yer hisoblanardi. Bu yerlar sug‘oriladigan (axya) va sug‘orilmaydigan (adra) yerlardan iborat edi. Egalik shakliga ko‘ra, Xiva xonligining yerlari ham uchga bo‘lingan:

1. Davlat yerlari (podshohi).
2. Xususiy mulk (xususiy yerlar).
3. Vaqf yerlari.

Xon va uning qarindoshlari, oliy martabali boshqa turli amaldorlar, ruhoniylar, savdo-sotiq tabaqalari barcha yerlarning deyarli yarmiga egalik qilishgan. Amaldorlarning yerlari 2-3 ming tanobni tashkil etgan. Xon va uning qarindoshlari undan ham katta hajmdagi yer maydonlariga egalik qilishgan. Qolgan yerlar davlat ixtiyoriga olingan (vaqf yerlaridan tashqari). Davlat yerlarida va xususiy mulk yerlarida ijarachi dehqonlar mehnat qilganlar.

Davlat yerini ijaraga oluvchilar *bevdan*, xususiy yerlarni ijaraga oluvchilar *koranda*, vaqf yerlarini ijaraga oluvchilar esa *vaqfchi* deb atalgan.

Xonning qarindoshlari o‘z xususiy yerlaridan davlatga soliq to‘lamas edilar. Davlat soliqlaridan ruhoniylar, katta amaldorlar, tarxon yer olganlar ham ozod etilgan edilar. Biroq soliqni bu yerlarda ishlovchi ijaradorlar, ya‘ni mehnatkashlar to‘lashgan.

Suv tanqisligi tufayli dehqonchilik qiyin sharoitda olib borilardi. Shu bois Amudaryodan suv chiqarishga e‘tibor berildi. XVIII asrning 70-yillarida Davkor ko‘li yonida kanal, XIX asr boshlarida esa Lavzan, Qilich Niyozbiy, Katta Xonobod kanallari qurildi. Bu tadbirlar yerlarni sug‘orish holatini yaxshilashga ko‘maklashdi.

Qishloq xo‘jaligi. Xonlik aholisi, asosan, qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullangan. Dehqonchilik va u bilan bog‘liq bo‘lgan chorvachilik qishloq xo‘jaligining ikki asosiy sohasi edi.

Dehqonchilikda g‘alla, paxta va poliz mahsulotlari yetishtirish yetakchi o‘rin egallagan. Ekinzorlarning yarmidan ortig‘ida g‘alla yetishtirilgan. G‘allachilikda kuzgi bug‘doy ekish yetakchi o‘rin egallagan. Dehqonlarning don ekinlaridan mo‘l hosil olishlariga hatto chet elliklarning ham tan berganligiga tarix guvoh.

Chunonchi, Xivaga kelgan yevropalik sayyohlardan biri aytgan quyidagi so‘zlar manbalarda saqlanib qolgan: “*Men Germaniyaning o‘zida dalada ishlovchilarning Xivadagidek mirishkorligini ko‘rmaganman*“. Don ekinlari ichida jo‘xori ekish bug‘doydan keyin ikkinchi o‘rinda turgan. Sholi esa, asosan, suv ko‘p hududlarda yetishtirilgan. Ekinzorlarning 1/5 qismida paxta yetishtirilgan.

Soliq va majburiyatlar. Barcha davlatlarda bo'lganidek, Xiva xonligida ham aholi to'laydigan soliqlar va ular o'taydigan majburiyatlar belgilab qo'yilgan edi. Xonlikda asosiy soliq *salg'ut*, ya'ni yer soligi hisoblangan.

Hunarmandlar, tashqi savdo bilan shug'ullanuvchi savdogarlar, chorvadorlar zakot to'lashgan.

Bundan tashqari, mehnatkash xalq quyidagi bir qancha majburiyatlarni ham o'taganlar:

1. *Begar* – rasman 12 kunlik davlat majburiyati; unga ko'ra, qishloqning har bir xonadonidan bir kishidan odamlarni to'plashardi. Ular har yili turli qurilish ishlarida, kanal qazishda, yo'llarni tuzatishda, turli binolar qurilishida ishlar edilar.
2. *Qazu* – butun qishloq aholisini katta va kichik kanallarni tozalashga safarbar etish majburiyati.
3. *Ichki va obxo'ra qazu* – har yili kanallarning suv taqsimlagichini tozalash majburiyati.
4. *Hachi* – himoya dambalari qurish va ularni mustahkamlashda qatnashish majburiyati.

Hunarmandchilik. XVIII asr ikkinchi yarmi va XIX asr birinchi yarmida ham avvalgi asrlarda mavjud bo'lgan hunarmandchilikning har xil turlari yanada rivojlandi.

Me'morchilikning yuksalishi kulolchilikda ham o'z ifodasini topdi. Kulollar faqat alohida-alohida buyumlar tayyorlabgina qolmasdan, bir necha yuzlab lagan, tovoq va kosalardan iborat butun bir to'y marosimini o'tkazishga yetadigan to'y majmualarini ham tayyorlaganlar. Alohida tantanalar uchun maxsus to'y va podshoyi tovoqlar ham tayyorlangan.

XIX asrning 30-40-yillariga oid manbalarda Xivada zargarlik yetakchi hunarlar qatorida tilga olingan. Xivaning bosh taqinchogi – jig'a Markaziy Osiyoning boshqa mintaqalariga ham keng tarqalgan. Isirg'alar feruza va marjonlar, bilaguzuklar esa toshlar bilan bezatilgan.

XIX asrda Xiva yog'och o'ymakorligi maktabi xonlikda oldingi o'rinda turardi. U o'z badiiy yuksakligi bilan ajralib turardi. Bu o'rinda Olloqulixon saroyidagi Toshhovli ayvon ustunlari majmuyi o'zining ko'rkamligi bilan ajralib turadi.

XIX asr o'rtalarida o'ymakori eshik va ustunlar ustasi Polvon Abdusattor o'glining nomi ayniqsa shuhrat qozondi.

Xiva shahri, ayni paytda, XX asr boshlarigacha xonlikda yagona shoyi to'qish markazi bo'lib qoldi.

XIX asrda Xivada matoga gul bosish san'ati o'zining kulrang uyg'unligi va mayda gullari bilan Markaziy Osiyoning boshqa gul bosish markazlaridan farq qilib turgan.

Ichki va tashqi savdo. Xonlikning ichki va tashqi savdosidan davlat xazinasiga durustgina daromad tushgan. Ichki savdo-sotiqda Xivaning usti yopiq bozori alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Bozor yo'lining ikki tarafiga ustaxona-do'konlar qurilgan.

Bozordagi savdo o'rinlaridan foydalanganlik uchun *tagjoy* deb ataluvchi alohida soliq olingan.

Xonlikdan, asosan, qorako'l teri, gilam, hunarmandchilik mahsulotlari Eron, Hindiston, Xitoy va Turkiya kabi davlatlarga eksport qilingan.

XVI asr oxirlaridan boshlab, Rossiya bilan ham savdo-sotiq birmuncha yo'lga qo'yila boshlandi. Xiva elchilari, asosan, gazlama va to'qilgan buyumlar olib borishgan. Chunonchi, Xiva elchisi 1620-yilda Qozon shahrida 670 kiyimlik mato sotganligi manbalarda qayd etilgan. Rossiyaga gilam, qoqi meva, qorako'l terisi, o'simliklardan tayyorlangan bo'yoqlar ham olib borilgan.

Xiva savdogarlari Rossiyaning Nijniy Novgorod yarmarkasida faol qatnasha boshlaganlar.

Ilm-fan. XVI-XVIII asrning birinchi yarmi Xiva xonligida ilm-fan taraqqiyoti butunlay to'xtab qolgani yo'q. Bu davrda tarix ilmi o'ziga xos o'rinda turgan. Chunonchi, Xiva xoni Abulg'oziyxon Xiva tarixshunosligi maktabiga asos soldi.

Abulg'oziyxon fan va madaniyat tarixida „Shajarayi turk“ va „Shajarayi tarokima“ asarlari bilan o'chmas nom qoldirdi.

„Shajarayi turk“ asarining 9-bobi bevosita Xorazmning 1512-1663-yillardagi ijtimoiy-siyosiy tarixiga bag'ishlangan. Unda aniq tarixiy voqealar, turkiy xalqlar an'analari, Xiva va Buxoro munosabatlari jarayoni yoritilgan. Pul muomalasi haqida ma'lumotlar berilgan.

Abulg'oziyxonning yana bir katta xizmati shundan iboratki, u o'z asarlarini oddiy kitobxon uchun turkiy tilda yozgan. Shuning uchun ham ayrim olimlar uning asarlarini yangi o'zbek tili yozma yodgorligi, deb hisoblashadi.

Vengriyaning mashhur sharqshunosi X. Vamberi „*Abulg'oziyning „Shajarayi turk“i uchun butun dunyo undan minnatdor*“, deb yozgan edi. Bu asar bir necha asrlardan beri ko'plab tillarga tarjima qilib kelinmoqda.

Abulg'oziyxonning topshirig'i bilan „Dastur ul-amal“ asari ham yozilgan. Afsuski, bu asar muallifi hamon aniqlangan emas. Ushbu asarda Sohibqiron Amir Temurdan tortib Zahiriddin Muhammad Boburga qadar temuriylar shajarasi qisqacha sharhlangan. Har bir hukmdorga qo'lyozmaning bir bo'limi bag'ishlangan.

XVI asrda Xiva xonlari kutubxonalarida xattotlik, husnixat maktabi shakllandi. Mashhur xattot Hamadoniy 1556-yilda Eshmuhammadxonga „*Shohnoma*“ni miniaturalar uchun ochiq joy qoldirib ko'chirib berdi.

XVII-XVIII asrlarda Xivada Muhammad Yusuf Rojiiy, Bobojon Sanoiy, Muhammad Rizo Oxund kabi qator usta xattotlar yashab, mehnat qilganlar. Ular she'riy asarlar, tarjima va tarixiy kitoblarni ko'chirganlar. Har bir kitobni bezashda

bir necha soha ustalari ishtirok etgan. Bular – *qog‘oz qirquvchi, kotib-xattot, muzahhib, lavvohlar, miniaturachi rassom va sahhoftar* edilar.

Me‘morchilik. XVIII asr oxirida Muhammad Amin hukmronligi davridan boshlab birmuncha siyosiy barqarorlik o‘rnatildi. Bu omil Xiva shahrining holatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. Chunonchi, 1782-yilga kelib Xiva shahrida qayta tiklash ishlari tugallandi.

Qayta tiklash ishlaridan tashqari yangi me‘moriy obidalar ham qurildi. Masalan, 1765-yilda Sherg‘ozixon va Muhammad Amin madrasalari bunyod etildi.

XIX asr boshlarida Xiva xonligi poytaxti yirik qurilish maydoniga aylandi. Xon farmoyishi bilan karvonsaroy, usti yopiq bozor hamda 1834-yilda Olloqulixon madrasasi qurilishi tugallandi.

XIX asrda Xiva shahri bir-biridan devor bilan ajralib turadigan ikki qismga bo‘lingan. Ularning biri **Dishan qal‘a** – Tashqi shahar (qal‘a) deb, ikkinchisi esa **Ichan qal‘a** – Ichki shahar (qal‘a) deb atalgan.

Malumki, Sharqda shaharning ichki qismi, ya‘ni markazi Shahrison, tashqi qismi esa Rabod deb atalgan.

Ichan qal‘a. Ichan qal‘a bobolarimizdan qolgan Markaziy Osiyodagi yirik va noyob me‘moriy yodgorlikdir. Ichan qal‘a Xiva shahrining ichki qal‘a (Shahrison) qismidir.

Ichan qal‘a Dishan qal‘adan devor bilan ajralib turadi. Unga Bog‘cha, Polvon, Tosh va Ota deb nomlangan to‘rtta darvoza orqali kirilgan.

Xorazm o‘lkasi me‘morchiligining ajoyib obidalarini – madrasa, masjid, xon saroyi, ma‘muriy binolar, bosh maydon va minoralar Ichan qal‘ada joylashgan.

Muhammad Rahimxon, Olloqulixon va Muhammad Aminxon hukmronliklari davrida Ichan qal‘ada keng ko‘lamli bunyod korlik ishlari amalga oshirildi. Muhtasham saroy, madrasa va maqbaralar barpo etildi. Ko‘hna arkidagi saroy qurilishi tugallandi.

Muhammad Aminxon Ichan qal‘aning g‘arbiy qismidagi Ko‘hna ark yoniga Kalta Minor nomi bilan mashhur bo‘lgan minorani qurdirdi. Ichan qal‘ani bunyod etishda Xiva me‘morlari Markaziy Osiyoda qadimdan davom etib kelayotgan an‘ana – inshootlarni ro‘parama-ro‘para qurish usulidan foydalanishgan. Bu usul „qo‘sh“ deb ataladi.

Bundan tashqari, binolarni alohida ansambl holida qurish an‘analariga ham amal qilingan. Masalan, Polvon darvozasi oldidagi bir necha masjid, madrasa, hammom, toqi, karvonsaroy va xon saroyi ana shunday o‘ziga xos ansamblni tashkil etadi. Noyob me‘morchilik obidasi bo‘lgan Ichan qal‘a 1961-yilda me‘moriy yodgorlik sifatida alohida muhofazaga olingan va muzey-qo‘riqxonaga aylantirilgan. Uning maydoni 26 ga.ni tashkil etadi. Unda 54 ta tarixiy-me‘moriy obida joylashgan. 1969-

yildan muzey-qo‘riqxonasi Xiva „Ichan qal‘a muzey-qo‘riqxonasi“ deb ataladi. 1990-yilda Ichan qal‘a Butunjahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritildi.

Dishan qal‘a. Dishan qal‘a – Tashqi qal‘a Xiva shahrining rabod qismi hisoblanadi. Unda savdo va hunarmandchilik do‘konlari, mahallalar joylashgan. 1842-yilda Xiva xoni Olloqulixon Xiva shahrini tashqi dushmanlar hujumidan saqlash maqsadida shaharni uzunligi 6250 metr, balandligi 7-8 metr, qalinligi esa 5-6 metr bo‘lgan devor bilan o‘ratgan.

Ichan qal‘a 4 darvozali bo‘lsa, Dishan qal‘a 10 darvozali bo‘lgan.

XVI-XVII asrlarda Farg‘ona vodiysi Buxoro xonligi tarkibida edi. XVIII asr boshlarida Buxoro xonligi ichki kurashlar oqibatida zaiflashadi. Bunday vaziyatdan foydalangan jung‘orlar Farg‘ona vodiysiga tez-tez bostirib kirib, talon-taroj qila boshladilar. Vaziyat ichki kuchlarni birlashishga, mustaqil davlat tuzishga undamoqda edi. Dastlab 1710-yilda Chust yaqinidagi Chodak qishlog‘i xo‘jalar jamoasi o‘z mulklarini mustaqil deb e‘lon qildilar. Vodiydagi o‘zbeklarning *ming* urug‘i oqsoqollari yig‘ilishib, o‘z yo‘lboshchisi Shohruxbiy boshchiligida Buxoro xonligidan mustaqil davlat tuzishga qaror qilishgan. Shu tariqa 1710-yilda uchinchi xonlik – Qo‘qon xonligi tashkil topdi. Qo‘qon xonligida quyidagi xonlar ketma-ket hukmronlik qildilar:

Shohruxbiy (1710-1721), Abduraximbiy (1721-1733), Abdulkarimbiy (1733-1750), Abduraximxon (1750), Erdona (1751-1762), Bobobek* (1752-1753), Sulaymon* (1762-1763), Norbo‘tabek (1763-1798), Olimxon* (1798-1810), Umarxon (1810-1822), Muhammad Alixon* (1822-1842), Sheralixon* (1842-1845), Murod (1845), Xudoyorxon (1845-1858, 1863 may-iyin, 1865-1875), Mallaxon* (1858-1862), Shohmurodxon (1862-1863), Sulton Saidxon (1863-1865). (*Saroy fitnasi natijasida o‘ldirilgan xonlar).

Shohruxbiy davrida poytaxt Tepaço‘rg‘on qal‘asi edi. Xonlik tarkibiga dastlab Qo‘qon, Namangan, Marg‘ilon, Konibodom, Isfara va ularning atrofidagi qishloqlar kirgan. Shohruxbiyning o‘g‘li *Abdurahimbiy* davrida Xo‘jand, O‘ratepa viloyatlari qo‘shib olindi. U Shahrisabz ostonalariga qo‘shin tortib bordi va uning hokimi bilan Qo‘qonga tobelik haqida bitim tuzishga erishadi. Keyin 1732-yilda Samarqandni va Jizzaxni egallaydi. Abdurahimbiy Xo‘jandga qaytib kelgach, qattiq betob bo‘lib, vafot etadi. Qo‘qon xonligi taxtiga uning inisi *Abdulkarimbiy* o‘tiradi. U o‘z poytaxtini Tepaço‘rg‘ondan Qo‘qon shahriga ko‘chiradi. Shahar atroflni devor bilan o‘ratadi. *Abdulkarimbiy* davrida 1746 yil qalmoqlar Fargona vodiysiga hujum qilib, O‘sh, Andijon, Marg‘ilon shaharlarini egallab, Qo‘qonni qamal qilgan. Qo‘qonliklar yordamga kelgan O‘ratepa hokimi Fozilbiy qo‘shinlari bilan birgalikda ularni Farg‘ona vodiysidan quvib chiqarishgan. *Norbo‘tabiy* davrida Chust va Namangan beklarining mustaqillik uchun ko‘targan g‘alayonlari bostirilgan. Mamlakatda

sug'orish inshootlari barpo qilinadi, savdo va hunarmandchilik, qishloq xo'jaligi birmuncha rivoj topadi va nisbatan arzonchilik bo'ladi.

Norbo'tabiyning o'g'li *Olimbek* hukmronligi davrida Qo'qonning siyosiy mavqei yanada kuchaygan, harbiy islohot o'tkazilgan, Ohangaron vohasi, Toshkent, Chimkent va Sayram tobe etilgan, tashqi savdoga ham e'tibor kuchaytirilgan. 1805-yil davlat rasman Qo'qon xonligi deb e'lon qilinib, Olimbek «xon» unvonini olgan. *Olimxonning* markazlashgan kuchli davlat tuzish borasida qilayotgan harakatlari ayrim mansabparast zodagonlar guruhida norozilik kayfiyatlarini vujudga keltiradi. Natijada ular Olimxonning safardaligidan foydalanib 1810-yil Qo'qonda «Olimxon Toshkentda o'ldi», degan mish-mish tarqatishadi va uning ukasi Umarbekka toj kiygizadilar. Olimxon bundan xabar topib, Qo'qonga yo'l oladi, biroq u Oltiqush mavzeida otib o'ldirilgan.

Umarxon davrida xonlik hokimiyatini mustahkamlash va kengaytirish choralari ko'rilgan. 1815-yil Buxoro xonligiga qarashli Turkiston, 1817-yilda esa O'ratepa bosib olingan. Sirdaryo bo'yida bir qancha harbiy istehkomlar barpo etilgan; sug'orish inshootlarini kengaytirish, kanallar qazish, masjid va madrasalar qurishga e'tibor berilgan. Xususan, Qo'qon, Toshkent, Turkiston, Chimkent, Sayram, Avliyoota (hozirgi Jambul)da masjid va madrasalar qurilgan. Mozorlar tartibga solingan. Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligida fan, adabiyot, san'at nisbatan yuksalgan. Bunda uning sevimli xotini, mashhur o'zbek shoirasi *Nodirabegimning* xizmati katta bo'lgan. Umarxonning o'zi ham «Amiriy» tahallusi bilan o'zbek va tojik tillarida g'azallar yozgan. Umarxon vafotidan so'ng uning 12 yoshli o'gli *Muhammad Alixon* taxtga o'tirgan. Xon yosh bo'lganligi uchun davlatni dastlabki davrda onasi Nodirabegim boshqargan. Nodirabegim madaniyat va san'atni rivojlantirishga intilgan.

1826-yil Sharqiy Turkistonda Xitoylarga qarshi bosh ko'targan musulmon aholiga yordam berish uchun qo'shin tortib borilgan. Natijada Xitoy hukumati Sharqiy Turkistonning 6 ta shahri (Oqsuv, Qashqar, Yorkend, Xo'tan va b.) dan soliq olish huquqini Qo'qon xonligiga berishga majbur bo'lgan.

Muhammad Alixon xonlik hududini kengaytirishga intilib, Janubiy Olay tog' etagidagi Qorategin, Darvoz, Shug'non, Ro'shon, Vohon beklklarini bo'ysundirgan. Bu davrda xonlikda sug'orish ishlari ancha yo'lga qo'yilgan. Toshkent yaqinida Xonariq kanali qazilgan. Tashqi iqtisodiy-savdo aloqalari ham ancha yaxshilangan. 1840-yil Buxoro amiri Nasrullo bilan yuz bergan urushda Muhammad Alixon yengilib, Xo'jandni amir Nasrulloga topshirishga va o'zini uning noibi deb tan olishga majbur bo'lgan. Ammo Buxoro-Qo'qon munosabatlari bundan keyin ham keskinlashgan. Natijada 1841-yil noyabr oyida Muhammad Alixon o'z ukasi *Sulton Mahmud* foydasiga taxtdan voz kechgan. Bu voqeadan xabar topgan amir Nasrullo Qo'qonga bostirib kelib, uni talon-toroj qiladi. U shu qirg'in-barot davomida

Muhammad Alini, uning ukasi Sulton Mahmudxonni, onasi Nodirabegimni va boshqa yuqori mansabdorlarni qatl ettiradi. Amir farmoni bilan Qo‘qon xonligi Buxoro noibi tomonidan boshqarila boshlangan. Amir noibi Qo‘qon xonligi aholisiga og‘ir soliqlar yuklaydi. Natijada 1842-yil yozida qo‘qonliklar qo‘zg‘olon ko‘taradi, amir Nasrulloqa sodiq kishilarning ko‘pchiligini o‘ldiradilar va Norbo‘tabiyning ukasi Xojibekning o‘g‘li *Sheralini* xon qilib ko‘tarishadi. Buni eshitgan Buxoro amiri Qo‘qonga qo‘shin tortib o‘z hukmronligini qayta o‘rnatish uchun uni qamal qiladi. Biroq qamalning qirqinchi kuni Xiva xoni *Ollotsulixonning* Buxoro hududiga qilgan hujumi haqidagi xabarni eshitib, orqaga qaytishga majbur bo‘ladi. Natijada qo‘ldan ketgan ko‘pgina hududlar (Xo‘jand, Toshkent) yana Qo‘qon xonligi ixtiyorida qoladi.

1842-yilda *Sheralixonning* taxtga o‘tirishida ko‘makchi va xayrixoh bo‘lgan qipchoqlardan *Musulmonqul* mingboshi qilib tayinlanadi. Musulmonqul, asosan, harbiy ishlar bilan shug‘ullangan va xon qo‘shinlarining tarkibini ko‘proq qipchoq yigitlari bilan to‘ldirgan. Musulmonqul o‘z mavqeidan foydalanib, Sheralixonga o‘z ta‘sirini o‘tkazishga intilgan. Ammo xon bunga yo‘l qo‘ymaslikka intiladi. Musulmonqul xondan norozi bo‘lib, boshqalarning qo‘li bilan suiqasd uyushtirishga harakat qilgan. 1845-yil O‘shda xonning soliq siyosatiga qarshi qo‘zg‘olon boshlanadi. Musulmonqul qo‘zg‘olonni bostirishga ketganida, uning sheriklari Olimxonning o‘g‘li *Murodbekni* Qo‘qonga taklif qilib taxtga o‘tqazganlar. Sheralixon o‘ldirilgan. Taxtni saqlab qolish uchun *Murodxon* o‘zini Buxoro amirining noibi deb tan olishga majbur bo‘lgan. Musulmonqulni mingboshi lavozimida qolganligi haqida farmon chiqaradi va uning Qo‘qonga qaytishini talab qiladi. Musulmonqul esa O‘shdan Namanganga kelib qizini Sheralixonning o‘g‘li Xudoyorga turmushga beradi va u bilan Qo‘qonga kelib, Murodxonni o‘ldirib, yo‘sh Xudoyorni xon deb e‘lon qiladi. Musulmonqul xonning yoshligidan foydalanib xonlikni deyarli mustaqil ravishda o‘zi boshqaradi, katta lavozimlar qipchoqlarga ulashib beriladi. Natijada Musulmonqulga qarshi xonlik hududida norozilik harakati kuchaydi va u mingboshilikdan bo‘shatiladi. Musulmonqul o‘z mavqeini tiklamoqchi bo‘lib, ruslar bilan aloqa o‘rnatishga intiladi va ruslarning vakili *V.Vel’yaminov-Zernov bilan* 1853-yil bahorida maxfiy uchrashadi. Musulmonqulning rus qo‘mondoni vakili bilan uchrashgani va hokimiyatni o‘z qo‘liga olmoqchi bo‘lganligidan xabar topgan o‘zbek va qirg‘iz zodagonlari (Muhammad Niyoz Qushbegi, Muhammad Rajab Qo‘rboshi, Muhammad Yoqubbek qushbegi va b.) qipchoqlardan qutulish yo‘lini axtarib Xudoyorxonni o‘zlari tarafga og‘dirib, 1853-yil qipchoqlar qirg‘inini boshlab yuborishgan. Musulmonqul asirga olinib, qatl qilingan.

Biroq Qo‘qon xonligida o‘zaro taxt uchun kurashlar tinchimagan, yuqoridagi harbiy amaldorlar Xudoyorxonga qarshi fitna tayyorlaganlar, biroq u muvaffaqiyatsiz

chiqqan. Qisqa vaqt ichida xonlar bir necha marta almashgan (1858-1862-yillarda Sheralixonning o'g'li *Mallaxon*, 1862-1863-yilda Shohmurodxon, 1863-yil may-iyunda yana Xudoyorxon, 1863-yil iyul - 1865-yillarda Mallaxonning o'g'li Sulton Sayidxon xon bo'lgan).

1865-yil Qo'qonda qipchoq va qirg'izlar *Xudoyqulbek*ni tantanavor ravishda xon deb e'lon qiladilar. U atigi 14 kungina xonlik qiladi, so'ngra barcha xazinani va qimmatbaho narsalarni olib, Qashqarga qochib ketgan. Xudoyorxon hech qanday qarshiliksiz Qo'qon taxtini qayta egallagan (1865-1875).

Bunday beqaror ichki vaziyatdan foydalangan Rossiya Qo'qon xonligiga qarshi istilochilik harakatlarini boshlab yuborgan. Natijada 1853-1865-yillar davomida Oqmachit, To'qmoq, Pishpak, Avliyoota, Turkiston, Chimkent, Toshkentni va ularning atrof hududlarini bosib oladi. Rus bosqini tufayli Qo'qon xonligi chegaralari ancha qisqarib ketadi. Xazinaga tushadigan daromadlar keskin kamaydi. Xon xazinani to'ldirish uchun yangidan qo'shimcha soliqlar joriy etdi. Xalq bundan norozi bo'lib 1871-yil So'xda g'alayon ko'taradi. Bu g'alayon qurolli qo'zg'olonga aylanib ketdi. O'rta Osiyo tarixida eng uzoq davom etgan «*Po'latxon*» qo'zg'oloni bo'lib o'tadi. Rus qo'shinlari qo'zg'olonchilarni yengdilar va Po'latxon asirga olinib Marg'ilonda dorga osiladi. Rus qo'shinlari Qo'qon xonligini bosib olib, 1876-yil fevral oyida xonlikni rasman bekor qiladilar va o'rniga *Turkiston general-gubernatorligiga* qarashli Farg'ona viloyatini ta'sis etadilar.

Davlat boshqaruvi. Qo'qon xonligida quyidagi mansablar mavjud bo'lgan: mingboshi, otaliq, shayxulis lom, *qozikalon*, qushbegi, mehtar, parvonachi, naqib, dodxoh, eshik og'asi, inoq, shig'ovul, to'qsoba, miroxur, qoravulbegi va *boshqalar*.

Qo'qon xonligida mavjud bo'lgan harbiy unvonlar quyidagicha bo'lgan: mingboshi – odatda, u vazirlik vazifasini birga olib borgan. Keyin *ponsadboshi*, *yuzboshi*, *ellikboshi*, *o'nboshi*, zambarakchi va b. Bulardan tashqari, boshqa harbiy mansablar ham bo'lgan. Qo'qonda yashagan sarboz va to'pchilar faqat alohida vazifadagi noib, dodxohning doimiy tasarrufida bo'lganlar. Urush davrida noib, dodxoh o'z qismiga harakatdagi qo'shinning hamma sarbozlarini qabul qilgan, unga vaqtinchalik boshchilik qilishni maxsus tayinlangan *amiri lashkar* (bosh qo'mondon)ga topshirardi.

XIX asrning 1-yarmida Qo'qon xonligi tarkibiga quyidagi hududlar kirardi: Sirdaryoning so'l sohili bilan Qorategin oralig'idagi Qo'qon viloyati; Sirdaryoning o'ng sohildan to Olatovgacha bo'lgan Namangan viloyati; Xo'jand shahri; Xo'jand bilan Toshkent oralig'idagi Uratapa viloyati. Xonlikning eng shimoliy viloyati Turkiston, Betpaqdala sahrolariga borib taqalardi. Bundan tashqari, xonlik tarkibiga Olay hududi, Balxash ko'li bilan Sirdaryoning yuqori oqimi oralig'idagi yerlar kirardi. Billurtog'ning g'arbiy tomonidagi Qorategin, Darboz, Ko'lob, Shug'non singari bir qator tog'li tumanlar ham Qo'qon xonligiga tegishli edi. Bu yerlarni

qo‘qonliklar XIX asrning 30-yillarida bo‘ysundirishgan bo‘lsa-da, ular tez-tez qo‘ldan-qo‘lga, ko‘proq Buxoro amiri ixtiyoriga o‘tib turardi. Qo‘qon xonligi aholisining soni 3 mln.ga yaqin edi. Rossiya qo‘shinlari uning shimoliy- g‘arbiy viloyatlarini bosib olgach, xonlik hududi ancha qisqarib, asosan, Farg‘ona vodiysi bilan cheklanadi va aholi soni taxminan 2 mln.ga tushib qoladi.

Qo‘qon xonligining aholisi, asosan, o‘zbeklar, tojiklar, qirg‘izlar, qozoqlar, uyg‘urlar, qoraqalpoqlardan iborat edi. Qo‘qon xonligida ham yerga egalik qilish va undan foydalanish turli xil bo‘lgan. Xonlikka qarashli bo‘lgan yerlar amlok yerlar, vaqf yerlari, mulki xiroj va mulki ushriyaga taqsimlangan. Dehqonlar o‘rtasida yakka dehqon xo‘jaligi ham rivojlangan. O‘z yerlaridan ajralgan kambag‘al dehqonlarning ko‘pchiligi yirik yer egalari qo‘lida chorakorlik qilganlar. Yerning bahosi uning unumdorligi va qanchalik suv bilan ta‘minlanganligiga qarab belgilangan. Xonlar sug‘orish tarmoqlari katta daromad manbai bo‘lganligi sababli ma‘lum darajada ularni saqlashga, sug‘orish inshootlarini yanada kengaytirishga yaxshi e‘tibor berishgan. Qo‘qon xonligida ko‘plab paxta va poliz ekinlari yetishtirilgan, bog‘dorchilik hamda pillachilik taraqqiy etgan. Hunarmand-kosibchilik mazmunan boy va serqirra bo‘lgan. Bular: misgarlik, zargarlik, o‘ymakorlik, harbiy qurol ishlab chiqarish, sopol va ko‘zagarlik, qog‘ozgarlik, badiiy to‘qimachilik, do‘ppichilik, kashtachilik, ko‘priksozlik, temirchilik va sh.k.

Bulardan tashqari, xonlikda yer osti boyligi ham ma‘lum darajada qazib olingan. Ammo ularni ishlab chiqarish sodda va kam ediki, ular ehtiyojni qondira olmasdi. Masalan, xonlikda ishlab chiqarilgan metall Rossiyadan olib kelingan metallardan qimmatga tushardi. Qo‘qon xonligida ishlab chiqilgan mahsulotlar esa chet ellarga ham olib chiqilar edi va ularga talab ham bor edi. Shuning uchun bu soha ma‘lum darajada rivojlana borgan.

Savdo-sotiq xonlik hayotida katta va muhim o‘rin egallagan. U ichki va tashqi savdoga bo‘lingan. Osiyo xonliklarida ichki savdo, asosan, qadimgi davrdan beri o‘zaro ko‘chmanchi chorvador, o‘troq dehqonlar va shahar-qishloq hunarmandlari mahsulotlariga asoslangan edi. Aholi o‘zining ehtiyojlarini asosan o‘z xonligidagi mahsulotlar bilan qondirishgan.

Xonlikning iqtisodiy hayotida Buxoro, Xiva, Qashqar, Hindiston, Afg‘oniston, Eron va ayniqsa, Rossiya bilan bo‘lgan tashqi savdo katta o‘rinni egallagan. Rossiya bilan olib borilgan savdo munosabatlari Qo‘qon xonligi qishloq xo‘jaligi ayrim tarmoqlarining rivojlanishiga olib keldi va rus madaniyatining ba‘zi jihatlari aholi turmush tarziga kira boshladi. Qo‘qon xonligi Rossiyaning xom ashyo bazasiga va tashqi savdo bozoriga aylana bordi. Rossiya sanoati tovarlarining olib kelinishi mahalliy sanoat korxonalarini va ayrim hunarmandlarning inqirozga uchrashiga sabab bo‘ldi.

Qo‘qon, Marg‘ilon va Namangan shaharlarida ip va ipak matolar (atlas, shoyi, beqasam, adras, chit, bo‘z va b.) to‘qilgan. Shuningdek, boshqa hunarmandchilik tarmoqlarida xo‘jalik asboblari, dehqonchilik uchun kerakli uskunalar, qurol-yaroqlar, zargarlik buyumlari, qog‘oz va b. narsalar ishlab chiqarilgan. Yer osti boyliklaridan neft, oltin, kumush, mis, rux, temir, qo‘rg‘oshin va b. ham ma‘lum miqdorda qazib olingan. Xonlikda paxta va poliz ekinlari yetishtirilgan, bog‘dorchilik va pillachilik ham taraqqiy etgan.

Qo‘qon xonligi dan chet davlatlarga quritilgan mevalar, jun, teri, ipak, gilam, paxta va ipak matolar chiqarilgan. tashqi mamlakatlardan esa turli metall rudalari, metall buyumlar, qand va b. mahsulotlar keltirilgan.

Qo‘qon xonligi madaniyati. Qo‘qon xonligining XVIII-XIX asrlar 1-yarmida kechgan madaniy hayotida ham sezilarli ijobiy o‘zgarishlar va siljishlar yuz berib borganligi ayondir. XIX asrda Qo‘qon xonligida tarixnavislik sezilarli ravishda o‘zib borgan. Oldinlari yozilgan bir necha tarixiy asarlar fors va arab tillaridan o‘zbek tiliga tarjima qilindi va yangi kitoblar yozildi. Bu yangi asarlarning o‘ziga xos xususiyatlari ham bor edi – ularning ayrimlari she‘riy yoki qisman she‘riy yo‘lda yozildi. Bu esa qo‘qonlik tarixchilarning adabiyotni yaxshi bilibgina qolmay, o‘zlari ham she‘riyatda qalam tebratganliklarini ko‘rsatadi. Masalan, «Tarixi jahonnamoyi» (Junayd Mullo Avazmuhammad Mullo Ro‘zi Muhammad so‘fi o‘g‘li), «Shohnoma» (Abdulkarim Fazliy Namangoniy), «Shohnomayi Umarxoniy» (Mirzo Qalandar Mushrif Isfarangiy, u Fazliy Namangoniyning «Zafarnoma» asarini nasriy qilib yozgan). «Muntaxab attavorix» (Xo‘ja Muhammad Hakimxon to‘ra bin Sayid Ma‘sumxon), «Tarixi Shohruxiy» («Tarixi sayyidi Xudoyorxon», Mullo Niyoz muhammad Xo‘qandiy Niyoziy bin Mullo bin Ashur Muhammad Xo‘qandiy), «Tarixi jadidai Toshkand (Muhammad Solihxo‘ja ibn Qorixo‘ja), «Shohnoma» (Mahzun Ziyovuddin Xo‘qandiy), «Jangnomai Xudoyorxon» (Shavqiy Namangoniy) va b.

XIX asr boshlarida shakllangan Qo‘qon adabiy muhiti ham xonlikning madaniy hayotida katta o‘rin tutgan. Qo‘qon hukmdorlarining qator namoyandalari temuriylar an‘anasini davom ettirib, o‘zlari ham ilm-ma‘rifat bilan shug‘ullanib, bu sohani ravnaq topdirishga katta sa‘y-harakat qilganlar. Ayniqsa, bunda Qo‘qon xonlaridan Umarxon (1810-22) va muhammad Alixon (1822-41) davrlari yaqqol ajralib turadi.

Xususan, Akmal (Maxmurning otasi), Amiriy (Qo‘qon xoni Umarxon), Boqixonto‘ra, Muhammad Sharif, Gulxaniy, Maxmur (Mahmud), Muntazir, Nizomiy Xo‘qandiy (asl nomi Nizomiddin Muhammadaminxo‘ja o‘g‘li), Nodir, Nozil Muhammad Avaz, Avazmuhammad Yormuhammad o‘g‘li Pisandiy, Fazliy Namangoniy, G‘oziy singari shoirlar xalq ichida mashhur edilar.

Qo‘qon adabiy muhitining yana bir muhim xarakterli jihati shundaki, bu davrda o‘zbek va fors-tojik tilida bab-baravar qalam tebratgan bir qator taniqli va mashhur

o‘zbek shoiralari iste’dodi keng rivoj topdi. Mas, *Dilshod otin, Zebuniso, Zinnat, Mohzoda Begim, Mahzuna, Mushtariy, Nodira, Nozuk Xonim, Uvaysiylarning* ijodi ayricha ahamiyatga molikdir.

Qo‘qon adabiy muhitining samarali ta’siri o‘laroq bu yurtidan keyinchalik *Muqimiy, Furqat, Zavqiy* va boshqa yetuk badiiy so‘z san’atkorlari yetishib chiqdilar va o‘z xalqining erki, hurligi va ozodligi uchun xizmat qildilar.

Nazorat savollari

1. Muhammad Shayboniyxonning Movarounnahr va Xurosonni nisbatan oson egallashiga nimalar sabab bo‘ldi?
2. Shayboniylar qachon va qanday shaharlarni zabt etdi?
3. Nima sababdan shayboniylar Xurosonni qo‘lda ushlab turolmadi?
4. Nima uchun Turkiston uch xonlikka bo‘linib ketdi?
5. Buxoro xonligining tashkil topishi haqida so‘zlab bering, bu haqda referat yozing.
6. Xiva xonligi qanday muhitda, qachon tashkil topdi?
7. Abdullaxon II davrida Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida qanday o‘zgarishlar yuz berdi?
8. Ashtarxoniylar kim, ular Buxoro xonligida hokimiyatni qachon qo‘lga kiritdilar?
9. Qachon va nima uchun Buxoro xonligi amirlik deb ataladigan bo‘ldi?

9-mavzu. O‘zbek xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi. Mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy-ozodlik harakati. Jadidchilik

Reja:

1. Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi. Mustamlakachilik idora usulining joriy etilishi.
2. Turkiston general-gubernatorligi. Mustamlakachilik boshqaruv tizimi.
3. Turkiston xalqlarining mustamlakachilikka qarshi milliy-ozodlik kurashlari.
4. Turkistonda jadidlar harakatining vujudga kelishi, ularning islohotchilik faoliyati.

Tayanch so‘z va iboralar: *«Sharqni egalla» siyosati. Rossiya harbiy ekspeditsiyalari. Angliya—Rossiya raqobati. Harbiy istehkomlar. Oqmasjid qal’asi. Toshkentga hujum. Mulla Alimqul. Turkiston general-gubernatorligi. Fon Kaufman. Zirabuloq jangi. Samarqand qo‘z- g‘oloni. Xivaga yurish. Gandimiyon shartnomasi. Qo‘qon xonligi - ning tugatilishi. Boshqaruv tizimi. Mustamlakachilik siyosati. Toshkent qo‘zg‘oloni. Dukchi eshon. 1916-yilgi qo‘zg‘olon. Jadidchilik. Mahmudxoja Behbudiy.*

Turkiy xalqlar yashovchi bepoyon hududlarni bosib olish Rossiya podshohlarining azaliy orzusi edi. Bu boradagi amaliy harakat Ivan Grozniy zamonidan boshlangan edi. U Qozon (1552), Astraxan (1556), Sibir (1581-1590) xonliklarini bosib oladi va endi Turkiston to‘g‘risida ma‘lumotlar to‘plashga kirishadi. Shu maqsadda 1558-1559-yillarda Antoni Jenkinson boshliq elchilarni Buxoroga yuborib josuslik ma‘lumotlari to‘plagan ma‘lum. Rusiya hukumati XVII asr davomida 9-marta elchi yuborib, Buxoro va Xiva xonliklarining iqtisodiy va harbiy ahvolini o‘rganadi.

«Sharqni egalla» siyosati. Rossiya podshohi Pyotr I zamonida (1689-1725) «Sharqni egalla» siyosati yuritildi. Bu siyosatning tarkibiy qismlaridan biri Turkistonni egallash edi. Turkistonni bosib olish rejasi tuzildi. Xiva, Buxoro, Qo‘qon xonliklarining g‘arbiy, shimoliy, sharqiy chegaralarida harbiy istehkomlar qurish, xonliklarni Rossiya tobeligiga olish maqsadida katta harbiy ekspeditsiyalar uyushtirildi. 1715-yilda sharqiy chegaralarda Buxgolts rahbarligida, 1716-1717-yillarda Xiva xonligida Bekovich-Cherkasskiy rahbarligida harbiy ekspeditsiyalar tajovuzkorona harakat qildilar. 1721-1724-yillarda Florio Beneveni boshliq elchilar Buxoroda josuslik faoliyatini yuritdi. XVIII asr davomida Rus davlati qozoq va qirg‘izlarning Kichik Juz, O‘rta Juz, Katta Juz hududlarini o‘ziga bo‘ysundirib, ularning hududida o‘zbek xonliklariga bostirib borishda foydalanish maqsadida 46 ta katta va 96 ta kichikroq harbiy qal’a va istehkomlar qurdiradi, ularga qo‘shinlarini joylashtiradi.

Angliya-Rossiya raqobati. XIX asrda yirik mustamlakachi davlatlar tomonidan

Afrika, Osiyo, Amerika va Okeaniya mamlakatlarini bo'lib olish uchun kurash yanada kuchayadi.

XIX asr o'rtalarida ikki yirik mustamlakachi imperiya - Buyuk Britaniya va Rossiya davlatlari manfaatlari Turkistonda to'qnashdi. Ikkala davlat bir-biridan yashirin ravishda O'rta Osiyoga kirish, xonliklardagi hukmron sulolalar bilan til topish yo'llarini qidirardi, shu maqsadda harbiy missiyalar yuborar edi. Angliya Hindiston tomondan,

Rossiya qozoq cho'llari va Sibir tomondan harakat qilardi, o'zbek xonliklarini o'z ta'sir doirasiga olish, o'z manfaatlari yo'lida xonliklarning boyliklari, tabiiy resurslaridan foydalanish, o'z mustamlakasiga aylantirishga intilardi. Shu boisdan ingliz-rus raqobati kundan-kunga kuchayib bordi.

Hindiston va Afg'oniston orqali o'zbek xonliklari bilan savdo-sotiq, diplomatik aloqalar olib borayotgan Buyuk Britaniya Rossiyaning Turkistonga kirib kelayotganidan xavfsiramoqda edi. Rossiyaning Turkistonni bosib olish rejalaridan xabardor bo'lgan Angliya hukumati Rossiya rejalarini barbod qilish podshoalarini ko'rdi. Ost-Indiya kompaniyasi tomonidan josuslik ma'lumotlari to'plash maqsadida yuborilgan E.K.Meyendorf 1824-yildayoq Buxoroda bo'lgan, ammo maqsadiga erisha olmay shu yerda halok bo'lgan edi. 1831-1833-yillarda mazkur kompaniya leytenanti Aleksandr Berns Hindistondan Afg'onistonga, undan Buxoroga go'yo sayyoh sifatida keladi. U yig'ilgan dalillar va shaxsiy kuzatuvlar asosida uch jildlik «Buxoroga sayohat» nomli kitob yozib, unda, jumladan: «O'zbeklar... mening kim ekanimni bilmaganlaridan barcha narsalar xususida, hukmdorlari siyosatidan tortib bozordagi ahvol haqida ham tortinmay so'zlashdilar», -deb yozadi.

Angliya hukumati Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarini Rossiyaga qarshi ittifoqqa uyushtirishga harakat qildi. 1841-1842-yillarda Angliya hukumati-mayor Konollini Xivaga, polkovnik Stoddartni Buxoroga maxsus missiya bilan yubordi. Ular Xiva xoni va Buxoro amiri huzurida bo'lib, Rossiya tajovuzidan saqlanish uchun uchchala Xonlik bir-birlariga yordamlashishini, kuchlarni birlashtirishni, ittifoq tuzishni taklif qilib, rus qo'shinlariga qarshi kurashish uchun qo'shin bilan yordam berishga va'da qiladilar. Biroq ularning rasmiy hujjatlari bo'lmagani sababli amir Nasrullo ularni zindonga tashlatadi. Bularni qutqarish uchun Angliya tomonidan Turkiya homiyligida-mayor Volf Buxoroga yuboriladi, ammo uning 1843-1845-yillarda Buxorodagi urinishidan ham natija chiqmadi, zindondagilar qatl etiladi, Volfning o'zi zo'rg'a qochib qutiladi. Shuningdek, 1843-yilda Xivaga kelgan kapitan Ebbot ham Angliya manfaatlari yo'lida ishlagani ma'lum.

Ingilizlarning O'rta Osiyoda jiddiyroq siyosat yuritishiga Afg'oniston xalaqit berardi. Shu boisdan inglizlar maxsus «afg'on siyosati»ni ishlab chiqib, Afg'oniston amirini bo'ysundirish, Hirot va Qandahorni inglizlar mulkiga aylantirish, ularda harbiy kuchlarni joylashtirishni rejalashtiradi. Shu maqsadda Angliya 1838-1842 va

1878-1880-yillarda Afg'onistonga ikki-marta bosqinchilik urushlari uyushtirdi. Biroq Afg'onistonni bo'ysundira olmadi.

Ost-Hindiston kompaniyasi O'rta Osiyo bozorlariga kirish va egallab olish, bozorlarda ingliz tovarlarining Rossiya tovarlarini siqib chiqarishini ta'minlashga zo'r berdi. Bu borada ular hind va fors savdogarlaridan keng foydalandi.

Buyuk Britaniyaning O'rta Osiyoga kirish va uni egallashga intilishi Rossiya imperiyasini tashvishga soldi. U xonliklarga bevosita chegaradosh bo'lganidan foydalanib, harbiy harakatlarni boshlab yubordi.

Xonliklarning shimoliy-g'arbiy hududida Orenburg general-gubernatori V.A.Perovskiy katta qo'shin bilan hujumga shaylanib turardi. U 1834-yilda Kaspiy dengizi qirg'og'idagi Mang'ishloqda harbiy istehkom qurib, unga Novo-Aleksandrovskaya deb nom berdi. 1845-yilda Orenburg va Yoyiq, 1847-yilda Sirdaryoning Orol dengiziga qo'yilish joyida Raim (Oral) harbiy istehkomlari qurildi. Perovskiy qo'shinlari 1853-yilda Qo'qon xonligining strategik ahamiyatga molik bo'lgan Oqmasjid qal'asini bosib oladi va u yerda mustahkam o'rnashadi.

Xonliklarning shimoliy-sharqiy tomonida esa G'arbiy Sibir general-gubernatori G.Gosford hujumga tayyorlanish uchun 1847-yilda Yettisuvdagi Ulutov yaqinida ikkita harbiy istehkom, 1848-yilda Qorabuloq qal'asini, 1854-yilda Olmati ovuli yonida Verniy istehkomini qurib, harbiy kuchlarni joylashtiradi. 1860-yilda Qo'qon xonligi hududiga qarashli harbiy istehkomlarga hujum qilib, To'qmoq, Pishpak va boshqa qal'alarni birin-ketin bosib ola boshladi.

Perovskiy va Gosfordlarning harbiy harakatlari amalda Rossiyaning O'rta Osiyoga e'lon qilinmagan bosqinchilik yurishining boshlanishi edi.

Turkistonni bosib olish masalasi podshoh Aleksand II tomonidan 1859 va 1861-yillarda o'tkazilgan saroy kengashida muhokama qilinadi va birinchi navbatda Qo'qon xonligini bir yoqlik qilish, unga qarshi harbiy harakatlarni boshlashga qaror qilinadi. O'rta Osiyo xususidagi raqobatda Rossiya ustunlik qildi. Angliya Rossiyaning harbiy kuch bilan O'rta Osiyoni egallashga qaratilgan harakatlarini to'xtatib qololmadi.

Rossiya bosqini. 1864-yil-may oyida Qo'qon xonligi hududiga Sharq tomondan polkovnik Chernyaev qo'mondonligidagi Rossiya qo'shinlari, G'arbdan polkovnik Verevkin qo'shinlari bostirib kirdi. Ular tomonidan Qo'qon xonligining muhim va tayanch shaharlari- Avliyoota, So'zoq, Turkiston shaharlari egallandi. Bosqinchlar 1864-yil 14-iyulda Chimkentga yurish boshladilar. Bu orada Qo'qon xoni Sayyidxon va lashkarboshi Mulla Alimqul bor kuchlarini to'plab, Chimkent atrofida jangga tayyorlandilar. Turkiston shahri yaqinidagi Iqon qishlog'ida uch kun davomida qattiq jang bo'ldi. Manbalarda yozilishicha, jangda shunday qirg'in bo'ldiki, o'liklardan tepalar hosil bo'ldi. Jangda Mulla Alimqul qo'shinlari g'olib chiqdi, Chernyaev qo'shinlari jangda engilib orqaga chekinishga majbur bo'ldi.

Mulla Aliquli o'z qo'shinlarini bosqinchilar egallagan shaharlarni ozod qilish uchun jangga tayyorlayotgan bir paytda Buxoro amiri Muzaffarning Qo'qon xonligi xududlariga bostirib kirganligi to'g'risida xabar olindi. Mulla Alimqul o'z qo'shinlari bilan Qo'qon himoyasiga o'tlanishiga majbur bo'ldi. Vaziyat Chernyaevga qo'l keldi, uning qo'shinlari Orenburg otryadlari bilan Sayramda qo'shib, 1864-yil 14-sentabrda Chimkentga yangidan yurish uyushtirdi va shaharni bosib oldi.

Chernyaev 1864-yil 2-oktabr kuni Toshkentga hujum boshladi. Toshkent Qo'qon xonligining eng yirik, muhim strategik ahamiyatga molik shahari bo'lib, uzunligi 25 chaqirim, eni 2-3 metr, balandligi 5-7- metr bo'lgan devor bilan o'rab olingan edi. Devor tepasining kengligi 2 m. bo'lib, mudofaa minoralari, o'q otadigan shinaklari bo'lgan, devor atrofi suv to'ldirilgan zovur bilan o'rab olingan edi.

Toshkent mudofaachilarining mardona harakati tufayli Chernyaev qattiq mag'lubiyatga uchradi, 72 zobit va askarni yo'qotdi. Chimkentga qaytishga majbur bo'ldi.

Chernyaev 1864-1865-yil qishini tayyorgarlik bilan o'tkazdi, uning qo'shinlari Sibir va Orenburgdan etib kelgan qurol-yarog', yangi batalyonlar, sapyorlar rotalari bilan to'ldirildi. Mahalliy aholi orasida o'z Vataniga xiyonat qiluvchi, dushmandan panoh izlovchilar ham topildi. Abdurahmonbek, Saidazimboy, Soatboy kabi sotqinlar Toshkentni egallashda Chernyaevga ko'maklashdilar. 1865-yil bahoridan Chernyaevning yangi hujumi boshlandi. 28-aprel kuni Chirchiq daryosi qirg'og'idagi Niyozbek qal'asini egallab, Toshkentni suv bilan ta'minlab turuvchi Kaykovuz anhoriga Chirchiq daryosidan suv chiqarib beruvchi to'g'onni buzib tashlab, shahar aholisini suvsiz qoldiradi. Amirlashkar Alimqul katta qo'shin bilan Qo'qondan Toshkentga etib keladi. Toshkent uchun shiddatli janglar bo'ldi. 9-may kuni Solor arig'i bo'yida katta jang bo'ldi. Alimqul og'ir yarador bo'ladi va halok bo'ladi. Nihoyat shahar himoyachilarining qarshiligi sindirildi, 15-iyun kuni Chernyaev Toshkentni zabt etdi. Orenburg general-gubernatorligi tarkibida Turkiston viloyati tuzildi, uning harbiy gubernatori etib M.Chernyaev tayinlanadi.

Chernyaev 1866-yil-yanvarida Jizzaxga hujum qiladi va mag'lubiyatga uchraydi. O'zboshimchaligi uchun Chernyaev Sankt-Peterburgga chaqirib olinadi, o'rniga general D.Romanovskiy tayinlanadi.

Romanovskiy Sibir va Orenburgdan yordam olib Buxoro amirligiga qarshi yurish boshladi. Rossiya imperiyasi qo'shinlari tomonidan Qo'qon xonligi hududlari bosib olinayotgan paytda Buxoro amiri tomoshabin bo'lib turgan bo'lsa, endi Buxoro amirligi hududlariga hujum boshlangan paytda Qo'qon xoni Xudoyorxon sukut saqlab turdi. Modomiki u amir Muzaffar homiyligida Qo'qon taxtini uchinchi-marta egallagan edi.

1866-yil may oyida Erjarda bo'lgan jangda amir Muzaffar qo'shinlari yengildi, amir Jizzaxga qochdi. Romanovskiy yurishni Xo'jand tomonga yo'naltirdi, 1866-yil

19-22-may kunlari bo'lgan qattiq janglar natijasida Xo'jandni egalladi. 1866-yil avgustda Orenburgdan general-gubernator Krijanovskiy Toshkentga keldi va Romanovskiy bilan birgalikda Buxoro amirini tobe qilish harakatini boshlashdi. Katta qo'shin tortib 1866-yil oktabrda O'ratepa viloyati, Zomin qal'asini bosib oldi. Jizzax uchun qattiq jang bo'ldi. Jizzax shahri balandligi 4 metr va eni 3 metrlik ikki qavat devor bilan o'rab olingan bo'lib, qal'aga o'xshardi. Shaharda 10 ming himoyachi askar, 53 to'p bor edi. Himoyachilar shaharga kirib-chiqadigan darvozalarni tuproq bilan ko'mib tashlab, yo hayot, yo o'lim deb jang qildilar. 11-18-oktabr kunlari bo'lgan jang natijasida bosqinchilar Jizzaxni egalladi. Himoyachilardan 6000 kishi halok bo'ldi, 2000 kishi asirga olindi. Istilochilar atigi 100 ga yaqin kishi yo'qotdi. Bosqinchilar huvullab qolgan shaharni talon-taroj qildilar. Xo'jand, O'ratepa, Jizzaxda qonli janglar bo'layotgan bir paytda Qo'qon xoni, Buxoro amiri qayerda edi, ular nima karomat ko'rsatdi? degan tabiiy savol tug'iladi. Ular o'z joyida, hali ham o'zlarini davlat boshlig'i, hukmdor deb hisoblar edilar, ammo biron- bir tadbir ko'rishga ojiz, vaziyatni to'g'ri tahlil etishga aql-farosatlari ham etmas edi, shekilli. Ular bosqinchilarni emas, biri-ikkinchisini mag'lub qilish, ko'zini o'yishga harakat qilardi. Bo'linganni bo'ri yer, deb shuni aytsalar kerak-da.

Rossiya imperatori Aleksandr II ning 1867-yil 11-iyuldagi farmoniga binoan Turkiston general-gubernatorligi va uning tarkibida Turkiston harbiy okrugi tuzildi. General-gubernator va okrug qo'mondoni etib general-ad'yutant K.P. fon Kaufman tayinlandi. Unga biror davlatga urush e'lon qilish, sulh tuzish, harbiy-ma'muriy, moliyaviy-iqtisodiy, fuqarolik ishlarini mustaqil hal qilish huquqlari berilgan, shu boisdan u «yarim podsho» deb atalardi. Bu tadbir Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoni bosib olish yo'lidagi harakatida yangi bosqich bo'ldi.

Fon Kaufman Samarqandga tomon yurish boshladi. 1868-yil 1-may kuni shahar yaqinidagi Cho'ponota tepaligida Buxoro amiri qo'shinlari bilan jang qilib, ularni osongina mag'lubiyatga uchratdi, bir paytlar dovrug'i olamni tutgan Samarqand 2-may kuniyoq deyarlik jangsiz dushmanga taslim bo'ldi. Bu voqeadan dunyo hukmdorlari, jumladan, Rossiya podshohi ham hayratlangan. Buxoro amiri Muzaffar Samarqandning bosib olingani to'g'risidagi xabarni etkazgan odamni osib o'ldirishga farmon berib, o'zi alamidan yig'lagan.

Buxoro amiri o'z qo'shinlarini to'plab dushmanni daf etish uchun Samarqand tomon yurdi. Fon Kaufman bu xabarni eshitib Buxoro tomon yurdi. Ikki tomon qo'shinlari Zirabuloqda 1868-yil 2-iyunda to'qnashdi, qattiq jang bo'ldi, amir qo'shinlari tor-mor etildi. Bu orada istilochilarga qarshi Samarqandda qo'zg'olon ko'tarildi. Shaxrisabz, Kitob beklari Jo'rabek va Bobobek hamda amirning o'g'li Abdumalik To'ra 27-may kuni Samarqandga qo'shin bilan etib kelib, qo'zg'olonchilar bilan birgalikda fon Kaufman tomonidan Samarqandda qoldirilgan polkovnik Nazarov va-mayor Shtempel boshliq harbiy qismlar bilan qattiq jang

qildilar. Jang 8 kun davom etdi. 500 kishidan iborat dushman kuchlaridan 275 tasi o'ldirildi va yarador qilindi. Samarqanddagi voqealardan xabar topgan fon Kaufman zudlik bilan Samarqandga qaytib keladi va 8-iyun kuni shaharni to'plardan yoppasiga o'qqa tutishga, aholini beomon otish, shaharni yondirishga buyruq beradi. Aholi qirg'in qilindi, masjidlar va tarixiy yodgorliklar yondirildi, qadimiy noyob moddiy va ma'naviy obidalar Peterburgga olib ketildi.

1968-yil 23-iyunda Kaufman bilan amir Muzaffar o'rtasida sulh bitimi imzolandi. Buxoro amirligi Rossiyaning vassaliga, ya'ni xorijiy mamlakatlar bilan mustaqil aloqalar qila olmaydigan davlatga aylantirildi. Sulhga binoan Xo'jand, O'ratepa, Jizzax, Samarqand, Kattaqo'rg'on Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritildi, amir oltin hisobida 125 ming tilla (500 ming rubl) tovon to'lash, rus savdogarlari uchun amirlikda qulay sharoit yaratish majburiyatini oldi. Bunday bosqinchilik, talonchilik sulhi aholi yuqori tabaqa vakillarining nafratini kuchaytirdi. Abdumalik, Jo'rabek va Bobobek kuchlari nafaqat bosqinchilarga, shuningdek, amir Muzaffarga qarshi ham qaratiladi. Ular Abdumalikni amir deb e'lon qiladilar. Amir Muzaffar endi bosqinchilarga emas, fon Kaufman yordamida o'z vatandoshlariga qarshi urushga kiradi va 1870-yil avgustda ularni kuch bilan bostirib, o'z taxtini saqlab qoladi. Shahrisabz va Kitob bekliklari amirlik tarkibida qoladi.

Rossiya hukumati o'zining O'rta Osiyodagi bosqinchilik harakati bilan G'arb mamlakatlari, jumladan, Angliya bilan munosabatlarni keskinlashtirmaslik tadbirlarini ham ko'rdi. Rossiyaning Londondagi elchisi F.I.Brunov va Angliya tashqi ishlar vaziri lord Klarendon o'rtasida bo'lgan muzokaralar bunga misol bo'la oladi. Ular Turkiston «bufer» zonasi, ya'ni O'rta Sharqda Rossiya bilan Angliya yerlari o'rtasida birini-biriga tutashtirmaydigan betaraf hudud masalasini muhokama qildilar. 1873-yilda Angliya va Rossiya o'rtasida Afg'onistonning Angliya ta'sirida bo'lishi, uning shimoliy qismi va Amudaryo bo'ylari «betaraf hudud» bo'lib qolishi to'g'risida bitim imzolanadi. Bu bitim Rossiya imperiyasiga endi Xiva xonligi taqdirini hal qilishga kirishishga qulay imkoniyat yaratdi.

Xiva xonligiga yurish. Fon Kaufman 1873-yil bahorida 12 mingdan ortiq zobit va askar, 56 ta to'p-zambaraklar bilan Xiva xonligiga yurish boshladi. Ayni paytda Xivaga qarshi Orenburg, Mang'ishloq, Krasnovodsk, shuningdek Kavkaz okrugi qo'shinlari ham yurishga kirishgan edi. Umumiy qo'mondonlik Kaufman zimmasiga yuklatilgan edi. Xiva xoni Muhammad Rahimxon bosqinchilarga qarshi o'z qo'shinlarining bir qismini Muhammadmurod devonbegi boshchiligida Chorjo'y tomonga, yana bir qismini Eltuzar inoq boshchiligida Qo'ng'iro't tomonga, yana bir qismini amir To'ra boshchiligida Xazaraspga, Inoqbek boshchiligidagi qismni Xo'jayliga safarbar etdi. Xon Rossiya imperiyasi qo'shinlariga bas kelolmasligini anglab etgan edi. Amudaryo bo'ylarida qirg'inbarot janglar bo'ldi. 1873-yil 18-may kuni Kaufman otryadlari Amudaryodan o'tib Xazaraspni egalladi, Qo'ng'iro't va

Xo'jayli shaharlari, Mang'it qal'asi zabt etildi, talandi. Istilochi qo'shinlar Xivaga yaqinlashib qolganda Muhammad Rahimxon poytaxtni tashlab chiqadi va Izmiqsho'r tarafdagi turkman ovuliga yashirinadi. Xivalik Otajon to'ra Kaufman huzuriga borib shaharni vayron etmaslikni so'raydi. Kaufman shaharni zabt etib, Otajon to'raga xonni topishni buyuradi va xon xazinasini, moddiy-ma'naviy boyliklarni qo'lga kiritadi.

1873-yil 12-avgustda Xivaga yaqin Gandimiyon qishlog'ida Kaufman bilan Rahimxon uchrashuvi bo'ladi va tarixda Gandimiyon shartnomasi deb nom olgan shartnoma imzolanadi. Shartnomaga muvofiq Xiva xonligi Rossiyaning vassaliga aylantirildi. Amudaryo quyi oqimining o'ng tomonidagi yerlar Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritildi, xonlikka oltin hisobida 2 million 200 ming so'm tovon to'lash yuklatildi. Rossiya savdo-sanoatchilari Xiva xonligida bojsiz savdo qilish, xonlik hududida yer olish, sanoan korxonalarini qurish xuquqini oldi. Xon o'zini Rossiya podshohining itoatkor xizmatkori, deb tan olishga majbur bo'ldi.

Qo'qon xonligining tugatilishi. Kaufman Xiva xonligi taqdirini hal qilgach, Qo'qon xonligini tugatishga kirishdi. Bu vaqtda Qo'qon xonligida hokimiyat uchun ichki kurash avjga chiqqan edi. 1868-yil 13-fevralda Kaufman va Qo'qon xoni Xudoyorxon o'rtasida shartnoma imzolangan bo'lib, xonlikning istilochilar bosib olgan hududlari Rossiya tasarrufiga o'tganligi e'tirof etilgan edi. Rossiya savdogarlariga Qo'qon xonligining barcha hududlarida hechqanday moneliksiz faoliyat yuritish, karvonsaroylarga ega bo'lish huquqi berilgan edi. Bu shartnomadan qoniqmagan Qo'qon xonligidagi kuchlarning Xudoyorxondan noroziligi ortib boradi. Buning ustiga xonlik hududi qisqarganligini ro'kach qilib xazinani to'ldirish uchun yangi-yangi soliqlar joriy etiladi. Xudoyorxon bosqinchilarga o'zini yaqin tutar, Qo'qon bilan Rossiyani bir davlat deb hisoblardi. 1973-yilda Farg'ona vodiysida Xudoyorxonga qarshi qo'zg'olon boshlandi. Qo'zg'olonchilarning bir qismiga qirg'izlarning boston urug'idan chiqqan mulla Ishoq Hasan o'g'li boshchilik qiladi. U Qo'qon xoni Olimxonning nevarasi Po'latxon deb e'lon qilinadi va u Namanga kelib qo'zg'olonga rahbarlik qila boshlaydi. Ayni paytda xonlikda Xudoyorxonning o'g'illari Nasriddinbek va Muhammad Aminbek, Sherali dodxoh, Abdurahmon oftobachi va boshqalar ham bosh ko'taradilar. Ular bir tomondan, Rossiya imperiyasi bosqinchilariga qarshi, ikkinchi tomondan, Kaufmanga batamom tobe bo'lib qolgan Xudoyorxonga qarshi kurash boshlagan edilar. Xalq qo'zg'olonchi kuchlarga ergashadi. Qo'zg'olonchilar 1875-yil 9-oktabrda Qo'qonni egallaydilar. Xudoyorxon ularni bostirishga o'zlik qilib, 1875-yil 22-iyulda Qo'qondan Toshkentga qochib ketadi.

Kaufman Xudoyorxonning 40 aravadagi qimmatbaho boyliklarini musodara qilib, o'zini Orenburgga surgun qiladi. Xudoyorxon, podsho ma'murlari hiylasini anglab yetkach, bir amallab bandilikdan qochib hajga ketadi va hayoti ayanchli yakun

topadi. Xudoyorxon qochgach, qo'zg'olonchi kuchlar kimni xon qilib ko'tarish masalasida ikkiga bo'linib ketadi. Ayrim kuchlar Nasriddinbekni, boshqalari Po'latxonni taxtga chiqarmoqchi bo'ladi, ziddiyat yanada kuchayib boradi.

Kaufman xonlikdagi ichki kelishmovchilikdan foydalanib, uni batamom bosib olish uchun 1875-yil-avgustda katta qo'shinlarni urushga safarbar etdi. Xonlikni bosib olishda generallar M.D.Skobelev, Golovachev va boshqa zobitlar «jonbozlik» ko'rsatdilar. Nasriddinbek, lashkarboshi Abdurahmon oftobachi bosqinchilarga taslim bo'lib ular tomoniga o'tdilar. 1876-yil-fevralda xalq qo'zg'olonlari qon bilan bostiriladi. Po'latxon 1876-yil 1-martda dorga osildi, uning safdoshlari ayovsiz jazolandi. 1873-1876-yillardagi Farg'ona vodiysidagi qo'zg'olonlar xalqning ozodlik harakati edi. Buni o'sha davrda Kaufman ham xalq qo'zg'oloni deb e'tirof etgan.

1876-yil fevralida Rossiya imperatori Aleksandr II ning maxsus farmoni bilan Qo'qon xonligi tugatildi, uning o'rniga Farg'ona viloyati tuzilib, Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritildi. Viloyatga M.D.Skobelev harbiy gubernator etib tayinlandi. U tez orada Oloy vodiysini ham o'z tasarrufiga kiritdi (Oliy malikasi Qurbonjon dodgoh jasorati to'g'risida qarang: O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob, 174-178 betlar).

Endi bosqinchilar turkmanlar yashaydigan hududlarni istilo qilishga kirishdilar. 1877-yilda Qizil Arvot, 1881-yilda Asxabod, 1884-yilda Marv bosib olindi. Bosib olingan yerlarda Kaspiyorti viloyati tuzilib, u Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritildi.

Shunday qilib, Rossiya imperiyasi 20-yil davom etgan qonli urush bilan butun O'rta Osiyoni bosib oldi. Bosib olingan o'lkada mustahkam va batamom o'rnashib olish maqsadida chet mamlakatlar bilan chegaralarni aniqlash choralarini ko'rdi. 1881-yilda Rossiya-Eron chegara konvensiyasi imzolanib, yangi Rossiya mulklari va Rossiya-Eron o'rtasidagi chegara belgilandi. 1885-1887-yillarda Rossiya va Angliya hukumatlari tomonidan Rossiya-Afg'oniston chegarasi, 1895-yilda esa Pomirdagi chegaralar belgilanadi. Bu Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi bosqinchilik harakatining yakunlovchi nuqtasi bo'ldi.

Mustamlakachilik idora usulining joriy etilishi.

Rossiya harbiy vaziri, graf D.Milyutin, podshoh maslahatchisi V.Girs 1867-yilda «Turkiston o'lkasini boshqarish tartibi» haqida qonun loyihasini tuzdilar, u Vazirlar Kengashi tomonidan tasdiqlandi va amalda kuchga kirdi. O'lkada mutlaq hokimiyat general-gubernator qo'lida to'plandi. General-gubernatorlik Kengashi va to'rt bo'limdan iborat mahkama tuzildi. Birinchi bo'lim ma'muriy va nazorat, ikkinchisi moliyaviy-xo'jalik, uchinchisi soliq va shaharlar mablag'lari ishlarini boshqargan. To'rtinchisi maxsus bo'lim deb atalgan. General-gubernator bir vaqtda podshoh noibi, harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni, bosh mirshab, bosh prokuror bo'lgan. U

Buxoro amiri faoliyatini Rossiya imperatori agentligi orqali (1886-1917), Xiva xonini esa Amudaryo bo'limi (1873-1917) boshlig'i orqali nazorat qilib turgan.

Turkiston general-gubernatorligi viloyatlarga, viloyatlar uyezdlarga, uyezdlar uchastkalarga bo'lingan. Viloyat harbiy-gubertanorligiga general darajasidagi, uyezd boshlig'iga polkovnik darajasidagi, uchastka boshlig'iga kapitan darajasidagi zobitlar tayinlangan. Mazkur ma'muriy tuzulmaning o'zagi uyezd bo'lib, uning boshlig'i general-gubernator tomonidan tasdiqlangan va katta vakolatga ega bo'lgan. Uyezd boshlig'i ma'muriy, politsiya, harbiy hokimiyatlarni o'zida birlashtirgan, odamlarga jarima solish, 7 kungacha hibsdan saqlashi mumkin bo'lgan, shu boisdan uni «hokim to'ra» deb ham atashgan. Uchastka boshliqlari ham odamlarga jarima solish, 3 kungacha hibsdan saqlab turishi mumkin bo'lgan.

Qishloqlarni boshqarish uchun uchastka boshlig'iga bo'ysunuvchi bo'lis (volost) va ovul ma'muriy boshqaruvi joriy etildi. 1-2 ming xonadon yashovchi hudud bo'lis, 1-2 yuz o'tovli hudud ovul deb ataldi. Mahalliy aholi orasidan bo'lis boshqaruvchisi (oqsoqol yoki mingboshi), qishloq oqsoqollari (yuz boshi, ellik boshi, o'n boshi) hamda ovul oqsoqollari, ularning o'rinbosarlari saylanadigan bo'ldi. Ammo bu mahalliy boshqaruv tizimi Rossiya ma'muriyati qo'lida bo'lgan, nomigagina saylangan mahalliy aholi vakillari ularning qo'lida qo'g'irchoq bo'lganlar.

Mustamlakachilar Toshkent shahrini Turkiston general-gubernatorligining ma'muriy markazi etib tanlashdi. Shaharda 80 mingcha aholi yashardi, uning hududida 270 ta mahalla, 310 ta masjid, 17 ta madrasa, 11 ta hammom, 15 ta do'konli saroy va boshqa inshootlar bo'lgan. Bosqinchilar Toshkentning sharqiy qismidan joy tanlab, tanlangan joydagi mahalliy aholini ko'chirib, Rossiyadan kelganlar yashaydigan uylar, ko'chalar, oromgohlar qurdilar. Shaharning bu qismi Yangi shahar deb ataldi. Shaharni hokim boshqargan.

Toshkent shahar Dumasi. Toshkent shahrini boshqarish Nizomi ishlab chiqildi va u 1877-yilda Sankt-Peterburgda tasdiqlangach kuchga kirdi. Nizomga ko'ra Toshkent shahar Dumasi va boshqarma saylash nazarda tutilgan. Toshkent shahar Dumasi noiblarining uchdan ikki qismi yangi shahardan, uchdan bir qismi eski shahar aholisidan saylanadi, deb belgilangan edi. Ko'chmas mulki miqdoriga qarab, saylovchilar uch toifaga ajratiladi. Mulk senzi nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, ko'chmas mulk qiymatining bir foizi hisobidan 3000, 1000, 500 so'mdan ziyod ko'chmas mulk egalari uch toifali saylovchilar ro'yxati tuziladi. Yetarli mulkka ega bo'lmagan ziyolilar, ishchilar, dehqonlar, hunarmandlar saylov huquqidan mahrum bo'lib qoldilar.

1877-yilda Toshkent shahar hokimi raisligida har bir toifa bo'yicha saylovchilar yig'ini bo'lib o'tdi va Dumaga 71 noib (glasniy) saylandi. Dumaga Toshkentning 80 mingdan ortiq aholi yashaydigan eski shahar qismidan, ya'ni tub yerli aholidan atigi 21 nafar noib saylandi, aksariyat ko'pchilik noiblar esa 4000 mingga yaqin kishi

yashaydigan yangi shahar qismidan saylandi. Bu holat boshqaruvning mustamlakachilik mohiyatini yaqqol ochib beruvchi dalildir.

Toshkent shahar Dumasi farmoyish beruvchi organ bo'lib, uni shahar hokimi - oqsoqol boshqarardi. Turkiston general-gubernatori tomonidan Duma oqsoqoli (glava) etib shahar hokimi polkovnik E.P.Pukalov tayinlanadi. Noiblar orasidan ijro etuvchi hokimiyat - shahar boshqarmasi (mahkamasi) tuziladi.

Toshkent shahar Dumasi ma'muriy va o'quv binolari, yo'l qurilishi, obodonlashtirish, suv ta'minoti va boshqa shahar xo'jaligi bilan bog'liq ishlar bilan shug'ullanardi. Jumladan, 1892-yilda shaharda telefon aloqasining yo'lga qo'yilishi, 1901-yilda ot tortuvchi tramvay yo'li (konka)ning, 1912-yilda elektr toki bilan yuruvchi tramvay yo'lining barpo etilishi, ko'chalarni yorituvchi elektr lampochkalarining o'rnatilishi kabilarni Toshkent shahar Dumasining ijobiy ishlari qatoriga kiritish mumkin.

O'lkada tashkil etilgan politsiya va sud idoralari ham mustamlakachilik tartibini mustahkamlashga, mahalliy aholining har qanday norozilik harakatini bo'g'ish va bostirishga qaratilgan edi. Podshoizmning ma'muriy idora usuli o'lkani iqtisodiy o'zlashtirish, aholini ma'naviy jihatdan tobelikda saqlash, ruslashtirish siyosati bilan uyg'unlashtirilgan edi.

Mustamlakachilarning iqtisodiy, ma'naviy-madaniy siyosati va amaliyoti.

Rossiya hukumati Turkistonni iqtisodiy jihatdan batamom bo'ysundirish, uning boyliklarini tashib ketish, rus sanoatini xom-ashyo bilan ta'minlovchi o'lkaga va tayyor mahsulotlar sotiladigan bozorga aylantirish siyosatini yuritdi. Bu siyosatni Rossiya imperiyasi dvoryan-pomeshiklari va burjuaziyasi qo'llab-quvvatladi, ular o'lkani zuluk kabi so'rishga kirishib ketdilar.

Rossiya to'qimachilik sanoati uchun keltirilayotgan Amerika paxtasi uchun yiligi 30-40 million so'm boj to'lab kelardi. Shu boisdan Turkistonni paxta xomashyosi etishtiradigan bazaga aylantirish Rossiya agrar siyosatining bosh maqsadi, deb belgilandi. Xonliklar davrida davlat mulki hisoblangan katta-katta yer-maydonlari Rossiya davlati xazinasiga tegishli, deb e'lon qilindi. Vaqf mulklari ham asta-sekin davlat ixtiyoriga olindi. Xususiy mulk hisoblangan yerlar ham davlat mulkiga aylantirildi, ularni ilgarigi egalariga merosiy ravishda foydalanishga berildi va soliq solindi. Ijaraga yer olib, undan amalda foydalanib kelayotgan xonadonlarga o'sha yerlar meros qilib birlashtirildi va ularga soliq solindi. Shu tariqa o'lkaning barcha hosildor yerlari Rossiyaning daromad manbaiga aylantirildi. Yer solig'i XIX asr oxirida 4 million so'mni tashkil etgan bo'lsa, 1916-yilda 38 million so'mdan oshib ketdi.

Podshoh ma'muriyati Turkistonning doimiy egasi bo'lish uchun «ko'chirish» siyosatini qo'lladi. Fon Kaufman tashabbusi bilan 1875-yildayoq Avliyoota tumanida

Rossiyadan ko'chirib keltirilganlar hisobiga 8 ta rus qishlog'i vujudga keldi. 1886-yilda qabul qilingan «Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom»ga muvofiq rus dehqonlarini ko'chirib keltirish va joylashtirish kuchayib ketdi. Podsho hukumatining «Osiyo Rossiyasida bo'sh yotgan yerlardan» foydalanish borasida yaratgan imkoniyatidan foydalangan kam yerli yoki yersiz rus xonadonlari, kazaklar ma'muriyatning ijozatisiz Turkistonga boyish maqsadida oqib kela boshladi. Shu tariqa, Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand viloyatlarida 1910-yilga kelib 124 ta rus qishlog'i vujudga keldi, ularda 70 mingga yaqin ko'chib kelganlar yashardi. Ko'chib kelganlar mahalliy aholiga qarashli sersuv va hosildor yerlarni ham egallay boshlaydilar, yer-suv masalasida ular o'rtasida norozilik, to'qnashuvlar bo'ldi. Rus ma'murlari ko'chib kelgan kazaklarga tayanish, mahalliy aholi g'alayon ko'targuday bo'lsa, ularning yordamida bostirish maqsadida Turkistonda dehqonchilik qiluvchi rus kazaklarini qurollantirdi. Ular amalda podshoizm uchun zaxira qo'shinga aylantirildi.

Mustamlakachilar o'lkada, xususan Farg'ona viloyatida paxta plantatsiyalari tashkil etdi, sug'oriladigan ekin-maydonlarini kengaytirdi. 1885-1916-yillarda paxta ekiladigan yer-maydoni 40 ming tanobdan 550 ming tanobga ko'paydi. Hosildorlikni oshirish maqsadida 1884-yilda tajriba urug'chilik stansiyasi ochildi. Tolasi sifatli urug'lik chigiti yaratildi. Paxtachilikda pishiq tolali va hosildor «Amerika» navini ekish keng tarqaldi, boshqa ekin-maydonlari yildan yilga qisqartirib borildi. Qishloq xo'jaligida pilla yetishtirish ko'paytirildi, qand-lavlagi, kartoshka, karam ekinlarini ekish o'zlashtirildi. Vinochilik, asalarichilik paydo bo'ldi. 1867-1896-yillarda Rossiya imperiyasi xazinasiga 150 million so'm sof daromad tushdi.

Podshoh ma'muriyati Turkistonni Rossiyaning bir qismiga aylantirish, uning janubiy chegaralarida harbiy istehkomlar qurish, boyliklarni va yetishtirilayotgan xom ashyoni tashib ketish maqsadida Temir yo'l qurilishini boshlab yubordi. 1880-1889-yillarda zudlik bilan Krasnovodsk, Asxabod, Marv, Chorjo'y, Kushka, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Qo'qon, Andijon shaharlarini bog'lovchi O'rta Osiyo temir yo'li qurildi. 1890-1905-yillarda Toshkent-Orenburg temir yo'li qurilib, Turkiston Rossiyaning markazi bilan bog'landi. 1915-yilda Buxoro-Qarshi va Termiz-Qarshi-Shahrisabz-Kitob temir yo'li qurildi. Temir yo'llar qurilishi munosabati bilan Rossiyadan ko'plab ishchilar, injener-texnik xodimlar ko'chib kelishdi va ular qadimiy Turkiston shaharlariga joylashtirildi, ular joylashtirilgan qism yangi shahar, yerli aholi yashaydigan qism eski shahar deb ataladigan bo'ldi. Yangi shaharlar, jumladan, Skobelev (Hozirgi Farg'ona) shahri vujudga keldi.

Turkiston Rossiyaning markazi bilan temir yo'l orqali bog'langach, rus kapitali (sarmoyalari) o'lkaga oqib kelaboshladi. Turkiston xom ashyo bazasida savdo-sanoat yuritish, zavod-fabrikalar qurishga intiluvchilarga Rus-Osiyo banki, Moskva savdogarlar banki, Rossiya davlat banki pul qarz berib turdi. Natijada bir qator

zavodlar, savdo shohobchalari, oziq-ovqat ishlab chiqaruvchi korxonalar qurildi. Paxta va uni xarid qilish bilan shug'ullanuvchi 30 ta savdo shohobchasi vujudga keldi. 1913-yilda tuzilgan «Beshbosh» degan paxta-yog' shirkati Turkistonda 29 ta paxta zavodi qurdi, o'lkada etishtirilgan paxtaning 30 foizini xarid qilardi, 80 ming tonna paxta tolasini tashib ketar, 160 ming tonna chigit tayyorlardi. Katta sarmoyador Vodyaevlar Turkistonda «Vodyaevlar savdo uyi»ni tashkil etib, 30 ta paxta zavodi qurdi. Farg'ona vodiysidagi keng paxta dalalari, temir yo'llar, paxta tozalash zavodlari va Ivanovo to'qimachilik korxonalarini Vodyaevlar nazoratidagi katta kombinat tarkibiga kiritilgan edi. Ular yiliga Farg'ona vodiysida yetishtirilgan 7-8 million pud paxtani Ivanovoga tashib ketardi.

Mustamlakachilar qanchalik boyib borsa, arzon ishchi kuchi bo'lgan mahalliy aholi shunchalik qashshoqlashib bordi. Dehqonlar og'ir shartlar asosida qarz olardi, qarzini to'layolmay o'ziga tegishli yerini sotib, yersiz qolardi, mardikorlik, podshoakorlik qilishga majbur bo'lardi. Ular yoki yer egalari qo'lida yollanib batraklik qilishga yoki yangi ochilayotgan korxonalarga arzimagan ish hai evaziga ishlashga majbur bo'lardi. Yerni Rossiya banklari yoki puldor mahalliy boylar sotib olardi. Shu tariqa o'lkada 90-100 gektarcha sug'oriladigan yeri bo'lgan boy xo'jaliklari vujudga keldi. XX asr boshlaridagi ma'lumotlarga ko'ra o'lka aholisining 70 foizi kambag'al va qashshoqlar, 17 foizi o'rta hol, 13 foizi o'ziga to'q, boy oilalar hisoblanardi.

Rossiyalik sarmoyadorlar o'lkada paxta tozalash, yog' va spirt ishlab chiqarish, pivo, tamaki, un, qand, sovun, g'isht, ko'n, mis eritish, jun yuvish, ohak qizdirish zavodlari va oziq-ovqat korxonalarini qurib, ulardan mo'may daromad olishni yo'lga qo'ydilar. 1908-yilda o'lkada 378 ta sanoat korxonalarini faoliyat yuritgan bo'lsa, 1917-yilda ularning soni Buxoro amirligi va Xiva xonligida qurilgan korxonalarni ham qo'shib hisoblaganda 1200 taga yetgan.

O'lkada sanoat tarmoqlarining rivojlanishi aholining tabaqalanishiga ta'sir etib, milliy burjuaziya va ishchilar sinfi shakllana boshladi. 1914-yilgi ma'lumotlarga ko'ra o'lkada 49,5 ming ishchi bo'lib, ulardan 25,5 mingi sanoatda, 24 mingi temir yo'l va unga xizmat qiluvchi ustaxonalarda ishlagan. Turkistonda paxta tozalash zavodlari, do'konlari, tegirmonlar, katta-katta bog' uzumzorlarga ega bo'lgan mahalliy burjuaziya tabaqasi ham faoliyat yuritdi. Mahalliy aholiga mansub ishchilarga rossiyalik ishchilarga nisbatan 2,53,5 baravar kam ish xaqi to'langan. Dehqonmi, mardikormi, ishchimi mahalliy aholi Rossiya mujiklari va ishchilari oldida kamsitilardi.

Turkiston Rossiyaning jahon bozorlarida o'tmaydigan tovarlari sotiladigan bozorga aylantirildi. 1895-yilda Turkistonda Rossiya korxonalarida tayyorlangan 6 million so'mdan ortiqroq summada temir, mis, chinni buyumlar, gazlama, yog'och, choy, oziq-ovqat va boshqa buyumlar sotilgan bo'lsa, 1914-yilda sotilgan buyumlar

salmog'i 243 million so'mdan oshib ketdi. Sotilgan maxsulotlarning 40 foizi o'lkadan tashib ketilgan paxtadan Rossiya to'qimachilik korxonalarida to'qilgan gazlamalar tashkil etardi. Rossiya savdo-sanoatchilari Turkistonda sanoat mahsulotlari sotishdan ham, Turkistondan xom-ashyo sotib olishdan ham katta daromad olardilar.

Shunday qilib, Turkiston nafaqat Rossiya davlatining, shuningdek, rossiyalik savdo-sanoatchilar manfaatiga xizmat qiladigan o'lkaga aylantirildi.

Rossiya imperiyasi Turkiston xalqini ma'naviy-madaniy jihatdan tutqinlikka solish, o'zining uzoqqa mo'ljallangan manfaatiga bo'ysundirish siyosatini yuritdi. Uning mohiyati, mazmuni mahalliy xalqni uning milliy, tarixiy ildizlaridan uzib tashlash, xalqning ma'naviy, madaniy, tarixiy merosini yo'q qilish, ruslashtirishdan iborat edi. Turkiston general-gubernatorligining Farg'ona viloyati harbiy-gubernatori Skobelev shunday deb yozgan edi: «Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, san'atini, tilini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi» (**Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., Sharq, 1998, 24-bet**). Turkistonda ana shunday yovuz qarashlarga mos siyosat va amaliyot yuritildi.

Turkistonning noyob tarixiy, ma'naviy, madaniy boyliklari talon-taroj qilindi. 1870-yilda Toshkentda ochilgan kutubxona va 1876-yilda tashkil etilgan muzeyda o'lkaning ma'naviy-madaniy hayotini aks ettiruvchi oltin, kumush, misdan yasalgan qimmatbaho buyumlar, gilamlar, amaliy san'at namunalari, tarixiy yodgorliklar, arxiv hujjatlari, qo'lyozma kitoblar va boshqa osori-atiqalar to'plandi. Ular ko'rikdan o'tkazilib, qimmatbaho va nodir deb baholanganlari Peterburg va Moskvaga tashib ketildi. San'at darajasida ishlangan Muhammad Rahim taxti, Amir Temur maqbarasining naqshinkor darvozasi, undagi bitiklar, oynalar, oltin koshinlar, Ahmad Yassaviy maqbarasidagi naqshinlar, katta qozon («Nazir-niyoz qozoni»), turli tarixiy buyumlar, noyob kitoblar va boshqalar shular jumlasidandir.

Islom diniga e'tiqod, ruhoniylar, masjid va madrasalar oyoq osti qilina bordi. Rossiya ma'murlari musulmon muassasalari, madrasa ishlariga aralashib, ularning faoliyatini tobora cheklab bordi.

Maorif va madaniyat sohasida ruslashtirish siyosati yuritildi. Turkistonlik bolalarni ruslar bilan aralashtirib o'qitish va tarbiyalash g'oyasi ilgari surildi va 1884-yilda Toshkentda dastlabki «rus-tuzem maktabi» ochildi. XIX asr oxirida ularning soni yuztadan oshib ketdi. Bunday maktablarda rus va o'zbek muallimlari dars mashg'ulotlarini o'tadigan bo'ldi. Maqsad o'zbek yoshlariga rus tilini o'rgatish va rus turmush tarzini singdirish edi. Podshoizm ma'murlari yerli aholi bolalarini «rus-tuzem maktablari»ga jalb qilish, qiziqtirish uchun o'lkadagi mahalliy ma'muriyat boshqaruvida rus tilini bilganlar ishlaydi, degan talabni qo'ydilar. Bu talabdan maqsad «yerlilarda mansabga qiziqib» rus tilini o'rganish, ruslashish manfaatini uyg'otish edi. Rus tilini bilgan mahalliy aholi vakillariga imtiyozlar yaratildi. Shu tariqa, o'lkada ish yuritish asta-sekin rus tiliga o'tkazilabordi.

Podsho ma'murlari mahalliy aholiga Rossiyaning ulug'vorligini ko'rsatish, evropacha turmush tarziga qiziqtirish uchun Rossiyaning markaziy shaharlariga sayohatlar uyushtirdilar. Katta yoshdagilarni, shuningdek, yoshlarni guruh-guruh qilib Peterburg, Moskva va boshqa shaharlarga olib borib oq podshohning qudratini, baland imoratlar, ishlab chiqarish korxonalarini ko'rsatishardi. Mustamlakachilar sayohatchilar o'z yurtiga qaytib borgach, Rossiyaning ulug'vorligi haqida vatandoshlariga so'zlab beradi, Rossiya tarkibida bo'lganidan g'ururlanadi, degan maqsadda edilar. Bu tadbirlar ruslashtirish manfaatlarini ko'zlab uyushtirilardi.

Mustamlakachilarning yerli aholi turmushiga ma'naviy-ruhiy tazyiq o'tkazish dasturida o'lka xotin-qizlarini ruscha hayot tarziga o'rgatish masalasiga alohida o'rin berilgan edi. Shu maqsadda shaharlarda xotin-qizlar ambulatoriyalari tashkil etilib, ularda rus shifokorlari faoliyat ko'rsatdi. Ambulatoriyalarda ayollarga zarur tibbiy maslahatlar, tibbiy yordamlar ko'rsatildi, bu ijobiy hol, albatta. Shu bilan birga ayollarga ruscha turmush tarziga o'tish, ularning farzandlari tarbiyasiga ta'sir etish, pravoslavcha qarashlarning afzalligi, «paranji zulmidan xalos bo'lish, ochilish» zarurligi haqida tashviqot-targ'ibot ham qilinardi.

Mustamlakachi ma'murlar ruslashtirish siyosatini yuritsalarda, rus tilini yaxshi o'zlashtirgan ziyolilarga shubha bilan qarardi, ular ustidan nazorat, tazyiq uyushtirardi.

Xulosa qilib aytganda, maorif va madaniy hayotda ham podshoizmning mustamlakachilik siyosati yaqqol namoyon bo'ldi. O'lkaning madaniy-ma'rifiy hayotini cheklab, o'z manfaatlariga bo'ysunduruvchi yo'l tutdi. Podshoizm buyuk davlatchilik g'oyalarini Turkistonga zo'rlik bilan joriy etdi, milliy madaniyat va ma'naviy qadriyatlarni toptadi. To'g'ri, Rossiya imperiyasi Turkistonda kommunikatsiya va ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish, milliy kadrlarni tayyorlash, ma'rifatchilik va aholini jahon madaniyatidan bahramand qilish kabi ijobiy tadbirlarni ko'rdi. Biroq mustamlakachilik siyosati va amaliyoti o'lkaning iqtisodiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyotiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi. «Bu salbiy oqibat tashqaridan olib kirilgan tsivilizatsiya natijalaridan ko'ra bir necha barovar ortiq edi». (Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997, 55-bet.).

Rossiya imperiyasining Turkistonda joriy etgan ma'muriy-boshqaruvi tizimi xalqning boshiga solingan siyosiy sirtmoq bo'ldi. Bosqinchilar avvalo, Turkiston boyliklarini talon-taroj qildi, so'ngra o'lkani xom ashyo bazasiga aylantirib iqtisodiyotni o'z manfaatlari yo'lida jilovlab oldi. Og'ir soliqlar, g'ayriqonuniy majburiyatlar aholini tobora qashshoqlashtirib bordi. Mustamlakachilar mahalliy aholining milliy qadriyatlari, urf-odatlarini oyoq osti qilardi, ma'naviy zug'um kuchayib borardi.

Rossiya Turkistonni o'z mustamlakasiga aylantirgach, uning siyosiy, iqtisodiy,

ma'naviy-madaniy zulmi kuchayib bordi. Podshoizmning mustamlakachilik zulmiga qarshi xalqning noroziligi, nafrati oshib bordi, qo'zg'olon ko'tarishiga sabab bo'ldi. Qo'zg'olonlarning harakatlantiruvchi kuchi dehqonlar, shahar hunarmand-kosiblari, kambag'allar bo'ldi. Bu harakatlarda vatanparvar ruhoniylar, milliy g'ururini yo'qotmagan boy zamindorlar ham ishtirok etdilar.

1879-yilda 600 ga yaqin g'alayonchi Farg'ona viloyat boshqarmasi binosini qurshab olib, harbiy gubernatordan Marg'ilon tumanidan olinayotgan soliqlarni kamaytirishni talab qiladi. G'alayonchilar avzoidan cho'chigan, vaziyatning jiddiyligini anglagan viloyat harbiy gubernatori bo'lajak katta janjalning oldini olish maqsadida xalqqa yon bosib, ularning talablarini o'rganib chiqishga va'da beradi va g'ayriqonuniy soliq yig'uvchilarni aniqlab, ularni ishdan chetlashtirishga majbur bo'ladi.

1880-1883-yillarda mustamlakachilik zulmiga qarshi qator chiqishlar bo'lib o'tdi. Xo'jand, O'ratepa, Namangan, O'sh va Chustda ko'tarilgan qo'zg'olonlar bunga misol bo'la oladi. Manbalarda 1885-1892-yillarda Farg'ona viloyatida xalqning 205-marta siyosiy chiqishlari, harakatlari ko'tarilgani qayd etilgan.

Farg'onadagi vaziyatdan cho'chigan viloyat harbiy-gubernatori Vrevskiy aholidan ko'z-quloq bo'lib turish uchun Markaziy hukumatga maxfiy siyosiy politsiya xizmatini tashkil etish taklifini ilgari suradi. U Farg'ona viloyatining har bir tumanida maxfiy ayg'oqchilar tarmog'ini vujudga keltirish uchun o'z ixtiyoridagi mablag'dan foydalandi. O'lkaning oliy harbiy-siyosiy doiralari tobora kuchayib borayotgan norozilik to'lqinini pasaytirish uchun ta'sirchan vosita izlay boshladi. Qurolli kuchlar va politsiya xizmatini kuchaytirish tadbirlari uchun bir yilda 5,5 mln. so'm sarflanardi. Holbuki, unclan ham muhim hisoblangan temir yo'l uchun bor yo'g'i 190 000 so'm ajratilganini hisobga olsak, podsho hukumatining xalq harakatidan naqadar xavotirga tushgani aniq bo'ladi

Toshkent qo'zg'oloni. 1892-yilning yozida Turkiston markazi Toshkentda rus mustamlakchilarini talvasaga solgan va tarixga «vabo isyoni» yoki «toshotar voqeasi» sifatida kirgan qo'zg'olon bo'ldi. 1892-iyun oyida Toshkentda vabo tarqaldi. Shahar ma'muriyati shoshilinch podshoalar ko'rdi. Vabo kasali bilan o'lganlarni shahar ichkarisidagi 12 ta qabristonga ko'mish man etildi, shahar tashqarisida 4 ta yangi qabriston ochiladi, deb e'lon qilindi. Shahardan chiqish va kirish nazorat ostiga olindi. Shaharda vabo kasaliga chalinganlar yo'q qilinar ekan, degan mish-mishlar tarqaldi.

Toshkent shahar ma'muriyati tibbiyot nuqtai nazaridan to'g'ri bo'lgan bu tadbirlar haqida aholi o'rtasida tushuntirish ishlari olib bormadi, musulmonchilik odatlari, marosim qonun-qoidalarini hisobga olmadi. Va'da qilingan 4 ta yangi qabriston o'rniga faqat bittasi ochildi. Boshqa kasallik bilan o'lganlarni shahar ichkarisidagi qabristonlarga ko'mish ishlarini rasmiylashtirish ham cho'zilib ketdi,

suiiste'molliklar kuchaydi. Odamlar noiloj o'likni eski qabristonlarga olib borib ko'mishga majbur bo'ldi. Politsiya bundaylarni topib hibsga ola boshladi. Qabristonni ochib, o'lganlarning ruhi haqorat qilindi.

Shaharning eng taniqli kishilaridan hisoblangan Azizyor Eshon, Abulqosim xo'ja, bozor oqsoqoli Ziyomhammad va boshqa kishilar boshchiligidagi mingga yaqin kishi 24-iyunda shahar boshlig'i mahkamasi tomon yo'l oldilar. Ularga hokim to'ra-shahar boshlig'i polkovnik S.R.Putintsev va eski shahar oqsoqoli Muhammad Yoqub to'qnash kelishdi. Qamchisini o'ynatib kelgan oqsoqol xalqning so'zlarini, arz-dodini tinglash o'rniga unga dag'dag'a qila boshladi. Halq uning boshiga toshlar yog'dirdi. Mashhur «Toshotar» voqeasi boshlanib ketdi. Oqsoqol otdan tushib hokimning idorasiga qochib yashirindi. Polkovnik Putintsev esa o'zining sodiq qulini panohiga olib, xalqni tinchitishga urindi. Xalq undan oqsoqolni berishini talab qildi. Putintsev ham muzokara o'rniga kuch ishlatishni afzal ko'rib, to'pponchasini g'ilofidan chiqarib, dag'dag'aga o'tdi. Sabr kosasi to'lgan xalq, uzoq o'ylab o'tirmay, hokimga hujum boshladi, Putintsev va uning mirshablarini do'pposladilar, haloyiq mahkamani ham ostin-ustun qildilar.

Qurollangan soldatlar etib kelgach, xalq ayamay o'qqa tutildi. Noiloj qolgan olomon Anhor suviga o'zini tashlaydi, ko'p kishi halok bo'ladi va yaralanadi. O'lganlar va yaradorlarning miqdori haqida aniq ma'lumotlar saqlanmagan. Chunki xalqning o'zi jasadlarni va yaradorlarni o'zlari bilan olib ketishgan. Keyingi kunlari Anhordan topilgan mayitlar soni 80 taga yetgan. Qo'lga olingan 60 kishi turli muddatlarga qamoq jazosi va surgunga hukm qilindilar. Mustamlakachilarning zo'ravonligi xalqning ozodlik harakatini to'xtatib qololmadi.

Andijon qo'zg'oloni. Turkistonda ko'tarilgan ozodlik harakatining eng yirigi 1898-yilgi Andijon qo'zg'olonidir. Qo'zg'olonga Andijon yaqinidagi Mingtepa qishlog'ida yashovchi Muhammadali eshon boshchilik qildi. U otasining kasbini olib duk yasardi, shuning uchun uni Dukchi eshon deb atashardi. Muhammadali Buxoroda o'qidi, Makkaga hajga boradi, Farg'ona viloyatidagi Sultonxon To'ra eshon xizmatida bo'ladi. Uning vafotidan keyin o'zi Eshon bo'ladi. Uning maqsadi rus hukmronligidan qutilish, Farg'onada o'z kishisini xon qilib ko'tarish edi. Uning atrofida kambag'allar to'plana bordi, bog'lar yaratdi, suvsiz yerlarga suv chiqardi. Muhammadali eshon o'z muridlari bilan kengashib, mustamlakachilarga qarshi Andijon, Marg'ilon va O'shda joylashgan harbiy lagerlarga hujum qilish rejasini tuzadi.

1898-yil 17-may kuni Muhammadali eshon xaloyiqni qo'zg'olonga da'vat qiladi. Shu kuni xufton paytida har kim qo'lga tushgan narsani olib Andijon shahariga jo'nadilar. Eshon boshliq qo'zg'olonchilar Qo'tchi qishlog'iga kirishganda yana 200 kishi qo'shilgan. Qoraqo'rg'on va Oqchidan o'tib Qo'yliga yaqinlashganida ularga mingboshi G'oyibnazar o'z yigitlari bilan qo'shiladi. Qo'zg'olonchilar Andijonga

yaqinlashganlarida ularga boy savdogar Aliboy qurollangan 190 yigiti bilan qo'shiladi. Qo'zg'olonchilar soni 2000 kishiga etadi.

Qo'zg'olonchilar Andijondagi mustamlakachilarning harbiy garnizoniga bostirib kiradi va kazarmaning piramidalarida turgan 30 ga yaqin miltiqni o'lja qilib olib, birinchi qatordagi soldatlar ustiga tashlanishadi. Ularga ichkaridagi soldatlar qarshilik ko'rsatadilar. Podshoak soat davom etgan otishmadan so'ng qo'zg'olonchilar to'rt o'lgan sheriklarini tashlab chekinadilar. Harbiy garnizondagilardan 22 kishi o'ldiriladi, 24 tasi yarador bo'ladi.

Andijonda, ayniqsa rossiyaliklar yashaydigan yangi shaharda mustamlakachi amaldorlardan tortib to'rtinchi fuqarogacha vahimaga tushib, uylariga bekingan va musulmonlar yalpi hujumini kutgan. Hatto tumanboshi polkovnik Koishevskiy ham ko'chaga chiqishdan qo'rqib uyida bekinib yotadi. Eski shahar oqsoqoli Xolbahodir mingboshi uning oldiga kelganidagina u voqeaning tinch tugaganini bilgan va darhol askar chaqiradi. Ular yangi shahardan boshlab ko'ziga ko'ringan musulmonlarni otadi. Bu voqealardan mutlaqo bexabar, ertalab ishlashga chiqqan minglab dehqonlar va hunarmandlar mustamlakachilar o'qidan nobud bo'lishadi. Harbiy qo'shinlar shaharni o'rab olib, qo'zg'olonni harbiy kuch bilan shafqatsizlarcha bostiradi.

Mustamlakachilar Muhammadali eshoni tutish uchun Mingtepaga yurdilar, yo'lda duch kelgan kishini otib o'ldirib Mingtepaga bostirib kirdilar, uch soatcha otishma va tintuv o'tkazdilar. Nihoyat, eshon Arslonbob yaqinidagi Toshko'prikda qo'lga tushirildi. Eshon va uning muridlari, tanish-bilishlari, maslakdoshlariga nisbatan dahshatli qatag'on uyushtirildi. 1898-yil 12-iyunda Muhammadali eshon va uning yaqin maslakdoshlaridan 5 nafari osib o'ldirildi, yuzlab kishilar qamoq jazosiga hukm etildi, 18 kishi Sibirga surgun qilindi.

Dukchi eshon qo'zg'oloni izsiz ketmadi. Butun Farg'ona vodiysida mustamlakachilarga qarshi harakat davom etdi. Yakkatut, Namangan, Beshariq, Marg'ilon va boshqa tuman va qishloqlarda bosqinchilarga qarshi harakatlar bo'ldi. 1898-yilgi qo'zg'olon podshoizmga qattiq zarba berdi, uning negizlarini titratdi. Qo'zg'olonchilar Vatan ozodligi uchun kurash tarixi sahifalaridan munosib o'rin egalladilar.

1916-yil xalq qo'zg'oloni. Birinchi jahon urushi unda ishtirok etayotgan Rossiya imperiyasini tobora holdan toydirmoqda edi. O'n minglab askarlar jangda qurbon bo'ldilar. Talvasaga tushgan Rossiya Oliy Bosh qo'mondonlik shtabi harbiy vazirlikdan «armiya ehtiyojlari uchun salmoqli miqdorda kuch ajratishni» zudlik bilan talab qildi. Bu kuchni harbiy vazirlik mustamlakalardan to'plashga umid bog'ladi. Natijada Rossiya imperatori Nikolay II 1916-yil 25-iyunda Turkiston, Sibir va Kavkazdagi 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan erkaklarni front orqasidagi xizmatlar uchun safarbar qilish to'g'risida farmon chiqardi.

Turkiston general-gubernatoriga zudlik bilan farmonni amalga oshirish buyurilib,

Sirdaryo viloyati zimmasiga 87 ming, Samarqandga 38 ming, Farg'ona zimmasiga 50 ming kishi yuborish majburiyati yuklandi. O'lkada safarbar qilinuvchilarning ro'yxatlari tuzila boshlandi. Xalq bu tadbirga «mardikorlikka» olish deb nom berdi. Mahalliy ma'muriyat mardikorlikka chaqirishni boyluk orttirish vositasiga aylantirdi. Boylarning o'g'li pul bilan qutulib qolar, kambag'al oilalar esa yolg'iz o'g'ildan, boquvchisidan ayrilar edi. Bu hol xalqning kuchli noroziligiga olib keldi. Petrogradan ba'zi tabaqadagilar tovon evaziga mardikorlikdan ozod qilinishi mumkinligi to'g'risida qo'shimcha ko'rsatmalar etib kelganidan keyin xalq noroziligi qo'zg'olonga aylanib bordi.

4-iyulda Xo'jand shahrida norozilik namoyishi boshlanib ketdi. Unda dehqonlar, mardikorlar, podshoakorlar, ayollar - jami 3000 dan ortiq kishi qatnashib, namoyish «Mardikor bermaymiz!» shiori ostida o'tdi. Politsiya namoyishni bostirishga kirishdi, ular ustiga tosh yog'ildi. Harbiy qismdan soldatlar etib kelib politsiyachilar bilan birgalikda namoyishni bostirdi, ikki kishi o'ldi, bir kishi yarador bo'ldi. Xo'jand voqeasi haqidagi xabar butun Turkistonga yoyildi. 5-iyulda Samarqand uezdining Urgut qishlog'ida g'azabga kelgan 2000 kishilik dehqonlar volost boshqaruvining mahkamasi oldiga to'plandi. Mahkama xodimlari kaltaklandi. O'sha kuni Samarqand uezdining Siyob, Mahalla, Xo'ja Ahror va Angar volostlarida ham namoyishlar bo'lib o'tdi.

11-iyulda Toshkentda katta g'alayon boshlanib ketdi. Hunarmandlar, ishchilar, shahar kambag'allari va shahar atrofidagi dehqonlar Beshyog'ochdagi politsiya boshqarmasi tomon yo'l oldilar. Bu yerda qo'g'olonchilarning katta guruhi to'plandi. Namoyishchilar «bolalarimizni bergandan ko'ra o'zimiz o'lganimiz yaxshiroq, podsho o'lib ketsin» deya-maydonni larzaga keltirib qichqirdilar. Mahalliy aholi faollaridan Yo'lchi Ibrohimov (ko'nchi), G'ulom Kamolov (g'isht teruvchi), ishchi ayol Zuhribibi Musaeva va boshqalar xalqni podshoh hukumatiga qarshi qat'iy kurash boshlashga da'vat etdilar. «Ur, politsiyachilarni!» degan qichqiriqlar bilan boshqarmaga hujum qildilar. Qamal va otishma boshlanganidan bir soat keyin yordamga jazo qo'shini etib keldi. Kazak qismlari 5 kishini otib o'ldirishdi, 15 kishi yarador bo'ldi.

Qo'zg'olonning faol ishtirokchisi Zuhribibi ham kurashning oldingi safidagi to'qnashuvda tosh otayotib halok bo'ldi. Qo'zg'olonchilar chekinishdi. Sal keyinroq yana chinakam jang boshlanib ketdi. Endi podshoh askarlari chekinishga majbur bo'ldilar, ular boshqarma ichiga kirib olib, barrikada qurib himoyalاندilar. Podpolkovnik Savitskiy boshliq jazo otryadi, uning ketidan kelgan general Galkin kuchlari jangga kirib qo'zg'olonni bostirishga erishdilar. Toshkent atrofidagi qishloqlarda dehqonlarning g'alayonlari politsiya va qo'shinlar bilan to'qnashuvga aylandi. Bunday to'qnashuvlar 12-iyulda Yangibozor, To'ytepa qishloqlarida, 14-iyulda Troitsk, Xonobod va Pskent qishloqlarida ham bo'lib o'tdi.

Noroziliklar Rossiyaning asosiy paxtakor rayoniga aylantirilgan Farg'ona vodiysida tobora kuchaya boshladi. G'alayonlar Qo'qon shahri, Kattaqo'rg'on, Rishton, Ganjiravon qishloqlarida ham bo'lib o'tdi. Ularning barchasi ayovsiz bostirildi.

9-iyul kuni Andijon jome masjidida podshoh farmoni o'qib eshittirildi. Aholi yashin tezligida-maydonni to'ldirdi. Xalq «hozir hamma mingboshilar va amaldorlarning boshini kesib tashlaymiz va mol-mulkini yer bilan yakson qilamiz», deb tahdid solib, safarbarlikni bekor qilishni talab etishdi. Politsiya va kazaklarga hujum boshlandi. Jazolovchilar qo'zg'olonchilarga o't ochib 3 kishini o'ldirib, 12 kishini yarador qildilar.

Skobelev uezdida xalq g'alayonlari 10-iyul yakshanba kuni eski Marg'ilondagi chiqishlar bilan boshlandi. To'plangan kishilar soni 25 mingtagacha etgan. Qattiq to'qnashuvda ikki mirshab o'ldirilgan, bir necha oqsoqol kaltaklangan. Xalq bilan yomon munosabatda bo'lgan boylar ham o'ldirilgan. Boylarning uylari va ma'muriy binolar vayron qilinib, podsho rasmi yirtilib, oyoq ostiga tashlangan. Bu yerga jazo polki etib kelib qo'zg'olonchilarga qarshi o't ochib, 63 kishini o'ldirib, ko'pchilikni yarador qilganlar.

1916-yildagi qo'zg'olonning eng kuchli nuqtasi Jizzax qo'zg'oloni bo'ldi. Jizzax shahri aholisi 13-iyul kuni safarbarlikka chaqirilganlar ro'yxatini talab qilib oqsoqol va mingboshi mahkamasiga to'plandilar. Oqsoqolni o'ldirib, mingboshi mahkamasini vayron qildilar, ro'yxatni topib olib yondirib tashladilar. Nazir Hoji eshon Jizzax beki deb e'lon qilinadi. Qo'zg'olonni bostirishga etib kelgan jazo otryadi katta zarbaga uchradi. Qo'zg'olonchilar safi kengayib bordi. Nazir Hoji eshon boshchiligida qo'zg'olonchilar yangi shaharga tomon yurdilar. Jazo otryadi bilan qo'zg'olonchilar o'rtasida bo'lgan to'qnashuvda ikkala tomondan ham qurbonlar bo'ldi. Qo'zg'olonchilar telefon simlarini uzib, neftli baklarni yondirib, binolarni vayron qildilar. Lomakino bekatida temir yo'l ko'prigi, relslar buzib tashlandi. Obruchevo, Kurapotkino, Rostovtsovo temir yo'l bekatlari ham vayron qilindi, 6 ta temir yo'l ko'prigi buzib tashlandi. Abdurahmon jevachi boshchiligidagi kuchlarning Bog'don volostida ham g'alayonlari boshlanib, Jizzax tomon yuradilar. 21-iyul kuni Jizzax yaqinidagi Qili deb atalgan manzilda qo'zg'olonchilar bilan jazo otryadi o'rtasida to'qnashuv sodir bo'ladi. Pulemyotdan o'qqa tutilgach qo'zg'olonchilar engiladi. Abdurahmon jevachi, Nazir Hoji eshonlar qo'lga olinadi, o'lim jazosiga hukm qilinadi.

Turkiston general-gubernatori Jizzax qo'zg'olonini bostirish uchun polkovnik Ivanov boshchiligida oltita to'pi bor 13 ta rota askar, 300 kishilik kazak otryadi, 2 ta artileriya qismi va 3 rota sapyorlarni safarbar etadi. Jazo otryadi qo'zg'olonni shafqatsizlarcha bostirdi. Omon qolgan Jizzax aholisi jazirama cho'lga haydaladi. Jizzax ishi bo'yicha 1000 kishi hibsga olindi, 151 kishi sud qilinib turli muddatlarga

qamaldi.

1916-yilgi qo'zg'olon butun Turkistonga yoyildi, dehqonlar va kambag'allar qo'zg'olonni harakatga keltiruvchi asosiy kuch bo'ldi. Qo'zg'olon bostirilgan bo'lsada, mustamlakachilar ham anchagina kuchlaridan ajraldilar. Shuning uchun ham 1916-yil 13-dekabrda IV Davlat Dumasida so'zga chiqqan A.F. Kerenskiy «Urush frontlariga yangi bir front - Turkiston fronti qo'shildi», - deb vaziyatga jiddiy va xolis baho bergan edi.

General-gubernator imperatorga yo'llagan mutlaqo maxfiy axborotida 97 rus askari o'ldirilib, 86 tasi yarador bo'lganini va 76 askar bedarak yo'qolganini, 7 rus amaldori, rus aholisidan 2325 kishi o'ldirilib, 1384 kishi bedarak yo'qolganini yozgan. Ammo u Turkiston frontida o'z talofatini aniq yozgani holda vahshiyona o'ldirilgan o'n minglab mahalliy aholi hisobini bermaydi.

Qo'zg'olon o'lkadagi Rossiya imperiyasi mustamlakachilik tizimining tagi bo'sh zaminda ekanligi va uning ustunlari qimiray boshlaganini hamda Turkiston xalqlarining vatanparvarligi, g'ururi so'nmaganligini namoyon etdi.

Turkistonda o'rnatilgan mustamlakachilik zulmi XIX asr oxiri XX asr boshlarida yanada kuchaydi. Podshoizm iqtisodiy jihatdan mahalliy xalqni talash, ezish bilan birga, ularni jaholatda, savodsizlikda tutib turish, ma'naviy qashshoqlantirishga intilar edi. Mustamlakachilar shu maqsadda o'lkaga chinovniklar, harbiylar, bankirlar, savdo-sanoatchilar, muhandis-texniklar, ruhoniylar, ilmiy kuchlar, ishchilar, mujiklardan iborat malaylarini safarbar etgan edi. Zolimlar qanchalik urinmasin, mahalliy aholining hurlik, ozodlik uchun intilishini so'ndirolmadi, milliy ozodlik harakati kuchayib bordi. Tarixiy vaziyat millat ravnaqini o'ylovchi ziyolilar, mahalliy burjuaziya vakillari, ulamolar orasidan xalqni uyg'otish, milliy ongini oshirish, birlashtirish uchun kurashuvchi kuchlarni tayyorlab etishtirdi.

Sharq bilan G'arbni taqqoslab musulmonlar va turkiylar dunyosi, xususan Rossiya tasarrufiga olingan musulmonlarning jahon taraqqiyotidan uzilib qolayotganini qrim-tatar farzandi Ismoil Gaspirali (1851-1914) birinchi bo'lib angladi. U turkiy xalqlardagi jaholatni yo'q qilish, ma'naviyat-ma'rifat orqali taraqqiy topgan mamlakatlar darajasiga ko'tarilish harakatini boshlab berdi. Ismoil Gaspirali maorifni isloh qilish, maktablarda dunyoviy fanlarni o'qitish masalasini ko'tardi. U 1884-yilda Qrimdagi Boqchasaroy shahrida jadid maktabiga asos soldi.

«Jadid» arabcha so'z bo'lib «yangi» degan ma'noni bildiradi. U o'zi tashkil etgan maktab o'quvchilari uchun o'quv dasturi tuzdi va darsliklar yozdi. U 40 kun ichida 12 o'quvchining savodini chiqarib, tezda shuhrat qozondi. «Tarjimon» gazetasini chiqarib, o'z g'oyalarini yoydi. 1888-yilda «Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo'ldosh» kitobini nashr etib, jadid maktablarining qurilishi, dars o'tish mazmuni, jihozlanishi, sinov va imtihonlar olish usullarini bayon etib berdi.

Ismoil Gaspirali g'oyalari Turkistonga ham kirib keldi. 1893-yilda U Turkistonga

kelib, ilg'or ziyolilar bilan uchrashdi, Buxoro amiri huzurida bo'lib bitta jadid maktabi ochishga rozilik oldi. Turkistonlik ziyolilar jadidchilikni yoqlab maorifni isloh qilish, «Usuli jadid» maktablarini tashkil etishga kirishdilar. 1898-yilda Qo'qonda Salohiddin domla, 1899-yilda Andijonda Shamsiddin domla va Toshkentda Mannon qori jadid maktabiga asos soldilar. 1903-yilda Turkistonda 102 ta boshlang'ich va 2 ta o'rta jadid maktablari faoliyat ko'rsatdi.

Turkiston jadidlariga Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy va boshqa o'nlab milliy ziyolilar rahnamolik qildilar. Ular dastlab maorifni isloh qilish yo'lidan bordilar. «Usuli jadid» maktablari tarmog'i kengayib bordi, ularda diniy ta'limot bilan birga tibbiyot, hikmat, kimyo, nujum, handasa kabi dunyoviy bilimlar o'rgatildi, savod chiqarish tezlashtirildi.

Talabalarga Turkiston, turkiylar tarixini o'rgatishga alohida e'tibor berildiki, bu ularning milliy ongini uyg'otishga, jamiyatni etnik jihatdan birlashtirishga xizmat qilardi. M.Behbudiyning «O'z urug'ining otini bilmagan, etti otasini tanimagan qul-manqurtdir» degan so'zlari talabalarni milliy o'zligini anglashga chaqirar edi. Munavvar qorining «Adibi avval», «Adibi soniy», M.Behbudiyning «Kitobatul atfol», «Bolalar maktubi», «Muxtasari tarixi islom», «Jug'rofiya», A.Avloniyning «Adabiyot», «Birinchi muallim», «Turkiy guliston», «Maktab gulistoni» kabi darsliklari milliy maktab va milliy tarbiyani yuqori saviyaga ko'tarishga xizmat qildi. Jadid maktablarida har tomonlama bilimli, ma'naviy etuk, o'z xalqining tarixini va dunyo ishlarini yaxshi o'zlashtirgan kadrlar tayyorlab chiqarildi.

Jadidlar yoshlarni chet ellarga o'qishga yuborish tashabbusi bilan chiqdilar. Boy tabaqaning ilg'or vakillari jadidlarning bu harakatini ma'qullab, tegishli mablag' bilan ko'maklashdilar. Ko'pgina umidli yoshlar Germaniya, Misr, Turkiya va Rossiyaning markaziy shaharlariga o'qishga yuborildi. 1910-yili Buxoroda mudarris Xoji Rafiy va boshqalar «Bolalar tarbiyasi» xayriya jamiyatini tashkil etib, 1911-yilda 15 ta, 1912-yilda 30 ta talabani Turkiyaga o'qishga jo'natdi. 1909-yilda Munavvar qori tuzgan «Jamiyati xayriya» ham miskin va ojiz talabalarga yordam berar, yoshlarni chet elga o'qishga yuborishga yordamlashar edi.

Jadidlar Turkistonda milliy matbuotga asos soldilar. Munavvar qori 1906-yilda «Xurshid» («Quyosh») jurnalini tashkil etib, unga o'zi muharrirlik qildi. Jurnal xalqning haq-huquqlarini tanishga, milliy uyg'onishga xizmat qildi. Ammo mustamlakachi ma'murlar tezda jurnalni chiqarishni man qildilar. M.Behbudiy 1913-yilda «Samarqand» gazetasi va «Oyina» jurnalini chiqara boshladi. U «Nashriyoti Behbudiya» xususiy nashriyotini, uning huzurida «Kutubxonai Behbudiya»ni tashkil etdi. Gazeta va jurnalda millat va ona yurt dardi, xalqni ma'rifatli qilish, erkinligini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan dolzarb maqolalar chop etilardi. Ular Rossiya imperiyasi tasarrufidagi turkiy xalqlarga, Eron, Afg'oniston, Hindiston, Turkiyagacha borib etardi.

Taraqqiyparvar o'zbek ziyolilarining etakchisi Asadullaxo'ja o'g'li Ubaydullaxo'ja 1913-yilda «Taraqqiyparvar» deb nom olgan ziyolilarning firqasini tuzadi va 1914-yilda firqaning «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg'ona» gazetalari chiqariladi. Bu gazetalar sahifalarida e'lon qilingan maqolalar ommani mustabid tuzumga qarshi qo'zg'atishga xizmat qildi.

Jadidlar milliy teatrga asos soldilar. Munavvar qori rahnamoligida 1913-yilda musulmon drama san'ati havaskorlari jamiyati - «Turon» trupпасi tuzildi. 1914-yil 27-fevralda Toshkentdagi «Kolizey» teatri binosida o'zbek milliy teatrining birinchi rasmiy ochilish marosimi bo'ldi. Munavvar qori o'zbek milliy teatrining birinchi pardasini ochar ekan shunday degan edi: «Turkiston tilida hanuz bir teatr o'ynalmag'onligi barchangizga ma'lumdir... Teatrning asl ma'nosi «ibratxon» yoki «ulug'lar maktabi» degan so'zdir.

Teatr sahnasi har tarafi oynaband qilingan bir uyga o'xshaydurki, unga har kim kirsa o'zining husn va qabihini, ayb va nuqsonini ko'rib ibrat olur». O'sha kuni sahnada M.Behbudiyning «Padarkush» pesasi namoyish etildi. Unda islom dinining Turkistondagi buzilishlari tasvirlanib, tamoshabin e'tiborini najot yo'li - maorif, maorifni esa «poklangan din» bera oladi, degan g'oyaga qaratadi. «To'y», «Zaharli hayot», «Javanmarg», «Baxtsiz kuyov» pessalarida xotin-qizlarning huquqsizligi, ko'pxotinlik, majburiy nikoh oqibatlari kabi muammolar yoritiladi. Milliy teatr san'ati odamlarga millatda mavjud bo'lgan qusurlar va ijobiy tomonlarni tushunturuvchi oyna bo'lib xizmat qildi.

Jadidlar matbuoti va teatrida ayrim mutaassib ruxoniylarning poraxo'rliги, axloqsizligi ham qattiq tanqid ostiga olindi. Abdurauf Fitrat «Munozara» nomli asarida Buxoro ulomalarining nodonligi va poraxo'rligini ochib tashladi. «Hind sayyohining sarguzashtlari» asarida esa Buxoro, Qarshi va boshqa shaharlardagi iqtisodiy tanazzulga ayrim ruhoniylarning o'z mavqeini suiiste'mol qilganliklarini asosiy sabab qilib ko'rsatdi. Jadidchi jurnalist va dramaturglar nashavandlik, kashandalik, zinogarlik, fohishalik kabi illatlarni qoralashdi.

Jadidlar guruhiy, ijtimoiy va hududiy birlik to'g'risidagi masalalarni ko'tarib, xalqni milliy va diniy birlikka, jipslashishga, hududiy birlikka chaqirdi, ijtimoiy ongni XX asr darajasiga ko'tarishga intildilar.

Jadidlarga, bir tomondan, mutaassib ruhoniylar, ikkinchi tomondan, mustamlakachi ma'murlar qarshilik ko'rsatdilar. Mutaassib ruhoniylar jadidlar ko'targan barcha yangiliklarga qarshi chiqishdi. Ular jadidlarni padarqushlar, maktablari haqida esa «bu xil maktabda o'quvchi-talabalar birinchi yili gazeta o'qiy boshlaydi, ikkinchi yili ozodlikni talab qilishadi, uchinchi yili esa janobi oliylarini taxtdan ag'darib turmaga tiqib qo'yishadi» der edilar. Mutaassiblar tarixni tasvirlash, o'qitish be'manilik, dahriylik deb hisoblashdi. M.Behbudiy ularni fosh qilar ekan, Qur'oni Karim ham, Muhammad payg'ambarning hadislarini ham tarixga daxldor

ekanligini, Qur'oni Karimning podshoak qismi tarixiy ma'lumotlardan iboratligini asoslab beradi.

Mustamlakachi ma'murlar jadidlar harakatini jilovlash podshoalarini ko'rdilar. Ular ustidan nazorat o'rnatar, gazeta va jurnallarini man etib, nashriyotlarini buzib tashlar, kitob do'konlari, qiroatxonalarni yopib tashlar edi. Ayniqsa 1905-1907-yillardagi Rossiya inqilobidan keyin qatag'onlik kuchaydi. Bu inqilobdan mahalliy burjuaziya va zamindorlarning bir qismi qo'rqib ketib mustamlakachi ma'murlar panohiga intildilar. Jadidlardan o'ng qanot ajralib chiqib reaksiya lageriga qo'shildilar. Qadimchilar deb atalgan bu guruh Rossiyaning obro'si bizning obro'yimiz, xudodan qo'rq, podshohni hurmat qil, podshohning amri fuqarolar uchun vojibdur, deb chiqdilar. Ular islohotlarga qarshi chiqib, qadimgi tartiblarni himoya qildilar. Ular panturkizm - turkiy xalqlarni Turkiya davlatining qo'li ostida birlashtirish, panislomizm - islom dinidagi barcha xalqlarni birlashtirish g'oyalari soyasida qolib ketdilar.

Jadidlar tobora olg'a yurdilar. Mustamlakachilarning jadidlarga nisbatan qo'llagan zo'ravonlik podshoalari, ularni ma'naviy-ma'rifiy islohotdan siyosiy qarshilik ko'rsatish darajasiga ko'tarilishiga olib keldi. Dastlabki siyosiy uyushma va firqalar vujudga keldi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda-maydonga kelgan jadidchilik madaniy-ma'rifiy, milliy, ijtimoiy-siyosiy harakat edi. U o'sib mustamlakachilarga qarshi ko'tarilgan milliy-ozodlik harakatining mafkurasiga aylandi.

Nazorat savollari

1. O'zbek xonliklarida josuslik ishlari bilan shug'ullangan Rossiya elchilari, ekspeditsiyasi haqida nimalarni bilasiz?
2. Rossiya imperiyasi nima uchun xonlik chegaralarida harbiy istehkomlar qurdi? Shunday istehkomlar qayerlarda barpo etilgan?
3. O'rta Osiyo masalasida ingliz—rus raqobati qanday bordi?
4. Rossiya imperiyasi bosqini qanday boshlandi?
5. Chimkentdagi janglar qanday bordi?
6. Toshkent mudofaasi haqida nimalarni bilasiz?
7. Amir lashkar Alimqul jasorati haqida so'zlab bering.
8. Jizzax mudofaasi, jang natijalarini bilasizmi?
9. Turkiston general-gubernatorligi qachon tuzildi, uning hudud- larini bilasizmi?
10. Zirabuloq jangi haqida nimalarni bilasiz?
11. Samarqand qo'zg'oloni haqida so'zlang.
12. Kaufman bilan Amir Muzaffar o'rtasida qachon shartnoma tuzildi, uning shartlarini bilasizmi?
13. Kaufmanning Xiva xonligiga yurishi, uning natijalari haqida so'zlang.

14. Gandimiyon shartnomasi qachon tuzildi, uning shartlarini bilasizmi?
15. Qo‘qon xonligida ko‘tarilgan qo‘zg‘olonlarning sabablari, rahbarlari, natijalarini bilasizmi?
16. Qo‘qon xonligining taqdiri nima, bo‘ldi?
17. Mustamlakachilar qanday idora usulini joriy etdilar?
18. Mustamlakachilarning iqtisodiy siyosati va amaliyoti haqida nimalarni bilasiz?
19. Mustamlakachilar ma‘naviy-madaniy sohada qanday siyosat yuritdilar?
20. Milliy ozodlik harakati, deganda nimani tushunasiz, uning sabablari nimada?
21. Toshkent qo‘zg‘olonining sabablari, natijalarini bilasizmi?
22. Andijon qo‘zg‘oloni haqida nimalarni bilasiz?
23. Qanday voqea 1916-yilda Turkistonda qo‘zg‘olon ko‘tarilishiga turtki bo‘ldi, uning asosiy sababi nimada edi?
24. Jizzax qo‘zg‘oloni haqida nimalarni bilasiz?
25. 1916-yilgi qo‘zg‘olonning ahamiyati nimada?
26. Jadidlar harakati nima va u Turkistonda qachon boshlangan?
27. Kimlar Turkistonda jadidlar harakatiga rahnamolik qildilar?
28. Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyati haqida so‘zlang.
29. Munavvar qori Abdurashidxonov faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
30. Jadidlar qanday gazeta va jurnallarni nashr etganlar?

10-mavzu. Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o‘rnatilishi. Sovet hokimiyatining O‘zbekistonda amalga oshirgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy tadbirlarining mustamlakachilik mohiyati (1917-1989yy.)

REJA:

1. Rossiyada 1917-yil voqealari va uning Turkistonga ta’siri.
2. Turkiston Muxtoriyati.
3. Turkistonda Istiqlolchilik harakati.

Tayanch so‘z va iboralar: *1917-yil fevral inqilobi. Ikki hokimiyatchilik. Jadidlarning faollashuvi. «Sho‘royi Islomiya». «Sho‘royi Ulamo». Turkiston o‘lka musulmonlari sho‘rosi. Oktabr davlat to‘ntarilishi. Turkiston Xalq Komissarlari Soveti. Shovinistik siyosat. Turkiston Muxtoriyati. TASSR. Qurolli harakat. Qo‘rboshi. Yosh xivaliklar. Xiva xonligining ag‘darilishi. XXSR. Yosh buxoroliklar. Buxoro amirligining ag‘darilishi. BXSr.*

XX asr boshlarida Turkistonda uchta ma’muriy birlik: Rossiya imperiyasi O‘rta Osiyoni zabt etganidan keyin tuzilgan va uning tarkibiga mustamlaka sifatida qo‘shib olingan **Turkiston general-gubernatorligi**, shuningdek, yuzaki ravishda mustaqil bo‘lgan, ammo, Rossiyaga qaram hisoblangan **Buxoro amirligi** va **Xiva Xonligi** mavjud edi. Hududining kattaligi va aholisining ko‘pligi jihatidan Turkiston general-gubernatorligi eng yirik edi. O‘lkadagi 5 mln. dan ko‘proq aholi (o‘zbeklar, tojiklar, qirg‘izlar, qozoqlar va turkmanlar) islom diniga e’tiqod qiluvchi musulmonlar edi. Rossiyadan ko‘chirib keltirilgan rusiyabon aholi o‘lkadagi aholining 10/1 qismidan ham kam edi.

1917-yilga kelib Rossiya imperiyasi o‘zining so‘nngi kunlarini boshidan kechirayotgan edi. Ma’lumki Rossiya imperiyasi Antanta ittifoqi tarafida turib 1914-yildan Birinchi jahon urushiga kirgan edi. Urushdagi harbiy mag‘lubiyatlar va xo‘jalikdagi vayronagarchilik imperiyani tang ahvolga solib qo‘ydi. Bu esa 1917-yilning 23-27-fevralida ro‘y bergan pus burjua inqilobiga sabab bo‘di.

23-fevralda Petrograd da stixiyali tarzda namoyishlar boshlanib, ularni tarqatish uchun yuborilgan hukumat askarlari ham qo‘zg‘olonchilar tomoniga o‘tib keta boshladilar. 27-fevralda qo‘zg‘olonchilar shaharning muhim joylarini, hukumat idoralari egallaydilar. Nikolay II (1894-1917) taxtdan voz kechdi. Ko‘p asrlik Romanovlar sulolasi hukmronligi ag‘darildi. Natijada Rossiyada tarixda kamdan-kam uchraydigan hodisa - ikki hokimiyatchilik vujudga keldi. Ularning birinchisi burjuaziya vakillaridan iborat Muvaqqat hukumat, ikkinchisi Ishchi, askar, dehqon deputlari sovetlari edi.

Agar burjuaziya Muvaqqat hukumati mamlakatni yuqoridan turib boshqaradigan organ sifatida faoliyat yuritib, asta - sekinlik bilan hokimiyat muruvvatlarini o'z qo'lga olib borgan bo'lsa, ishchi, askar, dehqon deputatlari sovetlari esa hokimiyatni quyidan boshqarishda qatnashib bordilar. Ularning hokimiyat organi - Petrograd Soveti huddi shu yo'nalishda faoliyat yuritdi.

Podsho Rossiyasining mustamlakachilik asorati ta'sirida bo'lib kelgan Turkiston o'lkasi hayotida ham bu davrga kelib sezilarli tarixiy voqealar sodir bo'ldi. Podsho Rossiyasining mustamlakachilik boshqaruv organi - Turkiston General-gubernatorligi tugatildi. Uning o'rniga Muvaqqat hukumatning 1917-yil 7-apreldagi qaroriga binoan kadet N.N.Shchepkin raisligida 9 kishidan 4 nafari tub yerli aholi iborat Rossiya Muvaqqat hukumatining Turkiston Qo'mitasi tashkil etildi. Viloyatlarda harbiy gubernatorlik tizimi barham toptirilib, viloyat komissarlari instituti vujudga keltirildi. Shuningdek, Rossiyada faoliyat yuritayotgan bolsheviklar, mensheviklar va eserlar partiyalarining Turkistondagi mahalliy tashkilotlari yetakchiligida o'lkaning bir qator yirik shaharlarida ishchi, askar deputlari sovetlari tashkil topdi. Tez orada mahalliy aholi vakillaridan iborat musulmon ishchi va askar deputlari sovetlari ham tuzila boshlandi. Muvaqqat hukumatning 1917-yil may oyi boshlarida chiqargan farmoniga binoan Turkistondan jalb qilingan mardikorlar o'z ona yurtlariga qaytib kela boshladi.

Yurt istiqboli va istiqloli uchun qayg'uruvchi vatanparvar, hurriyatparvar kuchlar harakat qila boshladi va tashkiliy jihatdan uyusha bordi. Bu jarayonda ozod va mustaqil Turkiston uchun ko'p yillar fidoyilik bilan kurashib kelgan jadidlar harakatining rahnamolari alohida o'rin tutdi. Ular mahalliy aholining siyosiy ongini o'stirish, hal qiluvchi kurashlarga yetaklab borish maqsadida o'lkaning ko'plab shaharlarida vaqtlilik matbuot nashrlari - gazeta va jurnallar chiqara boshladilar. Masalan, Toshkentda "Xurshid", "Sadoi Turkiston", "Turk eli", "Najot", "Kengash", "Sho'roi islom", Samarqandda "Oyna", "Hurriyat", Buxoroda "Turon", "Buxoroi sharif", Qo'qonda "Sadoi Farg'ona", "Tirik so'z" nomli matbuot nashrlari o'z sahifalarida markazdagi siyosiy vaziyatni, joylardagi ahvolni, o'tkir ijtimoiy-siyosiy masalalarni yoritishda, mahalliy aholi ommasini siyosiy-g'oyaviy jihatdan tayyorlab borishda muhim rol o'ynadi.

Abdulla Avloniy tomonidan Toshkentda 1917-yil apreldan chiqarila boshlagan "Turon" gazetasining ilk sonida "Yashasin xalq jumhuriyati" shiori birinchi bor yangragan edi. Unda aniq maqsad-maslak: "Musulmonlar orasida ko'p yillardan buyon davom etgan umumga zo'rlik, bid'at odatlarni bitirmak, kelajakda bo'ladigan jumhuriy idoraga xalqni tayyorlamoq" g'oyasi ilgari surilgan edi.

Xuddi shuningdek, Munavvar Qorining o'sha yili "Najot" gazetasining 26-mart sonida bosilgan «Xurriyat berilmas, olinur», degan xitob ham jadidlarning xalq ozodligi va istiqloli yo'lida jiddiy kurashga bel bog'laganliklaridan dalolat berardi.

Sho'roi Islom va "Sho'roi Ulamo" tashkilotlari. Turkiston jadidlari faqat targ'ibot-tashviqotchilik ishlari bilangina cheklanib qolmasdan, shu bilan birgalikda siyosiy tashkilotlar, partiyalar tuzish, ularning faoliyatini islohotchilik maqsadlari sari yo'naltirish bilan ham jiddiy shug'ullanib bordilar. Chunonchi, 1917-yil 14-martda Toshkentda "Sho'roi Islom" tashkiloti tuzildi. Hur va demokratik Turkiston uchun kurash uning asosiy g'oyasi va bosh maqsadi edi. 15 kishidan iborat rayosat tarkibidan Munavvar qori Abdurashidxonov (yetakchi), Abduvohid qori, Mirkomilboy Mo'minboyev, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Salimxon Tillaxonov singari yurt rahnamolari o'rin olgan edilar.

O'lkaning turli joylarida "Sho'roi Islom"ning quyi shu'balari tuzilib, ular aholi orasida qizg'in faoliyat yuritdilar. Shuningdek, "Sho'roi Islom" ta'sirida joylarda turli nomlarda tashkilotlar tuzildi. Toshkentda "Turon", "Ittihodi taraqqiy", Andijonda "Ozod xalq", "Hurriyat", "Ma'rifat", Samarqandda "Mirvaj-ul Islom", "Klub Islomiya", Kattaqo'rg'onda "Ravnaqul Islom", "Guliston" va boshqalar shular jumlasidandir. M. Behbudiyning "Xaq olinur, berilmas", Munavvar Qorining "Hurriyat berilmas, olinur" shiorlari ularning chinakam kurash bayrog'iga aylangan edi..

Turkiston istiqloli uchun kurashga bel bog'lagan va "Sho'roi Islom" ta'sirida faoliyat yuritgan jadidlarning bir qismi "Qadimchilar" nomi bilan atalardi. 1917-yil iyuniga kelib "Qadimchilar" "Sho'roi Islom" tarafdorlari bilan uzil - kesil aloqani uzib, "Sho'roi Ulamo" tashkilotini tuzdilar (uning rahbarlari: Sherali Lapin, Abdumalik Hoji Nabiyev va boshqalar).

Bo'linishning asosiy sabablari Turkistonning milliy mustaqilligiga erishish yo'lidagi ikki xil qarama-qarshi taktik kurash masalasi edi.

Konservativ, mutaassiblik qarashlar nuqtai nazaridan yondashgan "Qadimchilar" o'lka mustaqilligini hukmron mustamlakachilarga qarshi faqat g'azovot, ya'ni qurolli kurash yo'li bilan qo'lga kiritishni yoqlardilar.

Jadidlarning ilg'or namoyandalari esa Rossiyada yuzaga kelgan qulay inqilobiy shart-sharoitlardan foydalanib, yurt mustaqilligini siyosiy vositalar orqali, behuda qon to'kmasdan, bosqichma-bosqich qo'lga kiritishni istardilar. Ularning demokratik Rossiya Federatsiyasi tarkibidagi Turkiston muxtoriyati talabi ham shu maqsadni ko'zda tutardi.

O'lkaning milliy kuchlari o'rtasida yuz bergan bu ajralish va g'oyaviy ixtiloflar, shubhasiz, ularning harakat birligiga jiddiy putur yetkazardi. Ayniqsa "Sho'roi Ulamo"chilarning nashri - "Al-Izoh" jurnali sahifalarida millatning ilg'or kuchlariga, vatanparvar milliy ziyolilarga nisbatan adovat urug'ini yoyishga alohida urg'u berildi. Bu esa aslida shovinistik kuchlar tegirmoniga suv quyish edi. Negaki bundan o'lkada faoliyat yuritayotgan yot begona siyosiy kuchlar o'z maqsadlari yo'lida foydalandilar.

Turkistonda demokratik harakatlarning o'sib borishida, turli ijtimoiy qatlamlar va tabaqalarni istiqlol uchun kurash bayrog'i ostida birlashtirishda 1917-yilda bo'lib o'tgan Umumturkiston musulmonlari qurultoylari va ular ishlab chiqqan dasturiy hujjatlar, tashkiliy tadbirlarning roli katta bo'ldi.

Turkiston o'lka musulmonlar sho'rosi. "Sho'roi Islom" tashkiloti tashabbusi bilan 1917-yil 16-aprelda Umumturkiston musulmonlarining I qurultoyi chaqirildi. Qurultoy ancha vakolatli anjuman bo'lib, uning ishida Turkistonning ko'plab atoqli kishilari qatnashadilar. Ular orasida M. Cho'qayev, M. Abdurashidxonov, M. Behbudiy, U. Asadullaxo'jayev, Sh. Lapin, T. Norbo'tabekov, A. Z. Validiy, S. Yusupov, I. Shoahmedov va boshqalar bor edi. Qurultoy kun tartibiga 16 ta masalaning qo'yilishining o'zi ham uning katta ahamiyatidan darak berardi. Qurultoyda o'lkaning bo'lajak davlat qurilishiga alohida to'xtalib, Turkistonga keng muxtoriyat huquqini beradigan demokratik Rossiya federatsiyasi tuzilishi g'oyasi ilgari surildi. Qurultoyda - Turkiston o'lka musulmonlari sho'rosini tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi. Turkiston o'lka musulmonlar Sho'rosining birinchi yig'ilishida uning markaziy organi - Markaziy sho'ro tuzildi. Mustafu Cho'qayev Markaz raisi, Munavvar Qori rais muovini, Ahmad Zakiy Validiy kotib, M. Behbudiy, U. Assadullaxo'jayev va boshqalar a'zolar etib saylandilar. Markaziy sho'ro zimmasiga o'lkadagi barcha tarqoq, o'z holicha ish yuritayotgan, nizom va dasturlariga ega bo'lmagan uyushma va tashkilotlarni birlashtirish, faoliyatini muvofiqlashtirish vazifasi yuklandi. Buni uddalashda Markaziy sho'roning joylarda tashkil etilgan shu'ba (bo'lim)lari muhim rol o'ynadi. Jumladan, Toshkent shu'basini M. Abdurashidxonov, Samarqand shu'basini M. Behbudiy, Farg'ona shu'basini esa Nosirxon To'ra Kamolxon To'ra o'g'li boshqardi. Shu tariqa Turkistonda uchta hokimiyat organi vujudga keldi:

1. Rossiya Muvaqqat hukumatining Turkiston Qo'mitasi;
2. Ishchi, askar deputatlari soveti;
3. Turkiston o'lka musulmonlari sho'rosi, uning markaziy organi - Markaziy sho'ro.

O'lka xalqlarining rahnamolari bo'lgan jadidlar, ruhoniya arboblari o'z sa'y-harakatlarida mahalliy, hududiy manfaatlar, qiziqishlar bilan cheklanib qolmay, boshqa mintaqalardagi musulmonlar ommasi, ularning ilg'or vakillari bilan ham yaqindan hamjihat bo'lishga intildilar. Shu maqsadda ular 1917-yilning 1-2-mayida Moskvada bo'lib o'tgan Butunrossiya musulmonlari I qurultoyida ishtirok etdilar. Unda musulmonlar manfaatini himoya qiluvchi davlat qurilishi shaklan milliy-hududiy, federatsiya asosidagi demokratik respublika bo'lishi ta'kidlandi. Qurultoyda Butunrossiya Musulmonlari sho'rosi, uning Ijroiya Qo'mitasi ta'sis etildi. Ijroiya Qo'mitaga o'lkamiz vakillaridan U. Asadullaxo'jayev va I. Shoahmedovlar a'zo etib saylandilar.

Turkiston vakillari ishtirok etgan va 1917-yilning 21 - 31-iyul kunlari Qozon shahrida bo'lib o'tgan Butunrossiya musulmonlarining II qurultoyi ham Rossiya musulmon aholisining ozodlik va mustaqillik sari harakatlanish yo'lini aniqlashtirish va muvofiqlashtirishda muhim qadam bo'ldi. Unda Turkiston, Kavkaz va Qrimda davlat boshqaruvini mehnatkashlarning o'zlari hal etishi, musulmonlar kurashini tashkil etish uchun Butunrossiya Harbiy Sho'rosini ta'sis etish to'g'risida qarorlar qabul qilindi.

1917-yilning 17-20-sentabr kunlari Toshkentda bo'lib o'tgan Umumturkiston musulmonlari vakillarining II Qurultoyi o'lka xalqlari xayotida muhim rol o'ynadi. Unda 500 nafar vakillar ishtirok etdi. Qurultoyda tarkibi 12 kishilik Turkiston o'lka Qo'mitasi, 24 kishilik "Mahkamai Sharia" (parlament) tashkil etildi. Qurultoyning maxsus qarorida ularning Rossiya davlati konstitutsiyasiga muvofiq keladigan shariat qonunlari asosida faoliyat yuritishi ta'kidlangan edi. Qurultoyda "Sho'roi Islom", "Sho'roi Ulamo", "Turon", "Ittihad" va shu kabi boshqa mahalliy milliy tashkilotlarni birlashtirib, ular negizida yagona "Ittifoqi Muslimin" ("Musulmonlar Ittifoqi") siyosiy partiyasini tuzish g'oyasi ilgari surildi. Qurultoyda M. Behbudiy otashin nutq so'zlab, hammani birlikka, jipslashishga da'vat etgandi. "Ulug' Turkiston" gazetasi qurultoy ruhini aks ettirib, Turkistonning o'z ichki ishlarini mustaqil hal etishga qodir bo'lgan o'lkaning mahalliy va milliy muxtoriyatini tuzish g'oyasini asosiy o'ringa qo'ygan edi.

Shunday qilib, Turkistonning ilg'or ziyolilari milliy istiqlolga erishish yo'lida o'lkadagi barcha sog'lom, vatanparvar kuchlarni birlashib, jipslashib harakat qilishga da'vat etgandilar. Biroq, afsuski, Turkistonda ayricha faoliyat yuritgan, o'z nafsoniyatiga berilgan hamda muxolifatchilik ustivor bo'lgan ayrim mahalliy, milliy tashkilotlar mana shu yuzaga kelgan imkoniyatlardan foydalana olmadilar. Bu esa, shubhasiz, vaziyatni ustamonlik bilan o'z izmiga burib yuborishga intilayotgan bolsheviklarga qo'l keldi.

Muvaqqat hukumatning mamlakatni jahon urushidan olib chiqa olmaganligidan, agrar va milliy masalalarni hal etolmayotganligidan bolsheviklar ustamonlik bilan foydalandilar. Bolsheviklar ilgari surgan "Butun hokimiyat Sovetlarga!", "Yer dehqonlarga", "Xalqlarga tinchlik" shiorlari ularning hokimiyatga kelishlarida ayniqsa asqotdi. Rossiya poytaxti Petrogradda 1917-yil 24-25-oktabrda davlat to'ntarilishi sodir bo'ldi. Uni Lenin boshchiligida bolsheviklar partiyasi zo'rlik bilan amalga oshirdi. 1917-yil 25-oktabrda bolsheviklar tomonidan Petrogradda Butunrossiya Sovetlarining II qurultoyi chaqirilib, unda Lenin boshliq Sovet hukumati - Xalq Komissarlari Soveti tuzildi. Sulx va Yer to'g'risida dekretlar qabul qilindi. Sovet hukumati nafaqat Markazda, balki shu bilan birga sobiq chor Rossiyasi tasarrufidagi barcha hududlarda ham o'z hokimiyatini o'rnatish harakatida bo'ldilar.

Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilish. Bolsheviklar Markazda siyosiy

hokimiyatni qo'lga kiritgach, Turkistonda ham sovet hokimiyatini qaror toptirishga intildilar. Turkistonda sho'rolar hokimiyatini o'rnatish g'oyatda murakkab jarayonda kechdi. Buning boisi, avvalo, oktabr g'oyalarining mahalliy tub joy aholining dili va shuuriga botmaganligidadir. Negaki, bu zamin aholisi bolsheviklar partiyasi dasturida nazarda tutilgan sotsialistik o'zgarishlar orqali hamma narsani umumlashtirish va milliylashtirishni yoqtirmasdi. Mahalliy xalq o'zining tarixan tarkib topgan, asrlar davomida shakllangan o'ziga xos turmush tarzini, yashash sharoitini, xo'jalik yuritish, idora qilish tartib-qoidalarini bir lahzada tubdan o'zgartirishni xohlamasdi. Bu narsa uning ongi, tafakkuriga, milliy o'zligi va ma'naviy qiyofasiga mos kelmasdi. Ayniqsa bolsheviklarning ateistik ruhdagi mafkurasi, uning hujumkor yo'nalishi islom qadriyatlarini doimo e'zozlanib kelingan bu yurt odamlarining ruhiyati va dunyo qarashi bilan singisha olmasdi. Bir so'z bilan aytganda, mahalliy tub yerli aholi tabiiy ravishda oktabr g'oyalarini qabul qilmadi va unga moyillik ko'rsatmadi. Biroq begona maslak va g'oyalar bolsheviklar partiyasi va uning Turkistondagi yalovbardorlari tomonidan kuch va zo'rlik bilan o'lka xalqlariga majburan tiqishtirildi.

Toshkentda faoliyat ko'rsatayotgan, asosiy tarkibi yevropalik aholi vakillaridan iborat harbiy qismlar, ishchi otryadlari mahalliy bolshevistik tashkilotlar boshchiligida qurolli qo'zg'olon yo'li bilan sovet hokimiyatini qaror toptirishga kirishdilar. Bolshevik V.S.Lyapin boshchiligida inqilobiy qo'mita tuzildi va qo'zg'olon boshlandi. 1917-yil 27-oktabr oqshomida Toshkentda boshlangan qo'zg'olon natijasida 1-noyabrga kelib Muvaqqat hukumatning Turkiston Qo'mitasi ag'darildi. General Korovichenko va Muvaqqat hukumatning Turkiston Qo'mitasi a'zolari qamoqqa olindi. Toshkentda Sovet hokimiyati o'rnatildi. Turkiston o'lkasida sovet hokimiyatini o'rnatish jarayoni qonli, fojiali voqealar bilan bog'liq holda kechdi. Jumladan, Farg'ona viloyatida sovet hokimiyatini o'rnatish jarayonida, Marg'ilonda 7 ming, Andijonda 6 ming, Namanganda 2 ming begunoh kishilar qirg'in qilindi. Samarqand, Kattaqo'rg'on, Yangi Buxoro, Termiz va boshqa shaharlarda ham sovet hokimiyati o'rnatildi.

Turkistonda sovet hokimiyati organlarini tuzish vaqtida ham bolshevik yo'lboshchilarning ulug'davlatchilik va shovinistik siyosati to'la kuch bilan namoyon bo'ldi. 1917-yil 15-22-noyabr kunlari Toshkentda Turkiston ishchi, askar va dehqon deputatlari sovetlarining III O'lka qurultoyi hokimiyat masalasini o'zboshimchalik va biryozlamalik bilan hal etdi. Unda bolshevik Kolesov boshchiligida Turkiston Xalq Komissarlari Soveti tuziladi. Uning tarkibiga 7 bolshevik va 8 ta so'l eser vakillar kiritildi. Uning tarkibiga butun o'lka aholisining 95 foyizini tashkil etuvchi yerli millat aholisidan esa birorta ham vakil kiritilmadi.

Vaholanki, oktabr o'zgarishi rahnamosi Lenin imzo chekkan "Rossiya xalqlari huquqlari Deklaratsiyasi", "Ezilgan va ekspluatatsiya qilinuvchi xalq huquqlari

Deklaratsiyasi”, “Rossiya va Sharq musulmonlariga” xitobnomasi hamda boshqa hujjatlarda millatlarning ozodligi, erki, huquqlari rasman e’tirof etilgan edi. Amalda esa ulug’ davlatchilik siyosati yuritildi.

Sovetlar mahalliy aholining asriy orzularini ruyobga chiqarishni emas, balki aksincha uni har sohada kamsitish, milliy va diniy qadriyatlarini tahqirlash yo’lidan bordilar. Sovet hokimiyatining mahalliy aholining xususiy mulklarini tortib olish, hamma narsani Sovetlar manfaatlari yo’lida umumlashtirish yo’lida amalga oshirgan g’ayritabiiy faoliyati pirovard oqibatda o’lka halqlarining keskin norozilik harakatlarining kuchaya borishiga sabab bo’ldi.

Sovet hokimiyati Turkiston jilovini qo’lga olib, o’zining avval e’lon qilgan balandparvoz va’dalaridan voz kechib, o’lka xalqlariga qarata olib borgan ikkiyuzlamachilik va munofiqlik siyosatiga javoban yurtning millatparvar rahnamolari faol harakatga keldilar. 1917-yil 26-noyabrda Qo’qonda o’lka musulmonlarining IV favqulodda qurultoyi chaqirildi. Unda Turkiston o’lkasining 5 viloyatidan 200 nafardan ziyodroq vakillar ishtirok etdi. Qurultoy ishida “Sho’roi Islom”, “Sho’roi Ulamo”, Musulmon harbiylari Sho’rosi, o’lka yahudiylar jamiyati namoyandalari ham qatnashdilar. Qurultoyda Turkiston Muxtoriyati tuzildi. Bu xususda qabul qilingan qarorda shunday deyiladi: “Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub aholi Rossiya inqilobi da’vat etgan xalqlarning o’z huquqlarini o’zlari belgilash xususidagi irodasini namoyon etib, Turkistonni Federativ Rossiya respublikasi tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb e’lon qiladi, shu bilan birga muxtoriyatning qaror topish shakllarini Ta’sis majlisiga havola etadi”. Shundan so’ng qurultoy “Turkistonda yashab turgan milliy ozchilik aholi huquqlarining muttasil himoya qilinishini tantanali ravishda e’lon qiladi”.

Yangidan tarkib topayotgan davlat Turkiston Muxtoriyati deb ataladigan bo’ldi. Qurultoyda Turkiston Muxtoriyatining hokimiyat organi - Muvaqqat Kengash tuzildi. Muvaqqat Kengash tarkibi 12 kishidan iborat etib belgilandi. Dastlab unga quyidagi nomzodlar kiritildi:

1. M. Tinishpayev - bosh vazir, ichki ishlar vaziri; (Qozoq taraqqiyparvarlari 1917-yil-dekabrda Orenburgda s’ezd o’tkazib «Alash-O’rda» avtonom Respublikasini tuzdilar, uning hukumati tarkibiga M.Tinishpayev saylanadi. Shu munosabat bilan M.Tinishpayev «Alash O’rda» poytaxti Semipalatinskka ketadi.)

2. Islom Shoahmedov - bosh vazir o’rinbosari;
3. Mustaf Cho’qayev tashqi ishlar vaziri (keyinroq bosh vazir);
4. Ubaydulla Xo’jayev - harbiy vazir;
5. Yurali Agayev - yer va suv boylklari vaziri;
6. Obidjon Mahmudov - oziq-ovqat vaziri;
7. Abdurahmon O’razayev - ichki ishlar vaziri o’rinbosari;
8. Solomon Gertsfeld - moliya vaziri.

Hukumat tarkibiga yevropalik aholi orasidan yana to'rtta vakil kiritilishi belgilab qo'yilgan edi.

Qurultoyning yana bir katta xizmati, bu uning tomonidan Turkiston Milliy majlisi (parlamenti) tuzilganligi bo'ldi. Unga "Sho'roi Ulamo" tashkiloti rahbari Sherali Lapin rais etib saylandi.

Milliy Majlis tarkibiga Muvaqqat Kengash a'zolaridan tashqari o'sha davrning atoqli arboblari: T. Norbo'tabekov, S. Sharifxo'jayev, Nosirxonto'ra Komolxonto'ra o'g'li, M. Behbudiy, Alixonto'ra Shokirxonto'ra o'g'li, Sobirjon Yusupov, Odiljon Umarov singari yurt peshvolari ham saylangan edilar.

Shunday qilib, o'lkaning mo'tabar millatparvar zotlaridan iborat milliy hokimiyat tashkil etilib, uning zimmasiga ulug'vor vazifalar yuklandi. Eng muhimi, Turkiston xalqining erki, mustaqilligini asta-sekin tiklash - bu xalqchil hukumatning bosh vazifasi edi. Shu boisdan ham o'lkaning millionlab fuqarolari Turkiston Muxtoriyati e'lon qilinganligini katta qoniqish ruhi bilan qarshi oldilar. 1917-yil-dekabr oyi boshlarida Toshkent, Namangan, Jalolobod, Qo'qon, Samarqand shaharlari aholisi mitinglar, namoyishlar uyushtirib, muxtoriyatni qizg'in qo'llab-quvvatlab chiqdilar.

Biroq o'lkada o'rnashib olgan va asosiy boshqaruv jilovini qo'lda ushlab turgan Turkiston sovet hukumati va uning joylardagi hokimiyat mahkamalari Turkiston muxtoriyati va uning tarafdorlarini yo'q qilish yo'lini butun choralar bilan o'tkazib bordi.

1917-yil 13-dekabrda Toshkentda muxtoriyatni yoqlab o'tkazilgan katta mitingni zo'rlik bilan tarqatib yuborilishi, bugina emas, unda sovet kuchlari otgan miltiq va pulemyotlar sadosi ostida ko'plab qurbonlar berilishi (eski shaharlik 16 kishi otib o'ldirilgan edi) - bu Turkiston muxtoriyatiga nisbatan uyushtirilgan dastlabki suiqasd edi.

1917-yil 25-dekabr kuni Qo'qonda o'lka musulmon ishchi, askar va dehqonlarining I favqulodda qurultoyi ish boshladi. Unda 200 ga yaqin kishi ishtirok etdi. Qurultoy muxtoriyatni har tomonlama quvvatlash, unga moddiy va ma'naviy madad ko'rsatish shiori ostida o'tdi. Unda Turkiston Muvaqqat Kengashi tarkibini musulmon ishchi, askar va dehqon deputatlari qurultoyi vakillari hisobiga to'ldirish to'g'risida qaror qilindi. Qurultoy o'zining so'nggi ish kuni - 27-dekabrda Petrogradga, Xalq Komissarlari Soveti Raisi V.I. Lenin nomiga telegramma yo'lladi. Unda Turkiston muxtoriyatini e'tirof etish, Toshkent Xalq Komissarlari Sovetiga hokimiyatni Turkiston muxtoriyati Muvaqqat Kengashiga topshirish to'g'risida farmoyish berish so'ralgan edi.

Lenin va uning safdoshlari esa ochiq va yashirin tarzda Toshkentda faoliyat yuritayotgan Turkistondagi sovet hukumati oldiga milliy muxtoriyatni tugatishni vazifa qilib qo'yganligi hech kimga sir emas. Turkistondagi sovet hokimiyati o'lka

muxtoriyati faoliyatini cheklash, uni butunlay barham toptirishga qaratilgan xoinona yo'l tutdi. Bu manfur maqsadni amalga oshirish uchun sovetlar hokimiyati tasanufida bo'lgan hamma vositalar ishga solindi. 1918-yil 19-26-yanvarda bo'lib o'tgan Turkiston o'lka sovetlarining IV s'ezdi Turkiston muxtoriyati hukumatini, uning a'zolarini qonundan tashqari holatda deb hisobladi va ularning boshliqlarini qamoqqa olishga qaror qildi.

Buning ustiga Turkiston muxtoriyati o'zini o'zi yetarli darajada himoya qila olish imkoniyatiga ega bo'lolmadi. Muxtoriyatchilar orasida ko'pgina muhim xayotiy masalalarda birlik, hamjihatlik, jipslik mavjud emasdi. Unga moddiy, ma'naviy hamda harbiy, moliyaviy madad ko'rsata oladigan real kuchlar va imkoniyatlar yo'q edi. 1918-yil 18-fevralda «Ulamo» jamiyati tashabbusi bilan Muxtoriyatda to'ntarish sodir etildi. Mustafo Cho'qayev boshchiligidagi hukumat ag'darildi. Hukumat boshqaruvi Qo'qon shahar militsiyasi boshlig'i Kichik Ergashga o'tadi.

Turkiston sovet hukumati 1918-yil 14-fevralida Farg'ona viloyati hududida favqulodda harbiy holat joriy etdi. Uning Qo'qondagi mahalliy hokimiyati - ishchi va askar deputatlari soveti 17-fevralda muxtoriyat vakillarini taslim bo'lishga da'vat qildi. Ayni vaqtda Toshkentdan Perefilev boshchiligida qurollangan ko'p sonli qizil qo'shin olib kelindi va ular darhol ishga solindi. Qo'qondagi ashaddiy millatchi arman dashnoqlari ham bu bosqinga jalb qilindi. (*Dashnoq - 1890-yilda Tiflisdagi tashkil etilgan «Dashnaksutyun» («Ittifoq») arman milliy partiyasi a'zosi. Dashnoqlarning bir qismi 1915-yilgi turk-arman qirg'inida qo'chib Turkistonga kelgan edilar.*). Ayniqsa 19-21-fevral kunlari Qo'qon xalqi ustiga balo-kazo yog'ildi. Shahar o't ichida yondi. Shu tariqa, Turkiston Muxtoriyati mag'lubiyatga uchradi.

Eng dahshatlili shuki, bu xunrezlik tagida hech bir gunohi bo'lmagan ming-minglab Qo'qon fuqarosi mislsiz jabr tortdi, behisob qurbonlar berdi. Qo'qonda sovetlar sodir etgan qonli fojiani sovet davlati arboblaridan biri D. Manjara keyinroq shunday deb e'tirof etgandi: "Milliy siyosatda yo'l qo'yilgan xatolarimiz tufayli Qo'qon muxtoriyati vujudga keldi. Uni yo'qotish paytida yana bir xatoga yo'l qo'ydik. Qurol-yarog'i deyarli bo'lmagan muxtoriyatchilar joylashgan eski shaharni qamal qilish o'rniga, biz to'plardan o'qqa tutdik, keyin dashnoqlarning qurolli to'dalarini ishga soldik. Natijada talon-taroj, nomusga tegish, qirg'in boshlandi. Bundan muxtoriyatchilarga aloqasi bo'lmagan tinch aholi katta zarar ko'rdi".

TASSRning tuzilishi. Sovet hokimiyati o'zining avvaldan rejalashtirgan sotsialistik yo'nalishdagi iqtisodiy va siyosiy qayta qurishlar yo'lini izchil amalga oshirishga kirishdi. Chunonchi, yer to'g'risidagi dekret asosida yerga bo'lgan xususiy mulkchilikni tugatish boshlandi. Shu maqsadda joylarda yer qo'mitalari tuzildi. Jumladan, 1918-yil kuzida Sirdaryo viloyatida 51 ta, Samarqand viloyatida 50 ta, Yettisuvda 25 ta shunday qo'mitalar tashkil etildi. Biroq dehqonlar sovet ma'murlarining yer qo'mitalarini tuzish harakatini keskin norozilik bilan qarshi

oldilar. Shunga qaramasdan bolsheviklar bu yo'lni qat'iy amalga oshirishda davom etdilar. Buning natijasida o'lkadagi ko'plab miqdordagi yirik mulklar, xususiy yerlar musodara etildi va milliyashtirildi.

Sovet hukmdorlarining yana bir hiylakorligi va ustamonligi shunda ko'rinadiki, ular Turkiston muxtoriyati tajribasidan muhim xulosa chiqarib, bu hududda o'ziga xos sovet muxtor respublikasini tuzishga yo'l tutdilar. Bundan ko'zda tutilgan bosh maqsad - Turkistonning kelajakda mustaqil, suveren davlat bo'lib, ajralib chiqib ketishiga izn bermaslik edi. Sovetlar ishlab chiqqan rejaga ko'ra 1918-yilning 20-aprelidan 1-mayigacha Toshkentda bo'lib o'tgan o'lka Sovetlarining V qurultoyida Turkiston avtonom sovet sotsialistik respublikasi (TASSR) tuzildi va RSFSR tarkibiga kiritildi. Sinfiylik tamoyillariga asoslangan o'ziga xos davlat boshqaruvida hokimiyat funksiyalari butunlay sovetlar va ularning organlari ixtiyorida edi. Qurultoyda respublikaning hokimiyat organlari: Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (MIQ) va Xalq Komissarlari Soveti (XKS) saylandi. MIQning jami 36 a'zosidan atigi 9 nafari mahalliy millat kishilari edi. Avtonom respublika MIQning raisi etib bolshevik P. A. Kobozev saylandi, bolshevik F. I. Kolesov boshchiligida 16 kishidan iborat tuzilgan XKS tarkibiga ham 3 nafar mahalliy aholi vakillari kiritilgan edi, xolos.

1918-yil iyunda 2 ming nafar bolsheviklarni o'z safida birlashtirgan Turkiston Kompartiyasi tuzildi. 1919-yil-martida Turkiston Kompartiyasi huzurida Turor Risqulov raisligida O'lka musulmonlari byurosi tuziladi. Musbyuroning organi - «Ishtirokiyun» gazetasi nashr etila boshlandi, unda Turkiston ma'murlarining shovinistik siyosati fosh etila bordi.

1918-yil oktabrida bo'lgan o'lka sovetlarining VI qurultoyida TASSR Konstitutsiyasi qabul qilindi. Unda Turkistonni RSFSRning "ajralmas, tarkibiy qismi" ekanligi, o'lka xalqlarining barcha hayotiy masalalari uning mas'ulligida ekanligi qonunlashtirildi.

Turkistonda sovet hokimiyatining tobora kuchayishi, uning yakkahukmronligining ortib borishi, o'lka hayotining hamma jabhalarining qattiq markazlashtirilishi, qattiqqo'l iqtisodiy tadbirlarning o'tkazilishi faqat mahalliy aholi qatlamlarining keskin noroziligiga sabab bo'lib qolmasdan, boshqa siyosiy muxolifatchi kuchlarni ham harakatga keltirdi.

1919-yil 19-yanvarida harbiy komissar K.Osipov uyushtirgan isyon natijasida Toshkentda 14 nafar Turkiston xalq komissarlarining otib o'ldirilishi ham buning aniq ifodasi bo'lgandi. Ammo tezlikda o'zlarini o'nglab olishga ulgirkan bolsheviklar vaziyatni o'z foydalariga o'zgartirib, sovet hokimiyatini yana saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi, hokimiyat organlari yangi kadrlar bilan to'ldirildi. Rahbarlik lavozimlariga mahalliy millat vakillari ham jalb etila bordi.

Moskva sovet Turkistoniga o'z ta'sirini kuchaytirish, uni har tomonlama o'ziga qaram qilish maqsadida 1919-yil kuzida Toshkentga alohida favqulodda vakolatlar

berilgan Turkkomissiya (Sh. Eliava - rais, V. Boki, F. Goloshchekin, V. Kuybishev, M. Frunze, Ya. Rudzutak)ni yubordi. Uning butun faoliyati TASSR sovet va partiya qurilishi ishlarini jadal sur'atlar bilan olib borish, yangi tuzumni chuqur ildiz ottirish edi. TASSR hayotida kechayotgan barcha ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar bilan bog'liq eng asosiy masalalarning birortasi ham Turkkomissiya a'zolarining izmisiz hal etilmas edi.

Bu davrda mahalliy xalq orasidan chiqqan, sovet va partiya qurilishida ancha tajriba ortirgan, chiniqqan T. Risqulov, N. To'raqulov, A. Rahimboyev, N. Xo'jayev, Q. Otaboyev, A. Ikromov, S. Segizboyev kabi yurt arboblari u yoki bu rahbariy mansablarda faoliyat yuritgan bo'lsalar-da, ammo ularning inon-ixtiyori moskvalik hukmdorlar tizginida bo'lgan. Xullas, Turkkomissiya siyomosida TASSR hayotida zo'rlik bilan qaror topdirib borilayotgan bolsheviklar diktaturasining asl mazmuni-mundariyasi mujassamlashgan edi.

Rossiyada 1917-yilda yuz bergan fevral inqilobiy o'zgarishi chorizmning yarim mustamlaka o'lkalari hisoblangan Xiva xonligi va Buxoro amirligida ham aks-sado bermay qolmadi. Avvalo, bu tobe davlatlarning Rossiya ta'siridan xalos bo'lishga intilishi ko'zga tashlansa, ikkinchi tomondan, mahalliy xalqning demokratik erkinliklar va huquqlarga ega bo'lish sari harakatlari faollashdi.

Jumladan, Xorazmda Yosh xivaliklar harakati xonlikdagi siyosiy vaziyatni o'zgartirish va bir qator demokratik o'zgarishlarni yuzaga chiqarishga otlandilar. Yosh xivaliklar yetakchilari ishlab chiqqan manifestda konstitutsion monarxiya tuzish, xonning vakolatlarini cheklash, iqtisodiyot, ta'lim va madaniy xayot jabhalarini isloh qilish talablari ilgari surilgandi. Xivada ijtimoiy-siyosiy vaziyat keskin tus olayotganidan cho'chigan Isfandiyorxon (1910-1918) 1917-yil 5-aprel kuni manifestni imzolashga majbur bo'ldi. Manifest talablariga ko'ra xonlikda konstitutsion monarxiya tuzumi o'rnatildi. Ayni paytda tarkibi 30-50 kishidan iborat ruhoniylar va savdo-sanoat ahli vakillaridan saylangan Majlis va Nozirlar Kengashi tuziladi. Ular xalq vakilligi boshqaruvi organlari sifatida xon hokimiyati vakolatlarini ma'lum darajada chekladi. Manifestga muvofiq yosh xivaliklarning taniqli rahbari Boboovun Salimov Majlis raisi, Matmurodov esa Nozirlar Kengashi raisi etib saylandilar. Xon xazinasi va uni tasarruf qilish ustidan nazorat o'rnatildi. Xon temir yo'llar qurish, pochta-telegraf o'rnatish, yangi jadid maktablari ochish to'g'risida va'dalar berdi. Biroq Xiva xoni va uning atrofidagi mutaassib kuchlar bu demokratik o'zgarishlarni yo'qqa chiqarish, eski tartiblarni qayta tiklash payida bo'ldilar.

1917-yil-iyuniga kelib Isfandiyorxon Rossiya Muvaqqat hukumatining Xivadagi vakili, general Mirbadalov yordamiga tayanib, Matmurodov boshliq Yosh xivaliklar rahbarlarini qamoqqa oladi. Bu partiyaning faoliyati qonundan tashqari deb e'lon qilinadi. Yosh xivaliklarning ko'plari qo'lga olinib jazolanadi. Qolganlari xonlik hududini tark etadilar.

Xiva xonligining tugatilishi. 1917-yil kuzida Rossiyada ro'y byergan oktabr o'zgarishi, Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o'rnatilishi davomida Xivada ham demokratik harakat yangi bosqichga qadam qo'yadi. Demokratik kuchlar, aholining kambag'al tabaqalari faol harakatga kela bordilar. Qo'ng'iroq, Ko'hna Urganch, Xojayli, Taxta, Porsu bekliklarida mahalliy aholi qat'iy harakatlarga chiqdi. Buning ustiga mamlakatni boshqara olmay qolgan xonning 1918-yil yanvarida turkmanlar sardori Junaidxonni Xivaga chaqirishi va uni bosh qo'mondon etib tayinlanishi ham vaziyatni yanada chigallashtirib yubordi. Junaidxon tez orada Isfandiyorxonni qatl ettirib, o'rniga uning tog'asi, irodasiz Said Abdullani nomiga xon qilib ko'tarib, amalda yakka hukmdor bo'lib oldi. Junaidxonning harbiy diktaturasi zulmidan og'ir aziyat chekkan ko'plab aholi qo'shni Turkistonga qochib o'ta boshladi. Ularning ko'plari Sovetlar tayyorlagan qizil qo'shinlar safini to'ldirib bordi. Bularniig hammasi Sovetlarga qo'l keldi. Shu zaylda ularga qarashli Amudaryo bo'limida (Turkko'lda) N. A. Shaydakov va N. M. Shcherbakov boshchiligida shimoliy va janubiy harbiy dastalar tuzilib, xonlik tuzumini ag'darishga shay qilib qo'yildi. Darhaqiqat, Turkiston sovet rahnamolari yo'l-yo'riqlari asosida harakatga kelgan qizil qo'shinlar va shuningdek, o'zbek va turkman aholisidan tashkil topgan qo'zg'olon dastalari 1919-yil dekabri oxirlaridan Junaidxon rejimiga qarshi harbiy yurish boshlaydilar. Bu kuchlar Junaidga ketma-ket zarbalar berib, birin-ketin xonlik hududlarini qo'lga kiritib bordilar. 1920-yil 2-fevralda Xiva egallandi.

Junaidxon qolgan-qutgan qo'shini bilan Qoraqum sahrosiga chekinadi. Qo'g'irchoq xon Said Abdullo taxtdan voz kechadi. Shu tariqa, sovetlar kuchi bilan Xiva xonligi ag'darildi va 5 kishidan iborat Inqilobiy qo'mita tuzildi. Uning tarkibiga Yosh xivaliklar va turkman urug'-qabilalaridan vakillar kiritildi. Inqilobiy qo'mita raisi etib Yosh xivaliklar rahbari D.Sultonmurodov saylandi. Tez orda Yosh xivaliklar ishlab chiqqan manifest e'lon qilinadi.

1920-yilning 27-30-aprel kunlari Xivada bo'lib o'tgan xalq vakillari Butunxorazm qurultoyi xonlik tugatilganligi va yangidan Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tuzilganligini e'lon qildi. Qurultoy XXSRning muvaqqat Konstitutsiyasini qabul qildi. Qurultoy shuningdek 15 kishidan iborat hukumat - Xalq Nozirlar Kengashini sayladi. Yosh xivaliklar rahbarlaridan Polvonniyoz Yusupov uning birinchi raisi bo'ldi. Tez orada (iyunda) Rossiya bolshevik rahbarlari ko'magida Xorazm Kompartiyasi tashkil etilib, uning hukmronlik mavqei hayotda tayin etib borildi. Sovet Rossiyasi ayni paytda yangi tug'ilgan Xorazm Xalq Sovet Respublikasini o'z ta'sir doirasiga olish maqsadida 1920-yil 13-sentabrda XXSR bilan ittifoq shartnomasini tuzadi. Bu shartnoma bilan birga ikkala respublika o'rtasida imzolangan xarbiy-siyosiy va iqtisodiy kelishuvlar asosida Xorazm Xalq Sovet Respublikasiga sovet Rossiyasi tomonidan tegishli harbiy, iqtisodiy va

madaniy yordam ko'rsatish ko'zda tutilgan edi. Biroq "katta og'a"ning bunday yordami zamirida Xorazm Xalq Sovet Respublikasining ichki ishlariga aralashish, uning siyosatini o'z manfaatlariga bo'sundirish maqsadlari yotardi. Faqatgina 1921-yil davomida Xorazm Xalq Sovet Respublikasida uch-marta (mart,-sentabr,-noyabrda) hukumat o'zgarishi yasilib, Moskvaga ma'qul kelmagan uning tarkibi o'zgartirildi. O'z xalqining milliy manfaatlarini ko'zlab siyosat yuritgan Polvonniyoz Yusupov, M. Ibniyaminov, O. Muhammadrahimov bosh bo'lgan hukumat tarkiblari bekor qilindi, ularning rahbarlari asossiz qoralandi, so'ngra turli jazolarga giriftor etildi.

1923-yil oktabrida bo'lib o'tgan IV Butunxorazm Sovetlari Qurultoyi Xorazm Xalq Sovet Respublikasini Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasi deb e'lon qildi va respublikaning yangi konstitutsiyasini qabul qildi. Unda Xorazmda Sovetlar rahbarligida amalga oshirilgan jiddiy o'zgarishlar orqasida bu respublika endilikda o'z taraqqiyotining yangi, sotsialistik bosqichiga kirganligi alohida ta'kidlandi. Konstitutsiya yerga bo'lgan xususiy mulkchilikni bekor qildi, barcha erlar umumxalq mulki deb e'lon etildi. Vaqf mulklari maorif nozirliqi ixtiyoriga olindi. Xorazm xalqlarining xohish-irodasiga zid tarzda amalga oshirilgan bu xil tadbirlar va eng asosiysi, respublikani boshqarish jilovini tobora Sovetlar hukmronligi qo'l ostiga o'tib borishi, pirovardida voaha aholisining umumiy noroziligining kuchayib borishiga sabab bo'ldi.

Buxoro amirligining ag'darilishi. Buxoro amirligida ham ijtimoiy-siyosiy vaziyat Xiva xonligidagiga o'xshash tarzda kechdi. Amirlik ham Rossiyaga tobe, vassal davlat edi. Ichki siyosatda mustaqil bo'lgan amirning mutlaq hokimiyati hukm surib, bundan oddiy xalq ommasi behad zulm tortib kelardi. XX asr boshlarida bu yerda ham amirlik tuzumiga qarshi demokratik harakatlar yuzaga kela bordi. Mamlakatning ilg'or, taraqqiyparvar ziyoli yoshlaridan tashkil topgan Yosh buxoroliklar tashkiloti bu harakatlarga yetakchilik qildilar. O'z saflarida Abduvohid Burhonov, Fayzulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Muhitdin Mansurov, Po'latxo'ja Usmonxo'jayev kabi yurt fidoyilarini birlashtirgan Yosh buxoroliklar harakati keng xalq manfaatlarini foydasiga muhim siyosiy o'zgarishlarni ro'yobga chiqarishga intilganlar. Ular ishlab chiqqan islohotlar loyihasida mamlakatda konstitutsion monarxiya tuzumi o'rnatish, ijtimoiy-siyosiy erkinliklar joriy qilish, maorif ishini yaxshilash masalalariga alohida urg'u berilgandi.

Keng xalq ommasi tazyiqi va Yosh buxoroliklar islohiy talablari asosida amir 1917-yil 7-aprelida ba'zi yon berishlarga borib manifest chiqarishga majbur bo'ladi. Manifestda soliqlarni tartibga solish, turli ijtimoiy tabaqalar vakillaridan iborat Majlis qilish, maorif, tibbiyot, sud tizimlarini yaxshilash, ma'muriy boshqarish ishlarini takomillashtirish kabi qator va'dalar berildi.

Biroq amirlikning mutaassib, hukmron doiralari tish-tirnoqlari bilan bunga

qarshilik ko'rsatdilar. Ular islohot tarafdorlariga nisbatan ochiqdan-ochiq shahar ko'chalarida qirg'in uyushtirdilar. Ko'plab islohotchilar Buxoroni tark etishga majbur bo'ldilar. Bu gal amir tarafdorlarining qo'li baland keldi.

Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o'rnatilishi Buxoro amirligi uchun ham jiddiy siyosiy vaziyatni vujudga keltirdi. Negaki, sotsialistik inqilob g'oyasini boshqalarga yoyishga intilgan bolsheviklar chegaradosh Buxoroni o'z mo'ljaliga olgandilar. Xususan 1918-yil martida "Kolesov voqeasi" nomi bilan tarixga kirgan qonli voqea bunga aniq misol bo'la oladi. Turkiston sovet respublikasi hukumati raisi F. I. Kolesov Buxoroga ochiq tazyiq o'tkazib, 1918-yil 2-martida Kogon temir yo'li yoqalab qizil qo'shinlar interventsiyasini uyushtirdi. Bunga javoban Buxoro amiri xalqni g'azovotga chorlab, o'z qo'shinlari va g'azabga kelgan aholini urushga safarbar etdi. Oqibatida Kolesov xuruji sharmandalarcha mag'lub bo'ldi. Bu esa amir va uning arkoni davlatiga barcha demokratik kuchlardan qonli o'ch olishi uchun bahona bo'ldi. Ayniqsa Yosh buxoroliklar ayovsiz qirg'in qilindi. Bolsheviklarinipg bu avanturasi Yosh buxoroliklar uchun g'oyatda qimmatga tushdi. F.Xo'jayevning guvohlik berishicha, bu qirg'inda Yosh buxoroliklar, ularning tarafdorlaridan 1,5 ming kishi qurbon bo'ladi.

Biroq shunga qaramay sovet mutasaddilari Buxoroda sun'iy inqilob tayyorlash, buning uchun Turkistondan panohtopgan ko'p sonli buxorolik muhojirlarni ishga solish, ulardan ko'plab inqilobchi kuchlar etishtirish va ularni tashkillashtirish harakatida bo'ldilar. 1918-yil-sentabrida Toshkentda Buxoro muhojirlari tomonidan Buxoro kompartiyasi va uning Markaziy Qo'mitasi tuziladi (uning raisi A. Yoqubov, o'rinbosari M. Qulmuhammedov). 1920-yil yanvarida Toshkentda F. Xo'jayev boshchiligida "Yosh buxorolik inqilobchilar partiyasining Turkiston Markaziy byurosi" tashkil etiladi va Turkkommissiya, RSFSR hukumati tomonidan e'tirof etiladi.

Yosh buxoroliklar partiyasi ishlab chiqqan dasturda tez vaqt ichida despotik tuzumni tugatish, mamlakatda demokratik respublika tuzish va keng xalq ommasining tub manfaatlarini ko'zlab ko'plab ijtimoiy-demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish vazifalari bayon etilgan edi.

Yosh buxoroliklar tashabbusi bilan 1920-yil-iyundan Toshkentda chiqa boshlagan «Uchqun» gazetasida ham ilg'or demokratik g'oyalar ilgari surildi. Buxoro xalqi amirning hokimi mutlaq tuzumini ag'darib tashlash uchun faol kurashga da'vat etib borildi.

Sovet hokimiyatining asl maqsadi Buxoro amirligini ag'darish edi. Uning rasmiy hujjatlari, ko'rsatmalarida amirlikka qarshi kurash quyidan, mahalliy kuchlar tomonidan boshlanishi uqdirilgan edi. Shu bilan birga amirlikni ag'darish uchun zarur harbiy tayyorgarlik ham ko'rildi. M.Frunze boshliq Turkiston fronti qo'mondonligi tomonidan 1920-yil-iyun o'rtalaridayoq zamonaviy qurol-aslahalar bilan qurollangan qizil qo'shinlar Buxoro chegaralariga keltirib qo'yilgan edi. Ayni paytda amirlikni

ag'darish uchun M.Frunze, V.Kuybishev, N.To'raqulov, N.Husainov, F.Xo'jayevlar tarkibida harbiy-inqilobiy byuro tashkil etiladi.

1920-yil 29-avgustda Chorjuyda amir tuzumiga qarshi g'alayon boshlandi va Beshim Sardor boshchiligidagi kuchlar avvaldan belgilangan kelishuvga binoan darhol sovet hukumatidan «yordam so'rab» murojaat qiladi. Bu sovet qo'shinlarining Buxoroga qarshi urush harakatlarini boshlashiga bahona bo'ladi.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, sovet qo'shini ixtiyorida shu davrda 10 ming qizil askar, 40 ta to'p, 230 ga yaqin pulemyot, 10 ta zixrli avtomobil, 5 ta zixrli poyezd va 12 ta samolyot bor edi. Shuningdek, Turkiston fronti qo'shini bilan birga hujum harakatlarida 5 ming kishiga yaqin buxorolik "inqilobchi tuzilmalar" ham ishtirok etdilar.

Amir lashkari son jihatidan ko'p bo'lgani bilan (20 mingga yaqin), biroq uning qurollanish darajasi qizillarga nisbatan ancha zaif holda edi. Hujumga tashlangan sovet qo'shinlari amirlikning Chorjuy, Qarshi, Kitob, Shahrisabz va boshqa hududlarini egallab, Buxoroga tomon siljib bordilar. Buxoro va uning aholisi sovetlar hujumi chog'ida mislsiz zarar ko'rdi. Shahar ko'p bor havodan bombardimon qilindi. Uning ko'plab noyob osori atiqalari, tarixiy obidalarini vayron etildi.

Amir Olimxon 1920-yil 2-sentabrda Buxoroni tark etishga majbur bo'ldi. Poytaxt sovet qo'shinlari tomonidan egallangach, hokimiyat Muvaqqat Butunbuxoro Inqilobiy qo'mitasi qo'lga o'tdi. 1920-yil 14-sentabrda BKP MQ va Muvaqqat Butunbuxoro Inqilobiy qo'mitasining birlashgan majlisi bo'ldi. Majlisda A.Muhitdinov boshchiligidagi qonun chiqaruvchi oliy organ - Butunbuxoro Inqilobiy qo'mitasi va Fayzulla Xo'jayev raisligida Xalq Nozirlar Kengashi (hukumat) tuzildi. O'sha yilning 6-8-oktabr kunlarida I Butunbuxoro qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil etilganligi e'lon qilindi.

1921-yil 4-martda Moskvada BXSRS va RSFSR o'rtasida Ittifoq shartnomasi va iqtisodiy bitim imzolandi. Bu esa Rossiya Federatsiyasi va uning Turkistondagi vakolatli namoyandalariga Buxoro Respublikasi ichki ishlariga bevosita aralashish, u yerdagi o'zgarishlarni nazorat etish va uni aniq sotsialistik maqsadlar sari yo'naltirish uchun keng imkoniyatlar ochib berdi. Shuningdek, Buxoro Xalq Sovet Respublikasining asosiy rahbar tashkiloti - Buxoro Kompartiyasi RKP (b) ning viloyat tashkiloti maqomida faoliyat yuritardi.

RKP (b) MQ 1922-yil mayida "Turkiston-Buxoro ishlari haqida" qaror qabul qildi. Unda O'rta Osiyoda, jumladan, Buxoroda jadallik bilan "sotsialistik tuzumni mustahkamlash" qat'iy uqtirildi. Shuningdek, RKP (b) MQ ning 1923-yil 12-iyunda qabul qilgan Buxoro masalasiga doir maxsus qarori ham bu davlatning ichki ishlariga qo'pollik bilan aralashish edi. Negaki, unda Buxoroning rivojlanish jarayonini "sotsialistik izga" burib yuborish maqsadi ko'zda tutilgandi. Buxoro xalqining tub milliy manfaatlarini yo'lida fidoyilik bilan faoliyat yuritgan, inqilobiy harakatlarning

faol ishtirokchilaridan bo'lgan

A. Fitrat, M. Aminov, Otaxo'jayev, Yoqubzoda va boshqalar Moskva vakillarining talabi bilan respublika hukumati tarkibidan chetlatildi. Buxoro XSRning 1921-yil sentabrda qabul qilingan Konstitutsiyasi ham RSFSR Konstitutsiyasi andozasida tuzilgan edi. Hukmron Markaz tashabbusi bilan 1923-yil martida O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashining tuziliishi va uning tarkibiga Buxoro XSRning ham jalb qilinishi bu uning iqtisodiy mustaqilligining asta-sekin qo'ldan boy berib borilishiga sabab bo'ldi. Moskva tazyiqi ostida bu hududda sotsialistik o'zgarishlar izchil amalga oshirilib borildi. 1924-yil 18-20-sentabrda bo'lib o'tgan V Butunbuxoro qurultoyi BXSRni Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasi deb e'lon qildi. Nihoyat, 1924-yilda o'tkazilgan milliy-davlat chegaralanishi natijasida uning hududlari O'zbekiston va Turkmaniston Sovet sotsialistik respublikalari tarkibiga qo'shib yuborildi, Buxoro davlat sifatida tugatildi.

Sovet hokimiyatiga qarshi ko'tarilgan bu qurolli harakatning mazmun mohiyatini sovet mustamlakachilari muttasil buzib, soxtalashtirib keldilar. Uni sovet tarixshunosligida «bosmachilar harakati», «aksilinqilobiy kuchlar bosqini», «bir to' da yurt buzg'unchilari harakati» singari nomlarda ta'riflab kelindi. Biroq tarixiy haqiqat milliy istiqloq sharofati bilan to'liq tiklanib, o'z haqqoniy, xolis bahosini topdi. Bu harakat sovetlar mafkurasi to'qib chiqargan shunchaki «bosmachilar» harakati emas, balki sovet hokimiyatining zo'ravonlikka asoslangan siyosati va amaliyotiga qarshilik ko'rsatish harakatidir.

Xo'sh, bu harakatning Turkiston zaminida yuzaga kelishining muhim ijtimoiy omillari, sabablari nimalardan iborat edi? Nega 1918-yil bahoridan Farg'ona vodiysida boshlangan bu qurolli harakat asta-sekin alanga olib, Turkiston (O'zbekiston)ning keng hududlari bo'ylab yoyildi?

Xalqimiz 1917-yilda sodir etilgan fevral va oktabr o'zgarishlariga katta umidvorlik bilan ko'z tikkandilar. Ular ilg'or jadidchilik harakati rahnamoligida Rossiyada rivojlanib borayotgan inqilobiy-demokratik harakatlardan foydalanib, erk, ozodlikni qo'lga kiritmoqchi, o'lka xalqlarini mustaqillikka olib chiqmoqchi bo'lgandilar. Makkor bolshevik yo'l boshchilarning oktabr o'zgarishi arafasida va undan keyin e'lon qilgan millatlar erki, mustaqilligini tan olgan rasmiy hujjatlari Turkiston xalqlarida o'z orzu-umidlarimiz ro'yobga chiqadi, milliy mustaqilligimiz qaror topadi, degan umid tug'dirgan edi.

Biroq sovet hokimiyati o'rnatilib, mustahkamlana borgan sayin bolsheviklar dohiylarining ikkiyuzlamachilik, munofiqlik qiyofasi ham ochilib bordi. Ularning byergan balandparvoz va'dalaridan qaytishi, mahalliy xalqlarni siyosiy faoliyatdan oshkora chetlatishi, joylarda sovet tuzumini o'rnatishda zo'ravonlikning avjga minishi mahalliy aholi noroziligining oshishiga sabab bo'ldi.

Mahalliy xalqqa butunlay yot kommunistik mafkurani bayroq qilib olgan sovet

zulmkorlari aholining milliy qadriyatlari, udumlari, diniy e'tiqodini tahqirlash, masjid, madrasalar, ziyoratgoh joylarni oyoq-osti qilish, noyob ma'naviy bisotlarni talash, dindorlarni ta'qibu quvg'in ostiga olish kabi nomaqbul ishlari aholi nafratini kuchaytirdi.

O'lka xalqlarining xohish-irodasi bilan vujudga kelib, ularning milliy manfaatlari yo'lida ilk qadamlar qo'yib borayotgan Turkiston Muxtoriyatini qonga belanishi, yurt farzandlarining qirg'in qilinishi, Qo'qon shahri va uning atrofidagi qishloqlar aholisining ayovsiz xunrezlik va talon-tarojlikka duchor etilishi butun Turkistonni mustabid sovet hokimiyatiga qarshi oyoqqa turg'izdi.

Sovet hokimiyatining aholining xususiy mulkini tortib olib, davlat tasarrufiga olishga qaratilgan iqtisodiy siyosati odamlarning sovet tuzumiga nisbatan kuchayib borayotgan nafrat-g'azabiga so'nggi tomchi bo'lib qo'shildi.

Yuz minglab millatparvar, vatanparvar yurt kishilarini qo'lda qurol bilan sovetlar zo'ravonligiga qarshi kurashi boshlanib ketdi.

Farg'ona vodiysida qurolli harakat. O'lkada boshlangan sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatning eng dastlabkisi Farg'ona vodiysida boshlandi. Bu harakatga xalq orasidan yetishib chiqqan, uning g'am-alami, orzu-armoni, maqsad-intilishlariga hamdard va sherik bo'lgan Kichik va Katta Ergash, Madaminbek, Shermuhammadbek, Xolxo'ja Eshon, Islom Pahlovon, Rahmonqul, To'ychi, Aliyor qo'rboshilar singari taniqli rahnomalar yetakchilik qildilar. 1918-yil bahoridan vodiyniing turli joylarida 40 dan ziyod qo'rboshi dastalari faoliyat ko'rsata boshladi. Jumladan, Madaminbek Skobelev (Farg'ona) uyezdida, Shermuhammadbek Marg'ilon atroflarida, Omon Polvon, Rahmonqul Namangan uyezdida, Parpi qo'rboshi Andijon atrofida, Kichik va Katta Ergashlar Qo'qon atrofida, Jonibek qozi O'zgan tomonda, Muhiddinbek Novqatda harakat qilmoqda edilar.

Kichik Ergash qizillar qo'shini bilan bo'lgan jangda halok bo'lganidan so'ng (1918-yil fevral) Qo'qon uyezdi tevaragidagi qurolli harakatga Mulla (Katta) Ergash boshchilik qila boshladi. U o'zining faol harakati, xalq rahnomosiga xos sifatlari bilan tez orada butun vodiydagi ozodlik kurashining tanilgan yetakchisiga aylandi. 1918-yil kuziga kelib uning qo'l ostida har birida 20 tadan 1800 nafargacha yigiti bo'lgan 70 ta qo'rboshi dastalari harakat qilayotgandi. Ulardagi jangchilarning umumiy soni 15 mingtaga yetardi. Madaminbekning 5 ming, Shermuhammadbekning 6 ming, Xolxo'janing 3 mingdan ziyod, Parpi qo'rboshining 3,6 ming, Jonibekning 5,7 ming, Muhiddinbekning 4,5 ming jangovor yigitlari ozodlik kurashiga otlangan edilar. Umumiy maqsad va vazifalarni birgalikda aniqlash, asosiy harakatlarni muvofiqlashtirish yo'li bilangina tish-tirnog'igacha qurollangan sovet qo'shinlarini yengish, yurt mustaqilligini ko'lga kiritish mumkin edi. Shu bois bu jangu jadal davrlarda qo'rboshilarning bir necha bor qurultoylari chaqirilib, ularda muhim hayotiy masalalar muhokama qilinadi. Dastlab shunday qurultoy 1918-yil martida

Qo'qon uyezdining Bachqir qishlog'ida o'tkazildi. Unda Katta Ergash butun Farg'ona vodiysi harakatining rahbari etib saylandi. Unga qo'shinlarning bosh qo'mondoni - «Amir al-Musulimin» unvoni beriladi. Madaminbek va Shermuhammadbek esa uning o'rinbosarlari etib saylandilar. Harakat ko'lamining o'sib, kengayib borishi, uning saflariga yangi ijtimoiy tabaqalar vakillarining qo'shilishi, tabiiy suratda uning oldiga ulkan mas'ul vazifalarni, yangi muammolarni keltirib chiqara bordi. Ularni hal etish esa kurash rahnamolaridan katta matonat, kuchli iroda, yuksak harbiy mahorat, tashkilotchilik kobiliyati va uzoqni ko'ra bilishlik salohiyatini namoyon qilishni toqoza etardi. Farg'ona qo'rboshilari ichida Madaminbek Ahmadbek o'g'ligina mana shunday noyob fazilatlar sohibi ekanligi bilan ajralib turardi. Navqiron yoshda bo'lishiga qaramasdan katta hayot va kurash tajribasi boy, yurt kezgan, yuksak harbiy sarkardalik iste'dodiga ega Madaminbek (1892-1920) tez orada vodiyy kurashchilari sardoriga aylanadi. Sovetlarning rasmiy hujjatlaridan birida ta'kidlanishicha, «o'z oldiga sovet hokimiyatini ag'darish va Farg'ona muxtoriyatini tiklash vazifasini qo'ygan Madaminbek tadbirkor siyosatchi va uddaburon tashkilotchi fazilatlariga ega edi».

Darhaqiqat, Madaminbek o'zining qattiqqo'l siyosati, tashkilotchilik faoliyati va eng muhimi, o'lkada kechayotgan ijtimoiy - siyosiy va harbiy vaziyatni to'g'ri baholay olishi bilan ajralib turardi. Buning ustiga mavjud vaziyatga muvofiq keladigan amaliy harakatlarni qo'llay olishi, sarfdoshlariga o'z ta'sirini o'tkaza olishi ham uning ko'p o'tmay butun Farg'ona qo'rboshilarining nufuzli rahbariga aylantirgan edi. 1919-yilning o'rtalariga kelib uning yigitlarining soni 25 ming kishidan oshardi. Skoblev, Marg'ilon, Andijon, Namangan, O'sh kabi hududlarda harakat qilayotgan taniqli qo'rboshilar, ularning jangchilari Madaminbekning yashil bayrog'i ostiga birlashayotgan edilar. Madaminbekning xalq lashkarlari ayniqsa 1919-yilning birinchi yarmida sovet qo'shinlariga qarshi bir qator sezilarli zarbalar berdilar. Chunonchi, yanvarda Marg'ilon, fevralda Skoblev va Chust shaharlarini vaqtincha egallanishi, mahalliy xalq manfaatiga javob beradigan bir qator muhim amaliy tadbirlarning o'tkazilishi uning obro'sini yanada ko'tarib yubordi. 1919-yil aprel oyida Madaminbek yigitlari Namangan va Qo'qon shaharlari atroflaridagi janglarda g'olib keldilar. «Madaminbek turli siyosiy oqimdagi kishilarni birlashtira oladi. Shuning uchun ham hech qaysi qo'rboshi uningchalik kuch-qudratga ega bo'lmagan edi», deb yozgandi uning muxoliflaridan biri o'sha kezlarda.

Sovet hokimiyatiga qarshi harakatning ijtimoiy tarkibini kuzatarkanmiz, bunda aholining sovet tuzumidan norozi bo'lgan, turli-tuman ijtimoiy qatlamlari, chunonchi, dehqonlar, hunarmandalar, kosiblar, batraklar, mardikorlar, ziyolilar, dindorlar, ruhoniylar, mahalliy boylar u yoki bu darajada faol ishtirok etganligi ayon bo'ladi.

Xususan, sovet hokimiyati organlarining mahalliy aholiga nisbatan yuritgan o'ta millatchilik, shovinistik va bosqinchilik siyosati uni oqibatda bu tuzum dushmaniga

aylantirdi va o'z erki, huquqi, ozodligini ximoya qilib kurashga qalqitdi. Farg'ona fronti qo'mondoni M. Frunzedek zot ham: «... Bu yerdagi sovet hokimiyati ilk tuzilishi davrida rus va yerli ishchi, dehqon ommalarini o'ziga tortish o'rniga, mehnatkash xalqni o'zidan uzoqlashtirish uchun ko'lidan kelgancha harakat qildi. Ishlab chiqarishning natsionalizatsiya qilinishida faqat burjuaziyaning mulki emas, balki o'rta hol dehqonlarniki ham tortib olindi. Bu yerda harakat qilgan qizil askar qismlari, inqilobni himoya qilgan ba'zi rahbarlar yerli mehnatkash xalqning tub manfaatlari bilan hisoblashmadi, uning arzu-dodiga quloq solmadi. Bosmachilik harakati shu asosda vujudga keldi. Bosmachilik - oddiy qaroqchilar emas. Shunda ularni tez yo'q qilish mumkin bo'lardi», deb e'tirof qilgan edi.

TASSR XKK raisi K. Otaboyev 1922-yil iyulida Turkiston MIQ 4-plenumida so'zlagan nutqida bu harakatni xalq ko'zg'oloni sifatida baholagan edi: «Biz 4-yil davomida bu harakatga hatto to'g'ri baho berishni ham bilmadik, u xalq ko'zg'oloni bo'lgani holda bosmachilik deb atadik. Bosmachilik mohiyatan talonchilik degan ma'noni anglatadi, bizning ushbu harakatga bergan noto'g'ri ta'rifimiz masalani hal etishda noto'g'ri yondashuvlarga olib keldi. Va alaloqibat 4-yil davomida biz bu harakatning biron bir jihatini tugata olmadik».

Sovet rahbarlarining bu e'tiroflari sovetlarga qarshi harakatning nechog'lik o'lkaning hayotiy qon tomirlariga daxl qilganini, uni larzaga keltirganini yaqqol tasdiq etadi.

Farg'onaning bechorahol xalqi o'z xalaskorlarini butun choralar bilan qo'llab-quvvatlashda davom etdi. Harakat safi doimo yangi kuchlar hisobiga to'lib bordi. Vodiy qo'rboshilarining birlashish, qo'shilish sari harakatlari ham sezilarli tus olib bordi. 1919-yil kuziga kelib Madaminbek lashkarlarining jangovorlik harakatlari keng hududlarga yoyildi. Bu davrga kelib Monstrovning rus krestyanlari (dehqonlari)dan tashkil topgan ancha ta'sirli harbiy qismlari Madaminbek kuchlari bilan birlashdi. Bu hol xalq kurashining nafaqat ijtimoiy tarkibiga, balki ayni chog'da milliy tarkibiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatar, uning maqsad-vazifalariga yangicha yondashishni taqozo etardi. Gap shundaki, bunga qadar sovetlarga qarshi harakat saflarida o'zbeklar, tojiklar, qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlar, uyg'urlar va qoraqalpoqlar singari yerli millat kishilari kurashib kelayotgan bo'lsalar, endilikda unga sovetlar siyosatidan keskin norozi bo'lgan rus dehqonlari ham qo'shilgan edilar. Harakat tarkibidagi bu o'zgarish 1919-yil oktabrida Pomirning Ergashtom ovulida Madaminbek tarafdorlari tashabbusi bilan tuzilgan «Farg'ona Muvaqqat Muxtoriyat hukumati» tuzilishida ham o'z ifodasini topgandi. Hukumat tarkibi 24 kishidan iborat bo'lib, uning 16 vakilini musulmonlar va 8 nafarini ruslar tashkil etardi. Farg'ona hukumati boshlig'i va musulmon qo'shinlari bosh qo'mondoni etib Madaminbek saylangan edi. Biroq afsuslanarli jihati shundaki, mazkur Muvaqqat hukumat o'z faoliyatini amalda uddalay olmadi. Buning boisi birinchidan, uning mutasaddilarining

boshi urush harakatlaridan chiqmadi. Ikkinchidan, u biror bir xorijiy davlat bilan diplomatik aloqa o'rnatish imkoniyatiga ega bo'lolmadi. Bu esa, tabiiyki, uning o'z qobig'iga o'ralib, amaliy faoliyat yuritishiga imkon bermadi.

1919-yil oktabr oyi oxirlarida Andijonga yaqin Oyimqishloqda to'plangan vodiy qo'rboshilarining qurultoyida vodiyda harakat qilayotgan 150 taga yaqin jangovor qismlarni o'z ta'sirida ushlab turgan 4 yirik lashkarboshi: Madaminbek, Ergash, Shermuhammadbek, Xolxo'ja Eshon qo'shinlarini birlashtirishga kelishildi. Qurultoyda islom qo'shinlarining bosh qo'mondoni - «Amir al-muslimin» etib Madaminbek saylandi. Biroq bu kelishuv, ahdlashuv ham mustahkam bo'lib chiqmadi. Ular o'rtasidagi sansolarlik, o'zaro ichki ziddiyatlar o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi. Masalan, Xolxo'ja tez orada o'z kuchlarini ajratib, mustaqil faoliyat ko'rsata boshladi. Vodiydagi jangovar harakatlarning keyingi borishi tashabbusning ko'proq tajovuzkor sovet qo'shinlari qo'lga o'tishiga, xalq ozodlik kurashining pasayib, so'nib borishiga olib keldi. O'lkada mustahkamlanib olishga ulgurgan bolsheviklar hokimiyati Markazdan yetarli darajada harbiy kuch, qurol-yarog' olib, son-sanoqsiz harbiy mutaxassislarni jalb qilib, ularni Farg'ona frontiga yo'llash, xalq lashkarlaridan qonli o'ch olishga safarbar qildi. 1920-yil boshlarida sovet qo'shinlari Ergash, Madaminbek, Shermuhammadbek va Xolxo'ja kuchlariga sezilarli zarbalar berdilar. Jumladan, 1920-yil yanvarida qizillar Ergash kuchlariga zarba berib, uning tayanch markazi - Bachqirni egalladi. Xuddi shu vaqtda sovet qo'shini Monstrovning dehqonlar armiyasini tor-mor etib, Gulcha qal'asini ishg'ol etdi. Monstrovning o'zi asir olindi. Shuningdek, fevralda Garbuva-Qoratepa-Shahrixon yo'nalishida qizil qo'shinlar Shermuhammadbek lashkariga kuchli zarba berdi. Buning natijasida Shermuhammadbek yengilib, Oloy vodiysi tomon chekindi. Ayni paytda qizillar Norin va Qoradaryoning qo'shilish joyida Madaminbek askarlariga qarshi muvafaqqiyatli jang qilib, unga katta talafot yetkazdilar.

Sovet qo'shinlari qo'mondonlari vodiydagi qarshilik ko'satish harakatini siyosiy kelishuv yo'li bilan to'xtatish choralari ham ko'rdilar. Ular qo'rboshilarga vakil yuborib sulh tuzishni taklif qildilar. Og'ir, murakkab voqealar sharoitida ba'zi qo'rboshilarning sovetlar tomoni bilan kelishuv yo'liga borishi tushunarlidir. Chunonchi, Madaminbek 1920-yil martida sovet qo'mondonligi bilan muzokara olib boradi va sulh imzolab o'z harakatlarini to'xtatadi. Bu sulh shartlariga asosan Madaminbek va uning 1200 nafardan ziyod askar yigitlarining daxlsizligi, o'z qurol-yarog'lariga ega bo'lishi, kerak bo'lganda ularning vodiyda tinchlik, barqarorlik o'rnatishda faol ishtirok etishi ta'kidlangan edi. Garchand sulhning bir qator shartlari keyinroq sovet qo'mondonligining makkorona xatti-harakati bilan o'zgartirilgan bo'lsa-da, biroq Madaminbek bu kelishuvga, uning mahalliy xalq uchun foydali, manfaatli bo'lishiga ishongan edi. Shu bois ham u o'zining boshqa safdoshlariga ham sovetlar bilan muzokaralar olib borib, shunday yo'l tutishni maslahat beradi. Biroq

Shermuhammadbek va Xolxo'ja o'z huzurlariga muzokara uchun kelgan yurtning bu mard o'g'lonini sotqinlik va xoinlikda ayblab, uni qatl ettiradilar. Sodir etilgan bu fojiali voqea ham vodiy qurboshilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qanchalik mo'rt, omonat bo'lganligidan guvohlik beradi.

Garchand Farg'onada sovet hokimiyatiga qarshi kurash bundan keyin ham yangi-yangi kuchlar bilan qo'shilishib turli tarzda davom etsada, biroq u avvalgidek keng qamrovli jangovar, hujumkor yo'nalish kasb etolmadi. 1920-1923-yillar davomida vodiy hududlari bo'ylab olib borilgan xalq ozodlik kurashlariga aka-uka Shermuhammadbek va Nurmuhammadbek, ulardan so'ng Islom Pahlavon va Rahmonqullar yetakchilik qildilar. Ularning har birining mislsiz jasorati, qahramonligi, haq va ozodlik yo'lidagi fidoyiligi xalq xotirasida muhrlanib qoldi. Vodiyda boshlangan sovetlarga qarshi harakat keyinchalik Turkistonning boshqa hududlariga ham yoyildi.

Sovet tadbirlari va boshqaruvidan norozi bo'lgan, diniy va ma'naviy qadriyatlari tahqirlangan Xorazm ahlining turli ijtimoiy qatlamlari ham bosh ko'tardilar. Bu sovet hokimiyati ashaddiy dushmani Junaidxonga qo'l keldi. Uning jangovar otryadlari safi yangi kurashchilar hisobiga muttasil ko'payib bordi. Masalan, 1922-yil aprel oyida Junaidxon qo'shinlari Porsu va uning atroflarini qizil askarlardan ozod qilishdi. Ko'hna Urganch hududida ham shiddatli janglar olib borildi. 1923-yil dekabrda Pitnak, Xazorasp, Bog'ot, Xonqa tumanlarida ham dehqonlarning ommaviy qo'zg'olonlari yuz berdi.

1924-yil yanvar-fevralida Xiva, Pitnak va Xazorasp atroflari xalq isyonkorlarining shiddatli kurash o'choqlariga aylandi. Bunda Junaidxon va Og'ajon Eshonlarning ko'p ming kishilik kuchlari hukmron sovet istibdodiga qarshi mardonavor kurashlar olib borganlar. 1920-yillarning ikkinchi yarmidan 1930-yillarning boshlarigacha Xorazm vohasida Ahmadbek, Durdi, Murodxon, O'roz Geldi, Xudoyberdi, Rajab Qora singari 20 ga yaqin qo'rboshi dastalari jangovar harakatlar olib bordilar, mislsiz qurbonlar berdilar. Biroq kuchlar nisbati teng bo'lmaganligi orqasida tish-tirnog'igacha qurollangan sovet qo'shinlari ularni mag'lubiyatga uchratdi. Sovetlar Xorazmda o'z hukmronligini voha uzra qaror toptirishga muvaffaq bo'ldi.

Buxoroda ham sovetlarning zo'ravonlik siyosati mahalliy xalqlarning qarshiligiga uchradi. Qarshilik ko'rsatish harakati tarafdorlari o'n yillar davomida sovetlar zo'ravonligiga qarshi mardonavor kurash olib bordilar. Bu harakatga Ibrohimbek, Davlatmandbek, Doniyorbek, Mulla Abduqahhor, Fuzail Mahsum singari xalq xaloskorlari rahnamolik qildilar.

Masalan, G'arbiy Buxorda Mulla Abduqahhor (1884-1924) yetakchiligidagi harakat safiga 20 ga yaqin qo'rboshi dastalari (O'rmon polvon, Metan Polvon, Naim Polvon, Shukur Xo'ja, Jo'ra Amin, Said Mansur, Murod Meshkob va boshqalar)

birlashgan edi. Bu xalq lashkarlari G'ijduvon, Shofirkon, Vobkent, Romitan tumanlari va Nurota tog'larida faol harakat qilganlar. Mulla Abduqahhor kuchlari xalqning keng ijtimoiy tabaqalaridan doimiy madad olib to 1924-yil kuzigacha ona yurt dushmanlariga qarshi to'xtovsiz kurash olib borgan. Uning o'zi ham Qizilqumda qizillar bilan bo'lgan tinimsiz janglarda halok bo'ladi.

Sharqiy Buxoroda sovetlar hokimiyati zo'ravonligiga qarshi yo'nalgan harakat 1930-yillar o'rtalarigacha davom etdi. Sharqiy Buxoro hududlari bo'ylab keng yoyilgan harakatlarning taniqli rahnamosi Ibrohimbek (1889-1932) bo'lib, uning umumiy qo'l ostida o'n minglab xalq qasoskorlari jamlangan edi. Fuzail Mahsum, Davlatmandbek, Qulmuhammadbek, Sulton Sadr, Fazliddin Qozi kabi o'nlab qo'rboshilar o'z jangovar yigitlari bilan jon fido etib kurashdilar. Biroq o'lkada qattiq o'rtnashib olgan sovetlar hokimiyati va uning yaxshi qurollangan muntazam qizil qo'shinlari oxir-oqibatda bu harakatni bostirishga muvaffaq bo'ldi. Xususan 1931-yil iyunida Ibrohimbek lashkari mag'lubiyatga uchratilib, uning o'zi qo'lga olinishi bilan Sharqiy Buxoro yerlaridagi qarshilik ko'rsatish harakati barham topdi.

Istiqlolchilik harakatining mag'lubiyatga uchrash sabablari. Turkistonda sovet hokimiyatiga qarshi ko'tarilgan qurolli harakat mag'lubiyatining ko'plab asosli sabablari bor, albatta.

Eng asosiy sabablardan biri - bu Vatan kurashchilarining ulug'vor maqsadlar sari aholi barcha tabaqalarini jipslashtirishga qodir bo'lgan yagona milliy g'oyaga tayanmaganligida edi. Harakat yagona dastur asosida tashkil etilmadi.

Qo'rboshilar siyosiy kurashda toblangan ilg'or jadid namoyandalarini harakatga faol jalb qila olmadilar.

Harakatning bir markazdan turib boshqarilmaganligi, joylarda harakat qilgan kuchlar o'zlarining tor hududiy chegaralari bilan o'ralashib qolganligi, mahalliy qo'rboshilarning o'z manfaatlariga berilishi, dunyoqarashi torligi, cheklanganligi, manmanlik kasaliga chalinganligi, bir-birlari bilan kelisholmasligi, o'zboshimcha xatti-harakatlarga intilishi kabi hollar oxir-oqibatda bu kurashning borishiga jiddiy salbiy ta'sir qildi.

Qurolli harakatga qalqigan kuchlarning yetarli moddiy-ta'minot bazasiga, qurol-aslaha zahirasiga ega bo'lmaganligi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Tashqi dunyo bilan aloqa qilish, chetdan yordam, harbiy madad olish imkoniyati bo'lmadi.

O'lka zo'ravoni bo'lib olgan sovetlar esa o'z qo'shinini yetarli darajada zamonaviy qurol-yarog'lar va harbiy kuchlar bilan ta'minlay olgan edi.

1920-yilda uning tasarrufida 115376 nafar jangchi, shuningdek 11112 ta pulemyot, yuzlab to'plar, bronopoyezdlar, o'nlab samolyotlar va boshqa zamonaviy qurollar mavjud edi. Harbiy kuchlar nisbatidagi bunday ustunlik kurash taqdirini qizillar foydasiga hal etilishiga olib keldi.

Bu xalq harakati millionlab yurtdoshlarimiz hayoti va qismatida o'chmas fojiali iz qoldirdi. Ba'zi aniqlangan rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, u milliondan ziyod mahalliy millat kishilarining aziz umrlariga zomin bo'ldi. Minglab oilalarning o'z ona zaminini tark etib, begona yurtlarga bosh olib ketishlariga sabab bo'ldi. Kolaversa, qanchalab son-sanoqsiz odamlar mana shu milliy fojia bois mamlakatning boshqa, uzoq hududlariga surgun va badarga qilindi.

Biroq bu xalq harakati bejiz ketmadi. U yurtdoshlarimizga katta, ibratli saboqlar berdi, ularning kurash tajribasining boyishiga muhim ta'sir ko'rsatdi. Zero, ona O'zbekistonimizning istiqbolga yuz tutib, dorilamon zamonlarga musharraf bo'lishida, bugungi baxtiyor avlod kishilarining mustaqillik oliy ne'matidan to'la bahra topishida o'sha 20-30-yillarda bobokalonlarimiz qilgan ulkan sa'y-harakatlar, to'kkan qutlug' qonlar, bergan bemisl qurbonlarning ibrati oz muncha emas. Ularning yorqin, porloq xotirasi hozirgi minnatdor avlod kishilarining yodida, shuurida hamisha saqlanadi, faxr-iftixor tuyg'usi bilan eslanadi.

Nazorat savollari

1. 1917-yilgi fevral inqilobi Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida qanday o'zgarishlarni yuzaga keltirdi?
2. «Sho'royi Islomiy» tashkiloti qanday maqsadlar yo'lida tashkil etilgandi? Uning faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
3. Qanday kuchlar «Sho'royi Ulamo» tashkilotini tuzdilar?
4. Nima sababdan «Sho'royi Islomiy» va «Sho'royi Ulamo» o'rtasida bo'linish yuz berdi?
5. Umumturkiston musulmonlari I qurultoyida qanday masalalar hal qilindi?
6. Umumturkiston musulmonlari II qurultoyi haqida nimalarni bilasiz?
7. Turkistonda Sovet hokimiyati qay tarzda yuzaga keldi?
8. Turkistonda tuzilgan birinchi Sovet hukumati — Xalq Komissarlari Soveti tarkibini siz qanday baholaysiz?
9. Turkiston Muxtoriyati tuzilishini taqozo qilgan asosiy omillar deb nimalarni bilasiz?
10. Turkiston Muxtoriyati zimmasiga qanday tarixiy vazifalar yuklangan edi?
11. Turkiston Muxtoriyatini halokatga olib kelgan asosiy sabablar nimalardan iborat?
12. Turkiston Avtonom (Muxtor) Sovet Sotsialistik Respublikasining tuzilishi qanday maqsadlarni ko'zda tutardi?
13. Nima uchun Farg'ona vodiysi sovetlar zo'ravonligiga qarshi qurolli harakatning asosiy markazlaridan biriga aylangan?
14. Qarshilik harakatining taniqli namoyandalari kimlar?
15. 1917-yilgi fevral va oktabr o'zgarishlari ta'sirida Xiva va Buxoroda ijtimoiy-siyosiy vaziyat qay tarzda rivojlanib bordi?
16. «Yosh xivaliklar»ning maqsadi nimalardan iborat edi?

17. Xiva xonligi qanday yoʻsinda tugatildi?
18. «Yosh buxoroliklar» kimlar? Ularning rahnamolaridan kimlarni bilasiz?
19. Buxoro amirligi qanday agʻdarildi?
20. Xiva xonligi va Buxoro amirligi oʻrnida qanday respublika tashkil etildi?

11-mavzu. O‘zbekiston mustaqillikka erishish yo‘lida (1989-1991yy.)

REJA:

- 1.I.A.Karimov – O‘zbekiston mustaqilligini asoschisi va yetakchisi
- 2.Davlat mustaqilligi huquqiy asoslarining yaratilishi
- 3.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi

Tayanch so‘z va iboralar: *O‘zbek tili — davlat tili. Ish bilan ta‘minlash, Prezident lavozimi, Butunittifoq referendumi, MDH tuzishga intilish, 1991-yil avgust voqealari, 9+1 hujjati, FHDQ, 1991-yil 25-avgustdagi farmon.*

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov 1989 yilda, ya‘ni respublika rahbari sifatida ish boshlagan dastlabki palladayoq haqiqiy yo‘lboshchilarga xos fazilatlarni namoyon etgan edi. Avvalo, u kun tartibidagi dolzarb masalalarga, respublikadagi o‘ta tang ahvol echimiga e‘tibor qaratgan edi. SHu tariqa faoliyatining boshidayoq Islom Karimov respublika rahbari sifatida o‘n yillar davomida hal qilinmasdan kelayotgan va ko‘pchilik bundan buyon ham shunday davom etaveradi, degan kayfiyat bilan umumiy bir beparvolik bilan qo‘llab-quvvatlab kelayotgan masalalarga oydinlik kiritdi.

Yurtboshimizning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma‘naviy sohalarga – O‘zbekiston hayotining deyarli barcha jabhalariga taalluqli bo‘lgan muammolarni aniq raqam va ko‘rsatkichlar asosida bilishi va ularning echimini aniq ko‘rsatib berishi uning qalbida islohot g‘oyalari, mustaqillik g‘oyasi uzoq yillar davomida shakllanib borganini ko‘rsatadi.

Atoqli nemis olimi Karl Yaspers o‘z vaqtida buyuk shaxslar boshqalarning erkinligi va ozodligi uchun o‘zining majburiyatini chuqur his qiladi, deb ta‘kidlagan.

Darhaqiqat, tarixiy davr va ijtimoiy vaziyatning o‘zi ulkan fazilatlarga ega bo‘lgan buyuk shaxsni maydonga chiqaradi. Buyuk shaxs esa, tasodif emas. U o‘z xalqining maqsadlariga, orzu-umidlariga, intilishlariga, sevinchu iztiroblariga, baxtli va sitamli onlariga guvoh bo‘lib, yaxlit jamiyat ma‘naviy-ruhiy sharoitida shakllanadi, rivojlanadi, kamolotga etadi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov O‘zbekistonda mavjud bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat oqimida shakllandi, totalitar rejimning butun mohiyatini, o‘zbek xalqining tarixiy qadru qimmatini chuqur angladi. Natijada millat sha‘nini tiklash orzu-umidi bilan yashadi va shakllandi.

Paxta yakkahokimligi misli ko‘rilmagan darajaga etgani bois odamlarga tomorqa erlari berilmas, ularning qo‘shimcha daromad manbai deyarli yo‘q edi. Buning ustiga, “paxta ishi”, “o‘zbeklar ishi” degan soxta kampaniyalar tufayli Markazdan Gdlyan va Ivanov boshliq tergovchilar guruhi kelib, qishloq xo‘jaligiga ozgina aloqasi bo‘lgan barcha insonlar boshiga nohaq tergov va ta‘qib azoblarini

solar edi. Buning oqibatida qanchadan-qancha begunoh odamlar qamaldi, tergov jarayonlarida ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan kulfatlarga duchor qilingan edi.

Aholi jon boshiga hisoblaganda, daromadi 75 so‘mdan oshmaydigan 8 million 800 mingga yaqin odam, respublika aholisining 45 foizi qashshoqlikda kun kechirardi. O‘zimizda etishtirilgan paxta xomashyosining aksariyati chetga tashib ketilib, xalq iste‘molini qondirish uchun tashqaridan har yili 8-9 milliard so‘mlikka yaqin tayyor mahsulot olib kelingan. Ya‘ni, yurtimizda shunchalik boy xomashyo resurslari bo‘lishiga qaramasdan, ulardan deyarli tayyor mahsulot ishlab chiqarilmagan. Yillar davomida yig‘ilib kelgan va nihoyat, 90-yillarga yaqin ijtimoiy portlash darajasiga etgan bunday og‘ir muammolar haqida birinchi marta Islom Karimov ochiq gapirib, ularni hal etish masalasini kun tartibiga qat‘iy qilib qo‘yadi. Islom Karimov “Respublikaga keltirilayotgan tovarlarning 60 foizi esa mashinalar, asbob-uskunalar, engil sanoat va oziq-ovqat sanoati mahsulotlaridir. G‘alati bir vaziyat vujudga kelmoqda. Respublika juda qimmatli xomashyo - paxta, nitron, kaprolaktam ishlab chiqarayotgan bir paytda ularni qayta ishlashdagi sayozlik, texnologiya zanjiri nihoyasiga etkazilmagani oqibatida ayni shu xomashyodan ishlab chiqariladigan gazlama, sun‘iy tola va tayyor mahsulotlarni chetdan keltirishga majbur bo‘lmoqda”, deya qat‘iy ta‘kidlaydi.

Islom Karimov tomonidan O‘zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilib, bu boradagi strategiyaga quyidagi yondashuvlar asos qilib olinishi belgilab berildi:

- mintaqamiz taraqqiyotining tarixiy asoslari, oqilona mantiq e‘tiborga olinmay, ma‘muriy-buyruqbozlik usullari tazyiqi ostida shakllangan qarashlarning hammasiga barham berilishi;

- mintaqamiz taraqqiyotining istiqbollari avvalo respublika aholisining manfaati nuqtai nazaridan qarash zarurligi.

Respublikani iqtisodiy mustaqillik yo‘liga olib chiqish, uni inqiroz girdobidan chiqarish vazifalarini hal etishda O‘zbekiston resurslari va imkoniyatlariga baho berishga mutlaqo yangicha yondashish zarurligi, mavjud imkoniyatlarni Ittifoq va jahon bozori uchun qanchalik jozibali ekani nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish kerakligi ta‘kidlandi.

Birinchiidan, respublikaning ajoyib tabiiy iqlim sharoitlaridan samarali foydalanish, etishtirilishi lozim bo‘lgan eng foydali va daromadli ekinlarni aniqlab olish;

Ikkinchiidan, mavjud 500 ming gektar juda sho‘rxok va o‘rtacha sho‘rxok erlarning irrigatsion va meliorativ holatini yaxshilash masalalariga e‘tiborni kuchaytirish;

Uchinchiidan, O‘zbekistonning gaz kondensanti, ko‘mirga bo‘lgan talab-ehiyojini to‘la-to‘kis ta‘minlash, yaqin vaqt ichida neft qazib olishni 3-4 barobar

ko'paytirish, Qizilqumda fosforitlarning juda katta konini o'zlashtirish, rangli va qimmatbaho metallarning juda katta resurslaridan respublika manfaatlari yo'lida samarali foydalanish;

To'rtinchidan, respublikaning eng katta boyligi bo'lgan uning mehnatsevar xalqi uchun keng imkoniyatlar yaratish singari bu boradagi muhim vazifalarga alohida e'tibor qaratilib, ularni amalga oshirish yo'llari ko'rsatib berildi.

O'sha davrda O'zbekistonda iste'mol qilinayotgan kiyim-kechaklarning 25 foizi, trikotaj buyumlar va ip gazlamaning 30 foizdan ko'prog'i, poyafzalning deyarli 50 foizi chetdan keltirilardi. Prezidentimiz o'z faoliyati boshidanoq respublikamizning xalq iste'moli mollari jihatidan bunday qaramligini tugatish uchun sharoitlarni yaratishga katta e'tibor qaratdi. Jumladan:

- engil va mahalliy sanoatni rivojlantirishning tashib kelish va chetga chiqarish balanslariga asoslangan konkret dasturlarini ishlab chiqish;

- zamonaviy fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini egallash, ishlab chiqarishning fan yutuqlari va intellektual mehnat ko'p sarflanadigan tarmoqlarini jadal rivojlantirishga keskin burilish;

- mashinasozlik, radioelektronika, asbobsozlik korxonalarini tubdan yangilash va yangilarini qurish hamda chiqarilayotgan mahsulotlarni yangilash;

- fan va texnika taraqqiyotining oldingi marrasiga chiqish uchun mavjud barcha resurs va shart-sharoitlar, ilmiy texnikaviy va loyiha-konstruktorlik bazasi imkoniyatlaridan foydalanish;

- shu asosda boshqa mintaqalar va chet ellar bilan teng huquqli sheriklar sifatida aloqalarni yo'lga qo'yish.

Birinchi Prezidentimiz iqtisodiy suverenitetga erishishning amaliy masalalariga batafsil to'xtalib:

- iqtisodiyotimizning hayotiy qobiliyatini ta'minlab turgan Ittifoq qaramog'idagi barcha korxonalar va tashkilotlarni respublika tasarrufiga o'tkazish;

- Ittifoq qaramog'ida qoldirish maqsadga muvofiq bo'lgan tarmoq va korxonalar, jumladan, yopiq turdagi korxonalar to'g'risidagi masalani ana shu korxonalarining respublikamiz bilan o'zaro iqtisodiy munosabatlarini tubdan o'zgartirish asosida alohida hal etish. Zaminimizdan qazib olinadigan oltin, mineral xomashyo, foydalaniladigan er, suv, ishchi kuchi uchun respublikaga muayyan miqdorda pul to'lanadigan, shuningdek, mahsulotning ma'lum qismi respublika korxonalariga topshiriladigan va foydaning ma'lum qismi respublika byudjetiga o'tkaziladigan shartnoma munosabatlarini o'rnatish;

- konvertatsiya qilinadigan valyutada etkazib beriladigan oltinning uchdan bir qismi qiymatini O'zbekistonga qaytarish;

- xalq iste'moli mollari ishlab chiqaradigan deyarli barcha korxonalar, jumladan, «O'zmaishiykimyo» tashkilotiga qarashli korxonalar, Toshkent zargarlik buyumlari

zavodi, mashinasozlik, elektrotexnika, kimyo korxonalarining ancha qismini, gaz kompleksining yirik bo'linmalarini respublika qaramog'iga o'tkazish;

- kichik korxonalar va tashkilotlarni, ayniqsa, aholiga xizmat ko'rsatish, odamlarning kundalik ehtiyojlarini ta'minlash bilan bog'liq shunday korxonalar va tashkilotlarni mehnat jamoalariga va xususiy kishilarga topshirishni hukumat oldida tergan dolzarb vazifa sifatida belgilab berdi.

O'zbekistonning suveren davlatchilik sari ana shunday bosqichma-bosqich intilib borishiga qaramay, Ittifoq idoralarining son-sanoqsiz nizomlari va yo'l-yo'riqlari respublikaning biron-bir iqtisodiy masalani mustaqil hal etish imkonini bermas edi. Bunday umrini o'tab bo'lgan huquqiy qoidalar va nizomlarga ko'r-ko'rona itoat qilinishi esa yangidan-yangi ijtimoiy mojarolarni keltirib chiqarishga sabab bo'ladi.

Shunga ko'ra, Birinchi Prezidentimiz Farmoniga binoan, O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti huzurida xomashyo va engil sanoat mahsulotlari ta'minoti hamda ularni sotish bosh boshqarmasi hamda Tashqi savdo va xorijiy mamlakatlar bilan aloqa davlat komiteti tashkil etildi. Chunki, oltita Ittifoq va respublika tashkiloti mavjud bo'lishiga qaramay, engil sanoat xomashyosini taqsimlash va realizatsiya qilishni muvofiqlashtirishga erishilmadi, qimmatbaho xomashyolarning harakati nazorat qilinmadi. Buning oqibatida paxta tolasi va qorako'lning 90 foizi, tabiiy junning 71 foizi, sintetik tolaning 93 foizi, pilla va charmning anchagina qismi arziyas narxlarda respublikadan olib ketilaverdi. Ichki bozorda ham, jahon bozorida ham ko'plab talab qilinayotgan mana shu g'oyat qimmatli xomashyoning ko'pchilik qismi Sharqiy Evropa mamlakatlariga eksport qilinmoqda, ular esa bu mahsulotlarni jahon narxlarida sotmoqda edi. Xolbuki, o'zimizdagi aksariyat korxonalar xomashyo etishmas, bizdan olib ketilgan resurslardan tayyorlangan mollarni esa respublika boshqa mintaqalardan va chet ellardan uch hissa ortiq narx bilan sotib olishga majbur edi.

Shunga ko'ra, Islom Karimov notinch davrda respublika qishloq xo'jaligini rivojlantirish borasidagi yangi tashabbuslarni ilgari surib, amalga oshirilishi zarur bo'lgan bir qator vazifalarni belgilab berdi. Jumladan:

- respublikaga Markaz tomonidan zo'rlab qabul qildirilgan paxta yakkahokimligiga qarshi izchillik bilan kurash olib borish zarurligi;
- paxta xomashyosini respublika ichida qayta ishlashni yo'lga qo'yish;
- paxta xomashyosidan samarali foydalanish, ayni paytda bozorga faol ta'sir ko'rsatish yo'llarini o'rganish;
- paxtachilikda almashlab ekishni joriy etishga asoslangan ilmiy yo'ldan borish;
- aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash uchun oziq-ovqat kompleksini ustun darajada rivojlantirish;
- qayta ishlash sanoati korxonalarini qurilishini jadallashtirish;

- qishloqning ijtimoiy hayotini qayta qurish, qishloqni qashshoqlikdan qutqarish, qishloq xonadonini badavlat qilish yoʻlida ish olib borish zarur edi.

Islom Karimov rahbarligida boshlangan islohotlar tufayli bir-ikki yilda ahvol asta-sekin oʻnglandi, paxta maydonlari qisqardi (1987 yilda 2 million 108 ming gektar erga chigit ekilgan boʻlsa, 1990 yilda 1 million 826 ming gektar erda paxta etishtirildi). Sugʻoriladigan erlarni paxtadan boʻshatib olish jamoa va davlat xoʻjaligi hududlarida tomorqa uchastkalarini kengaytirish va yakka tartibda uy-joy qurish uchun er ajratib berish kabi katta ijtimoiy masalani qisman hal etish imkonini berdi.

Birinchi Prezidentimiz oʻsha davrdagi jamoa va davlat xoʻjaliklarining xoʻjalik yuritish mexanizmini qayta qurishni, bir tomondan, rahbarlikning maʼmuriy-buyruqbozlikka asoslangan usullarini bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy usullar bilan almashtirib, boshqaruvning butun mexanizmini shaxs va mehnat jamoasining moddiy manfaatdorligi qoidalari asosida kam sarf-xarajat bilan koʻproq mahsulot ishlab chiqarishga erishishga qaratish zarurligini; boshqa tomondan, mavjud xoʻjaliklarning ichki tuzilishi ijara-kooperativ usuliga, barcha ishlab chiqarish vositalari va xizmat koʻrsatish sohalari mustaqil xoʻjalik hisobidan ijara, kooperativ va aksiyadorlik jamoalariga almashtirilishi zarurligini koʻrsatib berdi.

Oʻzbekiston Birinchi Prezidentining «SHaxsiy tomorqa xoʻjaliklarining egalari boʻlmish dehqonlarga moliyaviy yordam berish va ularning uyushmasi moddiy-texnik bazasini mustahkamlash toʻgʻrisida»gi Farmoniga binoan, dehqonlarga, shaxsiy yordamchi xoʻjalik egalariга moliyaviy yordam tariqasida 1 milliard soʻm ajratilishi ularning ijtimoiy ahvolini yaxshilashda katta omil boʻldi. Qoʻshimcha ajratilayotgan moliyaviy yordam asosan iqtisodiy jihatdan zaif xoʻjaliklarni qoʻllab-quvvatlashga, ularning moddiy-texnik bazasini kengaytirish va mustahkamlashga, mahsulotni qayta ishlaydigan kichik korxonalar qurish, transport vositalari, kichik mexanizatsiya texnikasi va chorva mollarini sotib olishga sarflandi.

Bugungi Oʻzbekiston — yangidan-yangi imkoniyatlarni namoyon etayotgan, kuchga toʻlib, nufuzi oshib borayotgan mamlakat. Bugungi Oʻzbekiston — barcha qiyinchiliklarni engib, mustaqillik yoʻlidan yorugʻ istiqbol sari dadil qadam tashlayotgan, xalqaro maydonda obroʻsi oshib borayotgan davlat. Bu — xalq bilan davlat birligidan, omma fikri bilan davlat siyosatining mushtarakligidan, Islom Karimov siyosiy yoʻlining naqadar xalqchilligidan dalolat beradi.

Darhaqiqat, Islom Karimov siyosiy, tashkiliy, gʻoyaviy, maʼmuriy va boshqa jihatlardan juda mustahkamlangan, yangicha yashashni mutlaqo istamaydigan tuzum tomirlari chirmashib ketgan bir sharoitda yangicha tafakkur va yangicha yashash tarafdori boʻlib maydonga chiqdi. Eskilik bilan tinmay kurashib, yangilikni achchiq iztirob va mashaqqat bilan ongimizga singdirib keldi. Uning novatorlik kuchi mamlakatni bir tuzumdan ikkinchi bir tuzumga oʻta hushyorlik, donolik bilan olib

o'tishida, o'zi tanlagan yo'lning to'g'riligiga qat'iy ishonch bilan, barcha sohadagi islohotlarni epchillik va uddaburonlik bilan joriy etishga intilishida namoyon bo'ldi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning davlatchilik borasidagi faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz, beixtiyor ko'z o'ngimizda turli davrlarda faoliyat ko'rsatgan siyosat va davlat arboblari gavdalanadi. Xususan, Er yuzining turli mintaqalarida milliy ozodlik harakatlariga boshchilik qilgan, o'z Vatanini mustamlakachilik iskanjasidan ozod etib, milliy davlatchiligiga asos solgan daholar diqqatimizni tortadi. Darhaqiqat, haqiqiy baho taqqosda beriladi. Tarixiy jarayon, voqea va hodisalar tahlil etilayotganda, ular bir-biriga qiyoslanganda o'zining butun salmog'i va miqyosi bilan namoyon bo'ladi. Ana shu jihatdan qaraganda, milliy davlatchilikni barpo etish borasida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlarni jahonning ko'plab mamlakatlari tarixida kechgan olamshumul jarayonlarga qiyoslash mumkin. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoev "Birinchi Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan taraqqiyotning «o'zbek modeli»ni amalga oshirish va zamonaviy davlat barpo etish borasidagi strategik tamoyillarga biz o'z ishimizda doimo suyanamiz. Bu tamoyillar O'zbekistonda bundan buyon ham siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlarni ta'minlashning mustahkam poydevori hisoblanadi", deya alohida ta'kidlab o'tdilar.

Islohotlar davrida yangilik bilan eskilik o'rtasida hamma vaqt keskin kurashlar, ziddiyatlar va qarama-qarshiliklar bo'lib o'tadi. Taassufki, hayotda ko'pincha yangilikdan ko'ra eskilik, yaxshilikdan ko'ra yomonlik, ezgulikdan ko'ra yovuzlik yashovchan bo'ladi. Ana shu hayotiy falsafadan kelib chiqib aytish mumkinki, turmush tarziga aylangan va kundalik hayot qobig'ida o'ralib qolgan dunyoqarashlarni o'zgartirish oson ish emas. Bu vaqt talab etadigan hodisa. Ayni paytda, u siyosiy arbobdan nihoyatda kuchli iroda, mustahkam asab, sabot va matonat talab etadi. Bu intihosiz iztiroblar, o'z hayotining har bir daqiqasini e'tiqod va g'oya uchun qurbon qilishdek fidoyilik hamda oliy darajadagi shaxsiy fazilat ko'rigidir. Jamiyat va odamlar hayotida yuz beradigan ana shunday tub burilishlar paytida Bosh islohotchi murakkab ma'naviy-ruhiy kechinmalar qurshovida qoladi. Islom Karimov esa islohotlar samaralarini bevosita yangilik bilan eskilik o'rtasidagi jarlikdan jamiyatni bexatar olib o'tish, ya'ni eng avvalo, bosqichma-bosqich odamlar ongi va dunyoqarashida burilish yasash, shu asosda yangicha yashash afzalliklarini ko'rsatish yo'lini tutdi.

XX asr 80-yillari oxirlariga kelib jahon va sobiq Ittifoqdagi o'zgarishlar, hamda yuzaga kelgan vaziyat O'zbek xalqining mustaqillik uchun bo'lgan kurashini tezlashtirib yubordi. Mana shunday jarayonda O'zbek xalqiga munosib yo'lboshchi zarur edi. Tarix taqozosi bilan elim deb yashovchi Islom Karimovdek jasoratli inson 1989 yil 23 iyunda O'zbekiston ga rahbarlikka keldi. O'zbekiston ning yangi hukumati Markaz bilan bo'ladigan munosabatlarni o'gartirmay turib, ijobiy siljishlarga erishib bo'lmasligini va buning uchun respublikaning to'liq mustaqilligini

ta'minlash zarurligini tushunib yetdi. Uning tashabbusi bilan O'zbekiston hukumati tomonidan 1989 yil 15 avgustda "kolxozchilar, sovxoz ishchilari, fuqarolar, shaxsiy tomorqa xo'jaliklari va individual uy-joy qurilishini yanada rivojlantirish to'g'risida" maxsus qaror qabul qilindi. Garchi, bu g'oya Ittifoq rahbarlariga yoqmagan bo'lsa ham, I.A.Karimov o'z fikridan qaytmay, uni jasorat bilan amalga oshira bordi. Natijada o'sha yilning 4 oyida aholi qo'shimcha 90,7 ming gektar yer olishdi. O'zbekiston ning mustaqilligi yo'lidagi yana bir muhim qadam O'zbekiston SSR Oliy Kengashning XII chaqiriq ikkinchi sessiyasida (1990 y. 20 iyun) qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Mustaqillik Deklaratsiyasi"dir. Deklaratsiya 12 moddadan iborat bo'lib, uning 1-moddasida "O'zbekiston SSR ning demokratik davlat mustaqilligi respublikaning o'z hududida barcha tarkibiy qismlarini belgilashda tashqi munosabatlardagi tanho hokimligidir",-deb, yozib qo'yilgan. Sessiya qabul qilgan bu "Mustaqillik Deklaratsiyasi" xalqimiz tomonidan katta mamnuniyat bilan kutib olindi. Shu kundan boshlab respublikada O'zbekiston ning iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir masalalar mustaqil tarzda hal qilina bordi.

Bunga Markazning respublikalarning o'z-o'zini ta'minlash to'g'risidagi qarorlari ham asos bo'lib xizmat qildi. Shu bilan birga Markaz rahbarlari: namoyishlar o'tkazish, mitinglar tashkil qilish, hatto g'ayri konstitutsion yo'llar bilan davlat to'ntarishi o'tkazish bo'lsada, oldingi buyruqbozlik tizimini mustahkamlashga harakat qildilar. 1991 yil 19 avgustga kelib, butun jahonni hayajonga solgan Moskvada davlat to'ntarilishiga urinish bo'ldi. To'ntarish tarafdorlarining asl maqsadlari Ittifoqda yashovchi barcha xalqlarning mustaqillikka erishuviga yo'l qo'ymaslik, hamda mamlakatdagi parokandalikdan foydalanib qolish edi. Lekin, O'zbekiston rahbariyati mavjud ijtimoiysiyosiy vaziyatni saqlash, respublika hududida favqulodda holat joriy etilishiga, Konstitutsiyaga qarshi davlat to'ntarilishini qo'llab – quvvatlash yo'lidagi ig'vogarona harakatlarga uchmaslik uchun o'zlarining butun imkoniyatlaridan foydalandilar. O'sha vaqtda O'zbekiston Prezidenti Hindiston safarida edi. Safardan qaytib 19 avgust kuni kechqurun Toshkent shahri faollari bilan uchrashib, qat'iy tarzda O'zbekiston nuqtai-nazarini ma'lum qildi. Respublika rahbariyati: "Markazdan, kim bo'lishidan qat'iy nazar, qonunga xilof ko'rsatmalarni bajarish mumkin emas",-deb hisobladi. 20 avgustda O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri rahbarlari ishtirokida qo'shma majlisi bo'ldi. Unda O'zbekiston ning mustaqillikka erishish yo'li o'zgarmasligi haqida Bayonot qabul qilindi. I.A.Karimov – O'zbekiston mustaqilligini asoschisi va yetakchisi O'zbekiston mustaqillik tomon yo'l tutar ekan 1989 yilni yoz oylari va 1990 yilning bahorida O'zbekiston hayotida uning rahbarligida burilish davri bo'ldi. Xuddi shu paytlarda O'zbek halqining taqdirini hal qiladigan taraqqiyot yo'llari ishlab chiqildi. Xususan, teng huquqli Mustaqil O'zbekiston ning inson manfaatini

himoya qilish ustivor vazifa deb maqsad qo'ygan demokratik yo'da rivojlanishi bosh strategik yo'nalish deb belgilandi. Ana shu yo'ning boshida, 1989 yilning iyunidan O'zbekiston ning rahbari, 1990 yilning martidan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti sifatida Islom Abdug'anievich Karimov turdi. Dunyo mamlakatlarida yangi jamiyat qurishning "O'zbek modeliga" uning asoschisi va yetakchisi Islom Abdug'anievich Karimovning siyosiy chizmasiga qiziqish ortib bormoqda. Amerika qo'shma Shtatlarida chiqadigan nufuzli "Novoe russkoe slovo" haftanomasi (qarang: "Moskovskiyе novosti". 4-son, 1993 yil 10 oktyabr). O'zbekiston Prezidenti I. Karimovni Mustaqil davlatlar hamdo'stligining ko'p rahbarlariga namuna qilib ko'rsatadi va BMT havfsizlik Kengashiga murojaat qilib O'zbekiston Prezidentining ijtimoiysiyosiy faoliyatiga e'tibor berishga va uning tajribasi bilan notinch mamlakatlarning davlat rahbarlarini tanishtirishga chaqiradi. 1996 yili Venada (Avstriya) "XX asr xalqlari dohiylari" nomida chop etilgan kitoblarning bir jildi O'zbekiston Prezidentiga bag'ishlangan. Kitob mualliflari "... Islom Karimov kommunizmdan keyingi O'rta Osiyo mintaqasidagi eng buyuk davlat arbobidir" , - deb tan beradi. Islom Karimovning har bir asari, ma'ruza va maqolalari bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurishning g'oyaviy-nazariy asoslarini, amaliy ishlarining kundalik dasturini tashkil qiladi. Istiqlolning dastlabki bosqichida nashrdan chiqqan "O'zbekiston ning o'zistiqbol va taraqqiyot yo'li", "O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li" va boshqa bir qancha asarlari va nutqlarida bayon etilgan O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining birinchi navbatdagi vazifalari keyinchalik g'oyat muhim ahamiyat kasb etgan "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida", "Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish vazifalari" va boshqa asarlarida o'zrivojini topdi. O'zbekiston ning yaqin o'tmishida va XX asrning so'nggi o'n yilida bosib o'tgan yo'llari, ularning saboqlari, XXI asrda Respublika istiqlolini mustahkamlashning strategik vazifalarining asosiy yo'nalishlari I.A.Karimovning bir qancha xorijiy mamlakatlarda bosilib 95 chiqqan "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.", "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda." asarlari va Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning birinchi sessiyasidagi (22 yanvar 2000 yil) nutqida bayon etib berildi. Ayniqsa, 2011 yilda nashr qilingan " O'zbekiston mustaqillik ostonasida " deb nomlangan to'plam ayni o'sha davrlarda mustaqillikka erishuv yo'li qanchalik murakkab kechganligini yaqqol tasdiqlaydi. O'zbekiston respublikasining qisqa vaqt ichida ta'lim-tarbiya, madaniyat va sport sohasida erishgan katta yutuqlarini hisobga olib I.A.Karimovga YuNeSKO "Oltin medali", xalqaro Olimpiya komiteti tomonidan "Oltin medal" topshirilishi, Rossiya federatsiyasi Oliy pedogogika akademiyasiga faxriy a'zo etib saylanishi bejiz bo'lmasdan I.A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan va muvoffaqiyatli amalga oshirilayotgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturining dunyo

miqyosida tan olinganligining belgisidir. Respublika aholisining mutlaq ko'pchiligi (97,5 foizi) bunday sharoitga bevosita I.A.Karimovning yetakchiligida erishildi deb hisoblaydi. O'zbek xalqi 2000 yil 9 yanvarda bo'lib o'tgan Prezident saylovida o'zining Islom Karimovga nisbatan chuqur hurmati va extiromini izhor qildi. Saylovchilarning 91,9 foizi Islom Karimovga ovoz berib yana bir karra davlat rahbari etib sayladi. I.A.Karimov yangi davrning jahon miqyosidagi davlat arbobi, O'zbekiston xalqining buyuk yo'l boshchisi sifatida mamlakatninggina emas xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlarning qator nishonlari va faxriy unvonlari bilan taqdirlandi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi Mustaqil O'zbekiston Respublikasining Asosiy qonuni 1992 yil 8 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII chaqiriq XI sessiyasida qabul qilindi. Mustaqillik Konstitutsiyasi muqaddima, olti bo'lim, 26 bob, 128 moddadan iborat bo'ldi. Birinchi bo'limda Konstitutsiyaning asosiy prinsiplari bayon etilib, unda Davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi, Konstitutsiya va qonunning ustunligi, tashqi siyosatning bosh yo'nalishlari o'zifodasini topdi. Asosiy qonunning Ikkinchi bo'limi 35 moddadan iborat bo'lib, Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag'ishlangan. Bunda, O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari bir xil huquq va erkinliklariga ega ekanligi, O'zbekistonning butun hududida yagona fuqarolik o'rnatilganligi, fuqarolarning shaxsiy huquqlari va erkinliklari, vijdon erkinligi va uning kafolatlanishi yoritilgan. Insonning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishga bevosita hamda o'z vakillari orqali qatnashishlari, siyosiy partiyalar va harakatlarga qo'shilish huquqlari taqqoslab ko'rsatilgan. Asosiy qonunda fuqarolarning mulkdor bo'lishi, mehnat qilish, nafaqa olish, o'z vaqtida dam olish, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish, bilim olish huquqlariga ega ekanligi aniq qilib bayon etilgan va bu huquqlari va erkinliklari davlat tomonidan ta'minlanadi deb taqqoslab qo'yilgan. Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlarni chunonchi, qonunlarga rioya qilish, xalqimizning tarixiy, ma'naviy meroslarini avaylab saqlash, atrof tabiiy muhitni asrash, soliqlar va mahalliy yig'img'implarni o'z vaqtida to'lash, Vatanni himoya qilish kabi burchlari majburiy ekanligi ta'kidlangan. 2010 yilga kelib O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga: -O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovlarda eng ko'p deputatlik o'rnini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiyalar tomonidan taklif etiladi. -O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdim etilgan Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko'rib chiqqanidan keyin o'n kun muddat ichida uni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun taklif etadi. 96 -Bosh vazir nomzodi uning uchun tegishlicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining yarmidan ko'pi tomonidan ovoz berilgan taqdirda tasdiqlangan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining a‘zolari Bosh vazir taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi. - O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi o‘rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo‘shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritiladi. Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi tegishlicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a‘zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi.

Qaltis vaziyatda 1991-yil 19-avgustda O‘zbekiston Prezidenti A. Karimov Hindistonga qilgan rasmiy tashrifdan qaytib keldi va Toshkent shahri faollari bilan uchrashuv o‘tkazdi. Uchrashuvda Prezident O‘zbekistonning nuqtayi nazarini bildirib, respublikamizda favqulodda holat joriy etishga hojat yo‘qligi, O‘zbekistonda vaziyat barqarorligi, qonunga xilof ko‘rsatmalar bajarilmasligini qat’iy ta’- kidladi.

1991-yil 20-avgust kuni Toshkentda O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi Rayosati va O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahka- masining Qoraqalpog‘iston, viloyatlar va Toshkent shahar rahbarlari ishtirokidagi qo‘shma majlisi bo‘lib o‘tdi. Majlis mamlakatda vujud- ga kelgan vaziyatni muhokoma qilib, Bayonot qabul qildi. Bayonotda O‘zbekiston Respublikasining tinch vaqtda kuch, avvalo, harbiy kuch ishlatishga qarshi ekanligi ta’kidlandi. Unda tinchlik, osoyishtalikni saqlash va mustahkamlash, har qanday ig‘vogarona harakatlarning oldini olish, hamma joyda qattiq intizom va tartibni saqlash, mish- mishlar va ehtiroslarga berilmaslik vazifalari ilgari surildi. Bayonot- da O‘zbekiston «Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi Deklaratsiya» qoi- dalarini og‘ishmay va izchil amalga oshirish yo‘lidan boraveradi, deb ko‘rsatildi.

1991-yil 21-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti o‘z farmoni bilan O‘zbekiston hududida hokimiyat va boshqaruv ido- ralari, korxonalar, tashkilotlar hamda muassasalarning qabul qilgan barcha qarorlari va ularning ijrosi SSSR va O‘zbekiston SSR Konstitutsiyalariga hamda qonunlariga, O‘zbekiston Respublika- si Prezidenti farmonlariga va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga so‘zsiz mos kelishi kerak, deb belgilab qo‘ydi. Farmonda SSSR- da Favqulodda Holat Davlat Qo‘mitasining SSSR Konstitutsiya- si hamda qonunlariga, O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasi hamda qonunlariga zid keladigan farmonlari va qarorlari haqiqiy emas, deb belgilab qo‘yildi.

Fitnachilarning qonunga xilof ravishda urinishlari natijasida 1991-yil 19—21-avgust kunlari Moskvada fojiali hodisalar ro‘y ber- di. Rossiya Federatsiyasi rahbariyati tashabbusi bilan demokratik kayfiyatdagi Moskva aholisi tomonidan fitna

bostirildi. Fitnachilar qamoqqa olindi. M.S. Gorbachov prezidentlik lavozimiga qaytib keldi. Biroq mamlakatdagi siyosiy vaziyat tang ahiolga tushib qoldi. Markaziy hokimiyat falaj bo'lib, harakatsiz qolgan edi. Sovet Ittifoqi Kommunistik partiyasi ham halokatga uchradi.

1991-yil 25-avgustda O'zbekiston Sovet Sotsalistik Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Farmoni e'lon qilindi. Farmon- ga binoan SSSRda vujudga kelgan ahvolni e'tiborga olib, O'zbekis- ton Respublikasi manfaatlarini himoya qilish maqsadida Respublika Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizligi komiteti O'zbekiston SSRning qonuniy tasarrufiga olindi. Mazkur idoralar zimmasiga, birinchi navbatda, O'zbekiston va uning fuqorolari xavfsizligini, manfaatlarini muhofaza qilish topshirildi. Mazkur farmonga binoan O'zbekiston hududida joylashgan SSSR Ichki ishlar vazirligining ichki qo'shin- lari bevosita O'zbekiston SSR Prezidentiga bo'ysundirildi. Respublika Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik qo'mitasi, prokuraturasi va adliya o'rganlari, shuningdek, respublika hududida joylashgan ichki qo'shinlar, Turkiston Harbiy okrugi qismlari va qo'shinlari partiya- dan butunlay xolis qilindi.

Mazkur farmonda O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Rayosatiga juda qisqa muddatda Respublikaning Davlat mustaqilligi to'g'risidagi qonun loyahasini tayyorlash va uni O'zbekiston SSR Oliy Kengashi- ning navbatdan tashqari sessiyasi muhokamasiga taqdim etish taklif qilindi. Mazkur Farmon imzolangan kun — 1991- yil 25-avgustda kuchga kirdi.

Xulosa qilib aytganda, Birinchi Prezident Islom Karimovning kuch-g'ayrati, oqilona siyosati, tashabbusi natijasida jonajon Vatanimiz — O'zbekistonning Davlat mustaqilligiga tinchlik va qonuniy asosda erishish imkoniyati yaratildi.

Nazorat savollari

1. Farg'ona vodiysida fojiali voqealar nima sababdan sodir bo'ldi?
2. Kadrlar siyosatida qanday o'zgarishlar bo'ldi?
3. Qachon o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi, uning ahamiyati haqida so'zlab berig.
4. O'zbekistonda Prezident lavozimi qachon ta'sis etildi, uning ahamiyatini bilasizmi?
5. Qanday sabablar SSSRni turg'unlik holatiga olib keldi?
6. O'zbekistonda qanday masala bo'yicha referendum bo'ldi, u qanday natija berdi?
7. Favqulodda holat davlat qo'mitasi qachon, kimlar tomonidan, nima maqsadda tuzildi, oqibati nima bo'ldi?
8. Prezident Islom Karimovning 1991-yil 25-avgustdagi farmoni qanday masalaga bag'ishlangan?

12-mavzu. O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi. Huquqiy demokratik davlat qu'rish va fuqarolik jamiyat asoslarini shakllantirish

REJA:

1. Mustaqil O'zbekiston davlatining tashkil topishi va uning tarixiy ahamiyati.
2. Islom Karimov – O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti.
3. O'zbekiston Respublikasi davlat ramzlari va Konstitutsiyasining qabul qilinishi.
4. Siyosiy islohotlar. Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining shakllantirilishi.

Tayanch so'z va iboralar: *O'zbekiston — mustaqil davlat. 1991-yil 29-dekabrda referendum. Davlat bayrog'i. Davlat gerbi. Davlat madhiyasi. Konstitutsiyaning qabul qilinishi, Konstitutsiyaviy tamoyillar. Milliy valuta. Taraqqiyotning «O'zbek modeli». Huquqiy davlat qurilishi. Fuqarolik jamiyati. Siyosiy partiyalar. Nodavlat notijorat tashkilotlar.*

O'zbekiston mustaqil davlat. SSSR tanazzulga uchragach, O'zbekiston rahbariyati davlat mustaqilligini to'la o'z qo'lga olishga kirishdi.

1991-yil 25-avgustda O'zbekiston Prezidentining farmoni e'lon qilindi. Farmonga binoan Respublika ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizligi qo'mitasi O'zbekiston SSRning qonuniy tasarrufiga olindi. Respublika hududida joylashgan SSSR ichki ishlar vazirligining ichki qo'shinlari bevosita O'zbekiston Prezidentiga bo'sundirildi. Respublika ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik qo'mitasi, prokuraturasi va adliya organlari, shuningdek, respublika hududida joylashgan ichki qo'shinlar, Turkiston harbiy okrugi qismlari va qo'shilmalari partiyadan butunlay xalos qilindi.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov Oliy Kengash Rayosatiga juda qisqa muddatda respublikaning davlat mustaqilligi to'g'risidagi qonun loyihasini tayyorlash va uni Oliy Kengashning navbatdan tashqari sessiyasi muhokamasiga taqdim etishni taklif qildi. Oliy Kengash 1991-yil 26-avgust kuni O'zbekistonning davlat mustaqilligi to'g'risida qonun loyihasini tayyorlash haqida va 31-avgustda Oliy Kengashning navbatdan tashqari VI sessiyasini chaqirishga qaror qildi.

1991-yil 28-avgust kuni O'zbekiston Kompartiyasi MQ va Markaziy nazorat komissiyasining qo'shma *plenumi* bo'lib o'tdi. Plenumda Prezident I. Karimovning SSSRda 19-21-avgust kunlari sodir bo'lgan fojiali voqealar va respublika partiya tashkilotlarining vazifalari to'g'risidagi axboroti tinglandi va muhokama qilindi. Plenum Respublika Kompartiyasining KPSS MQ bilan har qanday aloqalarni to'xtatishga, KPSSning barcha tuzilmalaridan chiqishga, uning markaziy organlaridagi o'z vakillarini chaqirib olishga qaror qildi.

1991-yil 31-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari tarixiy oltinchi sessiyasi bo'lib o'tdi. Sessiyada O'zbekiston Prezidenti I.Karimov nutq so'zlab, sobiq Ittifoqda so'ngi paytlarda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealarni, davlat to'ntarishiga urinish oqibatlarini tahlil qilib, ular O'zbekiston taqdiriga, xalqimiz tarixiga bevosita daxldor ekanligini har tomonlama asoslab berdi. Vaziyatdan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qildi va uni mustaqillik to'g'risidagi qonun bilan mustahkamlashni taklif qildi.

Sessiyada «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Oliy Kengash Bayonoti» qabul qilindi. Bayonotda bunday deyilgan edi:

«Mustaqillik deklaratsiyasini amalga oshira borib, O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Kengashi O'zbekistonning Davlat mustaqilligini va ozod suveren davlat – O'zbekiston Respublikasi tashkil etilganligini tantanali ravishda e'lon qiladi».

Oliy Kengash sessiyasida «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida» qaror qabul qilindi.

Mazkur qarorda:

1) Respublikaning davlat mustaqilligi to'g'risidagi Oliy Kengash bayonoti tasdiqlansin va respublika bundan buyon O'zbekiston Respublikasi deb atalsin;

2) 1-sentabr O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb belgilansin va 1991-yildan boshlab bu kun bayram va dam olish kuni deb e'lon qilinsin, deb qat'iy belgilab qo'yildi.

Oliy Kengash sessiyasida «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida» Qonun qabul qilindi. Bu Qonun 17 moddadan iborat bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini huquqiy jihatdan mustahkamlab berdi.

O'zbekiston Respublikasining QONUNI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MUSTAQILLIGI

ASOSLARI TO'G'RISIDA

O'zbekiston SSRning Mustaqillik deklaratsiyasiga va O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi bayonotiga asoslanib, O'zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi ushbu qonunni qabul qiladi.

1-modda. *O'zbekiston Respublikasi o'z tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan birga, mustaqil, demokratik davlatdir.*

2-modda. *O'zbekiston Respublikasining xalqi suverendir va u respublikada davlat hokimiyatining birdan bir sohibidir. U o'z hokimiyatini ham bevosita, ham vakillik idoralari tizimi orqali amalga oshiradi.*

3-modda. O'zbekiston Respublikasi to'la davlat hokimiyatiga ega, o'zining milliy-davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilaydi.

4-modda. O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasi va hududi dahlsiz va bo'linmas bo'lib, uning xalqi o'z xohish-irodasini erkin bildirmasdan turib o'zgartirilishi mumkin emas.

5-modda. O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va uning qonunlari ustundir. O'zbekiston Respublikasi Davlat idoralarining tizimi hokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatiga ajratish tartibi asosida quriladi.

6-modda. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligini tuzish, milliy gvardiya va noharbiy (muqobil) xizmat tashkil etish huquqiga ega.

Suveren O'zbekiston Respublikasi hududida SSSR Qurolli Kuchlarini shakllantirish va ularga rahbarlik qilish masalalarida harbiy siyosatni amalga oshirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

7-modda. O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining moddiy asosi uning mulkidir.

Respublika hududidagi yer, yerosti boyliklari, suv va o'rmonlar, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiiy va boshqa resurslar, respublikaning ma'naviy boyliklari O'zbekiston Respublikasining milliy boyligi, mulki hisoblanadi.

8-modda. Davlat mulki obyektlari, shuningdek, davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining, shu jumladan Ittifoq qaramog'ida bo'lib kelgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mol-mulki, ularning asosiy ishlab chiqarish, noishlab chiqarish va oborot yoki boshqa fondlari hamda o'zga mol-mulki, ichki kommunikatsiya, transport, aloqa va energetika tizimlari, respublika kartografiyasi va geodeziyasi O'zbekiston Respublikasining mulkidir.

9-modda. O'zbekiston Respublikasining mulkini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish respublika qonunlariga muvofiq amalga oshiriladi. Respublika hududida joylashgan, Ittifoq qaramog'ida bo'lib kelgan davlat korxonalarini aksiyali jamiyatlarga aylantirish, ularni mulkning boshqa shakllariga o'tkazish faqat O'zbekiston Respublikasi qonunlarida ko'zda tutilgan shartlar asosida va tartibda amalga oshiriladi.

10-modda. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida oltin, boshqa qimmatbaho metallar va toshlarni qazib chiqarish, qayta ishlash va saqlashni mustaqil amalga oshiradi hamda nazorat qiladi, o'z oltin zaxirasini yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi SSSRning oltin zaxirasida, olmos va valuta jamg'armalarida o'z ulushiga ega.

11-modda. O'zbekiston Respublikasi o'z pul birligi – milliy valutasini joriy etishga, jami pul oboroti, pul va boshqa davlat qimmatli qog'ozlari emissiyasi hajmlarini mustaqil belgilashga haqli.

12-modda. O'zbekiston Respublikasi mustaqil moliya va kredit siyosatini amalga oshiradi. Respublika hududida olinadigan soliqlar va yig'imlar O'zbekiston Respublikasining davlat budjetiga va mahalliy budjetlarga tushadi.

13-modda. O'zbekiston Respublikasi chet davlatlar bilan diplomatik, konsullik, savdo aloqalari va boshqa aloqalar o'rnatadi, ular bilan muxtor vakillar ayirboshlaydi, xalqaro shartnomalar tuzadi, xalqaro tashkilotlarning a'zosi bo'lishi mumkin.

14-modda. O'zbekiston Respublikasi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning mustaqil subyekti bo'lib, chet el investitsiyalarini amalga oshirish shartlarini, investorlarning huquqlarini belgilaydi, o'zining konversiya qilinadigan valuta jamg'armasini yaratadi, oltin va boshqa zaxiralarni, ayirboshlanadigan valutani sotadi va sotib oladi.

15-modda. O'zbekiston Respublikasi hududida inson huquqlari umumiy deklaratsiyasiga muvofiq holda O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi joriy etiladi.

O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari millatidan, elatidan, ijtimoiy chiqishidan, qaysi dinga mansubligidan va e'tiqodidan qat'i nazar bir xil fuqarolik huquqlariga egadirlar, respublika konstitutsiyasi hamda uning qonunlari himoyasida bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolari respublikadan tashqari ham O'zbekiston Respublikasining himoyasida bo'ladilar.

16-modda. O'zbekiston Respublikasi o'z taraqqiyot yo'lini, o'z nomini aniqlaydi, o'z davlat ramzlarini: gerbi, bayrog'i, madhiyasini ta'xis etadi, o'z davlat tilini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining ramzlari muqaddasdir va ularni har qanday tahqirlash qonun bilan jazolanadi.

17-modda. O'zbekiston Respublikasi o'z tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasining hududiy butunligini va mustaqilligini e'tirof etadi. O'zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar teng huquqlilik asosida, ular o'rtasidagi ikki tomonlama shartnomalar va bitimlar vositasida quriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibidan tegishli qonunlar asosida erkin chiqish huquqini saqlab qoladi.

Toshkent shahri, 1991-yil 31-avgust.
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VII sessiyasida 1991-yil 30-sentabr kuni «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risi»gi Qonunga Konstitutsiyaviy qonun maqomini berishga qaror qilindi. Qarorda O'zbekiston Respublikasining amaldagi Konstitutsiyasi moddalarini «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonunning moddalariga zid kelgan hollarda mazkur Qonunga amal qilinsin, deb belgilab qo'yildi.

Shunday qilib, xalqimizning asriy orzusi, umidlari ushaldi, ro'yobga chiqdi. Mamlakatimiz, xalqimiz siyosiy mutelikdan, asoratdan qutildi. Dunyo xaritasida yana bitta mustaqil davlat – O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasining aholisi mustaqillik e'lon qilingan paytda 21,5 mln. kishini tashkil etardi. 2015-yilga kelib aholi soni 31 mln. dan ortdi.

Mustaqillik to'g'risida referendum. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil noyabrda bo'lgan VIII sessiyasi Davlat mustaqilligi masalasi bo'yicha referendum o'tkazish xaqidagi masalani ko'rib chiqdi.

Oliy Kengashning mazkur sessiyasida 1991-yil 29-dekabr, yakshanba kuni O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida referendum hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazish to'g'risida qarorlar qabul qilindi. Referendumda ovoz berish byulleteniga masala quyidagi ta'rifda kiritildi: «O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini ma'qullaysizmi?». Shuningdek, «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida» Qonun qabul qilindi.

1991-yil 29-dekabr kuni umumxalq referendumini bo'lib o'tdi. Referendumda 9.898707 kishi yoki saylov ro'yxatiga kiritilganlarning 94,1 foizi qatnashdi. Ovoz berishda qatnashganlarning 98,2 foizi O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini ma'qullaymiz, deb ovoz berdi.

O'zbekiston Davlat mustaqilligining e'lon qilinishi, uning butun tarixiy taraqqiyoti natajalaridan kelib chiqadigan ob'ektiv va qonuniy hodisadir.

Respublika xalqi va rahbariyatining donishmandligi, sabotli va qat'iyatliligi, uzoqni ko'ra bilishi natijasida uning davlat mustaqilligiga erishuvi

Tinch, demokratik, parlament yo'li bilan ijtimoiy larzalarsiz, qurbonlar va vayronagarchiliksiz amalga oshdi.

1991-yil 29-dekabr kuni muqobilik asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi ham bo'lib o'tdi. Prezidentlikka nomzod Islom Abdug'aniyevich Karimov uchun 8.514136 kishi yoki ovoz berishda qatnashganlarning 86 foizi ovoz berdi. Markaziy saylov komissiyasi saylov yakunlarini ko'rib chiqib, I.A.Karimovni 1991-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti lavozimiga saylangan, deb xisoblashga qaror qildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil yanvarda bo'lgan navbatdan tashqari IX sessiyasida Prezident Islom Karimov qasamyod qildi: «*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimini bajarishga kirishar*

ekanman, respublikamiz xalqlariga sadoqat bilan xizmat qilishga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga kafolat berishga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga qat'iy rioya etishga, zimmamga yuklangan yuksak vazifalarni vijdonan bajarishga qasamyod qilaman». Islom Karimov O'zbekiston Respublikasining umumxalq tomonidan saylangan birinchi Prezidentidir.

Davlat ramzlari. O'zbekiston o'zining davlat mustaqilligini mustahkamlashga dadillik bilan kirishdi. Birinchi bo'lib, davlat ramzlari belgilab olindi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VIII sessiyasida 1991-yil 18-noyabrda tasdiqlandi. Davlat bayrog'i mamlakatimiz hududida ilgari mavjud bo'lgan g'oyat qudratli saltanatlarda bayrog'iga xos bo'lgan eng yaxshi an'analarni davom ettirgan holda respublikaning tabiatiga xos bo'lgan xususiyatlarni, xalqimizning milliy va madaniy sohalardagi o'zligini ham aks ettiradi.

O'zbekistonning Davlat gerbi, o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida 1992-yil 2-iyulda qabul qilindi. Gerbning markazida qanotlarini keng yozib turgan Xumo qushi tasvirlangan. Bu baxt-saodat va erksevarlik ramzidir. Qadim-qadim zamonlardan buyon Xumo qushi o'zbek xalqi orasida odamlarni baxt-saodatga yetaklovchi kuch ramzi sifatida e'zozlab kelingan.

O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida 1992-yil 10-dekabrda qabul qilindi. Davlat madhiyasining matni O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov, musiqasi O'zbekiston xalq bastakori Mutal Burhonov tomonidan tayyorlangan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Mustaqillik qo'lga kiritilgach, milliy huquqiy davlat qurish, demokratik jamiyat barpo etish, bozor munosabatlarini shakllantirish kabi dolzarb vazifalar mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasini ishlab chiqishni taqazo etardi.

«Mustaqillik Deklaratsiyasi» qabul qilingan O'zbekiston Oliy Kengashining 1990-yil 20-iyunda bo'lgan ikkinchi sessiyasidayoq yangi Konstitutsiya ishlab chiqish lozim, degan xulosaga kelingan edi. Sessiya O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov boshchiligida 64 kishidan iborat Konstitutsiya loyihasini tayyorlash bo'yicha komissiya tuziladi. Konstitutsiyaviy komissiya O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini ishlab chiqish ustida 2,5 yil ishladi.

Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqishda konstitutsiyaviy rivojlanishning jahon tajribasi o'rganildi, inson huquqlari, demokratiya va qonunchilik sohasida jahonda qo'lga kiritilgan yutuqlar hisobiga olindi. Milliy davlatchiligimizning tajribasi, Amir Temur va boshqa allomalarimizning davlatni idora qilish sohasidagi g'oyalari yangi Konstitutsiyaga asos qilib olindi.

1991-yil 26-sentabrda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi loyihasi umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi. Muhokama 2 oycha davom

etdi. Muhokama jarayonida bildirilgan takliflar asosida tuzatishlar kiritilgan loyiha 1992-yil 26-noyabrda matbuotda ikkinchi marta e'lon qilindi. Umumxalq muhokamasi davrida 6 mingdan ortiq taklif va mulohazalar bildirildi, ular inobatga olindi. Konstitutsiyamiz xalqimizning siyosiy daholigi va tafakkurining mahsuli bo'ldi.

Oliy Kengashning 1992-yil dekabrda bo'lgan XI sessiyasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish masalasini muhokama qildi.

Sessiyada deputatlar loyihaga 80 ga yaqin o'zgartirish, qo'shimcha va aniqliklar kiritdilar. Shunday qilib, 1992-yil 8-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganligini nishonlash maqsadida Konstitutsiya qabul qilingan kun – 8-dekabr umumxalq bayrami – O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi kuni deb e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 6 bo'lim, 128 moddadan iborat. U «Mustaqillik Deklaratsiyasi», «O'zbekiston Respublikasining Davlat mutaqilligi asoslari to'g'risida» gi Qonunda mustahkamlangan tamoyillar va g'oyalarni o'zida to'la mujassamlashtirdi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ijodkor xalqimizning xohish, irodasi va dono fikr-mulohazalari asosida va jahonda to'plangan eng ilg'or konstitutsiyaviy rivojlanish tajribasini va milliy davlatchiligimiz xususiyatlarini hisobga olgan holda mustaqil ishlab chiqildi. Ilgarigi konstitutsiyalar esa markaziy hokimiyat tomonidan tayyorlangan Ittifoq konstitutsiyasi nusxalaridan ko'chirib olinar edi. Shu boisdan ham yangi asosiy qonunimiz mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o'rganish jarayonida uning mohiyatini ochib beruvchi asosiy tamoyillarni bilib olishga ahamiyat berish zarur.

> O'zbekiston Konstitutsiyasining muhim tamoyili davlat suverenitetidir. Davlatimizning «O'zbekiston Respublikasi» va «O'zbekiston» degan nomlari bir ma'noni anglatadi.

> Konstitutsiyamizning tamoyillaridan yana biri xalq hokimiyatchiligidir.

> Yana bir konstitutsiyaviy tamoyil – davlat hokimiyatining uch tarmoqqa bo'linishidir. O'zbekiston davlat hokimiyati tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo'linishi qonunlashtirildi.

> Asosiy Konstitutsiyaviy tamoyillardan biri demokratiyaga sodiqlikdir. Konstitutsiyada umuminsoniy demokratik tamoyillarning, xalqaro huquq sohasida umum e'tirof etilgan qoidalarning ustunligi tan olingan.

> O'zbekiston Konstitutsiyasida inson hayoti, erkinligi, or-nomusi, qadri-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari eng oliy qadriyat ekanligi belgilab qo'yilgan.

> Yana bir Konstitutsiyaviy tamoyil Konstitutsiya va qonunlarning

ustivorligidir. Konstitutsiyaning 15-moddasida «O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi», deb belgilab qo'yilgan.

Konstitutsiyaning 21-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o'rnatilgan. O'zbekiston Respublikasining millati, elatidan qat'iy nazar barcha fuqarolari O'zbekiston xalqini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Qoraqalpog'iston Respublikasining huquqiy maqomi, O'zbekiston bilan o'zaro munosabatlarning huquqiy asoslari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi mamlakatimiz hayotida katta ahamiyatga ega bo'ldi. U mamlakatimizda qonunchilikning rivojlanishi uchun, huquqiy islohotlar uchun asos bo'lib qoldi. Yuzlab qonunlar, kodekslar, milliy dasturlar ishlab chiqildi, umumxalq muhokamasi dan o'tdi, qabul qilindi va hayotimizning barcha jabhalarida amal qilinmoqda.

Asosiy qonunga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar 2003-yil 24-25-aprel kunlari bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'n birinchi sessiyasida «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonun loyihasi muhokama qilindi va mazkur Qonun qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga jamiyatni yanada erkinlashtirish va demokratiyalash, ikki palatali parlament tuzish zaruriyatidan kelib chiqqan holda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritildi. Asosiy Qonunimiz mazmun va mohiyati, maqsad va vazifalariga daxl qilmagan holda, avvalo Oliy Majlisning roli va ahamiyatini kuchaytirish, uning palatalari maqomi va vakolatlariga doir 76-88-moddalarga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolatlari hamda vazifalariga doir 89,90,93,95,97-moddalarga ham o'zgartirishlar kiritildi. 89-moddaning «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ayni vaqtda Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanadi» deyilgan ikkinchi qismi olib tashlandi.

Muxtasar qilib aytganda, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari o'rtasidagi vakolatlar yanada demokratik ravishda qayta taqsimlanadi. Kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining, hukumatning mas'uliyatini kuchaytirishga, jamiyat siyosiy hayotining faollashuviga, saylov tizimining yanada takomillashuviga xizmat qiladi.

Milliy valyuta. O'zbekistonda milliy valyutani muomalaga kiritish uchun ma'lum vaqt, tajriba kerak edi. Shu boisdan O'zbekiston mustaqillikning dastlabki payti-1991-1993-yillarda sobiq ittifoqdan meros qolgan rubl zonasida bo'lib turdi. Biroq sovetlardan keyingi makonda yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning keskin pasayishi natijasida rublning qadri ham shunga mos ravishda tushib bordi. 1993-yil

may oyi boshlarida 800-900 rublning qadri 1 AQSh dollari darajasiga tushib ketgan edi.

O'zbekiston muomalaga yangi milliy valyuta kiritish ishiga jiddiy kirishdi. 1993-yil 1-noyabrda O'zbekistonda so'm-kupon muomalaga kiritildi, uning kursi oldin muomalada bo'lib kelgan rublga tenglashtirilgan edi. O'zbekiston rahbariyati so'm-kuponlar asosida zarur tajriba orttirdi, haqiqiy milliy valyutani joriy qilish tadbirlarini ko'rdi.

O'zbekiston Prezidentining 1994-yil 16-iyunda e'lon qilingan «O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasini muomalaga kiritish to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq 1994-yil 1-iyulidan boshlab O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – So'm muomalaga kiritildi.

Taraqqiyotning “O'zbek modeli”. Mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq O'zbekiston qanday taraqqiyot yo'lidan boradi, qanday jamiyat, qanday davlat quradi, uning qiyofasi qanday bo'ladi, degan savollar ko'ndalang turardi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, dunyodagi hamma mamlakatlar uchun maqbul bo'lgan bir xil taraqqiyot yo'li, bir xil andoza bo'lishi mumkin emas. Mustaqillikka erishgan har bir mamlakat o'ziga xos taraqqiyot yo'lini izlaydi, yangi jamiyat barpo etishda o'z andozasini ishlab chiqishga intiladi. O'zbekiston oldida ham nazariy-ilmiiy va amaliy jihatdan puxta asolangan o'ziga xos yo'lni ishlab chiqish zarur edi. O'zbekistonning taraqqiyot yo'li bozor iqtisodiyoti va demokratik tamoyillar qaror topgan ilg'or davlatlar tajribasiga, respublikamiz iqtisodiyotining haqiqiy holati va imkoniyatlariga, xalqning mentaliteti va tarixiy an'alariga, aholining tub o'zgartirishlarga tayyorlik darajasiga tayangan holda Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ishlab chiqildi.

O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li Islom Karimovning asarlari, ma'ruza va nutqlarida yangi ma'no-mazmuni bilan to'ldirilib, aniqlashtirilib borildi. 1993-yilda nashr etilgan «O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» nomli asarida Islom Karimov yangi jamiyat qurishning besh tamoyilini asoslab berdi.

1. Iqtisodiyotni mafkuradan to'la xoli qilish, iqtisodning siyosatdan ustunligi, o'ziga xos ichki qonunlarga muvofiq rivojlanishi.
2. Davlat – bosh islohotchi, iqtisodiy o'zgarishlarning tashabbuskori.
3. Qonun ustivorligi, islohotlarning mustahkam huquqiy asoslarga qurilishi, qonun oldida hammaning baravarligi va hammaning qonunga bo'ysunishi.
4. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning barcha bosqichlarida kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalashning ustivorligi.
5. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich va izchil ravishda o'tish, ya'ni islohotlarni inqilobiy sakrashlarsiz amalga oshirish.

Shunday qilib, O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li nazariy va amaliy

jihatdan puxta belgilab olindi. Taraqqiyotning «o'zbek modeli» bundan oldin yaratilgan va mavjud bo'lgan modellarning birortasini takrorlamagan holda, o'z mohiyati va mazmuni jihatidan butunlay yangi taraqqiyot modelidir. Bu yo'l xalqimiz tomonidan ham, xalqaro maydonda ham taraqqiyotning «O'zbek modeli» deb qabul qilindi.

Siyosiy islohotlar. Huquqiy demokratik davlat asoslarining barpo etilishi Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab O'zbekiston o'z siyosiy mustaqilligini mustahkamlash, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishga yo'naltirilgan chuqur siyosiy islohotlar o'tkazish yo'lidan bormoqda.

Milliy huquqiy davlat qurilishida quyidagi omillarga tayanildi:

- > Xalqaro tan olingan huquqiy tamoyillar inobatga olindi;
- > Rivojlangan demokratik davlatlar tajribasiga tayanildi;
- > Ko'p ming yillik o'zbek davlatchiligi tarixi va o'ziga xos ma'naviy-axloqiy qadriyatlariga asoslandi;
- > Vakillik hokimiyatini vujudga keltirishning eng demokratik tizimi-qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatini barpo etish yo'lidan bordi;
- > Davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimi prezidentlik boshqaruv usulini yaratish yo'li tanlandi.

O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilingan paytda 1990-yil fevralda saylangan qonun chiqaruvchi hokimiyat organi-Oliy Kengash faoliyat ko'rsatmoqda edi. O'zbekistonda demokratik islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'lidan borilib, birdaniga Oliy Kengashni tarqatib yuborilmadi. U 1990-1994-yillarda qonun chiqaruvchi hokimiyat organi sifatida faoliyat yuritdi va o'z vakolat muddati davrida 200 ga yaqin qonun va 500 dan ortiq qarorlar tayyorladi va qabul qildi.

Oliy Majlis. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq Respublika parlamentining nomi Oliy Majlis deb ataladigan bo'ldi. Konstitutsiyaning 76-moddasida "O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi", deb belgilab qo'yildi. Konstitutsiyaga muvofiq bir palatali parlament-O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini shakllantirish tadbirlari ko'rildi. 1993-yil 28-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida", 1994-yil 22-sentabrda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'g'risida" qonunlar qabul qilindi. Oliy Majlis hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'p partiyaviylik asosida besh yil muddatga saylanadigan 250 nafar deputatdan iborat bo'lishi belgilandi.

1994-yil 25-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga birinchi-marta erkin, demokratik va ko'p partiyaviylik va muqobillik asosda saylovlar o'tkazildi. Har bir saylov okrugida ikki-uch nomzod, jami 700 nafar nomzod deputatlik uchun kurashdi. Saylovchilar birinchi-marta nomzodlarni tanlab olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Nomzodlarning birontasi ham etarli ovoz ololmagan saylov okruglarida 1995-

yil 8 va 25-yanvar kunlari takroriy saylovlar bo'ldi. Oliy Majlisga 250 deputat saylandi.

Oliy Majlis 1995-1999-yillarda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlat qurishdan iborat yo'lni huquqiy jihatdan ta'minlashga qaratilgan 10 kodeks, 2 milliy dastur, 145 qonun, 452 qaror qabul qildi. Shuningdek, u 70 ta xalqaro shartnomani ratifikatsiya qildi, xalqaro konventsiyalarga qo'shilish to'g'risida 58 ta qaror qabul qildi.

Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga 1999-yil dekabrda saylovlar bo'lib o'tdi. Saylovlarda 7 ta subekt-beshta siyosiy partiya, hokimiyat vakillik organlari va saylovchilarning tashabbuskor guruhlaridan jami 1010 nafar nomzod qatnashdi. Oliy Majlisga O'zbekiston xalq demokratik partiyasidan 48, "Fidokorlar" milliy demokratik partiyasidan 34, «Vatan taraqqiyoti» partiyasidan 20, "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan 11, "Milliy tiklanish" demokratik partiyasidan 10, hokimiyat vakillik organlaridan 111 va saylovchilar tashabbus guruhlaridan 16 nafar vakil deputat etib saylandi.

O'zbekiston Respublikasi bir palatali parlamentining 2000-2004-yillarda bo'lib o'tgan 16 sessiyasida 101 ta qonun, 300 dan ortiq qaror qabul qilindi, 55 ta xalqaro shartnoma va bitimlar ratifikatsiya qilindi. O'zbekiston Respublikasining 329 ta qonun xujjatiga 1357 ta o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Bir palatali O'zbekiston Respublikasi parlamenti-Oliy Majlisi 1995-2004-yillarda o'z faoliyatini quyidagi yo'nalishlarda samarali olib bordi:

- O'zbekistonda o'tkazilayotgan islohotlarning huquqiy bazasini mustahkamlovchi qonunlar yaratish;
- qabul qilingan qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish;
- parlamentlararo aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlash;
- shaxsning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini himoya qilish;
- amaldagi qonun hujjatlarimiz monitoringini xalqaro huquq normalarini o'rgangan holda olib borish;
- joylardagi hokimiyat vakillik organlariga amaliy yordam ko'rsatish.

Muxtasar qilib aytganda, 1995-2004-yillarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi bir palatali parlament sifatida xalq fikrini e'tiborga olish, ochiqlik va oshkorolik tamoyillari asosida faoliyat yuritdi. Parlamentchilikda demokratik asoslar yaratildi. Bir palatali Oliy Majlis milliy parlamentarizm rivojlanish tarixida munosib o'rinni egalladi.

Ikki palatali parlamentning shakllantirilishi. Islom Karimov 2000-yil 25-may kuni ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi sessiyasida doimiy asosda ishlaydigan ikki palatali parlament tizimiga o'tishni taklif qildi. Darhaqiqat, mustaqillikning o'tgan 10-yili davomida parlamentchilikda demokratik asoslar shakllantirildi, endi bir palatali parlamentdan ikki palatali

parlamentga o'tish uchun zarur shart-sharoitlar yaratgan edi.

2001-yil 6-7-dekabr kunlari bo'lib o'tgan Oliy Majlisning ettinchi sessiyasida ikki palatali parlament tuzish masalasi muhokama qilindi va parlamentni ikki palatali qilib tuzish zarur, degan xulosaga kelindi. 2002-yil 27-yanvar kuni «Siz kelgusi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi parlamentini ikki palatali qilib saylanishiga rozimisiz?» degan masalada referendum bo'lib o'tdi. Referendumda qatnashganlarning 93,65 foizi rozi ekanligini bildirib ovoz berdilar.

2002-yil 4-5-aprel kunlari bo'lib o'tgan Oliy Majlisning sakkizinchi sessiyasida «Referendum yakunlari va davlat hokimiyati tashkil etishning asosiy printsiplari to'g'risida» Konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi. Mazkur qonunda respublika parlamentining nomi Oliy Majlis deyiladi, u ikki palatali-quyi va yuqori palatalardan iborat etib tashkil etiladi, deb belgilab qo'yildi. Quyi palata-Qonunchilik palatasi, yuqori palata-Senat deb ataladi, ularning vakolat muddati 5-yil deb belgilangan. Ikki palatali parlament tuzishning huquqiy asoslarini belgilab beruvchi yangi qonun loyihalarini tayyorlash ishiga kirishildi.

2002-yil dekabrda bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'ninchi sessiyasida «O'zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasining Senati to'g'risida» Konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilindi. Qonunchilik palatasi 120 nafar deputatdan, Senat 100 nafar senatordan iborat etib shakllantiriladi. Bu o'zgarishlar 2003-yil aprelda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga kiritilgan o'zgartirishlarda ham o'z ifodasini topdi. 2003-yil 29-avgustda «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida»gi Qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritib, mazkur qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Shu tariqa ikki palatali professional parlamentni shakllantirishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari yaratildi. 2004-yil dekabr-2005-yil yanvar oylarida mamlakatimizda ilk bor ikki palatali parlamentga saylovlar bo'lib o'tdi. Qonunchilik palatasiga 120 nafar deputat saylandi. Senatga respublikamizning har bir hududidan 6 nafardan, jami 84 senator saylandi. Konstitutsiyamizning 77-moddasiga muvofiq, 16 nafar senator O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2005-yil 27-yanvar kuni bo'lib o'tgan birinchi majlisida deputatlar Oqsoqollar Kengashi tavsiyasiga ko'ra yashirin ovoz berish yo'li bilan Qonunchilik palatasi Spikeri lavozimiga Erkin Halilov sayladilar. Shuningdek, 2 nafar deputat Spiker o'rinbosari etib saylandi, qo'mita rahbarlari tasdiqlandi, siyosiy partiyalar fraktsiyalari tashkil etildi va ro'yxatga olindi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2005-yil 27-yanvar kuni bo'lib o'tgan birinchi majlisida Prezident taqdimiga muvofiq Senat a'zolari tomonidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Murod sharifxo'jayev Senat raisi etib saylandi.

Shuningdek 2 nafar senator Rais o'rinbosarlari etib saylandi, Senat qo'mitalari tashkil etilib, ularning raislari ham saylandilar.

Muxtasar qilib aytganda, 2005-yil 27-yanvar kuni ikki palatali parlamenti shakllantirish ishlariga yakun yasaldi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati tashkil etildi va o'z faoliyatini boshladi.

Vazirlar Mahkamasi. O'zbekistonda boshqaruv tizimi tubdan isloh qilindi. Milliy davlatchilik an'analarini o'zida mujassamlashtirgan ijroiya hokimiyat-Vazirlar Mahkamasi tuzildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalari raislari va Qoraqalpog'iston Respublikasi Ministrlar Kengashi raisi kiradi.

Vazirlar Mahkamasining tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan shakllantiriladi. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi Prezidentning taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasining a'zolari Bosh vazir taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, Prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qaror va farmoyishlar chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Vazirlar Mahkamasi Faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi. Prezident topshirig'iga binoan xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi.

Sud hokimiyati. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan "Sudlar to'g'risida" gi qonun asosida sud islohotlari o'tkazildi. Sudlarning mustaqilligi qonunlashtirildi, ularning odil sudlovni amalga oshirish faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi. Ayblanuvchining himoyalanih huquqi, advokatura tizimining mustaqilligi huquqiy jihatdan ta'minlandi. O'zbekistonda sud hokimiyati qonunning ustunligi, barcha foqarolarning qonun oldida tengligini ta'minlash yo'lida faoliyat ko'rsatmoqda.

Sud hokimiyati tuzilishi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi.	O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi	O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi
<ul style="list-style-type: none"> ➤ Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi 	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudlari ➤ Jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlari va Toshkent shahar hamda tumanlararo tuman va shahar sudlari ➤ Fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlararo, tuman va shahar sudlari ➤ O'zbekiston Respublikasi harbiy sudi va okrug harbiy sudlari 	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Viloyatlar va Tokent shahar xo'jalik sudlari ➤ Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi

Mahalliy davlat hokimiyati. Milliy davlatchilik tarixi tajribasidan kelib chiqib va "O'zbekiston Respublikasi mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida" gi Qonunga muvofiq 1992-yil yanvaridan boshlab viloyat, tuman, shaharlarda hokimlik tashkil etildi. Hokimiyat qoshida ijroiya apparati tuzildi.

Viloyat, tuman va shaharlarda hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, davlat va fuqarolarning manfaatini ko'zlab o'z vakolatlariga taaluqli masalalarni hal etadi.lar.

Hokim va uning ijroiya apparati joylardagi barcha korxonalar va muassasalarga rahbarlik qilish, mahalliy ahamiyatga molik hamma masalalarni fuqarolarning mafaatlariga mos ravishda hal qilish bilan shug'ullanmokda.

Boshqaruv sohasidagi islohotlar. O'zbekistonda boshqaruv tizimi tubdan isloh qilindi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishni ta'minlovchi, bozor munosabatlarining faoliyati uchun imkon beruvchi yangi boshqaruv strukturasi yaratildi. Markazlashtirilgan tartibda qayta taqsimlash mexanizmidan bozor mexanizmiga, qattiq mahkamachilik va ma'muriy-buyruqbozlikdan huquqiy boshqaruvga, iqtisodiy omillar orqali o'zini-o'zi idora etishga o'tildi.

Ma'muriy-buyruqbozlik, to'rachilik tizimining o'zagini tashkil etgan Davlat reja qo'mitasi, Davlat ta'minot qo'mitasi, Davlat narxlar qo'mitasi, Davlat agro-sanoat qo'mitasi va boshqa qo'mitalar, vazirliklar, ularning ma'muriy apparatlari tugatildi.

Respublikada moliya va bank tizimi tubdan o'zgardi. Moliya vazirligi respublika byudjetini shakllatirish bilan bir qatorda, davlat soliq siyosatini, moliya siyosatini belgilamokda, valyuta ishlarini boshqarmoqda. Bank tizimi isloh etildi. Davlat banki va uning bo'linmalari tugatildi, Markaziy bank, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, ixtisoslashtirilgan aktsiyadorlik-tijorat banklari-"O'zsanoatqurilishbank", "Paxtabank", "O'zjamg'armabank", "G'allabank", "Tadbirkorbank", "Savdogarbank", xususiy va boshqa banklar tuzildi. Banklarning mustaqilligi va pul muomalasi ahvoli uchun javobgarligi oshirildi.

Davlat nazorati tizimi tartibga solindi. Davlat soliq qo'mitasi, Bojxona qo'mitasi tuzildi. Davlat nazorati qo'mitasi, uning joylardagi organlari tugatildi. Prezident devonida nazorat inspeksiyasi, hokimiyatlarda tegishli nazorat inspeksiyalari tuzildi.

Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi tashkil etildi. Bu qo'mita mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish dasturlarini ishlab chiqishda, ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirishda muhim tadbirlarni amalga oshiradi. Qo'mita investitsiya fondlari, fond birjalari, ko'chmas mulk birjalari, auditorlik xizmatlari va boshqa bozor strukturasi tuzilmalarini tashkil etmoqda.

O'zbekistonning ishlab chiqarish, transport bo'yicha tarmoq vazirliklari tugatilib, ular o'z-o'zini mablag' bilan ta'milaydigan uyushmalarga, kontsernlarga, korporatsiyalarga va boshqa xo'jalik birlashmalariga aylantirildi. Avtomobil transportida, qurilishda boshqaruv tizimi qayta tuzildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Madaniyat ishlari vazirligining strukturasi, faoliyat va ish yuritish usullari tubdan o'zgardi.

Umummilliy ahamiyatga molik bo'lgan tarmoqlarda, masalan, sayohatchilik, transport, madaniyat, kino, televidenie va radio tizimi va boshqalarda iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lgan milliy kompaniyalar tashkil etildi.

Shunday qilib, mustaqillik qo'lga kiritilgandan beri o'tgan qisqa tarixiy davrda huquqiy davlat, uning zamonaviy hokimiyat organlari barpo etildi, ixcham, ochiq va tadrijiy rivojlanishga ega bo'lgan ijtimoiy-siyosiy tizim yaratildi. Bugungi kunda markaziy va yuqori davlat boshqaruv idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tizimlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borishni ta'minlashdan iboratdir.

Ochiq fuqarolik jamiyati negizlarining yaratilishi: O'zbekiston taraqqiyotining bosh yo'li jamiyatni demokratlashtirish, fuqarolik jamiyat qurishdan iboratdir.

Demokratik jamiyat kurish bobida hamma davlat uchun tayyor qolip va andozalar yo'q. I.Karimov dunyoda bir-biriga o'xshagan ikkita inson bo'lmaganidek, bir-biriga aynan o'xshagan ikki davlat ham yo'q, deganida haqlidir. To'g'ri, demokratik

jamiyatning xalqaro miqyosda e'tirof etilgan tamoyillari bor: insonning o'z xohish-irodasi erkin bildirishi va uni amalga oshirishi; ozchilikni ko'pchilikka bo'ysunishi; davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustivorligi; davlat asosiy organlarining saylab qo'yilishi va ularning saylovchilar oldida hisob berishi va boshqalar. O'zbekiston demokratik jamiyat qurishda ana shu tamoyillarga, umumjahon tsivilizatsiyasiga asoslandi. Shuningdek, u xalqimizning necha ming yillik milliy davlatchiligimiz negizlarini, ma'naviy merosimiz ildizlarini, milliy xususiyatlarimiz va boy an'analarimizni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etish yo'lidan bormoqda.

O'zbekiston yangi jamiyat qurishda adolat va haqiqat g'oyasiga asoslanmoqda. Respublikamizda odamlar o'z qobiliyat va ehtiyojlarini to'la namoyon qilish va amalga oshirishlari uchun zarur bo'lgan dastlabki teng imkoniyatlarni, shu jarayonni vujudga keltiradigan huquqiy mexanizmni yaratishga katta e'tibor berildi. Negaki, busiz adolatli jamiyat qurib bo'lmaydi. Ana shunday imkoniyatlar yaratilgandan keyingina, har bir insonning taqdiri, turmushi o'ziga bog'liq bo'lib qoladi. Insonning jamiyatdagi o'rnini uning solohiyatiga, mehnat qilish istagi, oqilu uddaburonligiga bog'liq bo'ladi.

Mahalla. O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrda qabul qilgan "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonuniga binoan, shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'tkaziladigan bo'ldi. Fuqarolarning yig'inlari o'zini-o'zi boshqarish organi bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi. 2001-yil may--iyun oylarida bo'lib o'tgan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga saylovlarda 7840 nafar oqsoqol va ularning 75 mingga yaqin maslahatchilari saylandi. Mahalla oqsoqoli va uning maslahatchilari o'z mahallasi doirasidagi ishlarni hal etish, muhtoj oilalarga davlat mablag'lari hisobidan yordam berish ishlarida faoliyat ko'rsatmoqdalar. Mahalla tizimi jamiyatning negiziga aylandi.

Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlanishi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy printsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, qadr-qimmati va boshqa dahlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi, deb belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar qonun oldida tengdirlar. O'zbekistonda yagona fuqarolik o'rnatilgan. Har bir foqaro yashash, shaxsiy daxlsizlik, turar joy daxlsizligi, bir joydan ikkinchi joyga ko'chish, so'z va e'tiqod erkinligiga ega bo'lib, bu huquqlar davlat tomonidan himoya qilinadi. Fuqarolarning istagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqi qonun bilan mustahkamlab qo'yilgan.

O'zbekistonda shaxs erkinligi, inson huquqlarining muhofazasi va kafolati, mehnat va kasbni erkin tanlash huquqi, ta'lim olish, ijtimoiy muhofaza va boshqa huquqlari qonun bilan himoya qilinadi.

1995-yil 23-fevralda birinchi chaqiriq Oliy Majlisning birinchi sessiyasida Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha Vakili (Ombudsman) lavozimi ta'sis etildi va bu lavozimga Sayyora Rashidova saylandi. Uning maqomi va faoliyat doirasi 1997-yil 26-aprelda qabul qilingan Oliy Majlisning "Inson huquqlari buyicha vakili (Ombudsman) to'g'risida" gi qonun bilan belgilab berildi. Vakil BMTning inson huquqlari bo'yicha markazi, EHXTning demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi bilan yaqin hamkorlikda faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 30-avgustda qabul qilingan "Fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzuvchi harakat va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida"gi qonuni Inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlashga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil oktabr oyida e'lon qilingan "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazini tuzish to'g'risida"gi Farmonga binoan inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi tashkil etildi.

O'zbekistonda foqaro va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan bog'langan. Davlat o'zining foqarolar oldidagi vazifalarini bajarmoqda. Fuqarolarning erkinliklari va huquqlarini amalda himoya qilmoqda. Shuningdek, fuqarolarning ham davlat oldidagi burchlari, majburiyatlari belgilab qo'yilgan.

Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar. Davlat har bir inson zimmasiga tarixiy, ma'naviy va madaniy merosni avaylab asrash, atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, soliq va yig'implarni to'lash majburiyatini yuklaydi. Konstitutsiyaning 52-moddasida "O'zbekiston Respublikasini himoya qilish-O'zbekiston Respublikasi har bir foqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar", deb belgilab qo'yilgan.

Saylov tizim. O'zbekistonda demokratik jamiyatga xos saylov tizimi barpo etildi. 1991-yil 18-noyabrda "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida", 1993-yil 28-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida" va 1994-yil may oyida "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida" hamda "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida" qonunlar qabul qilindi.

Konstitutsiya va qonunlarda 18 yoshga to'lgan fuqarolarning saylash huquqiga ega ekanligi, O'zbekiston Prezidenti saylovi, Oliy Majlis saylovi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari saylovi umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov

huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkazilishi mustahkamlab qo'yilgan. Har bir fuqaro-saylovchi bir ovozga ega. 35 yoshdan kam bo'lmagan fuqaro O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 25 yoshga to'lganlar Oliy Majlisga, 21 yoshga to'lganlar viloyat, tuman va shahar Kengashlariga deputat etib saylanish huquqiga ega. Fuqaro bir vaqtning o'zida ikkidan ortiq vakillik organlarining deputati bo'lishi mumkin emas.

Ommaviy axborot vositalari. Demokratik institutlarning muhim tarmog'i bo'lgan erkin ommaviy axborot vositalari vujudga keldi. 2004-yilda Respublika ommaviy axborot vositalari tizimida 609 nomda gazeta va 162 nomda jurnal chop etildi, 3 axborot agentligi, 50 dan ortiq teleradiokompaniya va studiyalar ishladi. Jurnalistlarning erkin ijod qilishi, mamlakat ravnaqi yo'lida xizmat qilishi uchun shart-sharoitlar yaratildi. Ommaviy axborot vositalari to'g'risida qabul qilingan qonunlar ularni "to'rtinchi hokimiyat" darajasida faoliyat ko'rsatishiga ko'maklashmoqda.

2014-yilga kelib mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari soni 1991-yilga nisbatan 3,5 barobar, shu jumladan, gazetalar 2,5 marta, jurnallar esa 3,5 karra ko'paydi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati barpo etish aholining siyosiy faolligi va siyosiy madaniyatining oshib borayotganligida, turli siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlarining shakllanishida ham namoyon bo'lmoqda.

Mustakillik yillarida mamlakatimizda siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlarining vujudga kelishi va faoliyat yuritishi uchun huquqiy asoslar yaratildi. Respublika parlamenti tomonidan qabul qilingan: "Jamoat tashkilotlari to'g'risida" (1991-yil 15-fevral), "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" (1998-yil, yangi tahriri), "Kasaba uyushmalari, ular faoliyatining huquq va kafolatlari to'g'risida" (1992-yil 2-iyul), "Siyosiy partiyalar to'g'risida" (1996-yil,-dekabr)gi qonunlar shular jumlasidandir.

O'zbekistonda 4 ta siyosiy partiya faoliyat yuritmoqda.

1.O'zbekiston xalq demokratik partiyasi 1991-yil 1-noyabrda Toshkentda bo'lib o'tgan ta'sis quriltoyida tashkil topgan. Ushbu quriltoyda uning Dasturi va Nizomi qabul qilindi.

O'zbekiston XDPsining "O'zbekiston ovozi", "Golos Uzbekistana" gazetalari va "Muloqot" jurnali nashr etilmoqda.

2.1995-yil 18-fevralda O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi (SDP) tuzildi. Partiyaning Toshkentda bo'lgan I-ta'sis Qurultoyida uning Dasturi va Nizomi qabul qilindi.

"Adolat" sotsial-demokratik partiyasining "Adolat" nomli ijtimoiy-siyosiy haftalik gazetasi nashr etilmoqda.

3.O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan partiyalardan yana biri – Milliy

tiklanish demokratik partiyasidir (MTDP). U 1995-yil 3-iyunda Toshkentda bo'lib o'tgan ta'sis qurultoyida tuzildi va partiyaning Dasturi va Nizomi qabul qilindi.

O'zbekiston MTDPsining "Milliy tiklanish" haftalik gazetasi nashr etilmoqda.

4.2003-yil oxirida **O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi** tashkil topdi. Uning maqsadi tadbirkorlar va ishbiarmonlar manfaatini himoya qilishdan iborat. O'zLDP ning "XXI asr" haftalik gazetasi nashr etilmoqda.

1995-yil may oyida jamoatchilikning tashabbusi bilan O'zbekiston «Xalq birligi» harakati tashkil etildi va faoliyat ko'rsatmoqda.

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati. «Xalq birligi» harakatining "Birlik" va "Edinstvo" haftalik gazetalari nashr etilmoqda

O'zbekiston Prezidentining 1996-yil 17-apreldagi farmoniga muvofiq respublika yoshlarining "Kamolot" jamg'armasi nodavlat hayriya-jamoat birlashmasi sifatida tashkil topgan edi. "Kamolot" jamg'armasining vazifasi yoshlarining manfaat va ehtiyojlarini o'rganish, ularni qondirish yuzasidan dasturlar tuzish va davlat ko'magida hayotga tatbiq etishdan iborat edi. Ammo "Kamolot" yoshlar jamg'armasi bunday vazifalarni bajara olmadi, yoshlarning haqiqiy ma'nodagi etakchisiga aylana olmadi.

Prezident Islom Karimov 2001-yil 24-yanvar kuni Toshkentda yoshlar masalasiga bag'ishlangan yig'ilishda yoshlarning chinakam suyanchi bo'la oladigan yangi tashkilot tuzish g'oyasini ilgari surdi. 2001-yil 25-aprel kuni Toshkentda bo'lgan yoshlar qurultoyida o'zini-o'zi boshqaradigan nodavlat, notijorat tashkilot-O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tuzildi va uning Dasturi, Nizomi tasdiqlandi. "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining asosiy maqsadi yoshlarni birlashtirish, sog'lom turmush talablari asosida tarbiyalash, jamiyatda munosib o'rnini egallashga ko'maklashish, ularning manfaatlarini himoya qilish, yosh yigit-qizlarning o'z aql zakovati, kuch-g'ayratini to'la namoyon etishi uchun zarur shart-sharoit yaratib berish, yosh avlodning tayanchi va suyanchi bulishdan iboratdir. Harakatning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tuman va shahar bo'limlari, ta'lim muassasalari, harbiy qismlar, huquq-tartibot organlarida boshlang'ich takilotlari tuzildi. Ular 14 yoshdan 28 yoshgacha bo'lgan O'zbekiston fuqarolarini o'z saflarida ixtiyoriy ravishda birlashtirgan holda faoliyat ko'rsatmoqda.

Jamoat tashkilotlari. O'zbekistonda turli jamoat tashkilotlari ham faoliyat ko'rsatmoqda. Jumladan, O'zbekiston kasaba uyushmalari turli kasb egalari bo'lgan xodimlarni jinsi, diniy e'tiqodlari, irqiy va milliy munosabatlaridan qat'i nazar ixtiyoriy birlashtiruvchi mustaqil ommaviy jamoat tashkiloti sifatida faoliyat ko'rsatmoqda.

Mustaqillik sharoitida ayollarni, ko'p bolali onalarni har tomonlama muhofaza qilishni yanada ko'chaytirish, mehnatkash va ijodkor ayollarni bozor iqtisodiyoti

bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal etishga keng safarbar etish, ilm-fan sohasidagi ayollarning imkoniyatlarini yanada kengaytirish va ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 1-martdagi O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi to'g'risidagi farmoyishi bilan Xotin-qizlar qo'mitasi tuzildi. O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasining asosiy maqsadi jamiyatda xotin-qizlarning rolini oshirish, ularning ma'naviy va madaniy talablarini qondirish, ayollarga ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va psixologik yordam berish, oilani, onalik va bolalikni himoya qilish, tinchlik va ijtimoiy taraqqiyot uchun ayollarning ishtirok etishlarini ta'minlashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat xotin-qizlar qo'mitalari, Toshkent shahar xotin-qizlar qo'mitasi, 38 shahar, 170 tuman, 14 mingdan ortiq mexnat jamoalari va turar joylarda tashkil etilgan xotin-qizlar qo'mitalari faoliyat yuritmoqdalar. Qo'mita qoshida xotin-qizlar toifalariga qarab tuzilgan turli-tuman professional, ijodiy va boshqa uyushmalar ishlamoqda.

1996-yil dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan Faxriylar kengashi-"Nuroni" jamg'armasiga aylantirildi.

2014-yilga kelib mamlakatimizda jamiyatimizning turli sohalarida 8 ming 100 dan ortiq nodavlat va notijorat tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda. Bu 2010-yilga nisbatan 1,6 marta ko'pdir. Shular jumlasiga "Sog'lom avlod uchun" va "Ekosan" xalqaro jamg'armalari, "Mahalla" va "Navro'z" xayriya jamg'armalari, iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida "Ulug'bek", "Iste'dod", "Mehr-shafqat va salomatlik", "Bolalar", "Amir Temur", "Alisher Novoiy", "Abdulla Qodiriy" jamg'armalari va boshqalar kiradi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida O'zbekiston fuqarolik jamiyati asoslari shakllantirildi. Bugungi kunda fuqarolik jamiyatining negizini tashkil etuvchi nodavlat va jamoat tashkilotlarining o'rni va ahamiyatini kuchaytirish ustuvor vazifa bo'lib turibdi.

Nazorat savollari

1. 1991-yil 25-avgustda O'zbekiston Prezidentining qanday farmoni e'lon qilindi?
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 31-avgustda bo'lgan sessiyasida qanday hujjatlar qabul qilindi?
3. «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Oliy Kengash Bayonoti» haqida so'zlab bering.
4. Oliy Kengashning «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida»gi qarorining mazmunini bilaliz- mi?
5. «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi qonunni kutubxonadan toping va daftaringizga yozib oling.

6. Mustaqillik to'g'risidagi referendum va uning natijalarini bila- sizmi?
7. O'zbekiston Davlat mustaqilligini qo'lga kiritishning tarixiy ahamiyati nimalardan iborat?
8. O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'ini tavsiflab bering, u qanday hollarda ko'tariladi?
9. O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbini tasvirlang, undan qanday payitlarda foydalaniladi?
10. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy tamoyillarini bilasizmi?
11. O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lini ishlab chiqish- da nimalar asos qilib olindi?
12. O'zbekistonda milliy huquqiy davlat qurilishida qanday tamo- yillarga asoslandi?
13. O'zbekiston Respublikasi parlamenti — Oliy Majlisning tashkil topishi va faoliyati haqida so'lab bering.
14. Vazirlar Mahkamasining tuzilishi, tarkibi, vazifalari haqida nimalarni bilasiz?
15. O'zbekistonda qanday sud organlari faoliyat yuritmoqda?
16. Mahalliy davlat hokimiyatining tuzilishi va uning vazifalari haqida so'rab bering.
17. O'zbekistonda qanday vazirliklar va davlat qo'mitalari mav- jud?
18. O'zbekiston fuqarolarining huquqlari, erkinliklari, burchla- rini bilasizmi?
19. Ombudsman nima va qachon ta'sis etilgan?
20. O'zbekistonning saylov tizimi haqida so'zlab bering.
21. O'zbekistonda qachon va qanday siyosiy partiyalar tuzilgan, ularning maqsadlari nimalardan iborat?
22. O'zbekiston «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati qachon tu- zilgan, uning maqsadi nima?
23. O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan qanday nodavlat notijo- rat tashkilotlarni bilasiz?

13-mavzu. Mustaqillik yillarida O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyot. O'zbekiston va jahon hamjamiyati

REJA:

- 1.O'zbekistonda bozor munosabatlarining shakllantirilishi. Iqtisodiy taraqqiyot.
- 2.O'zbekistonda itimoiy-siyosiy barqarorlikning ta'minlanishi.
- 3.Istiqlol yillarida ma'naviy-madaniy hayot.
- 4.O'zbekiston Respublikasi tinchliksevar tashqi siyosatining asosiy tamoyilari.
- 5.O'zbekistonning nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi.

Tayanch so'z va iboralar: *Iqtisodiy islohotlar. Strategik maqsadlar. Xususiy lashtirish. Kichik va o'rta biznes. Agrar islohotlar. Bozor infratu- zilmasi. Mashinasozlik sanoati. Yoqilg'i mustaqilligi. G'alla mustaqilligi. Ma'naviy islohotlar. Ma'naviy merosni tiklash. Diniy qatriyatlar. Madaniyat ravnaqi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Milliy istiqlol g'oyasi, xalqaro ahvol. Tinchlikka xavf soluvchi tahdidlar. O'zbekistonninggeosiyosiy o'rni. Tashqi siyosat tamoyillari. O'zbekiston va BMT. O'zbekiston va YeXHT. O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi. O'zbekiston va MDH. MOIH. MOH. O'zbekiston va Osiyo mamlakatlari. O'zbekiston va AQSH. O'zbekiston va Yevropa mamla- katlari hamkorligi.*

Mustabid tuzumdan qolgan iqtisodiy meros. O'zbekiston qaramlik davrida o'z tabiiy boyliklariga, yer-suv, o'rmon va boshqa resurslariga o'zi egalik qila olmasdi, iqtisodiy taraqqiyot yo'lini o'zi belgilay olmasdi. Respublika hududida qurilgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar markazga, uning manfaatlariga bo'ysundirilgan edi. O'zbekiston rahbariyati, xalqi o'z hududida qancha mahsulot ishlab chiqarilayotgani, ular qayerda realizatsiya qilinayotgani va qancha daromad keltirayotganidan bexabar edi. Moliya-kredit, bank siyosati yuritishda qaram edi, o'zining milliy valyutasiga, valyuta jamg'armasiga ega emasdi.

Aholi turmush darajasi jihatidan nochorlik, sobiq Ittifoq miqyosida eng oxirgi o'rinlardan biri meros bo'lib qolgan edi. Rossiya, Ukraina va Belorussiyadan farqli o'laroq, O'zbekiston aholisining deyarlik uchdan ikki qismi qo'l uchida tirikchilik qilardi. Eski mustabid tuzumdan o'tkir ijtimoiy, ekologik muammolar meros bo'lib qolgan edi. Mamlakatimiz aholisi yerning nihoyat darajada sho'rlanishi, havo bo'shlig'i va suv zahiralarning ifloslanganligi, radioaktiv ifloslanish, Orol dengizining qurib borishi oqibatida juda katta ekologik xavfga duch kelib qolgan edi.

«Bugun o'sha davr to'g'risidagi haqiqatni xolisona aytadigan bo'lsak, u zamondagi hayotimizni jahon tarixi va amaliyoti bilan taqqoslaydigan bo'lsak, shuni ochiq aytish kerakki, u paytda O'zbekiston bir yoqlama iqtisodiyotga – markazga butunlay qaram, izdan chiqqan iqtisodiyotga ega bo'lgan yarim mustamlaka

mamlakat qatoriga aylangan edi». (Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: O'zbekiston, 1999, 6-bet.)

Mustaqillik xalqimizni iqtisodiy zulum, mutelikdan ozod etdi, o'z yeri, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi va boshqa tabiiy zahiralarga to'la egalik qilish huquqini berdi. Barcha mulk, korxonalar O'zbekiston tasarrufiga olindi, mustaqil iqtisodiy siyosat yuritish, o'z iqtisodiy taraqqiyot yo'lini o'zi belgilash erkinligi qo'lga kiritildi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'li. Davlat mustaqilligi qo'lga kiritilgach, O'zbekiston umumbashariy, jahon sivilizatsiyasining katta yo'lga tushib oldi. O'zbekiston bozor munosabatlarini shakllantirishni, milliy an'analarga asoslangan o'z yo'lini tanlab oldi. O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li ishlab chiqildi. Bu yo'lning asosiy qoidalari Prezident Islom Karimovning «O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» nomli asarida, ma'ruza va nutqlarida asoslab berildi (besh tamoyil). Bu yo'lga, birinchidan, xalqaro tajriba asos qilib olindi. Ikkinchidan, xo'jalik imkoniyatlari, shart-sharoitlari, eski tuzumdan meros bo'lib qolgan muammolar hisobga olindi.

O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish uchun iqtisodiyotni tubdan isloh qilishga kirishildi. Avvalo, iqtisodiy islohotlarning qo'yidagi strategik maqsadlari belgilab olindi:

- kishilar hayoti va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydigan iqtisodiy tizimni barpo etish;
- ko'p ukladli iqtisodiyotni yaratish;
- xususiy mulkning davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlash;
- korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinliklar berish;
- iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlar qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish;
- jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilib borish;
- kishilarda yangicha iqtisodiy fikrlashni shakllantirish.

Islohotlarning huquqiy asoslari. Iqtisodiy islohotni amalga oshirishning asosiy omillaridan biri bozor iqtisodiyotining huquqiy negizini yaratishdan iboratdir. Shu boisdan islohotlarning huquqiy asoslarini yaratishga alohida e'tibor berildi.

Iqtisodiy sohaga tegishli bo'lgan 100 dan ortiq qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlarni mazmun-mohiyati jihatidan bir qator yo'nalishlarga bo'lish mumkin.

1. Mulkchilik munosabatlari va ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantiruvchi qonunlar. Bu yo'nalish doirasida mulkchilik to'g'risida, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida, ijara to'g'risida, davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risida va boshqa qonunlar qabul qilindi.

2. Xo'jalik yuritishni tartibga soluvchi qonunlar, ya'ni xususiylashtirish, mulkchilik, tadbirkorlik, korxonalar, fermer xo'jaligi, dehqon xo'jaligi, shirkat

xo'jaligi to'g'risida qonunlar qabul qilindi. Bozor infratuzilmasini yaratuvchi va uning faoliyatini tartibga solib turuvchi banklar va bank faoliyati, pul tizimi, tadbirkorlik, sug'urta, birjalar va birja faoliyati to'g'risida, qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida va boshqa qonunlar qabul qilindi. Korxonalar bilan davlat o'rtasidagi, korxonalar o'rtasidagi munosabatlarni yo'lga qo'yuvchi, soliq tizimi, monopolistik faoliyatni cheklash, korxonalarining bankrot bo'lishi haqida qonunlar qabul qilindi, xo'jalik protsessual kodeksi ishlab chiqildi, xo'jalik sudi tuzildi.

3. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatini belgilab beruvchi huquqiy normalar yaratildi. Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida, Chet el investitsiyalari to'g'risida, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida qabul qilingan qonunlar mamlakatimiz tashqi aloqalarining rivojlanishi tarixida yangi sahifa ochdi.

Xususiylashtirish. 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risidagi qonunga muvofiq, davlat mol-mulkni xususiylashtirish masalalari bo'yicha 20 dan ortiq maxsus dasturlar ishlab chiqildi va ularni amalga oshirishga davlat boshchilik qildi. Xususiylashtirish jarayoni umumiy uy-joy fondini, savdo, mahalliy sanoat, xizmat ko'rsatish korxonalarini, qishloq xo'jalik maxsulotlarini tayyorlovchi xo'jaliklarni davlat tasarrufidan chiqarishdan boshlandi. Bu «kichik xususiylashtirish» deb nom oldi.

Kichik xususiylashtirish 1994-yildayoq tugallandi. Davlat ixtiyorida bo'lgan bir milliondan ortiq kvartira yoki davlat uy-joy fondining 95 foizdan ortiqrog'i fuqarolarning xususiy mulki bo'lib qoldi. Bunda har 3 kvartiraning bittasi egalariga imtiyozli shartlar bilan yoki bepul berildi. Urush faxriylari, o'qituvchilar, tibbiyot xodimlari, ilmiy xodimlar va ijodiy ziyolilarga kvartiralar bepul berildi. 2002-yilga qadar Respublika uy-joy fondining 98 foizga yaqini xususiylashtirildi.

Davlatga qarashli mulkni, korxonalarini xususiylashtirishga davlatning o'zi tashabbuskor bo'ldi va boshchilik qildi. Davlat mulkini xususiylashtirish boshlangandan keyin to 1994-yil oxirigacha 54 mingga yaqin korxonalar va obyekt davlat tasarrufidan chiqarildi. Shularning 18,4 mingtasi xususiy mulkka, 26,1 mingtasi aksiyadorlik, 8,7 mingtasi jamoa, 661 tasi ijara korxonalariga aylandi.

1994-yil 21-yanvarda e'lon qilingan «Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 1994-yil 16-martda elon qilingan «Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini yanada rivojlantirishning ustivor yo'nalishlari to'g'risida»gi Prezident farmonlari xususiylashtirish jarayoniga yangi turtki bo'ldi. O'rta va yirik korxonalarini aksiyadorlik jamiyatlariga, ijara korxonalariga aylantira boshlandi, bu jarayonga aholi va chet ellik investorlar kengroq jalb qilindi. Davlat mulkini sotish bo'yicha kim oshdi savdolari va tanlovlarni tashkil etildi.

2004-yil boshlarida respublikamizda 1800 ta aksiyadorlik jamiyatlari faoliyat

yuritdi, 1,2 mln.dan ortiq fuqaro aksiyalarga ega bo'ldi va ulardan daromad olmoqda.

Kichik va o'rta biznes. Respublikada kichik va o'rta biznesni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash uchun tadbirkorlikni rivojlantirish fondi, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga ko'maklashish fondi tuzildi, dunyodagi nufuzli banklarning sarmoyalari jalb etildi. Tadbirkorlar va biznesmenlarga maslahatlar bilan ko'maklashish maqsadida nemis texnikaviy ko'maklashuv jamiyati O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash markazini, Yevropa hamjamiyati komissiyasi amaliy aloqalar markazini ochdilar. Markaziy Osiyodagi Amerika tadbirkorlik fondi va Markaziy Osiyodagi Buyuk Britaniya investitsiya fondi tadbirkorlarga zarur maslahatlar bilan ko'maklashdilar. Faqat 1999-yili kichik va o'rta biznes korxonalariga Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Germaniya tiklanish bankining 200 mln. AQSh dollaridan ortiq kredit mablag'lari jalb etildi va o'zlashtirildi. Kichik va xususiy tadbirkorlikning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi salmog'i 1991-yilda 1,5 foizni, 1999-yilda 12,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2004-yilda 35,6 foizga yetdi. 2004-yil faoliyat yuritayotgan kichik biznes korxonalari soni 39,1 mingtaga yetdi. Faqat 2004-yilda bu sektor hisobiga 425 ming ish o'rinlari yaratildi. 2004-yil 1-oktabrida mazkur sektorda ish bilan band bo'lganlar soni 6,1 mln. kishini yoki iqtisodiyotda jami band bo'lganlarning 61,5 foizini tashkil etdi.

Agrar islohotlar. Agrar islohotlarga ustuvorlik berildi. Negaki, respublika aholisining 62 foizi qishloqda yashaydi, qishloq xo'jaligida YaIM ning 30 foizi, mamlakat valyuta tushumlarining 55 foizi shakllanadi. Agrar islohotlar natijasida qishloq xo'jaligidagi davlat tasarrufidagi mulk xususiylashtirildi. Bugungi kunda qishloq xo'jaligida nodavlat sektorining ulushi 100 foizni tashkil qilmoqda.

Islohotlar yillarida odamlarga shaxsiy tomorqa uchun qo'shimcha ravishda 550 ming gektar sug'oriladigan yer ajratildi va shaxsiy tomorqa uchun berilgan yer-maydoni 700 ming gektarga yetdi, 9 milliondan ortiq odam ana shu yer hosilidan foydalanmoqda.

Qishloqda xo'jalik yuritishning maqbul shakllarini yaratishga alohida e'tibor berildi. Agrar islohotlarning dastlabki yillarida sovxoz va kolxozlar jamoa xo'jaliklariga aylantirilgan edi. Ammo ular xo'jalik yuritishda o'zlarini to'la-to'kis oqlamaganliklari tufayli mulk paylari asosida shirkatlarga aylantirildi. 1999-yilda 898 ta, 2000-yilda 856 ta qishloq xo'jaligi korxonalari shirkatlarga aylantirildi. Ularning umumiy soni 2002-yilning 1-yanvari holatiga ko'ra respublika bo'yicha 1900 taga yetdi, ularda 1 mln. 400 ming kishi shirkat a'zosi sifatida mehnat qildi. Agrar munosabatlar tizimida shirkat xo'jaligida paychilik asosiga qurilgan oila pudratiga keng o'rin berildi.

Qishloq xo'jaligida fermer va dehqon xo'jaliklari salmoqli o'rin egallamoqda. 2004-yilda fermer xo'jaliklari soni 85,5 mingdan ziyodni tashkil etdi. Bu turdagi

xo'jaliklar don, kartoshka, sabzavot-poliz mahsulotlari, go'sht, sut, tuxum yetishtirishda tobora salmoqli o'rinni egallab qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtiradigan asosiy ishlab chiqaruvchilarga aylanmoqda.

Qishloqda shaxsiy yordamchi xo'jaliklar dehqon xo'jaliklari sifatida qayta shakllandi. Dehqon xo'jaligi-bu oilaviy-mayda tovar xo'jaligi bo'lib, tomorqa yer uchastkasi oila boshlig'iga umrbod meros qilib beriladi, mahsulotlar oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida yetishtiriladi va sotiladi. 2003-yilda 3,5 mln.dan ortiq dehqon xo'jaligi faoliyat yuritdi respublikada yetishtirilgan go'shtning 93,7 foizi, sutning 95,9 foizi, kartoshkaning 90 foizi, sabzavot-poliz mahsulotlarining 70,3 foizi, tuxumning 53,5 foizi dehqon xo'jaliklari tomonidan tayyorlandi.

2003-yilda respublikamiz qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan jami mahsulotlarning 22,2 foizi shirkat xo'jaliklariga, 14,9 foizi fermer xo'jaliklariga, 62,9 foizi dehqon xo'jaliklarida yetishtirildi.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan agrar islohotlar natijasida qishloq hayoti yangilandi, dehqon va fermerning mehnatga munosabati, dunyoqarashi o'zgardi. Ular yerning haqiqiy egasiga, o'z mehnati evaziga yetishtirgan mahsulotning egasiga aylanmoqda.

Narxni erkinlashtirish. Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichidayoq narxlar erkinlashtirildi. Bu jarayon ijtimoiy larzalarsiz o'tdi. Negaki, davlat turli kompensatsiya jamg'armalari tuzdi, bolalar uchun nafaqalar joriy etdi, eng kam ish haqi, pensiya, nafqalar va stipendiyalar muntazam suratda oshirib borildi.

Narxni erkinlashtirish iqtisodiyotda raqobatchilik muhitini vujudga keltirish bilan bevosita bog'liq. 1992-yil avgust oyida O'zbekiston Respublikasining "**Monopol faoliyatni cheklash to'g'risida**"gi Qonuni kuchga kiritildi. Bu qonun asosida raqobatchilikni rivojlantirishga qaratilgan bir qator normativ hujjatlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Moliya vazirligi tizimida tuzilgan Antimonopol va narx-navo siyosatini o'tkazish bosh boshqarmasi monopol mavqeyidagi korxonalarni belgilab, ularning mahsulotlari bo'yicha narxlarni va rentabellikni tartibga solib turibdi.

Bozor infratuzilmasi. Iqtisodiy islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bozor infratuzilmasini yaratishdan iboratdir.

Bozor infratuzilmasi deganda bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishga, ularni samarali faoliyat yuritishiga xizmat qiluvchi muassasa, tashkilot va korxonalar majmuasi tushuniladi.

Respublikamizda bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi infratuzilmaning asosiy bo'g'inlari – turli muassasalar, tashkilotlar va korxonalar majmuasi yaratildi. Avvalambor, ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi transport, aloqa, suv va energetika ta'minoti, yo'l va ombor xo'jaligi tuzilmalari yaratildi. Bozor munosabatlarini shakllantirishda birjalar alohida o'ringa ega. Iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichidayoq „**Respublika ko'chmas mulk**

birjasi“, „**Tovar xomashyo birjasi**“, „**Toshkent fond birjasi**“ tashkil etildi. Bu tarmoq yanada rivojlantirildi. 1991-2000-yillarda xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun xizmat qiluvchi 58 ta tovarlar va xomashyo birjalari, 24 ta biznes inkubator, 496 ta auditorlik va konsalting firmalari, ko‘plab savdo uylari, auksionlar, tijoratchilik idoralari, reklama firmalari, savdo-sotiq va ularni nazorat qiluvchi davlat muassasalari tashkil etildi.

Bozor munosabatlarini rivojlantirishda axborot infratuzilmasi alohida ahamiyatga ega. Shu boisdan iqtisodiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan axborotlar, xabarlar va ma’lumotlarni to‘plovchi, umumlashtiruvchi vositalar, firmalar vujudga keladi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliya-kredit munosabatlariga xizmat qiluvchi infratuzilma – yangi bank tizimi, o‘z-o‘zini kreditlash idoralari, sug‘urta kompaniyalari, moliya kompaniyalari, soliq undirish idoralari, pul jamg‘armalari yaratildi.

Bozor iqtisodiyotiga xizmat qiluvchi bank-moliya tizimi yaratildi. „O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida“, „Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida“gi qonunlarda banklarning maqomi va faoliyatining huquqiy asoslari belgilab berildi. Markaziy bank banklar faoliyatini nazorat qiluvchi maqomga ega. Tijorat banklari ixtisoslashtirildi. Mustaqillikning dastlabki yilida 6 ta bank faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 2010-yilda 31 ta tijorat banklari, ularning 810 ta filiali aholiga xizmat ko‘rsatdi. Viloyat, shahar va tumanlarda aholiga xizmat qiluvchi minibanklar ochildi. Minibanklar soni 2011-yil boshlarida 4000 dan oshdi.

Respublika iqtisodiyotini rivojlantirishga yo‘naltirilgan kredit qo‘yilmalari qo‘yish va chet el sarmoyalarini jalb qilishda banklar faol qatnashmoqdalar. Tijorat banklarining iqtisodiyotning real sektoriga kreditlar berish imkoniyati, moliya bozoridagi ishtiroki yildan yilga mustahkamlanib bormoqda. To‘lovlarni naqd pulsiz plastik kartochkalar vositasida amalga oshirish tizimi yaratildi. So‘mdagi plastik kartochkalar 1996-yilda paydo bo‘ldi. 2011-yilda muomaladagi bank plastik kartochkalari soni 8 million donani tashkil etdi. Savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchalarida plastik kartochkalariga xizmat ko‘rsatadigan terminallar soni 86 mingtaga yetdi.

2000-2012-yillarda aholining banklarga qo‘ygan omonatlari hajmi 60 barobarga o‘sganligi mulkdorlar qatlamining ortib borayonganini ko‘rsatadi.

Respublikamizda tadbirkorlar va aholini ehtimoli bo‘lgan turli zararlardan himoya qiluvchi sug‘urta bozori vujudga keldi. Davlat ishtirokida bozor munosabatlariga xizmat qiluvchi „**Kafolat**“, „**Agrosug‘urta**“, „**O‘zbekinvest**“ kabi uchta yirik sug‘urta kompaniyasi tashkil etildi. Ko‘plab xususiy sug‘urta kompaniyalari, shuningdek, xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda ishlaydigan qo‘shma sug‘urta kompaniyalari ham vujudga keldi. 2002-yilda sug‘urta kompaniyalarining soni 28 taga yetdi, ular moliya bozorida mamlakatimiz fuqarolari

va tashkilotlariga 150 turdan ortiq yoʻnalish boʻyicha sugʻurta xizmati koʻrsatmoqdalar. „Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida“gi Qonunning qabul qilinishi (2002), Prezident farmoni bilan 2002-yil 1-fevralidan boshlab sugʻurta tashkilotlarining 3 yil muddatga daromad soligʻidan ozod qilinishi mamlakatimizda sugʻurta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Bozor iqtisodiyotiga oʻtish sharoitida ish bilan bandlik masalasi jiddiy muammoga aylanadi. Negaki, iqtisodiy tizim oʻzgarayotgan paytda malakasiz kishilargagina emas, maʼlum ixtisosga ega boʻlgan xodimlarga ham talab cheklanadi, ishsizlar toifasi kengayadi. Bunday sharoitda ishsizlar sonining koʻpayishiga yoʻl qoʻymaslik tadbirlari koʻrildi. Respublika „**Mehnat birjasi**“ va joylardagi 225 dan ortiq mehnat birjasini oʻz ichiga oluvchi katta tarmoq barpo etildi. Har bir tumanda mehnat birjasi tashkil etildi. Ishsizlarni roʻyxatga olish, ularni kasbini oʻzgartirish mexanizmi yaratildi, ishsizlik boʻyicha nafaqa toʻlash yoʻlga qoʻyildi. Yangi ish oʻrinlarini tashkil etishga eʼti bor berildi. 1993-yilda Respublikada tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga 185,1 ming yangi ish oʻrinlari tashkil etilgan boʻlsa, 1998-yilda bu koʻrsatkich 345,9 mingni tashkil etdi yoki 1,8 marta koʻp yangi ish oʻrinlari yaratildi. 2000-yilda faqat kichik va oʻrta biznes rivoji hisobiga 192,5 mingta, 2001-yilda esa 372 mingta, 2002-yilda 370 mingta yangi ish oʻrinlari yaratildi.

Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichidayoq, narxlar erkinlashtirildi. Bu jarayon ijtimoiy larzalarsiz oʻtdi. Negaki, davlat turli kompensatsiya jamgʻarmalari tuzdi, bolalar uchun nafaqalar joriy etdi, eng kam ish haqi, pensiya, nafaqalar va stipendiyalar muntazam suratda oshirib borildi.

Narxni erkinlashtirish iqtisodiyotda raqobatchilik muhitini vujudga keltirish bilan bevosita bogʻliq. 1992-yil avgust oyida Oʻzbekiston Respublikasining „**Monopol faoliyatni cheklash toʻgʻrisida**“ gi Qonuni kuchga kiritildi. Bu qonun asosida raqobatchilikni rivojlantirishga qaratilgan bir qator normativ hujjatlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Moliya vazirligi tizimida tuzilgan *Antimonopol* va narx-navo siyosatini oʻtkazish bosh boshqarmasi monopol mavqeyidagi korxonalarni belgilab, ularning mahsulotlari boʻyicha narxlarni va *rentabellikni* tartibga solib turibdi.

Iqtisodiyotning barqarorlashuvi va rivojlanishi. Mustaqillikning dastlabki yillarida sanoat va qishloq xoʻjalik mahsulotlari ishlab chiqarish tobora pasayib bordi, xoʻjalik yuritish murakkablashib qolgan edi. Buning sababi Oʻzbekiston iqtisodiy jihatdan qaram boʻlib, korxonalari mustaqil xoʻjalik yurita olmasdi, boshqa hududlarda joylashgan zavod, fabrikalardan keltiriladigan asbob-uskuna va butlovchi qismlarga butunlay qaram edi. Sobiq Ittifoq parchalangach, aloqalar uzildi. Natijada koʻpgina korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish keskin kamaydi, ayrimlari toʻxtab qoldi. Shu boisdan Oʻzbekistonda iqtisodiy tanglikdan chiqish, makroiqtisodiyotni barqarorlashtirish tadbirlari koʻrildi.

Makroiqtisodiyotni barqarorlashtirish uchun O'zbekiston iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar qilish, raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga qodir korxonalar qurish va buning uchun zarur investitsiyalar ajratish yo'llaridan bordi. Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar uchun zarur mablag'lar davlat byudjeti va aholi jamg'armalari hisobiga ajratildi. 1991-2002-yillarda iqtisodiyotga jalb etilgan jami investitsiyalar 28,4 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi.

Xalq xo'jaligi tarkibini qayta qurish maqsadida chet el investitsiyasini jalb qilish choralari ko'rildi. «Chet el investitsiyalari to'g'risida», «Chet ellik investorlar huquqlarini kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida» qonunlar qabul qilindi. Chet el investitsiyasini O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilish bevosita investitsiyalar tarzida, davlat qarzlari, xalqaro moliya va iqtisodiy tashkilotlar, qarz beruvchi mamlakatlarning investitsiya yoki moliyaviy kredit resurslari shaklida amalga oshirildi. Iqtisodiyotga kiritilayotgan xorijiy investitsiya salmog'I yildan yilga o'sib bordi. 1992-1999-yillarda iqtisodiyotda 4,4 mlrd. AQSh dollari hajmida chet el investitsiyalari o'zlashtirildi. 1999-yilning o'zida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari 1 mlrd. 324 mln. AQSh dollari miqdorida chet el investitsiyalari o'zlashtirildi. 1991-2002-yillarda Respublika iqtisodiyotida o'zlashtirilgan chet el investitsiyalari hajmi 14 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2003-yilda 2087 taga yetdi.

Yoqilg'i mustaqilligi. Mustaqillik yillarida iqtisodiyotning hayotiy muhim tarmoqlari rivojlantirildi, yangi sanoat tarmoqlari bunyod etildi. Bunga mamlakatning yoqilgi mustaqilligiga erishishi yaqqol misoldir. 90-yillarning boshlarida chetdan 6 million tonnaga yaqin neft mahsulotlari keltirilar, 600 ming tonna paxta tolasi Rossiya va boshqa mamlakatlarga neft mahsulotlari uchun berilardi. Shu boisdan mamlakatimizda neft mustaqilligi uchun kurash boshlandi, buning zamini 2 trillion kubmetrga yaqin gaz zahiralari, 160 dan ortiq neft koni bor edi.

Yiliga 2,5 mlrd. kub metr gaz haydash quvvatiga ega bo'lgan Ko'kdumaloq kompressor stansiyasi, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi barpo etildi. 1996-yilga kelib chetdan neft mahsulotlarini sotib olish to'xtadi, neft mustaqilligiga erishildi. 1991-yilda 2,9 mln. tonna neft (gaz kondensati bilan birgalikda) mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2000-yilda bu ko'rsatkich 7,5 mln. tonnadan oshdi. Shu davrda tabiiy gaz ishlab chiqarish 41,8 mlrd. kub metrdan 56,4 mlrd. kub metrga o'sdi. O'zbekiston yoqilg'i mustaqilligiga erishdi.

Mashinasozlik va avtomobilsozlik sanoati. Mustaqillik yillarida mashinasozlik sanoati jadal rivojlandi. 1994-yilda barpo etilgan O'zbekiston-Isroil «O'zIzmash» qo'shma korxonasida paxta terish mashinalarining gorizontaal shpindelli yangi xili yaratildi. Bu agregat jahon mashinasozligining eng yangi yutug'idir, deb e'tirof etildi.

1992-yilda Janubiy Koreya bilan hamkorlikda O'zbekistonda avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonalar barpo etishga kelishib olindi. 1993-1996-yillarda Asaka

shahrida «O'zDEU avto» zavodi barpo etildi va "Damas", "Tiko", "Neksiya" rusumli avtomobillar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. 1996-yilda 25,3 ming, 1997-yilda 64,9 ming, 1998-yilda 54,4 ming, 1999-yilda 58,4 ming, 2004-yilda 70 ming dona engil avtomobil ishlab chiqarildi. «O'zDEU» zavodida 1999-2014-yillarda "Matiz", "Lasetti", "Epika", "Spark", "Malibu", "Kobalt", "Orlando" rusumli avtomobillar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. O'zbekiston dunyoda avtomobil ishlab chiqaruvchi 28-mamlakatga aylandi. Agar 2000-yilda har 100 ta oilaga o'rtacha 20 ta yengil avtomobil to'g'ri kelgan bo'lsa, 2013-yilda bu raqam 41,4 taga yetdi. Tadqiqotlarga ko'ra 2013-yilda mamlakatimizdagi oilalarning 11 % dan ortig'i ikkitadan yengil avtomobilga ega.

Samarqandda avtobus va yuk mashinalari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan «SamKoch avto» zavodi qurildi. 2000-yilda «SamKoch avto» zavodi 483 ta avtobus, 102 ta yuk avtomobili ishlab chiqardi.

Respublikamizda avtomobillarga butlovchi qismlar ishlab chiqaruvchi o'nlab yangi korxonalar bunyod etildi. Hozirgi paytda «O'zDEU» zavodi uchun zarur bo'lgan butlovchi qismlarning 20 foizi O'zbekistonda ishlab chiqarilmoqda. Avtomobilsozlik sanoatida 14 mingga yaqin ishchi va xizmatchi mehnat qilmoqda.

Mashinasozlik sanoatining yirik korxonalari – Toshkent traktor zavodi, O'zbekiston qishloq xo'jaligi mashinasozligi, Toshkent va Chirchiq qishloq xo'jaligi mashinasozligi, Toshkent agregat zavodi va boshqa korxonalar mustaqillikning dastlabki yillarida uchragan qiyinchiliklarni yengib o'tdi. Birgina Toshkent traktor zavodi 2000-yilda 954 ta, 2001-yilda 1002 ta traktor ishlab chiqarilgan bo'lsa, hozirgi paytda yiliga 3,5-4 ming donagacha traktor, minglab tirkamalar ishlab chiqarilmoqda.

Gaz-kimyo va yengil sanoat. 1995-yil oktabr oyida O'zbekiston bilan AQShning «ABB Lummus Global» kompaniyasi o'rtasida Sho'rton gaz-kimyo majmuasini qurish bo'yicha hamkorlik yo'lga qo'yildi. Qurilish ishlari 1997-2001-yillarda amalga oshirildi, majmua qurilishida 1 mlrd. AQSh dollari hajmida sarmoya o'zlashtirildi. 2001-yil dekabrda Sho'rton gaz-kimyo majmuasi ishga tushirildi. Majmua yiliga 125 ming tonna polietilen, 137 ming tonna suyultirilgan gaz va 126 ming tonna gaz kondensati ishlab chiqarish quvvatiga ega.

Yengil va to'qimachilik sanoati tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Paxtani qayta ishlovchi «Qabul-O'zbekKO», «Kosonsoy-Tekmen», «Papfen», «Asnam tekstil», «Karakulteks», «Chinoz to'qimachi», «Qabul-Farg'ona», «Oq saroy to'qimachi» qo'shma korxonlari barpo etildi. Faqat 2004-yilda 17 ta yengil sanoat korxonalari qurilib ishga tushirildi. Bu tarmoqda xalq ist'emoli mollari ishlab chiqarish kengaydi, minglab yangi ish o'rinlari yaratildi. Agar 1991-yili respublikamizda paxta tolasini qayta ishlash 12 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2004-yilda bu ko'rsatkich 28 foizga yetdi. Kalava, ip, paxta va shoyi gazlamalarini eksport qilish hajmlari ancha oshdi.

Mustaqillik yillarida «Zarafshon-Nyumont» korxonasi, Qizilqum fosforit kombinati, Qung'iroq soda zavodi, Quvasoy kvarts zavodi, Yangiyo'l va Andijon spirt zavodlari, Toshloq ip yigiruv fabrikasi va boshqa ko'plab korxonalar bunyod etildi.

Don mustaqilligi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirishga e'tibor berildi. Xo'jaliklar qanday ekin ekish sohasida mustaqil bo'ldilar. Respublikada don mustaqilligiga erishish, shakar va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlashni tiklash yo'li izchillik bilan amalga oshirildi. Paxta ekiladigan-maydonlar tegishli suratda qisqartirilib, donli ekinlar-maydoni kengaytirildi. Umumiy ekin-maydonlarida donli ekinlar salmog'i 1991-yilda 18,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2000-yilda 42 foizga o'sdi.

Respublikamizda don mustaqilligiga erishish, shakar va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlash yo'li izchillik amalga oshirildi. Agar 1991-yilda mamlakatimizda 1,9 mln. tonna don, shu jumlandan 609,5 ming tonna bug'doy tayyorlangan bo'lsa, 2014-yilda 8 mln. tonna bug'doy yetishtirildi. O'zbekiston g'alla mustaqilligiga erishdi.

Andijon paxtakorlari tashabbusi bilan chigitni plyonka ostiga ekish texnologiyasi joriy etildi. Bu usul paxtadan sifatli va yuqori hosil yetishtirish imkonini yaratdi.

Iqtisodiyotda barqaror yuksalish. Iqtisodiyot tarkibidagi tub o'zgarishlar, yangi korxonalar buniyod etilishi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida samarali natijalar berdi. 1991-2002-yillarda 1872 korxonalar va boshqa ishlab chiqarish muassasalari qurildi, mahsulotning 9,5 mingdan ortiq yangi turlarini ishlab chiqarish o'zlashtirildi. 1990-yilda Respublika bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmini 100 foiz deb olsak, undan keyingi yillarda kamayib, 1992-yilda 94,7 foizga, 1993-yilda 98,1 foizga tushgan edi. 1995-yilga kelib makroiqtisodiyotda barqarorlikka erishildi va 1996-yildan boshlab barqaror o'sish ta'minlanmoqda. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi oldingi yilga nisbatan 1997-yilda 106,5 foizga, 1998-yilda 105,8 foizga, 1999-yilda 106,1 foizga, 2000-yilda 106,4 foizga, 2001-yilda 108,1 foizga, 2002-yilda 108,1 foizga, 2003-yilda 108,4 foizga, 2004-yilda 109,4 foizga o'sdi. Un va un mahsulotlari, kiyim-kechak, poyabzal, shakar va qand mahsulotlari ishlab chiqarish sezilarli darajada ko'paydi, iste'mol buyumlari importi kamaydi.

Yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish 1991-1995-yillarda pasayib bordi, 1996-yildan boshlab o'sish boshlandi. Oldingi yilga nisbatan 1996-yilda YalM 101,7 foizga, 1997-yilda 105,2 foizga, 1998-yilda 104,4 foizga, 1999-yilda 104,4 foizga, 2000-yilda 104 foizga, 2001-yilda 104,5 foizga o'sdi.

Natijada, 2001-yilda birinchi bor yalpi ichki mahsulotning 1991-yilga nisbatan 103 foiz o'sishiga erishildi. MDH davlatlari orasida birinchi bo'lib O'zbekiston iqtisodiy barqarorlikka erishgan, iqtisodiy ko'rsatkichlari izchil o'sib borayotgan

mamlakatdir. 2013-yilda yalpi ichki mahsulot 8 %, sanoat maxsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,8 %, qishloq xo'jaligi 6,8 % o'sdi.

1991-2013-yillarda YAIMda sanoatning ulushi 14,2 % dan 24,2 % ga, kichik biznesning ulushi 31 % dan 55,8 % ga o'sdi. YAIMda qishloq xo'jaligining ulushi 34 % dan 17 % ga kamayishi mamlakatimizning agrar respublikadan sanoati rivojlangan zamonaviy davlatga aylanayotganini ko'rsatadi. Eng muhimi xalqimizni oziq-ovqat maxsulotlari bilan to'liq ta'minlash, kerak bo'lsa ularni eksport qilish imkoniyati yaratildi. 2013-yilda mirishkor dehqon va fermerlarimizning fidokorona mehnati bilan 7,8 mln tonna g'alla, 8,4 mln tonna sabzavot, 3 mln 360 ming tonna paxta yetishtirildi.

Shahar va qishloqlarimizning qiyofasi o'zgarib, aholi turmush saviyasi o'sib bordi. Yirik inshootlar, korxonalarining bunyod etilishi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, izchil o'sish sur'atlari odamlarning moddiy va ijtimoiy hayotini, farovonligini yildan yilga yaxshilanishiga zamin bo'lib, xizmat qilmoqda. Aholini tabiiy gaz, ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi salmoqli darajada o'sdi. Birgina 1999-yilda 4,5 ming km gaz tarmog'i, shundan 4,3 ming kilometri qishloq joylarida, 2 ming km.dan ziyod ichimlik suv tarmog'i, shundan 1,9 ming kilometri qishloq joylarida ishga tushirildi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston iqtisodiyoti qariyb 5 barobar, aholi daromadlari jon boshiga o'rtacha 8,7 barobar o'sdi. So'nggi 10 yil davomida (2004-2014) O'zbekiston yalpi ishki maxsulotining yillik o'sishi 8 % dan ziyod bo'lib kelmoqda.

Jahondagi yetakchi firmalarning havo kemalari bilan ta'minlangan O'zbekiston Havo yo'llari aviakompaniyasi dunyoning 25 mamlakati bilan havo aloqlarini o'rnatgan, u mustaqillik yillarida 25 milliondan ko'p yo'lovchiga xizmat qildi.

Ijtimoiy hayot. Aholini ijtimoiy himoyalashga alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekistonda islohotlar boshlangan dastlabki paytdayoq, uning asl maqsadi insonga munosib turmush va faoliyat sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat, deb belgilangan edi. Bozor munosabatlariga o'tishning ilk davridan boshlab aholini oldindan ijtimoiy himoyalash yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'rib borildi. Shu maqsadda miqdori muntazam o'zgartirib turilgan ish haqi, pensiyalar, turli nafaqalar, stipendiyalar, kompensatsiya to'lovlari tarzidagi pul to'lovlari keng qo'llanildi.

Mamlakatning 2 mln. 640 ming fuqarosi pensiya va moddiy yordam oladi. Bunday to'lovlar miqdori 2000-yilda 187,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Faqat 2000-yilning o'zida aholining kam ta'minlangan qismiga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari-mahalla yig'inlari orqali 54,2 mlrd. so'm miqdorida nafaqa, ko'mak va boshqa turdagi yordamlar berildi.

Mustaqillik yillarida mamlakatda 70 mln. kv.m. turar joylar, 19,5 ming o'rinli kasalxonalar, 95,7 ming marta tashrifli poliklinikalar, 805,9 ming o'rinli maktablar, 15,3 ming o'rinli akademik litseylar, 126,5 ming o'rinli kasb-hunar kollejlari qurilib

foydalanishga topshirildi.

Aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash va gazlashtirish bo'yicha keng qamrovli dasturlar amalga oshirilmoqda. 1991-2000-yillarda 22,6 ming km. suv quvurlari va 54,1 ming km. gaz tarmoqlari yotqizildi. Aholining uy-joylarini gazlashtirish darajasi 46,2 foizgacha, ichimlik suvi bilan markazlashgan holda ta'minlash esa 64,2 foizdan 77,6 foizgacha ko'tarildi.

Yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash dasturi amalga oshirilmoqda. 2009-2012-yillarda mamlakatimizning 159 ta qishloq tumanida namunaviy loyihalar asosida 900 dan ortiq yangi uy-joy massivlari barpo etildi, 33 ming 500 dan ziyod yakka tartibdagi uy-joy foydalanishga topshirildi. 2013-yilning o'zida esa 10 mingta ana shu tipdagi uylar qurildi.

Respublikada aholiga tibbiy va ijtimoiy xizmat ko'rsatishning rivojlangan tizimi bunyod etildi. Mustaqillik yillarida ambulatoriya-poliklinika muassasalarining soni 3 mingdan 4,8 minggacha yoki 1,6 baravar ortdi. Qishloq joylaida 1600 ta vrachlik punktlari ochildi.

Aholiga 81,5 mingdan ortiq shifokorlar turli ixtisosliklar bo'yicha malakali tibbiy yordam ko'rsatmoqda.

1994-yilda aholining dori-darmonga bo'lgan ehtiyoji Respublikada ishlab chiqarilgan mahsulot hisobiga bor-yo'g'i 4,5 foizga qondirilar edi. 2003-yilga kelib, katta miqdorda sarmoya jalb etilganligi hisobidan, bu ko'rsatkich 25 foizgacha o'sdi. 2013-yilning o'zida Respublikamizda 146 ta yangi zamonaviy tibbiyot muassasalari ishga tushirildi.

2012-yilda Toshkentda o'tkazilgan Ona va bola salomatligiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy konferensiyada qayd etilgan ma'lumotlarga ko'ra mustaqillik yillarida aholining o'rtacha umri 66 yoshdan 73,5 yoshga uzaygan. Onalar o'limi 2 baravar, bolalar o'limi esa 3 baravarga kamaygan.

Keyingi yillarda ham davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan xarajatlar yuqori darajada saqlanib qoldi va 2014-yilda umumiy xarajatlarning 60 foizini tashkil etdi.

2014-yilga kelib mamlakatimizdagi har uch oilaning bittasiga shaxsiy yengil avtomobil, har 100 oilaga o'rtacha 80 ta muzlatkich, 146 ta televizor (ba'zi oilalarda 2-3 tadan) to'g'ri kelmoqda. Har bir oila 3-4 tadan uyali telefonlarga ega.

O'zbekiston dunyoda o'z xalqining sog'ligi haqida eng ko'p qayg'uradigan davlatdir. 1997-yil yurtimizda "Inson manfaatlari yili", 1998-yil "Oila yili", 1999-yil "Ayollar yili", 2000-yil "Sog'lom avlod yili", 2001-yil "Onalar va bolalar yili", 2002-yil "Qariyalarni qadrlash yili", 2003-yil "Obod mahalla yili", 2004-yil "Mehr va muruvvat yili", 2005-yil "Sihat-salomatlik yili", 2006-yil "Xomiylar va shifokorlar yili", 2007-yil "Ijtimoiy himoya yili", 2008-yil "Yoshlar yili", 2009-yil "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili", 2010-yil "Barkamol avlod yili", 2011-yil

“Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili”, 2012-yil “Mustahkam oila yili”, 2013-yil “Obod turmush yili”, 2014-yil “Sog’lom bola yili”, 2015-yil “Keksalarni e’zozlash yili” deb e’lon qilinib maxsus davlat dasturlari asosida xalqimizga munosib turmush sharoitlari yaratib berilmoqda.

Bir so’z bilan aytganda mustaqillik yillarida iqtisodiyotning boshqaruv tizimi tubdan o’zgartirildi, xo’jalik yuritishning bozor iqtisodiyotiga mos yangi tizimi yaratildi. Bozor infratuzilmasi asoslari barpo qilindi. Mamlakatimiz iqtisodiy tanazzul davridan o’tib oldi, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishildi, iqtisodiy o’sishni ta’minlovchi zarur shart-sharoitlar vujudga keldi. Xususiy mulkchilikning huquqiy asoslari yaratildi. Davlat mulkini xususiylashtirish natijasida ko’p ukladli iqtisodiyot shakllandi. Eng muhimi, odamlarimizning tafakkuri, hayotga bo’lgan munosabati tubdan o’zgarmoqda. Turmush darajasi, oilasining farovonligi o’ziga bog’lik ekanligini tushunib yetayotgan odamlar tobora ko’payib bormoqda.

Ma’naviy merosning tiklanishi. Jamiyat ma’naviyati mamlakat barqarorligi va taraqqiyotining muhim sharti va kafolatidir. Biron-bir mamlakat o’z ma’naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning milliy ruhini uyg’otmay va mustahkamlamay turib yuksak taraqqiyot darajasiga ko’tarila olmaydi. Shuning uchun ham jamiyat ma’naviyatini yuksaltirish O’zbekiston taraqqiyotining ustivor yo’nalishi deb belgilandi.

Tarixdan ma’lumki, mamlakatimiz bir necha bor ajnabiy bosqinchilar hujumiga duchor bo’lgan, qaramlik va zulm ostida qolgan. Buning oqibatida xalqimizning boy ma’naviy merosi, urf-odatlar qadrsizlanishga mahkum bo’lgan. Ayniqsa, Rossiya mustamlakachiligi va sovetlar tuzumi davrida milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz oyoq osti qilindi. Ona tilimiz, boy ma’naviy merosimiz qadrsizlantirildi, ko’plab masjid-madrasalar, milliy maktablar, tarixiy yodgorliklar buzildi, qarovsiz qoldi. O’zbekiston davlat mustaqilligini qo’lga kiritgan kundan boshlab mamlakatimizda boy ma’naviy merosimizni tiklash va rivojlantirish, jamiyat ma’naviyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko’tarildi. Jamiyat ma’naviyatini tiklash va yuksaltirishni ta’minlovchi ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning yo’nalishlari belgilab olindi.

Mustaqillik yillarida boy ma’naviy merosimizni tiklash tadbirlari amalga oshirildi. Milliy madaniyatimizga, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga buyuk hissa qo’shgan bobolarimiz – Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband, Xo’ja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Al-Farg’oniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug’bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur va boshqa ko’plab ajdodlarimizning milliy va ma’naviy merosi xalqimizga qaytarildi, tavallud topgan kunlari butun mamlakat bo’yicha nishonlandi, ruhlari shod etildi, asarlari nashr etildi. Ularning ma’naviy merosi bugungi kunda xalqimizga yangi jamiyat qurishda ma’naviy kuch-qudrat bag’ishlamoqda, jamiyatimizni ma’naviy yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Tarixiy xotiraning tiklanishi. Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishda tarixiy xotira, ajdodlar tarixini bilish, milliy axloqiy qadriyat hamda an'analar va muqaddas dinimizning o'rni va ahamiyati katta. Biron-bir xalq o'z tarixini bilmay, asrlar osha yaratilgan ma'naviy merosga tayanmay va uni yanada rivojlantirmay turib o'z kelajagini tasavvur eta olmaydi. Shu bois mustabid tuzum davrida soxtalashtirilgan xalqimiz tarixini xolisona, haqqoniy yoritish, barcha o'quv maskanlarida Vatan tarixini o'qitish borasida muhim tadbirlar amalga oshirildi.

O'zbek xalqi va o'zbek davlatchiligi tarixini, tariximizning boshqa sahifalarini xolisona ilmiy asosda yoritish vazifalari Prezident I.A.Karimovning bir guruh tarixchilar bilan 1998-yil iyun oyida bo'lgan suhbatida, Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-iyulda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi qarorida belgilab berildi.

Mustaqillik yillarida Vatanimiz tarixini yoritish va o'rganish masalalari partiyaviylik, sinfiylik yondashuvlardan, hukmron kommunistik mafkura ta'siridan xalos etildi. Necha 10-yillar davomida buzib ko'rsatilgan yoki so'z yuritilmay kelgan tarixiy voqealarni xolislik, tarixiylik, haqqoniylik tamoyillari asosida yoritilgan qator ilmiy asarlar, darsliklar va o'quv adabiyotlari yaratildi.

Prezident Farmoni bilan 1996-yil Amir Temur yili deb e'lon qilindi. Amir Temur tavalludining 660-yillicini nishonlashga bag'ishlangan tadbirlar O'zbekistonda, dunyoning 50 dan ortiq mamlakatlarida o'tkazildi. YuNESKO qarori bilan Sohibqiron yubileyi jahon miqyosida nishonlandi. Parijda Amir Temurga bag'ishlangan madaniyat haftaligi, «Temuriylar davrida fan, madaniyat va maorifning gullab yashnashi» mavzuida xalqaro konferensiya va ko'rgazmalar bo'lib o'tdi. Toshkent shahrida Amir Temurga haykal qo'yildi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi tashkil etildi, uning nomi bilan bog'liq tarixiy yodgorliklar ta'mirlandi.

1999-yil vatanparvar siymo, xalq qahramoni Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800-yillicigi, xalq dahosi yaratgan Alpomish dostonining 1000-yillicigining nishonlanishi, Urganch va Termizda ular xotirasiga barpo etilgan yodgorlik majmuasi jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishga, milliy ong va milliy g'ururni ko'tarishga xizmat qilmoqda.

Vatanimiz ozodligi yo'lida shahid ketgan Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir va boshqa xalq jigarbandlarining nomi, izzat-ikromi, hurmati o'z joyiga qo'yildi, asarlari chop etildi. Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan Toshkentda mustamlakichilik davri qurbonlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmui, «Qatag'on qurbonlari xotirasi» muzeyi, fashizmga qarshi janglarda jon fido etgan xalqimizning farzandlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida «Xotira-maydoni» majmuasi barpo etildi. Bu tadbirlar xalqimizda milliy ongni yuksaltirishga, tarixiy xotirani tiklanishiga, yoshlarni milliy istiqlol g'oyalari ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Diniy va milliy qadriyatlarning tiklanishi. Mustaqillik sharofati bilan diniy qadriyatlar, diniy e'tiqod qayta tiklandi. Ramozon hayiti, Qurbon hayiti, qadimiy xalq bayrami Navro'z qayta tiklandi, bu kunlar Prezident Farmoni bilan dam olish, bayram kuni bo'lib qoldi. Musulmonlar O'zbekiston xalqi tarixida birinchi-marta bevosita hukumat homiyligida har yili Haj va Umra amallarini ado etish imkoniyatlariga ega bo'ldilar. Prezident Farmoni bilan tuzilgan «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi, «Oltin meros» xalqaro xayriya jamg'armasi jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy ravnaqi yo'lida xizmat qilmoqda.

Respublikada 17 diniy konfessiya ro'yxatga olingan va rasman faoliyat ko'rstamoqda. 170 dan ortiq diniy tashkilotlar ishlab turibdi va ularda O'zbekistonda yashovchi 130 millat va elat vakillari o'zlarining diniy ehtiyojlarini qondirmoqdalar. 1,7 mingdan ortiq masjidlar, xristian ibodatxonalar, sinagogalar va boshqa diniy markazlar ta'mirlandi va yangidan qurildi. 10 ta diniy ta'lim muassasasi faoliyat ko'rsatmoqda. 1999-yilda Toshkentda Islom Universiteti ochildi.

O'zbekiston hududida xalqning ulug'vor va shonli tarixiga oid 2000 dan ortiq yodgorliklar ta'mirlandi.

O'zbek xalqining ming yillar davomida shakllangan, mustamlakachilik davrida oyoq-osti qilingan, insonparvar urf-odatlar va an'analari, madaniy qadriyatlari ehtiyotlab tiklandi va yangi ma'no-mazmun bilan boyitildi. Maqomchilar, to'y-marosim qo'shiqlari, shoir-baxshilar va folklor-etnografik dastalarning o'nlab ko'rik-tanlovlari o'tkazildi. Pianinochi va skripkachilarning simfonik va kamer musiqalari, zamonaviy estrada guruhlarining festival va tanlovlari bo'lib o'tmoqda.

Mamlakatimizda o'zbek tilining xalq va davlat turmushidagi o'rni va ahamiyati qayta tiklandi. Davlat tili haqidagi qonunda o'zbek tili o'zbek xalqining ma'naviy mulki ekanligi, uning ravnaqi, qo'llanilishi va muhofazasi davlat tomonidan ta'minlanishi belgilab qo'yildi. Oliy davlat hokimiyati, mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarida, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda ish yuritish asosan o'zbek tilida olib borilmoqda. Respublikamizning ma'muriy-hududiy birliklari, ko'chalari, geografik o'rinlarning nomlariga yagona milliy shakl berildi va o'zbek tilida yozib qo'yildi. Natijada o'zbek xalqining milliy qadr-qimmatini qayta tiklandi va mustahkamlandi. Shuningdek, O'zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarning tillari, qadr-qimmatini ham o'z o'rniga qo'yilgan.

Ta'lim ravnaqi. Ma'naviy-ma'rifiy sohadagi yutuqlarimiz ta'lim tizimidagi tub o'zgarishlarda yaqqol namayon bo'lmoqda. Xalq ta'limini isloh qilish, kadrlar tayyorlash tizimini mustahkamlash sohasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Yangi oliy o'quv yurtlari tashkil etilib bilimlarning yangi tarmoqlari bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Oliy ta'lim tizimidagi 16 universitetning 12 tasi mustaqillik yillarida tashkil etildi. Mustaqillik yillarida eng zarur zamonaviy mutaxassisliklar bo'yicha o'nlab yangi oliy o'quv yurtlari – Mudofaa vazirligi

qoshida Harbiy akademiya, Ichki ishlar vazirligi qoshida Ichki ishlar akademiyasi, Bank-moliya akademiyasi, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent aviatsiya instituti, Navoiy tog'-konchilik instituti, Toshkent Moliya instituti va boshqalar tashkil etildi.

Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan ta'limni tubdan isloh qilish yo'llari ishlab chiqildi. 1997-yil 27-avgustda Oliy Majlisning IX sessiyasida O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi. Milliy dasturning maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdan iboratdir.

Milliy dastur ro'yobga chiqmoqda. Yoshlar umumiy o'rta ta'limni 9-yillik maktablarda oladilar, yana uch yil davomida yangidan tashkil etilgan akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'rta maxsus bilim va kasb-hunar o'rganadilar.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalarni bajarish umumxalq, umummillat ishiga aylandi. 2001-yilda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishning birinchi bosqichi yakunlandi.

2001-yilda Respublikamizda 6742 ta maktabgacha ta'lim muassasalarida 608500 nafar o'g'il-qizlar tarbiyalandi. Ularda 65862 nafar pedagog, tarbiyachi va boshqa xodimlar xizmat qildi. 9727 ta umumta'lim maktablarida 440762 nafar o'qituvchi 6,3 mln. o'quvchiga ta'lim bermoqda. Umumiy o'rta ta'lim bo'yicha barcha o'quv fanlaridan Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi va ular 346 ta maktabda tajribadan o'tkazildi, ta'lim jarayoniga joriy etildi. Davlat ta'lim standartlariga mos o'quv dasturlari va darsliklari yaratildi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini eng muhim, O'zbekistonga xos xususiyati yangi turdagi 3-yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimini yaratishdir. 1998-2004-yillar davomida zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari bilan jihozlangan 54 ta akademik litsey va 533 ta kasb-hunar kolleji barpo etildi. Bu maqsadlar uchun 135 mlrd. so'm mablag' sarflandi. O'rta maxsus o'quv yurtlariga zarur bo'lgan jihozlar sotib olish uchun jalb qilingan chet el investitsiyalarining miqdori 150 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari ishlab chiqildi, amaliyotga kiritildi va darsliklar yaratildi. 2003-2004 o'quv yilida akademik litseylarda 26,2 ming, kasb-hunar kollejlari 531,6 ming o'quvchi ta'lim oldi.

Oliy ta'lim tizimida katta o'zgarishlar qilindi. Oliy ta'lim ikki bosqichdan – bakalavriat va magistraturadan iborat etib qayta tashkil etildi. 62 ta oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan bo'lajak bakalavr va magistrantlar soni 2003-2004 o'quv yilida 254400 nafarni tashkil etdi. 18486 nafar professor-o'qituvchilar mehnat qilmoqdalar, ularning 1462 nafari fan doktori, 7201 nafari fan nomzodidir. O'tgan 4-yil davomida barcha yo'nalishlar bo'yicha bakalavr va magistrantlar uchun qo'yiladigan

talablarni o'zida mujassamlashtirgan Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari yaratildi. Oliy ta'lim uchun 1129 nomdagi darslik va o'quv adabiyotlari nashr etildi va Oliy o'quv yurtlari kutubxonlariga tarqatildi.

Mamlakatimizda iqtidorli yoshlarni izlab topish, ularga ko'maklashish, qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosati sobit qadamlik bilan olib borilmoqda. Iste'dodli yoshlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, chet elda o'qishini qo'llab-quvvatlash maqsadida "Respublika bolalar fondi", "Sog'lom avlod uchun", "Iste'dod" jamg'armalari tashkil topdi. Ta'lim sohasida AKSELS, AYREKS, AQSh kollejlari konsortsiumi, SARE, Tinchlik korpusi (AQSh), Konrad Adenauer fondi, Britaniya kengashi, SAUD Al-Baptin fondi (Misr) kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi. 2000 dan ortiq talaba va mutaxassislar chet elda o'qib keldi.

O'zbekiston ta'lim tizimi dunyo miqyosida kaeta qiziqish uyg'otmoqda. Moskvadagi Oliy ta'lim Xalqaro Fanlar akademiyasi prezidenti V.Shukshunov O'zbekistonda ishlab chiqilgan bu Milliy dasturni mazmun-mohiyati jihatidan tengi yo'q hujjat, deb ta'rifladi. O'zbekistonda yaratilayotgan ta'lim tizimi «Ta'limning o'zbek modeli» deb e'tirof etildi.

Badiiy adabiyot. Mustaqillik yillarida badiiy adabiyotda milliylik, ming yillik tarixiy ijodiy an'analar, umuminsoniy qadriyatlar, erkin fikr yuritish tamoyillari tiklandi. Badiiy adabiyot sinfiylik, partiyaviylik, kommunistik mafkuraviylik kabi aqidalar hukmronligi illatlaridan ozod bo'ldi.

Badiiy adabiyotda mustaqillikni asrab-avaylash, ozod va obod Vatan qurish, barkamol insonni tarbiyalash, milliy o'zlikni anglash kabi masalalar bosh mavzu bo'lib qoldi.

Abdulla Oripov, Odil Yoqubov, Primqul Qodirov, Xurshid Davron kabi ijodkorlarning tarixiy roman, pyesa va qissalarida ulug' bobokalonlarimiz Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Z.M.Bobur va boshqalarning siymolari umuminsoniy va milliy qadriyatlarga mos tarzda yangicha talqinda yoritildi. Xalqaro Sholoxov mukofoti laureati To'lepbergen Qayipbergenovning «U dunyoga, bobomga xat» asari, Shukrulloning «Kafansiz ko'milganlar» romanida, Nazar Eshonqulovning «Qora kitob» povestida, O'tkir Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar», Tog'ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» singari asarlarda mustabid sovet davrida xalq boshiga solingan behad kulfatlar, g'am-alamlar haqqoniy tasvirlangan.

Tohir Malikning «Shaytanat» (4 kitob), Hojiakbar Shayxovning «Tutqin odamlar» asarlarida insonni iymon va vijdondan ozdirishga, razolat va qabohat ummoniga botirishga urinuvchi yomonlik dunyosi, mafiya olami shaytonlari fosh qilinadi, ularga nisbatan nafrat tuyg'ulari tarannum etiladi.

Omon Muxtorning «To'rt tomon qibla» nomli trilogiyasi, Barat Boyqobulovning «O'zbeknoma» tarixiy-falsafiy dostoni, Abduqhor Ibrohimovning «Biz kim, o'zbeklar ... » badiiy-tarixiy asari, Azim Suyunning «Oq va qora», A.Qutbiddinning

«Izohsiz lug'at» she'riy asarlari zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin ifodasidir.

Me'morchilik va amaliy san'at. O'zbek xalqi me'morchiligi mohiyat e'tibori jihatidan buyuk bunyodkorlik san'atidir. Mustaqillik yillarida me'morchilik san'ati yanada rivojlanib, takomillashib bormoqda. Me'morchilikda ikki asosiy tamoyil ko'zga tashlanadi. Ulardan biri sharqona me'moriyatning an'anaviy qonun-qoidalariga rioya etishdir. Bu tamoyil Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Turkiston saroyi, Oliy Majlis, Senat, Toshkent shahar hokimiyati binolari timsolida o'z aksini topgandir.

Me'morchilikdagi ikkinchi tamoyil esa O'zbekistonning jahon hamjamiyatidan munosib o'rin olish sari intilishini namoyish etuvchi jahon me'morchiligining eng yaxshi yutuqlaridan foydalanishda namoyon bo'lmoqda. Bunday binolar jumlasiga «Meridian», «Afrosiyob» (Samarqand), «Buxoro» «Interkontinental», «Sheraton» mehmonxonalari, «O'zeksomarkaz», Milliy bank, Markaziy bank, «Toshkentplaza» savdo markazi, Respublika birja markazi, banklararo moliyaviy xizmatlar Markazi, O'zbekiston Davlat konservatoriyasi va boshqa binolarni kiritish mumkin.

Toshkent shahri ko'rkiga ko'rk qo'shib turgan «Oloy», «Chorsu», «Otchopar», «Yunusobod», «Mirobod», «Parkent», «Qo'yliq» va boshqa bozor binolari, shuningdek, «Yunusobod» tennis markazi, «Jar» sport markazi, «Bunyodkor» stadioni singari zamonaviy inshootlar barpo etildi.

O'zbekistonning qadimiy shaharlaridagi tarixiy binolarni tiklash ishlari jadallik bilan olib borildi. Bunga Toshkent, Samarqand, Shahrisabz, Buxoro, Xiva shaharlarida qayta tiklangan o'nlab binolar, obidalar misol bo'la oladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga tadbiq etish jarayonida yuzlab akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun mahobatli binolar bunyod etildi.

Mustaqillik yillarida haykaltaroshlik san'ati jadal o'sdi. Haykaltarosh I.Jabborov va K.Jabborovlar tomonidan Toshkentda Amir Temurning otliq haykali, Samarqand va Shahrisabzda Amir Temur haykallari, Farg'ona va Quvada al-Farg'oniy (1998), Xorazmda Jaloliddin Manguberdi haykallari (1999) yaratildi. Haykaltarosh R.Mirboshiyev ijodiga mansub «Z.M.Bobur» (1993, Andijon), «Abdulla Qodiriy» (1994, Toshkent), «Cho'lpon» (1997, Andijon), «Ona» (1999, Jizzax shahri) kabi bir qator haykal va yodgorliklar yaratildi. 1999-yilda Termizda «Alpomish» haykali va majmua-kompozitsiyasi (A.Rahmatullayev va boshqalar) bunyod etildi.

O'zbekistonda qadimdan amaliy san'at o'ziga xos tarzda rivojlanib kelgan. Mustaqillik yillarida badiiy kulolchilik, pichoqchilik, zargarlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, naqqoshlik, kashtachilik, zardo'zlik, gilamdo'zlik, bezakchilik kabi amaliy san'at turlari tiklandi va yangi ma'no-mazmun bilan rivojlanib bormoqda. Mustaqillik sharofati bilan dizayn san'ati ham jadal rivojlanmoqda. Tasviriy san'at, rassomchilik san'atining rivojida 1997-yilda tashkil etilgan O'zbekiston Badiiy akademiyasi va «Tasviriy oyina» respublika ijodiy uyushmasi muhim rol o'ynadi.

O'zbekiston xalq rassomlari Malik Nabiyeu, Bahodir Jalolov va boshqalar xalqimiz ongida milliy g'urur, Vatanga sadoqat tuyg'ularini uyg'otuvchi qator san'at asarlari yaratdilar. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur Mirzo portretlari shular jumlasidandir. Tasviriy va miniatura san'ati yangi ma'no-mazmun bilan boyidi. Shahar ko'chalariga bugungi hayotimizni tasvirlovchi rasmlar o'rnatildi, binolarning devorlari odamlarga huzur-halovat, zavq bag'ishlaydigan naqshlar bilan bezatildi.

Xalqaro vaziyatning o'zgarishi. XXI asr bo'sag'asida jahon taraqqiyotining mazmuni tubdan o'zgardi. Ilgari bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan - SSSR va AQSH yetakchilik qilgan ikki ijtimoiy-siyosiy tuzum, ikki harbiy-siyosiy blok mavjud edi. Dunyoda «sovuq urush» siyosati hukmronlik qilardi. Butun insoniyat yadro urushi xavfi ostida yashardi.

XX asrning 90-yillariga kelib, sotsialistik dunyoning yetakchisi bo'lgan ulkan imperiya - SSSR parokanda bo'ldi, sotsialistik sistema halokatga uchradi. Varshava Shartnomasi bloki tarqalib ketdi. Dunyoda yangi mustaqil davlatlar vujudga keldi. Birgina SSSRning parchalanishi natijasida 15 ta mustaqil davlat, jumladan, mustaqil O'zbekiston davlati tashkil etildi. «Sovuq urush» siyosati barham topdi.

Xalqaro vaziyatda tub o'zgarishlar sodir bo'lsa-da, dunyo tinchligiga tahdid soluvchi xavf-xatarlar, ziddiyatlar saqlanib qoldi. Bu quyidagi hollarda namoyon bo'lmoqda:

- Turli darajada rivojlangan mamlakatlar o'rtasida ijtimoiy – iqtisodiy notenglik va ziddiyatlar yanada o'sdi. Mamlakatlar o'rtasida ilmiy-texnikaviy bilimlar, ilg'or texnologiya, erkin sarmoyalarni to'plash va joylashtirishda hamon tafovutlar katta. Dunyoning katta qismida iqtisodi zaif, aholisi qashshoq yashayotgan mamlakatlar mavjud.

- Bir qator mintaqalarda, hatto bir mamlakat fuqarolari o'rtasida milliy-etnik va diniy nizolar kelib chiqib mojarolarga, qonli urushlarga aylanmoqda. Mintaqaviy mojarolar tufayli 30 milliondan ortiq odam o'zi yashaydigan joylarni tashlab, boshqa mamlakatlarga qochoq sifatida ketishga majbur bo'lgan;

- Umumiy, mintaqaviy va milliy xavfsizlikka terrorizm, ayirmachilik va diniy ekstremizm tahdid qilmoqda. Xalqaro terroristlar, dinni siyosiylashtirish natijasida vujudga kelgan ekstremistlar, shu jumladan, islom fundamentalistlari odamlar o'rtasida «haqiqiy» va «soxta» dindorlik belgilari bo'yicha qarama-qarshilik chiqarishga, millatlarni parchalashga, islom sivilizatsiyasi bilan boshqa sivilizat-siyalar o'rtasida yangi qarama-qarshiliklar, mojarolar keltirib chiqarishga urinmoqdalar;

- «Sovuq urush» siyosatiga chek qo'yilishi natijasida yalpi yadro urushi xavfi kamaygan bo'lsa-da, bu turdagi ommaviy qirg'in qurollarning ko'p miqdorda saqlanayotganligi, yadro quroliga ega bo'lgan davlatlar sonining ko'payib borayotganligi dunyo uzra umumiy xavfsizlikka jiddiy tahdid bo'lib qolmoqda;

- Jahon miqyosida atrof-muhitning ifloslanayotganligi, nosogʻlom ekologik vaziyat, jumladan, Markaziy Osiyoda Orol dengizining qurib borishi bilan bogʻliq ekologik tanglik insoniyat boshiga xavf solib turibdi;

- Tobora kuchayib borayotgan korrupsiya, uyushgan jinoyatchilik, giyohvandlik, yashirin qurol oldi-sotdisi insoniyatni tashvishlantirmoqda.

Bularning barchasi dunyo hali ham ilgari gidek moʻrt boʻlib turganligidan dalolat beradi. Bizni qurshab tugran olam gʻoyat murakkab va muammoli boʻlib keldi, hozir ham shunday boʻlib qolmoqda.

Bugungi kunda butun insoniyatning taqdiri, ijtimoiy taraqqiyot istiqbollari xalqaro munosabatlarga bogʻliq boʻlib qoldi. Xalqaro maydondagi har bir siyosiy tanglik, mojaro barcha mamlakatlar va xalqlar manfaatiga daxldor boʻlib qoldi. Hatto, ayrim olingan mamlakat ichkarisidagi nizoli jarayonlarni, urushlarni bartaraf etish ham jahon hamjamiyatining vazifasiga aylandi.

Davrimizning muhim xususiyati aholi talab-ehhtiyojlarining gʻoyat darajada oʻsganligi bilan belgilanadi. Alohida olingan bir mamlakat resurslari bilan uning aholisi talablari, ehtiyojlarini toʻliq qondirib boʻlmaydi. Hatto rivojlangan mamlakat uchun ham boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy hamkorlik qilish obyektiv zaruriyat boʻlib qoldi.

Hozirgi dunyoda biron-bir mamlakat, shu jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi ham boshqalardan ajralgan hudud emas. Sayyoramiz yaxlit va boʻlinmasdir. Shu bois, barcha mamlakatlar, xalqlar bir-biri bilan bogʻlangan, oʻzaro aloqadadir.

Oʻzbekiston xalqaro aloqalarni yoʻlga qoʻyish nuqtayi nazaridan va oʻz taraqqiyot istiqbollari jihatidan qulay geografik-strategik imkoniyatlarga ega.

Qadim zamonlarda Sharq bilan Gʻarbni bogʻlab turgan Buyuk ipak yoʻli Oʻzbekiston hududi orqali oʻtgan. Bu yerda savdo yoʻllari tutashgan, tashqi aloqalar hamda turli madaniyatlar tutashib bir- birini boyitgan. Bugungi kunda ham Yevropa va Osiyoni bogʻlaydigan yoʻllar Markaziy Osiyodan, uning oʻrtasida joylashgan Oʻzbekistondan oʻtmoqda:

- Markaziy Osiyoda geografik-siyosiy jihatdan markaziy oʻrin tutgan Oʻzbekiston ushbu mintaqada kuchlar nisbati va muvozanatini saqlash, barqarorlikni taʼminlash, hamkorlikni mustahkamlash imkoniyatlariga ega.

- Oʻzbekiston Markaziy Osiyoning transport, energetika, suv tizimi markazida joylashgan.

- Aholi soni, ilmiy-texnikaviy va boshqa imkoniyatlari jihatidan mintaqada yetakchi oʻrinda turadi.

- Tabiiy iqlim sharoiti qulay, ulkan mineral xomashyo zaxiralari va strategik materiallarga ega, dehqonchilik madaniyati rivojlangan, oziq-ovqat bilan oʻzini taʼminlashga qodir.

- O‘zbekiston sanoatning bazaviy va zamonaviy tarmoqlariga ega, o‘zini neft, gaz, rangli metallar bilan ta’minlabgina qolmay, ularni eksport qilish imkoniyatiga ega.
- Yurtimizning jahonga mashhur boy ma’naviy merosi bor, shu tufayli insoniyat sivilizatsiyasida salmoqli o‘rin egallab, dunyoning ma’naviy va siyosiy jarayonlariga ta’sir o‘tkazish salohiyatiga ega.

O‘zbekistonda qulay imkoniyatlar bilan bir qatorda geografik-siyosiy jihatdan qiyinchiliklar tug‘diruvchi omillar ham mavjud. Jumladan:

- O‘zbekiston Fors ko‘rfazi, Kaspiy dengizi havzasi va Qrim havzasining neft va gazga juda boy konlari joylashgan yarim xalqaning strategik markazida joylashgan. Shu bois, bu hududda butun dunyoda energiya taqchilligi sharoitida ko‘pgina yirik davlatlarning bir-biriga mos kelmaydigan manfaatlari o‘zaro to‘qnashmoqda;
 - Yana bir noqulaylik shundan iboratki, O‘zbekiston etnik, demokratik, iqtisodiy va boshqa muammolar yuki ostida qolgan mamlakatlar bilan chegaradoshdir;
 - Sovetlar davrida Markaziy Osiyoda, jumladan, O‘zbekistonda kommunikatsiyalar nomaqbul ravishda shakllantirilgan. Janubiy yo‘nalishda transport kommunikatsiyalari amalda rivoj topmagan. O‘zbekiston bevosita dengizga chiqa olmaydigan, buning ustiga dengiz bandargohlaridan eng uzoqda joylashgan mamlakat. Bir necha davlatlar hududidan o‘tadigan olis yo‘llar, O‘zbekistonning iqtisodiy aloqalarini chegaralaydi, yuk tashishni qimmatlashtirib, mahsulotlarning raqobatga bardosh berishiga salbiy ta’sir etadi;
 - Suv resurslarining cheklanganligi, ekologik muammolar, Orol fojiasi ham mamlakatimiz uchun noqulay omildir.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq O‘zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan puxta tashqi siyosiy yo‘lni belgilash, jahon hamjamiyatiga qo‘shilish, xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy diplomatik, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar o‘rnatish masalalari dolzarb vazifa sifatida ko‘ndalang bo‘lib turardi. Bu osongina yechiladigan vazifalar emas edi. Masalaning murakkabligi shundan iborat ediki, Ittifoq davrida tashqi siyosat yuritish, tashqi dunyo bilan aloqa qilish, tashqi savdoni tashkil etish Moskva, markaziy hokimiyat tomonidan olib borilar edi. Respublikalar esa, jumladan, O‘zbekiston ham tashqi dunyodan ajralgan, to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqa qilolmaydigan yopiq mamlakat edi. Shu bois, davlatimiz tashqi siyosat yuritish tajribasiga ham, jahon diplomatiyasini, tashqi iqtisodiy faoliyatni biladigan kadrlarga ham ega emas edi. Respublikada bunday kadrlar tayyorlovchi birorta ham o‘quv yurti yo‘q edi. Vaziyat zudlik bilan tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarni shakllantirishni talab qilmoqda edi.

Prezident Islom Karimovning «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li» va boshqa asarlarida mustaqil tashqi siyosat yuritish qoidalari nazariy va amaliy jihatdan puxta asoslab berildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining

17-moddasida tashqi siyosat qoidalari qonunlashtirildi va u jahondagi ko‘plab mamlakatlar bilan hamkorlik jarayonlari ortga qaytmasligining huquqiy kafolati bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbekistonni xalqaro huquq subyekti sifatida belgilaydigan, respublikaning tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarini tartibga soladigan qonunlar qabul qilindi. «O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risida»gi, «Chet el investitsiyalari va xorijiy investorlar faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida»gi, «Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida»gi va boshqa qonunlar hamda normativ hujjatlar ana shular jumlasidandir. Bular faol va keng ko‘lamli hamkorlik uchun mustahkam huquqiy kafolat yaratib berdi.

Tashqi aloqalarni ta‘minlaydigan vazirliklar va muassasalar tashkil etildi. Tashqi ishlar vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, ixtisoslashtirilgan tashqi savdo firmalari shular jumlasidandir. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilish akademiyasi va boshqa universitetlarda tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasi uchun mutaxassis kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi.

Tashqi siyosatga tinchlik, barqarorlik, hamkorlik yo‘li asos qilib olindi.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- mafkuraviy qarashlardan qat‘iy nazar hamkorlik uchun ochiq-lik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;
- davlatlarning suveren tengligi va chegaralar daxlsizligini hurmat qilish;
- boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish;
- kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik;
- inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish;
- ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umum e‘tirof etilgan qoidalari va normalarining ustuvorligi;
- davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta‘minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo‘stliklarga kirish va ulardan ajralib chiqish;
- tajovuzkor harbiy blokklar va uyushmalarga kirmaslik;
- davlatlararo aloqalarda teng huquqlilik va o‘zaro manfaatdorlik, davlat milliy manfaatlarining ustunligi;
- tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko‘p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik.

Mamlakatimizning jahon xalqlari tinchligi va xavfsizligiga mos bo‘lib tushgan tinchliksevar tashqi siyosati uni jahonda mustaqil davlat sifatida tezda tan olinishini ta‘minladi. O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini dunyodagi nufuzli

davlatlar tan oldi, ularning 130 tasi bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnika-viy va madaniy aloqalar oʻrnatildi. Toshkentda 45 mamlakatning elchixonasi, yigirmaga yaqin xalqaro tashkilot va moliyaviy muassasa vakolatxonalari faoliyat koʻrsatmoqda. Shuningdek, xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar huzurida Oʻzbekistonning 46 diplomatik va konsullik vakolatxonalari ochilgan va faoliyat koʻrsatmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi oʻzining xohish-irodasi va taklifiga koʻra 1992-yil 2-martda jahondagi eng nufuzli xalqaro tashkilot - Birlashgan Millatlar Tashkilotiga aʼzo boʻldi. 1993-yil 24-avgustda Toshkentda BMTning vakolatxonasi ochildi va ish boshladi. Mamlakatimiz Prezidenti I.Karimovning BMT Bosh Assambleyasining 1993-yilda boʻlgan 48-sessiyasida ishtirok etishi va unda 27-sentabrda qilgan maʼruzasi Oʻzbekistonni jahonga koʻhna va yosh, navqiron davlat sifatida namoyon etdi. Oʻzbekiston Respublikasi nomidan Markaziy Osiyoda xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlik masalalari boʻyicha BMT ning Toshkentda doimiy ishlovchi seminarini chaqirish, narkobiznesga qarshi kurashni kuchaytirish, Orol muammosini hal etish va boshqa masalalar boʻyicha bir qator takliflar oʻrtaga qoʻyildi.

Oʻzbekiston rahbariyati va BMT rahbarlarining saʼy-harakatlari natijasida Oʻzbekiston BMTning Xalqaro telekommunikatsiya uyushmasi, Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi, Qochoqlar ishi boʻyicha oliy qoʻmitasi, Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti, Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti, Xalqaro atom energiyasi agentligi, Aholi joylashish jamgʻarmasi, Narkotik moddalarni nazorat qilish dasturi, Sanoat taraqqiyoti tashkiloti, Oziq-ovqat va qishloq xoʻjaligi tashkiloti singari ixtisoslashgan muassasalarga aʼzo boʻldi.

Oʻzbekistonning tashabbusi bilan va BMT rahnamoligida 1995- yil 15-16-sentabr kunlari Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bagʻishlangan Toshkent kengash-seminari boʻlib oʻtdi. Xalqaro kengashda ishtirok etgan 31 davlat va 6 xalqaro tashkilotdan kelgan muxtor vakillar mintaqa xavfsizligini taʼminlash, mojarolarning oldini olish, integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishning ishonchli tizimini barpo etish masalalari yuzasidan oʻz fikrlarini, takliflarini aytdilar. Kengash yakunida qabul qilingan Bayonot jahon xalqlarini, xususan, Markaziy Osiyo xalqlarini, turli siyosiy kuchlarni mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga, iqtisodiy va ekologik hamkorlik tizimlarini barpo etishga chaqirdi.

Oʻzbekistonning BMT bilan hamkorligining yorqin sahifalaridan yana biri Markaziy Osiyo mintaqasini yadro qurolidan xoli zonaga aylantirish masalasida oʻz ifodasini topdi. Oʻzbekiston Prezidenti Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasi minbaridan turib soʻzlagan nutqida Markaziy Osiyoni yadro qurolidan xoli zonaga aylantirish gʻoyasini ilgari surgan edi. Oʻzbekistonning bu tashabbusi xalqaro hamjamiyat tomonidan qoʻllab-quvvatlandi.

1997-yil 15-16-sentabr kunlari Toshkentda «*Markaziy Osiyo-yadro qurolidan xoli zona*» mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. Uning ishida 56 davlat va 16 xalqaro tashkilotdan vakillar ishtirok etdi. Ushbu masala yuzasidan Markaziy Osiyo mamlakatlari tashqi ishlar vazirliklarining Bayonoti imzolandi. BMTga a‘zo davlatlar mazkur taklifini ko‘p bor muhokama qilib, 2006-yilda ushbu masala bo‘yicha shartnoma imzolashdi. **2009-yilning mart oyidan boshlab mazkur shartnoma kuchga kirdi.** Markaziy Osiyo mintaqasining yadro qurolidan xoli zonaga aylanishi mazkur mintaqaga xavfsizligini mustahkamladi.

2000-yil oktabr oyida Toshkentda Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, giyohvand moddalar tijorati, uyushgan jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurash mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan 2001-yilda BMT Xavfsizlik Kengashining terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha maxsus Qo‘mitasi ta‘sis etildi. 2002-yil 18-20- oktabr kunlari BMT Bosh kotibi Kofe Ananning, 2010-yil aprel oyida BMT Bosh kotibi Pan Gi Munning O‘zbekistonga tashriflari mamlakatimizning xalqaro hamjamiyatdagi o‘rni mustahkamlanib, obro‘- e‘tibori ortib borayotganining dalilidir.

O‘zbekistonning BMT homiyligidagi ta‘lim, fan va madaniyat bilan shug‘ullanuvchi xalqaro tashkilot - UNESCO bilan aloqalari tobora mustahkamlanib bormoqda. 1993-yil 23-oktabrda UNESCOning Parijdagi qarorgohida O‘zbekistonni UNESCO ga a‘zolikka qabul qilish marosimi bo‘ldi. O‘sha kuni Ulug‘bek tavalludining 600 yilligini nishonlash UNESCO dasturiga kiritildi. 1994-yil oktabrida Parijda Ulug‘bek haftaligi tantana bilan o‘tdi. Samarqand, Xiva va Buxoro UNESCO ning jahon madaniy qadriyatlar ro‘yxatiga kiritildi. Bu ro‘yxatda 411 ta obyekt bor.

UNESCO Markaziy Osiyo taraqqiyotini o‘rganish, tiklash va ommalashtirishga katta ahamiyat bermoqda. «*Ipak yo‘li - muloqot yo‘li*» deb nomlangan yirik tadqiqotda Markaziy Osiyoga birinchi darajali ahamiyat berildi. 1995-yil iyul oyida UNESCO qaroriga binoan Samarqandda Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti tashkil etildi. UNESCO Bosh direktori **Federiko Mayorning** 1995-yil iyul oyida O‘zbekistonga rasmiy tashrifi chog‘ida mazkur institut ochildi. UNESCO bobomiz Amir Temur tavalludining 660 yilligini xalqaro miqyosda nishonlashga qaror qildi va 1996-yil oktabrda Parijda Amir Temurga bag‘ishlangan bir haftalik xalqaro anjuman bo‘lib o‘tdi. Amir Temur tavallud topgan Shahrisabz shahri UNESCO ning madaniy qadriyatlar ro‘yxatiga kiritildi.

1997-yilda jahon madaniyati durdonalaridan hisoblangan Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yillik muborak sanalari Parijda keng nishonlandi. Xalqaro anjuman va ko‘rgazmalar o‘tkazildi. Bu O‘zbekiston va UNESCO o‘rtasidagi hamkorlikning yana bir yorqin ifodasi bo‘ldi. 1997-yil 19-20-oktabr kunlari Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi, 2002-yilda Termiz shahrining 2500 yilligi va Shahrisabz shahrining 2700 yilligi munosabati bilan bo‘lib o‘tgan ulkan tantanalarda

BMT, UNESCO va boshqa ko‘plab xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlarning elchilari va vakillari, bir qator mehmonlar ishtirok etdilar.

O‘zbekiston BMT doirasidagi ixtisoslashgan muassasalar -Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon intel- lektual mulk tashkiloti, Xalqaro bolalar jamg‘armasi (VNISEF), Xalqaro pochta ittifoqi, Elektr aloqasi bo‘yicha xalqaro ittifoq, Jahon meteorologiya tashkiloti, Xalqaro Olimpiada Qo‘mitasi, Xalqaro avtomobilchilar ittifoqi va boshqa tashkilotlarning a‘zosi sifatida ular bilan hamkorlik qilmoqda.

O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga, uning jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuviga xalqaro moliyaviy, iqtisodiy tashkilotlar - Xalqaro valuta fondi, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ham ko‘maklashmoqda. Xalqaro savdo markazi (YuNKTAD), Tariflar va savdo Bosh bitimi (GATT) bilan hamkorlik qilinmoqda.

O‘zbekiston 1992-yil fevral oyida dunyoda tinchlikni mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha katta tadbirlarni amalga oshirayotgan nufuzli xalqaro tashkilot -Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti - YXHTga a‘zo bo‘lib kirdi. I.Karimovning 1992-yil 9-10-iyulda bo‘lgan Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining majlisida ishtirok etishi, unda nutq so‘zlashi va Kengashning 10-iyulda bo‘lgan majlisiga raislik qilishi O‘zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallaganligining dalilidir. I. Karimov o‘z nutqida u yoki bu mintaqada tinchlik va barqarorlikni buzishi mumkin bo‘lgan mojarolar yaqinlashuvining oldini olish, mojarolarga yo‘l qo‘ymaslik muammolari bilan shug‘ullanuvchi mexanizmni vujudga keltirish, tashkilot qabul qilayotgan hujjatlarning ta’sirchanligini oshirish, hujjatlar mojarolarni oldini olish, yo‘l qo‘ymaslik ruhida bo‘lishini ta’minlash takliflarini ilgari surdi. 1999-yil noyabr oyida bo‘lgan YXHTning Istanbul sammitida Islom Karimovning xalqaro terrorchilikka qarshi kurashuvchi xalqaro markaz tuzish haqidagi taklifi ham ma’qullandi.

1996-yil fevral oyida O‘zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o‘rtasida hamkorlik o‘rnatish bo‘yicha muzokaralar bo‘ldi. Shu yil iyul oyida ***Florensiya shahrida Yevropa Ittifoqi bilan O‘zbekiston*** o‘rtasida sherikchilik va hamkorlik to‘g‘risida Bitim imzolandi. Bu hujjat O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi va unga a‘zo bo‘lgan mamlakatlar bilan o‘zaro munosabatlarning huquqiy negizi bo‘lib siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar uchun keng imkoniyatlar ochdi.Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik O‘zbekistonning xavfsizligi va taraqqiyotini ta’minlovchi muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida sayyoramiz ozon qatlamini muhofaza qilish bo‘yicha Vena Konvensiyasiga, ozon qatlarni kamaytiradigan moddalar haqidagi Monreal Protokoliga, atrof-muhitga ta’sir etuvchi vositalarni harbiy yoki boshqa

dushmanlik maqsadida qo'llashni taqiqlovchi Konvensiyaga, Yadro qurolini tarqatmaslik haqidagi shartnomaga qo'shilgan.

Shunday qilib, O'zbekiston jahon hamjamiyatiga qo'shildi, xalqaro va mintaqaviy muammolarni hal qilishda, umumiy va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashda faol qatnashayotgan nufuzli davlat darajasiga ko'tarildi.

1996-yilda Shanxayda, 1997-yilda Moskvada bo'lib o'tgan Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston davlat rahbarlarining sammitlarida harbiy sohada hamda chegara hududlarida o'zaro ishonchni mustahkamlash, qurolli kuchlarni qisqartirish to'g'risida shartnomalar imzolangan edi. Shu tariqa, «Shanxay forumi» yoki «Shanxay beshligi» tashkiloti tuzilgan edi.

2001-yil 14-15-iyun kunlari Xitoyda navbatdagi Shanxay sammiti bo'lib o'tdi. Uning ishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov qatnashdi va O'zbekistonning «Shanxay forumi»ga to'la huquqli a'zo bo'lishi to'g'risida bayonot imzolandi.

O'zbekistonning «Shanxay forumi»ga kirishi munosabati bilan uning nomi Shanxay hamkorlik tashkiloti - SHHT, deb o'zgartirildi. O'zbekiston uning asoschilaridan biri bo'ldi.

2001-yil iyunda bo'lgan sammit yakunida Shanxay hamkorlik tashkilotini tuzish to'g'risida deklaratsiya hamda terrorchilik, ayirmachilik va ekstremizmga qarshi kurash borasidagi **Shanxay konvensiyasi** imzolandi.

2002-yil 6-7-iyun kunlari SHHTga a'zo mamlakatlar davlat boshliqlarining Sankt-Peterburg shahrida navbatdagi sammiti bo'lib o'tdi. Muzokaralar yakunida **SHHTga** a'zo davlatlar rahbarlarining **Deklaratsiyasi**, tashkilotning ta'sis hujjati - SHHT **Xartiyasi**, SHHTga a'zo davlatlar o'rtasida **Mintaqaviy antiterror tuzilmasi** haqidagi bitim imzolandi.

2003-yil 29-may kuni Moskvada bo'lib o'tgan sammitda SHHT ning doimiy amal qiluvchi idoralari - **Pekinda Kotibiyat va Toshkentda Mintaqaviy aksiterror tuzilmasi (MATT)** ijroiya Qo'mitasini ishga tushirishga qaror qildi. Bu tashkilotlar 2004-yil yanvardan boshlab ish boshladilar.

2004-yil 17-iyun kuni Toshkentda SHHTga a'zo davlatlar rahbarlarining sammiti bo'lib o'tdi. Unda ikki asosiy masala - xavfsizlik va savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha muzokaralar bo'ldi. Sammitda 2004-yil mart oyida O'zbekistonning Toshkent shahri, Buxoro va Toshkent viloyatlarida sodir etilgan terrorchilik harakati nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida vaziyatni izdan chiqarishga qaratilganligi qayd etildi. Butun dunyoda terrorchilik kuchayib, yadroviy, kimyoviy, biologik, elektron terrorchilik xavfi paydo bo'lganligi, terrorchilarning bazalarini yo'qotish, odamlarning ongini zaharlaydigan, terrorchilikni moliyalashtiradigan markazlarga qarshi keskin kurash olib borish zarurligi ta'kidlandi. Shu bois, Toshkentda tashkil etilgan MATT zimmasiga axborot

almashish, chegara va bojxona qo'mitalarining, maxsus xizmatlarning hamkorligini muvofiqlashtirish, shu orqali terrorchilikning oldini olish vazifasi yuklangan.

SHHTning *Toshkent sammitida* savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor berildi. Sammitda SHHTga a'zo mamlakatlarni xavfsizlik orqali hamkorlik sari boshlaydigan tashkilotdir, deb ta'kidlandi. Sammitda iqtisodiy hamkorlikning quyidagi yo'nalishlarini rag'batlantirishga kelishib olindi:

- transport infratuzilmasini rivojlantirish;
- tabiiy mineral xomashyo zaxiralarini o'zlashtirish;
- suv-energetika zaxiralaridan unumli foydalanish;
- ekologiyaga oid masalalar, xususan, ichimlik suvi muammolarini hal qilish;
- fan-texnika va yuqori texnologiya, energetika sohaslarida integratsiyalashish;
- investitsiyalar xavfsizligini kafolatlaydigan huquqiy poydevor yaratish, bu sohadagi to'siq va muammolarni bartaraf etish.

Xitoy Xalq Respublikasi raisi Xu Tszintao Xitoy hukumati SHHT doirasidagi iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga 900 mln AQSH dollari miqdorida kredit ajratishini ma'lum qildi.

Sammit yakunida Toshkent deklaratsiyasi, SHHT ning vakolatlari va immunitetlari to'g'risidagi konvensiya, Narkotik vositalar va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashda hamkorlik to'g'risidagi bitim, tashkilot va uning organlari faoliyatiga doir hujjatlar - jami o'nta hujjat imzolandi.

2010-yil 11-iyun kuni Toshkentda SHHT Davlat rahbarlari Kengashining navbatdagi 10-majlisi bo'lib o'tdi. Davlat rahbarlari ko'p tomonlama va o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, dolzarb mintaqaviy va xalqaro masalalar, muammolar bo'yicha fikr almashdilar. Sammitda iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor berildi. Muzokaralar yakunida SHHT Davlat rahbarlarining deklaratsiyasi, SHHTga a'zolarni qabul qilish tartibi to'g'risida Nizom, SHHTning Toshkentda faoliyat yurtuvchi Mintaqaviy aksilteror tuzulmasi kengashining 2009-yildagi faoliyatiga doir hisobot tasdiqlandi, SHHTga a'zo davlatlar hukumatlari orasida qishloq xo'jaligi sohasida va jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkorlik to'g'risida bitimlar imzolandi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston tarixan qisqa vaqtda dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etildi. Nufuzli xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'ldi.

1991-yil 8-dekabrda Minskda uch slavyan respublikasi - Rossiya, Ukraina, Belarus rahbarlari - B.Yelsin, L.Kravchuk S.Shushkevichlarning uchrashuvi bo'ldi. O'sha kuni Belovejskoe Pushcheda uch davlat boshliqlari Mustaqil Davlatlar hamdo'stligi (MDH)ni tuzish to'g'risida Shaitnoma imzoladilar. Shartnomada *yagona iqtisodiy makon, yagona valuta va moliya-bank sistemasi bo'ladi, fan, ta'lim, madaniyat va boshqa sohalarda hamkorlik qilinadi, tashqi siyosat, armiya sohasidagi siyosat kelishilgan holda yuritiladi*, deb belgilangan edi. Hujjatda SSSRning

mavjudligi va SSSR Konstitutsiyasi to'xtatiladi, deb e'lon qilindi. Ukraina, Belorusiya, Rossiya parlamentlari MDHni tuzish haqidagi shartnomani ratifikatsiya qildilar va 1922-yil 30-dekabrda SSSRni tuzish to'g'risidagi shartnomani bekor qildilar.

Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston Prezidentlari MDHga uni ta'sis etuvchilar rovida kirishga tayyor ekanligini bildirdilar.

1991-yil 21-dekabrda Almati shahrida Rossiya (B.Yelsin), Ukraina (L.Kravchuk), Belorus (S.Shushkevich), Qozog'iston (N.Nazarboyev), O'zbekiston (I.Karimov), Qirg'iziston (A.Akayev), Tojikiston (R.Nabiyev), Turkmaniston (S.Niyazov), Ozarbayjon (A.Mutalibov), Armaniston (Ter-Petrosyan), Moldaviya (M.Snegur) davlat boshliqlarining kengashi bo'ldi. O'sha kuni 11 davlat boshliqlari Belovejskoye Pushche shartnomasi yuzasidan protokolni imzolab, «Teng huquqli va ahdlashayotgan oliy tomonlar» maqomida MDH muassisi bo'ldilar. Kengashda **Almati Deklaratsiyasi** qabul qilindi. Deklaratsiyada quyidagilar haqida bayonot berildi:

- Hamdo'stlik qatnashchilarining o'zaro aloqalari ular o'rtasidagi tenglik asosida tuziladigan bitimlar hamda bitimlarda belgilangan tartiblar doirasida faoliyat yuritadigan muvofiqlashtiruvchi muassasalar orqali amalga oshiriladi.

- MDH davlat ham emas, davlatlar ustidagi tuzilma ham emas.

- Xalqaro strategik barqarorlikni va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida harbiy-strategik kuchlarning birlashgan qo'mondonligi va yadro quroli ustidan yagona nazorat saqlab qolinadi.

- MDH ochiqdir, uning barcha a'zolari roziligi bilan sobiq SSSR ning a'zolari va boshqa davlatlar ham unga qo'shilishi mumkin.

- Umumiy iqtisodiy makonni, umumiy bozorni vujudga keltirishda va rivojlantirishda hamkorlik qilishga sodiqlik tasdiqlanadi.

- MDHning tuzilishi bilan SSSRning mavjudligi to'xtatiladi.

- Hamdo'stlik qatnashchilari o'z Konstitutsiyalaridagi tartib, qoidalarga binoan sobiq SSSR ning shartnomalari va bitimlaridan kelib chiqadigan xalqaro majburiyatlarining bajarilishiga kafolat beradilar.

- MDH qatnashchilari mazkur Deklaratsiya qoidalariga og'ishmay rioya etish majburiyatini oladilar.

- MDH kengashlarini tayyorlash bo'yicha ishchi guruhini tuzish to'g'risida protokol imzolandi. Shu tariqa, **Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tashkil topdi.**

1993-yil yanvarda Minskda MDH Davlatlari boshliqlarining navbatdagi kengashi bo'ldi. Unda **MDHning Nizomi** imzolandi va MDHning huquqiy rasmiylashtirish jarayoni yakunlandi.

1991-1999-yillarda MDH davlat boshliqlarining 25-mart kengashi bo'lib, ularda hammasi bo'lib iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy-siyosiy, tashkiliy va umumiy sohalarga oid 1300 ga yaqin masalalar muhokama etilib, tegishli hujjatlar imzolandi.

Hamdo'stlik mamlakatlarining iqtisodiy va madaniy aloqalari katta mashaqqatlar va sekinlik bilan mustahkamlanib bordi. Qabul qilingan hujjatlarning aksariyati qog'ozda qolib ketdi. Bunga sabab tomonlarning muammolarni yechishni istamayotganida emas, aksincha, o'zaro hamkorlik teng huquqli asosda, har bir mamlakatning milliy manfaatlarini hisobga olgan holda yuritilishiga intilayotganligi bilan bog'liq edi. O'tgan yillar davomida erishilgan ahdlashuvlarni amalga oshirishning samarali mexanizmi yaratilmadi, o'zaro hisob-kitoblar muvofiqlashtirilmadi.

2001-yil 29-30-noyabr kunlari Moskvada MDH tashkil etilgan kunning 10 yilligiga bag'ishlangan yubiley sammiti bo'lib o'tdi. Sammit qatnashchilari Afg'onistondagi voqealar to'g'risida bayonot qabul qildilar. Bayonotda aksilterror operatsiyasi ijobiy baholandi.

Yubiley sammitida yana bir hujjat - MDH tuzilganining 10 yilligi munosabati bilan Bayonot imzolandi. Bayonotda 10 yil davomida rejalashtirilgan hamma tadbirlar ham amalga oshmagani ta'kidlandi. Hamdo'stlik barcha a'zo mamlakatlar xalqlari farovonligini oshirish yo'lida salohiyatga ega ekanligi, undan foydalanish zarurati e'tirof etildi.

O'zbekiston Rossiya Federatsiyasi bilan davlatlararo munosabatlar o'rnatish va uni rivojlantirishga alohida ahamiyat berib kelmoqda.

1992-yil 30-mayda I.Karimov boshliq O'zbekiston delegatsiyasining Rossiyaga davlat tashrifi paytida ***O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari, do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolandi.*** Shartnoma ikki davlat o'rtasida har tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirishga huquqiy asos soldi. Ikki davlat o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi, elchixonalar ochildi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti B.Yelsinning 1993-yil mart oyida O'zbekistonga tashrifi paytida O'zbekiston va RF o'rtasida madaniyat, fan va texnika, ta'lim, sog'liqni saqlash, axborot, sport va turizm sohasida hamkorlik qilish to'g'risida bitimlar imzolandi.

V.Putinning Rossiya Prezidenti etib saylanishi Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga ko'tardi. V.Putin qisqa muddatda O'zbekistonga ikki marta - 1999-yil 10-11 -dekabrda va 2000-yil 18-19-may kunlarida davlat tashrifi bilan keldi. Tashrif davomida ikki mamlakat Prezidentlari va rasmiy delegatsiyalari o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada kengaytirish, harbiy va harbiy-texnikaviy hamkorlik, xavfsizlik, jumladan, Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish, xalqaro terrorchilikka qarshi birgalikda kurashish va boshqa masalalar muhokama qilindi.

Dekabrdagi uchrashuvda «O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasida harbiy va harbiy-texnikaviy hamkorlikni yanada chiiqurlashtirish to'g'risida shartnoma»

imzolangan bo'lsa, may oyidagi muzokaralar nihoyasida ikki mamlakat hukumatlari o'rtasida «O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilmalari bilan Rossiya Federatsiyast subyektlari o'rtasida hamkorlikni kengaytirish to'g'risida bitim», «Xalqaro avtomobil qatnovi to'g'risida bitim» imzolandi.

O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning 2001-yil 3-5-may, 2004 - yil aprel oylarida Rossiyaga tashrifi va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V.Putinning 2004- yil iyun oyida O'zbekistonga tashrifi ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikni yangi pog'onaga ko'tardi.

2004-yil 16-iyunda O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida **strategik sherikchilik to'g'risida bitim imzolandi. Mazkur bitim o'zaro xavfsizlikni ta'minlash, iqtisodiy va gumanitar sohalarda hamkorlikni kengaytirishga xizmat qilmoqda.**

2005-yil 14-noyabrda imzolangan ittifoqchilik munosabatlari to'g'risida shartnoma hujjatlari o'zaro xavfsizlikni ta'minlash, global tahdidlarga qarshi harakat qilish, siyosiy, iqtisodiy va gumanitar sohalardagi hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. «O'zbek neft-gaz» milliy xolding kompaniyasi bilan «Lukoil» neft kompaniyasi OAJ hamda «Gazprom» ochiq aksiyadorlik jamiyati o'rtasida mahsulot taqsimotiga oid bitim imzolandi. Bu hujjat Rossiya tomonidan O'zbekiston yoqilg'i -energetikasi sohasiga qariyb 2,5 mlrd. AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritishni nazarda tutadi. Ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro tovar ayriboshlash hajmi 2004-yilda 1 mlrd 642 mln AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2013-yilda 7 mld AQSH dollardan oshdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2010-yil 19-20 aprel kunlari Rossiyaga tashrifi jarayonida harbiy-texnik, bojxona, madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlik qilish bo'yicha hujjatlar imzolandi. Ikki davlat o'rtasida turli sohalardagi munosabatlar 276 hujjat asosida amalga oshirilmoqda. 2010- yilda O'zbekistonda 843 ta O'zbek-Rossiya qo'shma korxonasi, Rossiyada esa o'zbekistonlik sheriklar ishtirokida 385 ta qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatdi. 2013-tilda O'zbekiston Rossiyalik ishbilarmonlar bilan hamkorlikda 900 ga yaqin qo'shma korxonalar faoliyat yuritdi, ularning 150 dan ortig'i to'la Rossiya sarmoyasi asosida tuzilgan.

Rossiyaning 2000-2014-yillarda O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritgan investitsiyalari hajmi 8 milliard dollarni tashkil etadi. O'zbekiston-Rossiya o'rtasidagi munosabatlar tom ma'nodagi teng huquqlilik, o'zaro manfaatdorlik, bir-birlarining suvereniteti, hududiy yaxlitligi va manfaatlarini hurmat qilish tamoyillari asosida chuqurlashib bormoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari Prezidentlarining uchrashuvi 1991 -yil 13-15-avgust kunlarida **Toshkent** shahrida bo'ldi. Unda uchrashuv yakunlari xususida Axborot hamda O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalararo Maslahat kengashini tuzish

to'g'risida bitim imzolandi. Maslahat kengashining vazifasi beshta mamlakat o'rtasida iqtisodiy hamkorlik qilish uchun shart-sharoit yaratishdan, bozor munosabatlariga o'tishda mintaqa manfaatlarini himoya qiluvchi kelishilgan siyosat yuritishdan, iqtisodiyotning umumiy muammolarini hal etishga yagona yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat, deb belgilandi.

1993-yil 4-yanvarda I.Karimov tashabbusi bilan Toshkentda O'rta Osiyo Respublikalari va Qozog'iston Prezidentlarining yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda **Markaziy Osiyo** atamasi tilga olindi va bundan keyin Markaziy Osiyo, deganda O'rta Osiyo respublikalari va Qozog'iston tushuniladigan bo'ldi. Uchrashuv qatnashchilari mintaqa davlatlaridagi siyosiy va iqtisodiy ahvolni muhokama qildilar. Mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalar, savdo-iqtisodiy bitimlar qanday bajarilayotganligi tahlil etildi.

Orolni saqlab qolish xalqaro jamg'armasini tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi. Jamg'arma majlislarini Qizil O'rda, Nukus va Toshhovuzda o'tkazish zarur, deb topildi. **Besh davlat boshliqlari hamkorlik haqidagi bitimni imzoladilar.**

1993-yil mart oyida **Qizil O'rdada** Markaziy Osiyo davlatlari boshliqlarining Rossiya davlat delegatsiyasi ishtirokida anjumani bo'lib o'tdi. Anjumanda Orol dengizi va Orolbo'yi muammolarini hal etish, Orol mintaqasi ekologiyasini sog'lomlashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash sohasida birgalikda qilinadigan harakatlar to'g'risida bitim imzolandi. Orol dengizi havzasi muammolari bilan shugullanuvchi **Davlatlararo kengash tuzildi. Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sis etildi.**

1993-yil avgustda **Nukusda** Orol dengizi havzasi muammolari bilan shug'ullanuvchi Davlatlararo kengash va Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasining qo'shma majlisi bo'ldi. 1994-yil 11-yanvarda Nukusda Markaziy Osiyo mamlakatlari boshliqlarining Rossiya Federatsiyasi davlat delegatsiyasi (Yuriy Yakovlev, RF Bosh .vaziri o'rinbosari) ishtirokida konferensiyasi bo'lib o'tdi. Konferensiyada Orol dengizi havzasidagi ahvol bilan bog'liq ko'pgina masalalar, Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi mablag'lari qanday to'planayotgani muhokama qilindi, faoliyati ma'qullandi. Ekologik vaziyatni yaxshilash yuzasidan yaqin 3-5 yil ichida bajarilishi lozim bo'lgan muayyan vazifalar belgilandi. Orol dengizini qutqarish bo'yicha Davlatlararo kengash Nizomi tasdiqlandi hamda uning ijroiya organining rahbari tayinlandi. Bu masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilindi.

1994-yil 30-aprelda Cho'lponota shahrida O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston o'rtasida yagona iqtisodiy makon tuzish to'g'risida uch tomonlama shartnoma imzolandi. O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston Prezidentlarining 1994-yil iyul oyi boshida Almati shahrida bo'lib o'tgan uchrashuvida o'zaro integratsiyani kuchaytirish bo'yicha, Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot bankini tuzish to'g'risida bitimlar imzolandi. Tomonlar Davlatlararo kengash hamda uning doimiy

ijroiya organini, shuningdek, Bosh Vazirlar kengashi, Tashqi ishlar vazirlari kengashi, Mudofaa vazirlari kengashini ta'sis etdilar. O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston o'rtasida Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot banki tashkil etildi. Shu tariqa, Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati (MOIH) tashkil topdi.

1995-yil 15-dekabrda Jambulda Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston Respublikalari Davlatlararo kengashining navbatdagi majlisi bo'ldi. Prezidentlar 2000-yilgacha bo'lgan iqtisodiy integratsiya va birinchi navbatda sarmoya sarflanishi lozim bo'lgan loyihalar dasturlarini hayotga joriy etish, kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish masalalarini muhokama etdilar. Integratsiya dasturida 53 ta loyihalar ishlab chiqildi. BMT rahnamoligida harakat qiladigan Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston Respublikalarining tinchlikni saqlash kollektiv batalyonini tashkil qilish haqida qaror qabul qilindi. Uch davlatning tinchlikni saqlash kollektiv batalyoni shakllantirildi.

1997-yil 9-10-yanvar kunlari Bishkekda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston davlat boshliqlarining kengashi bo'lib unda ***uch qardosh davlatlar o'rtasida abadiy do'stlik haqida shartnoma imzolandi.*** Bu hujjatda o'zbek, qozoq, qirg'iz xalqlarining orzu-niyatlari o'z ifodasini topdi. Mazkur shartnoma uch qardosh davlat xalqlarining iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy hamkorligini yangi asoslarda rivojlantirishga yo'naltirdi.

1997-yil 12-dekabr kuni Qozog'iston Respublikasining yangi poytaxti - Ostona shahrida Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston Prezidentlarining kengashi bo'lib o'tdi. Kengashda uch mamlakat o'rtasida energetika, suv zaxiralaridan oqilona foydalanish, oziq-ovqat ta'minoti, kommunikatsiya hamda mineral xomashyo zaxiralarini o'zlashtirish va qayta ishlash sohalari bo'yicha xalqaro konsorsiumlar tuzish to'g'risida muzokara bo'ldi. Prezidentlar xalqaro konsorsiumlar tuzish bo'yicha uch mamlakat hamkorligi tamoyillari konsepsiyasini ma'qulladilar. 1998-yilda Tojikiston Respublikasi Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyatiga a'zo bo'lib kirdi.

2000-yil 20-21-aprel kunlari Toshkentda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Respublikalari Prezidentlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuvda mintaqaviy hamkorlik va mamlakatlararo munosabatlarga doir masalalar muhokama qilindi. To'rt mamlakat rahbarlari terrorchilik, siyosiy va diniy ekstremizm, xalqaro uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash va mintaqada davlatlariga tahdid soladigan boshqa xavf-xatarning oldini olishga qaratilgan hamkorlik to'g'risida shartnoma imzoladilar.

2001- yil 28-dekabr kuni Toshkentda MOIH davlatlari boshliqlarining navbatdagi kengashi bo'lib o'tdi. Kengashda hamkorlikni rivojlantirish, mintaqada barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash masalalari muhokama qilindi. Mazkur kengashda MOIH tashkiloti faoliyatini to'xtatishga qaror qilindi. Islom Karimov

taklifiga binoan MOIH negizida Markaziy Osiyo Hamkorligi Tashkiloti (MOHT), deb qayta tuzishga kelishib olindi.

2004-yil 28-may kuni Ostona shahrida MOHT tashkilotiga a'zo mamlakatlar davlat rahbarlarining sammiti bo'lib o'tdi. Unda tashkilot qamragan mintaqada xavfsizlikni mustahkamlash, umumiy bozor barpo etish masalalari muhokama etildi. Muzokaralar yakunida O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Prezidentlarining qo'shma bayonoti MOHTga a'zo mamlakatlar o'rtasida televideniye va radio dasturlarini o'zaro tarqatish to'g'risida bitim imzolandi.

2005-yil 6-7-oktabr kunlari Sankt-Peterburg shahrida bo'lib o'tgan MOHT Davlat rahbarlarining sammitida o'tgan davrda amalga oshirilgan ishlar sarhisob qilindi. Kengashda Markaziy Osiyo umumiy bozorini barpo etish konsepsiyasi tasdiqlandi.

O'zbekiston Prezidenti taklifiga binoan MOHT bilan Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati (YeOIH) ni birlashtirishga kelishib olindi. Negaki, ikki tashkilotning maqsad va vazifalari deyarli bir-biriga yaqin edi.

Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasida 1995-yilda tuzilgan Bojxona ittifoqi negizida Yevroosiya iqtisodiy hamjamiyati tashkil topgan edi. YeOIHning 2006-yil 24-25-yanvar kunlari Sankt-Peterburg shahrida bo'lib o'tgan sammitida O'zbekiston unga a'zo bo'lib kirdi. Mazkur sammitda O'zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatini ta'sis etish to'g'risidagi shartnomaga qo'shilishi to'g'risidagi protokol, «YeOIHni ta'sis etish to'g'risidagi shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida» qarorlar imzolandi.

YeOIH a'zo mamlakatlar o'rtasida integratsiyaning rivojlanishiga, yagona umumiy bozorning shakllanishiga, Bojxona ittifoqiga, erkin savdo zonasining tarkib topishiga ko'maklashmoqda.

Qozog'iston Prezidenti N.Nazarboyev 1994-yil 10-12-yanvarda rasmiy davlat tashrifi bilan O'zbekistonda bo'ldi. Ikki Prezident O'zbekiston bilan Qozog'iston o'rtasida tovarlar, xizmatlar, sarmoyalar va ishchi kuchlarining erkin o'tib turishini nazarda tutuvchi hamda o'zaro kelishilgan kredit-hisob-kitob, budjet, soliq, narx, boj va valuta siyosatini ta'minlash to'g'risida shartnomani imzoladilar. **1998-yil 31-oktabrda O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida Abadiy do'stik shartnomasi imzolandi.**

O'zbekiston va Qozog'iston Prezidentlarining Toshkentda 2000-yil 20-21-aprel kunlari bo'lib o'tgan uchrashuvida ikki davlat chegaralarini aniq belgilab olishga bag'ishlandi. Muzokaralar yakunida «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov va Qozog'iston Respublikasi Prezidenti N.A.Nazarboyevning qo'shma bayonoti» imzolandi. Ikki mamlakat mustaqilligi va chegaralari daxlsizligini ta'minlashga qaratilgan bu hujjat ikki tomonlama hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlash va chuqurlashtirishda muhim ahamiyatga ega. «Davlat rahbarlari, -

deyiladi qo'shma bayonotda, - O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtasidagi chegara ikki davlat qardosh xalqlarini birlashtiruvchi tinchlik, do'stlik va yaxshi qo'shnichilik chegarasi bo'lib qolishida yakdildirlar». 2001-yil 16-17-noyabr kunlari O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov rasmiy tashrif bilan Qozog'istonda bo'ldi. Ikki davlat Prezidentlari O'zbekiston - Qozog'iston davlat chegarasi to'g'risida Shartnoma imzoladilar. 2440 km uzunlikdagi chegaraning 96 foizi belgilab olindi. Qolgan qismini kelishuv asosida delimatatsiya qilishga kelishildi. 10 oy davomida bu borada tegishli ishlar amalga oshirildi. 2002-yil 9-sentabrda Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyevning taklifiga binoan Islom Karimov Ostona shahriga tashrif buyurdi. «O'zbekiston-Qozog'iston davlat chegaralarining alohida uchastkalari to'g'risida bitim» imzolandi. Ikki mamlakat o'rtasidagi chegaraga oid dolzarb masalalar huquqiy jihatdan o'z yechimini topdi. Ikki mamlakat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 2011-yilda 2,7 milliard AQSH dollarini tashkil etdi. 2012-yilda O'zbekistonda 178 ta o'zbek-qozoq qo'shma korxonasi, Qozog'istonda 120 ta qozoq-o'zbek qo'shma korxonasi faoliyat yuritdi.

O'zbekistonning Qirg'iziston bilan ikki tomonlama hamkorligi **O'zbekiston Respublikasi bilan Qirg'iziston Respublikasi o'rtasida do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordam haqida shartnoma** asosida yo'lga qo'yildi va rivojlantirilmoqda. Bu shartnoma Qirg'iziston Prezidenti Askar Akayevning O'zbekistonga rasmiy davlat tashrifi paytida Toshkentda 1992-yil 29-sentabrda I.Karimov va A.Akayev tomonidan imzolangan edi. I. Karimovning 1993-yil avgustga Qirg'izistonga qilgan rasmiy davlat tashrifi paytida O'sh shahrida O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasida 1994-2000-yillarga mo'ljallangan iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish to'g'risida Bayonot imzolandi. Bu hujjat ikkala respublikada ishlab chiqarilgan milliy dasturlarni muvofiqlashtirishga, xomashyo va ishchi kuchidan, ilmiy salohiyatdan unumli foydalanishga qaratilgan. Ikki davlat o'rtasida iqtisodiyot, savdo, madaniyat, sog'liqni saqlash, fan va ta'lim, sport va turizm bo'yicha hamkorlikni mustahkamlash haqida bitmlar imzolangan.

1994-yil 16-yanvarda O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimov Qirg'izistonda bo'ldi. Rasmiy tashrif yakunida tovarlar, xizmatlar, sarmoya, ishchi kuchlarining erkin yurish, o'zaro kelishilgan kredit – hisob-kitob, budjet, soliq, narx, bojxona va valuta siyosatini belgilovchi shartnomalarni imzoladilar. O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlik, madaniyat, sog'liqni saqlash, fan va ta'lim, sport va turizm bo'yicha hamkorlikni yanada mustahkamlash haqida bitimlar imzolandi. Bu hujjatlar asosida ikki mamlakat o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlik rivojlanib bormoqda. 2000-yilda O'zbekistonda 22 ta o'zbek-qirg'iz qo'shma korxonasi, Qirg'izistonda 62 ta qirg'iz-o'zbek qo'shma korxonasi faoliyat yuritdi.

2000-yil iyunda Qirg'izistonda ekstermistik kuchlar tomonidan Prezident hokimiyatining ag'darilishi, millatlararo qonli voqealar sharoitda O'zbekiston

Prezidenti oqilona yo‘l tutdi. 100 mingdan ortiq qochqinlar, xotin-qizlar, bolalar, qariyalarni O‘zbekiston hududiga qabul qilindi, joylashtirish va barcha zarur narsalar bilan ta‘minlandi. Islom Karimov harakatlari natijasida Markaziy Osiyo qarama-qarshiliklarning keng ko‘lamli o‘chog‘iga aylanib ketishining oldi olindi. Jahon Hamjamiyati O‘zbekiston Prezidentining qaltis vaziyatda amalga oshirgan oqilona tadbirlarini to‘liq ma‘qulladi.

Tojikistonda 1992-1996-yillarda davom etgan birodarkushlik urushi Tojikistonning iqtisodiy taraqqiyotiga salbiy ta‘sir etdi, uning qo‘shni mamlakatlar, jumladan, O‘zbekiston bilan hamkorligiga ham salbiy ta‘sir etdi.

O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning taklifiga binoan 1998-yil 4-yanvar kuni Tojikiston Prezidenti Imomali Rahmonov O‘zbekistonga amaliy tashrif bilan keldi. Ikki mamlakat rahbarlari tashrif yakunlari bo‘yicha qo‘shma axborot imzoladilar. O‘zbekiston va Tojikiston Bosh vazirlari sog‘liqni saqlash, madaniyat va gumanitar soha, fan, texnika va axborot sohalari bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risida bitimlarni imzoladilar. Ikki mamlakat hukumatlari o‘rtasida yuk tashish hamda gaz yetkazib berish, Tojikistonniig qarzi bo‘yicha o‘zaro hisob-kitob to‘g‘risidagi bitimlar ham imzolandi. O‘zbekiston va Tojikiston munosabatlari o‘zining yangi, mustahkamlanish va taraqqiyot davriga o‘tdi. O‘zbekiston bilan Tojikiston o‘rtasida tovar ayirboshlash hajmi 1997-yilda 50 mln AQSH dollaridan oshdi, bu avvalgi yilga nisbatan 50 foiz ko‘pdir. 2000-yilda O‘zbekistonda 15 ta o‘zbek-tojik qo‘shma korxonasi, Tojikistonda 3 ta tojik-o‘zbek qo‘shma korxonasi faoliyat yuritdi.

1991-yilda O‘zbekiston va Turkmaniston Prezidentlari uchrashuvida ***O‘zbekiston Respublikasi bilan Turkmaniston Respublikasi o‘rtasida do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risida shartnoma imzolandi.*** Bu shartnoma ikki davlat o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy, madaniy aloqalarga negiz bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Prezidenti I.Karimov 1996-yil 16-yanvar kuni amaliy tashrif bilan Turkmanistonda bo‘ldi. Chorjo‘y shahrida S. Niyozov bilan I. Karimov o‘rtasida va ikki mamlakat delegatsiyalari o‘rtasida muzokaralar bo‘ldi. Prezidentlar O‘zbekiston bilan Turkmaniston o‘rtasida do‘stlik, hamkorlik va o‘zaro yordam to‘g‘risidagi shartnomani, O‘zbekiston bilan Turkmaniston o‘rtasida davlat chegarasini qo‘riqlashda hamkorlik qilish to‘g‘risidagi va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha bitimlarni imzoladilar.

Ikki mamlakat hukumatlari o‘rtasida sarmoyalarni rag‘batlantirish va o‘zaro himoyalash, havo yo‘li, bojxona ishlarida hamkorlik va o‘zaro yordam, uzoq muddatli savdo-iqtisodiy hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari, daromad va mulkdan ikki yoqlama soliq olmaslik, madaniyat, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, sayyohlik va boshqa sohalarda hamkorlik qilish to‘g‘risida 20 dan ziyod bitimlar imzolandi.

O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning 2007, 2010, 2012- yillardagi Turkmanistonga davlat tashrifi, Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli

Berdimuhammedovning 2008-yil mart oyidagi, 2013-yil noyabir oyidagi O‘zbekistonga davlat tashriflari ikki qardosh mamlakat o‘rtasida o‘zaro manfaatli aloqalarning yanada mustahkamlanishga xizmat qilmoqda. Ikki davlat o‘rtasida imzolangan iqtisodiy hamkorlik to‘g‘risidagi shartnoma, do‘stona munosabatlar va har tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlash to‘g‘risidagi shartnoma va bir qator bitimlar ikki qardosh mamlakat o‘rtasida hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tardi. Ikki davlat o‘rtasida erkin savdo tartibi yo‘lga qoyildi.

O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov o‘zbek qozoq, qirg‘iz qoraqalpoq, tojik, turkman va mintaqada yashovchi xalqlar o‘rtasida qadimiy do‘stlik aloqalarini yangi sharoitda mustahkamlashni nazarda tutib «Turkiston- umumiy uyimiz» degan g‘oyani ilgari surdi. Mintaqa jamoatchilik vakillarini, birinchi navbatda ijodkor ziyolilar e‘tiborini Turkiston tuyg‘usini–tarixiy birlik tuyg‘usini qaytadan tiklashga qaratdi.

Mintaqa ziyolilari, Turkiston zaminida yashovchi barcha xalqlarni yaqinlashtirish maqsadida yurgan sog‘lom kuchlar bu g‘oyani qo‘.

1995-yil 21-noyabr kuni Toshkentda markaziy Osiyo ziyolilari ishtirokida «Qardosh xalqlar uchrashuvi» mavzusida xalqaro quriltoy bo‘lib o‘tdi. Quriltoyda llab quvatladilar. «Turkiston- umumiy uyimiz», deb nomlangan jamoatchilik harakati tashkil topdi «Turkiston-umumiy-uyimiz» harakatini birinchilardan bo‘lib qo‘llab-quvvatlagan olamaro mashhur bo‘lgan qirg‘iz yozuvchisi Chingiz Aytmatov ma’ruza qildi. Ma’ruzachi va so‘zga chiqqan qardosh xalqlar vakillari mintaqada yashab o‘tgan ajdodlarimiz ruhi bilan olis istiqlolda tug‘ilajak avlodlar bog‘liqligi, mintaqa yaxlitligi, yagona Turkiston tuyg‘usining muqaddasligi haqida so‘zladilar. Qurultoyda «Turkiston xalqlari madaniyati Assambleyasi» tashkil etildi. Chingiz Aytmatov Assambleyi Prezidenti, Odil Yoqubov Assambleya vitse-prezidenti etib saylandi. Assambleyaning qarori Toshkentda, uning bo‘limlari Bishkek va Almatida tashkil etildi. Assambleya xalqaro konferensiya, davra suhbatlari o‘tkazmoqda. 1997- yil oktabr oyidan boshlab 8 sahifalik «Markaziy Osiyo madaniyati» nomli gazeta o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, tojik va rus tillarida chiqarilmoqda. Bu tadbirlar mintaqa xalqlari o‘rtasida do‘stlik va hamkorlik aloqalarni mustahkamlashga ko‘maklashmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi navbatda Yaqin va O‘rta Sharq hamda arab mamlakatlari bilan davlatlararo munosabatlar o‘rnatish va rivojlantirishga kirishdi.

1991-yil 16-19-dekabr kunlari I.Karimov boshliq O‘zbekiston davlat delegatsiyasi mamlakatimiz mustaqilligini birinchi bo‘lib tan olgan mamlakat–Turkiyada bo‘ldi. Turkiya Prezidenti Turg‘ut O‘zol, Bosh Vazir Sulaymon Demirel va boshqa rahbarlar, ishbiarmonlar bilan amaliy uchrashuvlar, suhbatlar bo‘lib o‘tdi. Safar chog‘ida **O‘zbekiston Respublikasi bilan Turkiya jumhuriyati o‘rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari va maqsadlari to‘g‘risida shartnoma, konsullik vakolatxonalarini ayirboshlash to‘g‘risida Protokol, iqtisodiy va savdo**

sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim, madaniyat, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, sport va turizm sohasidagi o'zaro hamkorlik to'g'risida bitim, transport va kommunikatsiyalar sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim, axborot ayirboshlash, televideniye va radio eshittirish bo'yicha hamkorlik qilish haqida protokollar va boshqa hujjatlar imzolandi. O'zbekiston bilan Turkiya o'rtasidagi munosabatlar keyingi yillarda ancha kengaydi. 1992-yil 28-aprel kuni O'zbekistonda Turkiya elchixonasi, Turkiyada O'zbekiston elchixonasi ochildi va faoliyat ko'rsatmoqda. Hamkorlikning yanada chuqurlashtirishda Turkiya davlati rahbarlari-Turg'ut O'zol, Sulaymon Demirel, Tansu Chiller, Mesut Yilmazar, Ahmet Sezerlarning O'zbekistonga rasmiy tashriflari chog'ida imzolangan hujjatlar katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik gazlama va tayyor kiyim-kechak ishlab chiqarish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, qo'shma korxonalar qurish, kadrlar tayyorlash, turizmni rivojlantirish va boshqa sohalarda amaliy natijalar bermoqda. O'zbekistonda Turkiya sarmoyadorlari ishtirokida 200 dan ortiqroq qo'shma korxonalar barpo etildi. 1996-yil iyun oyida O'zbekiston avtomobilsozlik korxonalari assotsiatsiyasi-"O'zavtosanoat" Turkiyaning "KochXolding" konserni bilan Samarqand shahrida "SamKochavto" o'zbek-turk qo'shma korxonasini barpo etish to'g'risida shartnoma tuzdilar. Tez orada bu qo'shma korxonalar buniyod etildi va sig'imi o'rtacha avtobuslar hamda 8 tonnagacha yuk ko'taradigan yuk avtomobillari yig'ish yo'lga qo'yildi. Ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 1992-yilda 75 mln AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 1998-yilda 275 mln AQSH dollariga ko'paydi.

1992-yil 27-28-iyun kunlari **Pokiston Islom Respublikasi** Bosh vaziri Muhammad Navoz Sharifning O'zbekistonga rasmiy davlat tashrifi ikki davlat o'rtasidagi aloqalarga asos soldi.

Safar kunlarida «**O'zbekiston Respublikasi bilan Pokiston Islom Respublikasi o'rtasida davlatlararo munosabatlar va hamkorlik prinsiplari to'g'risida» shartnoma**, iqtisodiy va savdo hamkorligi to'g'risida, madaniyat, sog'liqni saqlash, fan, texnika, kadrlar tayyorlash, turizm sport va ommaviy axborot sohasida hamkorlik qilish to'g'risida bitimlar imzolandi. O'zbekiston va Pokiston o'rtasidagi hamkorlikni O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning 1992-yil 13-14-avgust kunlari Pokistonga rasmiy tashrifi va unda imzolangan hujjatlar yanada yangi pog'onaga ko'tardi. Ikki davlat o'rtasida suv resurslari, elektrlashtirish, irrigatsiya va melioratsiya sohasida hamkorlik qilish to'g'risida, pochta va telekommunikatsiya sohasida, davlat banklari va milliy banklar o'rtasida, vakolatxonalar ayirboshlash to'g'risida, investitsiyalar va sarmoyalarni himoya qilish to'g'risida bitimlar imzolandi. Pokiston Islom Respublikasi Bosh Vaziri Benazir Bxutto 1995-yil may va noyabr oylarida O'zbekistonga ikki marta tashrif buyurdi. Iqtisodiyot, sog'liqni saqlash, fan, texnika, sayyohlikni rivojlantirish haqida bitimlar imzolandi.

1992-yil 24-25-noyabr kunlari respublikamiz Prezidenti I. Karimovning **Eron Islom Jumhuriyatiga** rasmiy davlat tashrifi O‘zbekiston va Eron o‘rtasida davlatlararo aloqalarga asos soldi. Safar chog‘ida «**O‘zbekiston Respublikasi bilan Eron Islom Jumhuriyati o‘rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari to‘g‘risida» Deklaratsiya**, havo transporti sohasidagi hamjihatlik to‘g‘risida memorandum, iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik sohasidagi hamjihatlik to‘g‘risida memorandum, pochta, telefon va telegraf sohasidagi hamjihatlik to‘g‘risida memorandum, davlat Markaziy banklari o‘rtasida bitim imzolandi. 1993-yil 18-oktabrda Eron Prezidenti Ali Akbar Hoshimiy Rafsanjoniyning O‘zbekistonga rasmiy tashrif bilan kelishi ikki mamlakat o‘rtasidagi aloqalarni yanada kengayishiga ko‘maklashdi. Safar chog‘ida tranzit aloqalarni tartibga solish to‘g‘risida hamda xalqaro avtomobil qatnovi to‘g‘risida bitimlar imzolandi.

2002-yil 26-aprel kuni Eron Prezidenti Sayyid Muhammad Hotamiyning O‘zbekistonga qilgan rasmiy tashrifi paytida O‘zbekiston va Eron o‘rtasida imzolangan ikki tomonlama soliqqa tortilishga yo‘l qo‘ymaslik, daromad va sarmoya soliqlariga taalluqli ma‘lumotlarni almashish, transport vositalari haydovchilari uchun viza masalalarini yengillashtirish, O‘zbekiston tovar ishlab chiqaruvchilari va tadbirkorlar palatasi bilan Eronning savdo, sanoat va tog‘-kon sanoati palatasi o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risida hujjatlar ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini yanada boyitdi.

2001-yil 11-sentabr kuni xalqaro terroristlar AQSHda sodir etgan fojiali voqealar paytida O‘zbekiston birinchilardan bo‘lib AQSH hukumatining Xalqaro terrorizmga qarshi aksilterror kaolitsiya tuzish haqidagi taklifi tarafdori bo‘lib chiqdi. 2002-yil 11-14-mart kunlari O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov boshliq davlat delegatsiyasi Prezident **Jorj Bush** taklifiga binoan rasmiy davlat tashrifi bilan AQSHda bo‘ldi. AQSH Prezidenti J.Bush va martabali hukumat vakillari Islom Karimovni Oq uyda obro‘-e‘tiborli mehmon sifatida kutib oldi. Tomonlar xalqaro ahvol, Markaziy Osiyodagi jarayonlar, xalqaro terrorizmga qarshi kurash, harbiy va harbiy-texnikaviy, iqtisodiy hamkorlik masalalarida fikr almashdilar. Tashrif yakunida «**O‘zbekiston bilan AQSH o‘rtasida o‘zaro sheriklik va hamkorlik asoslari to‘g‘risida deklaratsiya**», ilmiy-texnikaviy tadqiqotlar, yadroviy materiallar va texnologiyalar tarqalishining oldini olishda hamkorlik, moliya, qishloq xo‘jaligiga oid qator hujjatlar imzolandi.

AQSHni sinovli damlarda qo‘llab-quvvatlagani uchun Prezidentimiz **Islom Karimov** Amerika jamoatchiligi tomonidan «**Xalqaro miqyosdagi lider**» mukofoti bilan taqdirlandi. Bu mukofot Amerika xalqining O‘zbekiston xalqiga hurmat-e‘tiborining timsolidir.

O‘zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvida Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan o‘zaro manfaatli aloqalarni yo‘lga qo‘yish va tobora

chuqurlashtirish alohida o‘rin tutadi. 1996-yil 21-iyunda Florensiya shahrida imzolangan O‘zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi «Sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim», uning 1999-yil 1-iyulda kuchga kirishi mamlakatimizning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan o‘zaro munosabatlarining huquqiy negiziga aylandi.

O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqining a‘zosi, ulkan iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy salohiyatga ega bo‘lgan Germaniya bilan o‘zaro manfaatli aloqalari kengayib bormoqda. O‘zbekiston Prezidenti I.Karimovning Germaniyaga 1993-yil 28-aprel kuni boshlangan va besh kun davom etgan rasmiy tashrifi O‘zbekiston bilan Germaniya o‘rtasida munosabatlarni yo‘lga qo‘yishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. I.Karimov GFR Federal Prezidenti Rixard fon Vayzenker va Fideral kansler Gelmut Kol bilan samimiy, o‘zaro tenglik asosida suhbatlashdi. Ikki davlat o‘rtasida madaniy hamkorlik to‘g‘risida, sarmoyalar qo‘yishni amalga oshirish va o‘zaro himoya qilishga ko‘maklashish to‘g‘risida, ilmiy tadqiqotlar va mutaxassislar fondini tashkil etish to‘g‘risida bitimlar imzolandi. «Doyche bank», «Mercedes-Bens» va «Simens» kompaniyalarining rahbarlari bilan uchrashuvlar bo‘ldi, ular bilan hamkorlik qilish haqida kelishib olindi. Safar natijalariga ko‘ra, O‘zbek-Germaniya hamkorligi masalalari bo‘yicha hukumatlararo komissiya tuzildi. Toshkentda ikki tomonlama savdo-iqtisodiy palata tashkil etildi, GFRning elchixonasi ochildi. 1994 -yil 1-sentabrda GFRning o‘sha paytdagi poytaxti Bonnda O‘zbekiston Respublikasining Yevropada birinchi elchixonasi ochildi. Hozirgi paytda elchixona Germaniyaning yangi poytaxti Berlin shahrida faoliyat yuritmoqda. «Toshkent-Frankfurt» havo yo‘li ochildi, O‘zbekistonda «Doyche-bank»ning bo‘limi faoliyat ko‘rsatmoqda.

Germaniyaning “Geydelberg” firmasi O‘zbekistonda nashriyot- matbaa sohasida hamkorlik qilayotgan yirik kompaniyadir. “Geydelberg” firmasi asbob-uskunalari bilan Yangiyo‘l kitob fabrikasi, Toshkent va Nukus poligrafiya kombinalari, Samarqanddagi “Tong” nashriyoti qayta jihozlandi. O‘zbekistondagi “Rastr” va “Groteks” matbaa korxonalari “Geydelberg” firmasi texnologiyasi asosida ishlamoqda. Natijada maktablar uchun darslik, o‘quv qo‘llanmalari va boshqa turdagi nashriyot mahsulotlari ishlab chiqarish ancha yaxshilandi. 2001-yilda O‘zbekiston-Germaniya-Rossiya hamkorligidagi “Namangan qog‘oz” qo‘shma korxonasi qurilib ishga tushirildi.

O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning 2001-yil 2-5-aprel kunlari Germaniya Federativ Respublikasiga, Germaniya Federal kansleri Gerxard Shrederning 2002-yil 9-10-may kunlari O‘zbekistonga qilgan rasmiy safarlari O‘zbekiston-Germaniya o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tardi. Ikki mamlakat tadbirkorlari va rasmiy doiralari o‘rtasida aloqalar kengayib bormoqda. 1997-yilda O‘zbekistonda 55 ta Germaniya kompaniyasining vakolatxonalari faoliyat yuritgan

bo'lsa, 2001-yilda bu ko'rsatkich 80 taga yetdi. Ularning eng yiriklari «Xobas TAPO», «Xiva Karpet» va boshqalardir. 2003-yilda Germaniyalik sarmoyadorlar ishtirokida yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, farmatsevtika sanoati, transport va boshqa sohalarda tashkil etilgan 138 ta korxonalar faoliyat ko'rsatdi, ulardan 40 tasi yuz foizlik Germaniya kapitaliga ega. O'zbekistonga kiritilayotgan Germaniya sarmoyalari hajmi 2001-yildayoq 1 mlrd AQSH dollaridan oshdi. Ikki mamlakat o'rtasidagi savdo aylanmasi 2001 - yilda 283,3 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

Samarqanda 2009-yilda "JV MAN Avto-Uzbekiston" O'zbekiston-Germaniya qo'shma korxonasi barpo etildi. Zavodda 15-50 tonnalik yuk ko'tarish quvvatiga ega bo'lgan zamonaviy MAN avtomobillari ishlab chiqish yo'lga qo'yildi. 2010- yilda korxonada 480 dona yuk mashinasi ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2011-yilda bu ko'rsatkich 658, 2012-yilda mingan ortiqni tashkil qildi. Germaniya Federativ Respublikasi O'zbekistonning Yevropadagi eng yirik iqtisodiy hamkoridir.

O'zbekiston bilan **Fransiya** o'rtasida munosabatlarni o'rnatish va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. 1993-yil 28-30-oktabr kunlari O'zbekiston delegatsiyasining Fransiya rasmiy tashrifi ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikka asos soldi. Prezident I.Karimov Fransiya Prezidenti F.Mitteran, Fransiyaning boshqa rahbarlari hamda jamoatchilik vakillari bilan do'stona suhbat va samarali muzokaralar yuritdi. F.Mitteran qabul marosimida nutq so'zlab: «Hozirgi siyosiy vaziyatda Markaziy Osiyoda yetakchi o'rinni egallab turgan mustaqil O'zbekiston Sharq bilan G'apb o'rtasida ishonchli ko'pri bo'lishi mumkin. Ko'p asrlik tarix, teran an'analarga ega bo'lgan, insoniyatning faxriga aylangan allomalarni yetkazib bergan O'zbekiston doimo fransuzlarning diqqatini tortib kelgan. Bu tashrifdan keyin shuni ishonch bilan aytish mumkinki, mamlakatingiz biz uchun yanada yaqin bo'lib qoldi»,- deb ta'kidlagandi. Bu Vatanimiz to'g'risida, uning shon-shuhratini ulug'lovchi xolisona, olijanoblik bilan berilgan bahodir. Safar natijasida Parijda «**O'zbekiston Respublikasi va Fransiya Respublikasi o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma**», madaniyat, ilmiy-texnikaviy va maorif sohasida hamkorlik qilish to'g'risida bitim, sarmoyalarni o'zaro rag'batlantirish va himoyalash to'g'risida bitim imzolandi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda tarixiy jihatdan qisqa bir davrda xalqaro munosabatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish bobida asrlarga arziydigan ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston o'zi-ning tinchliksevar, yaxshi qo'shnichilik, o'zaro foydali hamkorlikka qaratilgan siyosati va faoliyati bilan butun dunyoga tanildi, jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egalladi, uning mavqeyi yildan-yilga mustahkamlanib bormoqda.

Nazorat savollari

1. Mustabid sovet tuzumidan bizga qanday iqtisodiy meros qolgan edi?

2. Mustaqillik iqtisodiyot bobida qanday imkoniyatlar yaratdi?
3. O‘zbekiston bozor munosabatlariga o‘tishda qanday yo‘lni tanladi?
4. Bozor munosabatlarini shakllantiruvchi qanday qonunlar qabul qilindi?
5. Kichik xususiylashtirish qachon o‘tkazildi va u qanday natijalar berdi?
6. O‘rta va yirik korxonalarni xususiylashtirish haqida so‘lab bering.
7. Kichik va o‘rta biznesning rivojlanishi haqida nimalarni bilasiz?
8. Agrar islohotlar qanday natija berdi?
9. Bozor infratuzilmasi nima?
10. Chet el sarmoyalarining O‘zbekiston iqtisodiyotiga jalb etilishi haqida nimalarni bilasiz?
11. O‘zbekistonning yoqilg‘i mustaqilligiga erishishini tushuntirib bering.
12. To‘qimachilik va yengil sanoatda qanday yangi korxonalar barpo etildi?
13. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish borasida qanday tadbirlar amalga oshirildi?
14. Aholini ijtimoiy himoyalash siyosati va amaliyoti qanday natija berdi?
15. Jamiyat ma‘naviy hayotini yuksaltirish borasida qanday tadbirlar ko‘rildi?
16. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining hayotga tatbiq etilishi qanday natija berdi?
17. Xavfsizlikka qanday omillar tahdid solmoqda?
18. O‘zbekistonning geosiyosiy jihatdan qulay imkoniyatlari nimalardan iborat?
19. Qanday geosiyosiy jihatlar O‘zbekistonga qiyinchiliklar tug‘ - dirmoqda?
20. Mustaqil tashqi siyosat yuritish borasida qanday huquqiy zaminlar yaratildi?
21. O‘zbekistonning tashqi siyosati qanday tamoyillarga tayanadi?
22. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasini daftaringizga yozib oling.
23. Dunyodagi qaysi davlatlar Toshkentda o‘z elchixonalarini ochgan?
24. Qaysi mamlakatlarda O‘zbekistonning elchixonalari faoliyat ko‘rsatmoqda?
25. O‘zbekiston *nima*, uchun jahon hamjamiyatiga qo‘shilish yo‘lidan bormoqda?

Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

1. Murtazaeva R.X. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. Darslik. – T.: Yangi asr avlodi, 2005. -420 b.
2. Murtazaeva R.X. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Akademiya, 2010. -384 b.
3. Eshov B.J. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. Darslik. – T.: Yangi asr avlodi, 2012. -396 b.
4. Eshov B., Odilov A. O‘zbekiston tarixi. I jild. Eng qadimgi davrdan XIX asr o‘rtalarigacha. Darslik. – T.: Yangi asr avlodi, 2014. -416 b.
5. O‘zbekiston tarixi. Darslik. II jild. Mualliflar jamoas. – T.: Yangi asr avlodi, 2015. -380 b.
6. Usmovov Q. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2006. -516 b.
7. Usmovov Q. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. Darslik. –T.: Moliya-iqtisod, 2016. -516 b.
8. Usmovov Q. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. O‘quv qo‘llanma. –T.: Xalq merosi, 2002 -360 b.
9. Муртазаева Р.Х. История Узбекистана. Учебное пособие. –Т.: УзМУ. 2004. -320 с.
10. Муртазаева Р.Х., Дорошенко Т. История Узбекистана. Учебник. –Т.: Янги аср авлоди. 2011. -450 с.
11. Murtazaeva R.X. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. Darslik. 1-jild.–T.: Yangi asr avlodi, 2014. -462 b.
12. Murtazaeva R.X. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. Darslik. 2-jild.–T.: Yangi asr avlodi, 2015. -484 b.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni / Xalq so‘zi, 2017 yil 8 fevral.
2. Karimov. I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T.: Sharq, 1998. -84 b.
3. Karimov. I.A. Yuksak ma‘naviyat – engilmas kuch. T.:Ma‘naviyat,2008.-292b.
4. Karimov. I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: O‘zbekiston, 2011. -440 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. T.: «O‘zbekiston» 2016. -108 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruza. T.: «O‘zbekiston» 2017. -104 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent.: O‘zbekiston. 2017. -106 b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent.: O‘zbekiston. 2017. -84 b.
9. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1 jild. – T.: Fan, 1968. -594 b.
10. “Avesto”. “Yasht” kitobi. O‘zbek tiliga M.Ishoqov ilmiy-izohli tarjimalari. – T.: Sharq, 2001. -424 b.
11. A‘zamxo‘jayev S. Turkiston muxtoriyati. –T.: Ma‘naviyat, 2000. -118 b.
12. Ата-Мирзаев О.Б., Гентшке В.Л., Муртазаева Р.Х. Узбекистан многонациональный: историко-демографический аспект. – T.: Yangi asr avlodi, 2011. -228 b.
13. Buniyotov 3. Anushtegin Xorazmshohlar davlati (1097-1231). – T.: G‘afur G‘ulom, 1998. -184 b.
14. Bobobekov H.N. Qo‘qon tarixi. – T.: Fan, 1996. -524 b.
15. Ziyoyev H. O‘zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi. – T.: Sharq, 2001. -448 b.
16. Levitin L. O‘zbekiston tarixiy burilish pallasida. – T.: O‘zbekiston, 2001. -224 b.
17. Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. – T.: Cho‘lpon, 1994. -396 b.

18. Muhammadjonov A. Temur va temuriylar davri. – T.: Fan, 1996. -266 b.
19. Murtazaeva R.X. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag‘rikenglik. O‘quv qo‘llanma. – T.: Universitet, 2007. -248 b.
20. Nizomul mulk. Siyosatnoma. – T.: Adolat, 1997. -184 b.
21. Sa’dullaev A. Qadimgi O‘rta Osiyo tarixi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Universitet, 2004. -484 b.
22. Temur tuzuklari. – T.: Sharq, 2012. -256 b.
23. Temur va Ulug‘bek davri tarixi. – T.: Qomuslar bosh taxririya, 1996. -284 b.
24. Shoniyozov K. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. – T.: Fan, 2001. -324 b.
25. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – T.: O‘zbekiston, 1996. -446 b.
26. Yunusova X.E. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va ma’naviy jarayonlar (XX asr 80-yillari misolida). – T.: Abu matbuot-konsalt, 2009. -184 b.
27. Sharofuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – T.: Sharq, 1997. -584 b.
28. O‘zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – T.: Sharq, 2000. -484 b.
29. O‘zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – T.: Sharq, 2000. -512 b.
30. O‘zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. – T.: Sharq, 2000. -442 b.
31. Shayakubov Sh.Sh. O‘zbekiston tarixi fanidan mustaqil ta’limni tashkil etish. (uslubiy qo‘llanma). Toshkent, TMI, 2016. -108 b.

MUNDARIJA

№	Mavzuning nomi	Bet
1	“O‘zbekiston tarixi” fanining predmeti, uni o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari, manbalari va ahamiyati.	3
2	Markaziy Osiyo - jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi.	15
3	O‘zbek davlatchiligining shakllanishi va dastlabki taraqqiyot bosqichlari.	27
4	Ilk o‘rta asrlarda o‘zbek davlatchiligi: ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayot.	42
5	IX-XII asrlarda o‘zbek davlatchiligi. Ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayot. Ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasi taqaddiriga qo‘shgan ulkan hissasi.	56
6	Mo‘g‘ullar istilosi va zulmiga qarshi kurash. Jaloliddin Manguberdi – mard va jasur ajdodimiz.	69
7	Amir Temur va Temuriylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot	79
8	O‘rta Osiyo hududlarining xonliklarga bo‘linib ketishi, unig sabablari va oqibatlari	96
9	O‘zbek xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi. Mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy-ozodlik harakati. Jadidchilik.	116
10	Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o‘rnatilishi. Sovet hokimiyatining O‘zbekistonda amalga oshirgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy tadbirlarining mustamlakachilik mohiyati. (1917-1989yy.).	140
11	O‘zbekiston mustaqillikka erishish yo‘lida (1989-1991yy.) .	164
12	O‘zbekistonda davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi. Huquqiy demokratik davlat qur‘ish va fuqarolik jamiyat asoslarini shakllantirish.	175
13	Mustaqillik yillarida O‘zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-madaniy taraqqiyot. O‘zbekiston va jahon hamjamiyati.	196
	Adabiyotlar ro‘yhati	237